O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MARKAZI

ABDUROZIQ RAFIYEV, NAZIRA G‘ULOMOVA

ONA TILI VA ADABIYOT

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik

Optimallashtirilgan dastur asosida to‘ldirilgan oltinchi nashr

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2013

UO‘K: 811.512.133(075)
KBK. 83.3O‘z–922+81.2O‘z–922
R 27

T a q r i z ch i l a r:
f. f. n., dotsent **M. QODIROV,**
f. f. d., professor **U. NORMATOV**

SHARTLI BELGILAR

– o‘qing va izohlang

– esda tuting

– bilib oling

– savollarga javob bering

R 27 **Rafiyev A., G‘ulomova N.**

Ona tili va adabiyot: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik/ Taqrizchilar: M. Qodirov, U. Normatov. – T.: «Sharq», 2013. – 368 b.

I. Muallifdosh.

ISBN 978-9943-26-081-8

UO‘K: 811.512.133(075)
KBK. 83.3O‘z—922+81.2O‘z—922

ISBN 978-9943-26-081-8

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati, 2006, 2007, 2009, 2011, 2013.

ABDUROZIQ RAFIYEV

ONA TILI

SO‘ZBOSHI

Kasb-hunar kollejlarining o‘quvchilariga mo‘ljallangan ushbu darslik «Ona tili va adabiyot» fanlari bo‘yicha optimallashtirilgan o‘quv dasturi asosida yaratildi. Darslikning «Ona tili» qismi umumiy o‘rta ta’lim bosqichida egallangan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash va to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, unda o‘rta maxsus bilim yurti o‘quvchisining ona tili fanidan davlat ta’lim standartida ko‘zda tutilgan talablarni bajarish uchun zarur bo‘lgan materiallar berildi.

Ma’lumki, zamonaviy mutaxassis o‘z sohasining mohir ustasi bo‘lishi bilan birga nutq savodxonligi va madaniyatini, xususan, yozma nutq ko‘nikmalarini puxta egallagan bo‘lishi lozim. Har bir kishi fikri va tuyg‘ularini og‘zaki ravon ifodalash barobarida to‘g‘ri va mantiqli yozishni ham uddalay olsagina xalq e’tiboriga tushadi. Yozish amali xatolarni bevosita ko‘rish, tuzatish, boyitish imkoniyatini beradi hamda bu jarayonda fikr charxlanadi, ijodiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Shu maqsadda ona tilidan berilgan materiallar o‘quvchi nutqini o‘stirish, nutq maqsadi va sharoitiga mos ravishda mustaqil fikrlay olishga, so‘z ustida ishlay bilish, xususan, tanlagan kasbga oid ijodiy matn yaratishga, ilmiy va badiiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratildi. Bunda har bir nutqiy malaka turi bir butun bo‘limga uyg‘unlashtirilgan tarzda havola etildi. «Ona tilim – jon-u dilim», «To‘g‘ri yozish – savodxonlik asosi», «So‘z ichra mudom aql yashirindur», «Ifoda aniqligi – fikr ravshanligi» nomli bo‘limlarga jamlangan grammatik material va amaliy mashqlar mavzu doirasida o‘quvchining qiziqishi va bilim darajasini hisobga olgan holda talqin etildi. Masalan, lug‘at boyligini oshirish amali so‘z ma’nolarini farqlash, so‘zni nutq vaziyatiga qarab to‘g‘ri tanlash, uning uslubiy jilolarini badiiy-estetik imkoniyatlari asosida o‘lchash kabi so‘z ustida ishlash sirlarini o‘rgatuvchi leksik-grammatik ma’lumot va matnlar asosida berildi.

Dars jarayonida mavzularning izchilligi va uzviyligi ta’minlanishi, har bir bo‘limdan so‘ng ijodiy yozma ishlar o‘tkazilib, egallangan bilimlarni amalda qo‘llash va mustahkamlash mashqlari bajarilmog‘i maqsadga muvofiqdir.

USHBU BO‘LIMDA SIZ QUYIDAGI BILIM VA MALAKALARNI EGALLASHINGIZ LOZIM:

- ***til, tafakkur, nutq tushunchalarini farqlash;***
- ***nutq faoliyatining shakl va ko‘rinishlaridan to‘g‘ri foydalana bilish;***
- ***o‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlarini bilish;***
- ***o‘zbek adabiy tilining boyish manbalarini bilish;***
- ***«Davlat tili haqida»gi Qonun moddalarini sharhlay olish;***
- ***til va nutq odobiga oid maqol, hikmatlarni yodlash.***

1- topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan so‘zlab bering.

TAFAKKUR VA TIL

Tafakkur va til bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy hodisalardir. Inson nutqi, til vositalari bo‘lmasa, fikrlash ham bo‘lishi gumon. Tafakkur va til aynan bir xil hodisa emas. Tafakkur zohiriy olamning inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalanadigan in’ikosi. Til esa fikrni ifodalash usuli, uni qayd etib boshqa kishilarga, avlodlarga yetkazish vositasi. Boshqacha aytganda, til – tafakkurning borliq shakli.

Til milliy madaniyatning shakli sifatida tafakkurning mevalari va ma’naviy boyliklarini zamon va makonda abadiylashtiradi. Ular doimo bir-birini taqozo qiladi, bir-birining yashashi va rivojlanishiga yordam beradi.

2- topshiriq. Matn asosida quyidagi savollarga javob bering:

1. Fikrlash bilan so‘zlash o‘rtasida qanday bog‘liqlik va farq bor?
2. «Tafakkur» so‘zining ma’nosini izohlang.

3. Til va tafakkur ayrim-ayrim holda mavjud bo‘lishi mumkinmi?

4. Tafakkur va til o‘rtasidagi munosabatni misollar asosida tushuntirib bering.

Tafakkur faqat insonlarga xosdir. U kishining mehnat va nutq faoliyati bilan bog‘liq holda mavjud. Inson tafakkuri nutq bilan yuzaga chiqadi va uning natijalari tilda qayd etiladi. Demak, tafakkur jarayonining natijasi hamisha biror-bir fikrdan iborat bo‘lib, bu fikr tushuncha, hukm, xulosa tarzida til vositasida namoyon bo‘ladi. Til fikrni reallashtiradi, kishilarning fikr almashishlariga imkon tug‘diradi.

1- mashq. Gaplarni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang.

1. Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurg‘on **oyinayi hayoti** til va adabiyotdir. **Milliy tilni** yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdir. *(A. Avloniy)*

2. Tildagi har bir so‘z, **uning har bir shakli** inson tafakkuri va tuyg‘usining natijasidir, o‘sha tafakkur va tuyg‘ular orqali so‘z yordamida mamlakat tabiati va xalq tarixi ifoda etilgan. *(K. D. Ushinskiy)*

3. Ki **har neni bilmish** odamizod, tafakkur birla qilmish odamizod. *(A. Navoiy)*

4. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, **ona tilining betakror jozibasi** bilan singadi. Ona tili bu – millatning ruhidir. *(I. A. Karimov)*

5. Kim ravshan fikrlasa, u **ravshan bayon etadi.** *(N. Bualo)*

6. Til fikrni yaratuvchi organdir. **Aqliy faoliyat** va til yaxlit butunlikni tashkil etadi. *(V. fon Gumboldt)*

7. **So‘zlash qobiliyati** – hodisalar ichiga kirishning yagona va bebaho vositasi. *(L. N. Tolstoy)*

3- topshiriq. Matnni o‘qing. Tilning ijtimoiy hayotda tutgan mavqeyi to‘g‘risida ixcham insho yozing.

...Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo‘lib yetishishi uchun juda ko‘p narsalarni bilishi kerak. U o‘ziga kerakli bilimni ko‘rib, eshitib va o‘qib o‘rganadi. Eshitib va o‘qib o‘rganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Agar til bo‘lmay, har bir kishining tirikligi uning o‘z tajribasiga asoslangan bo‘lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiy, ma’naviy taraqqiyotga erishmagan bo‘lardi.

Tilning birinchi ma’rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a’zolarining har birida hosil bo‘lgan bilim ommalashib, uning ko‘pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug‘iladi. Bundan tashqari til tufayli bilim avloddan avlodga og‘zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o‘tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi.

Til ilm olishda zamon va makon g‘ovini o‘rtadan ko‘taradi. Til tufayli eng qadimgi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz, hatto kelgusiga oid ma’lumotlarni ham olamiz. Til tufayli sezgi a’zolari bilan bilib bo‘lmaydigan narsalarni ham o‘rganamiz. Ko‘rinishi, shakli bir xil bo‘lgan narsalarning aksi ongimizga o‘rnashishi mumkin, lekin shaklsiz narsalarni biz faqat so‘z shaklida o‘zlashtiramiz.

Xuddi shuningdek, mavjudotning ko‘rinmas ichki jihatlarini ham so‘z shaklida o‘zlashtiramiz va til vositasi bilan o‘zgalarga tushuntiramiz.

Tilni o‘rganish va o‘rgatishni osonlashtiradigan yana bir jihati shundaki, u umumlashtirish xususiyatiga ega. So‘z yordamida biz mavjudotni o‘rganib, umumiy tushunchalar hosil qilamiz va bu tushunchalar mavjudotning umumiy xossalarini o‘rganishga, hatto ularning haqiqatini idrok etishga imkoniyat tug‘diradi.

(A. Rustamov. «So‘z xususida so‘z»)

4- topshiriq. Badiiy adabiyotlar (Firdavsiy «Shohnoma»si, Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» asari va qadimiy rivoyatlar)dan moddiy narsalar fikr almashuv va aloqa uchun foydalanilganligi to‘g‘risida misollar toping va ularni sharhlang.

2- mashq. Til haqidagi quyidagi maqol va hikmatlarning davomini aniqlang va to‘liq holda ko‘chirib oling.

1. Suydiradigan ham til, ... *(Maqol)*
2. Tilning ko‘rki – so‘z, kishi ... . *(Yusuf Xos Hojib)*
3. Tilingni ixtiyoringda asragil, so‘zingni ... . *(Alisher Navoiy)*
4. Kishining go‘zalligi uning ... . *(Hadis)*
5. So‘z ichra mudom aql yashirindur,
   So‘z chimildig‘u ... . *(Nosir Xisrav)*
6. Ko‘ngil mahzanining qulfi til va ul mahzanning kalidin ... . *(Alisher Navoiy)*

5- topshiriq. Abdulla Oripov va Erkin Vohidovlarning til to‘g‘risidagi she’rlarini yoddan ayting va mazmunini sharhlab bering.

Inson faoliyatida til borliqni bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi. Til vositasida insoniyat tomonidan jamg‘arilgan bilimlar nafaqat qayd etiladi va saqlanadi, balki avloddan avlodga ham yetkaziladi. Til millat ruhining ko‘zgusidir. Tilda millatning bor-yo‘g‘i, o‘y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg‘ulari aks etadi. Tildagi har bir so‘z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg‘usining natijasi bo‘lib, uning yordamida bu tafakkur va tuyg‘ular orqali Vatan va xalq tarixi ifodalanadi.

Ona tiliga hurmat va uning bebaho so‘z xazinasidan o‘rinli foydalanish, til vositasida ravshan va ta’sirchan so‘zlab, yoza olish, nutqiy savodxonlikka erishish shu til vakili bo‘lgan har bir shaxsning burchidir.

6- topshiriq. Matnni o‘qing. So‘z va tushuncha o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiring.

SO‘Z DEGANDA NIMA TUSHUNILADI

So‘zda ikki jihatni – tashqi va ichki, belgi va ma’noni ajratish mumkin. Belgi – bu aytilgan so‘zning yozuvdagi ifodasi yoki tovush qobig‘i. Har bir belgi nimanidir anglatadi. So‘z belgi va ma’noning birligidir. Masalan, bayroq so‘zini tashkil etgan harflar, tovushlar *(b a y r o q)* kabi ongimizda tasavvur etilgan moddiy belgi bo‘lib, o‘zbek tilida muayyan ma’noni ifodalaydiki, u hissiy-ruhiy, g‘oyaviy jihati bilan boshqa belgilardan farq qiladi. Bunda tashqi – moddiy belgi (harf, tovush) va ichki belgi – yozilgan yoki aytilgan so‘zning hissiy-ruhiy timsoli farqlanadi. Biz muayyan nutq jarayonida u yoki bu so‘zni eshitmasak-da, shu so‘zning qanday yozilishi va aytilishini tasavvur qila olamiz. Xuddi ana shu holat so‘zning ichki, hissiy-ruhiy belgisidirki, u tashqi belgi va shunga mos ma’no bilan chambarchas bog‘liq. Ichki belgilar va ularning ma’nolari orqali biz o‘z fikrimizni shakllantiramiz, o‘ylaymiz, mushohada yuritamiz. Tashqi belgilar orqali esa fikrlarimizni (og‘zaki, yozma) nutqqa ko‘chiramiz, ularni boshqalarga yetkazishga harakat qilamiz, nutqiy aloqa uchun zarur sharoit yaratamiz.

Ifodalanayotgan narsa, tushuncha, ma’no va belgi o‘zaro bog‘liqdir. Ularning munosabatini quyidagi to‘rtburchak shaklida ifodalash tushunarliroq bo‘ladi:



7- topshiriq. Turlicha ma'nolarni anglatuvchi, har xil so'z turkumlariga oid 4 ta so'z tanlang va yuqoridagi chizma asosida bu so'zlar ifodalagan narsa, tushuncha, ma'no va belgi bog'liqligini tushuntirib bering.

!

Til bilan **nutqni** farqlash lozim.

Til so'zlashish vositasi, ya'ni nutq sifatida namoyon bo'lgandagina ma'lum vazifani bajaradi. Nutq til materiali, unsurlaridan tuziladi va nutqiy faoliyat natijasida yuzaga chiqadi. Demak, til materiallari faoliyati uchun xizmat qiladi. Til bilan nutqni qiyoslash orqali ularning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratish mumkin:

1. Til aloqa materiali bo'lsa, nutq aloqa shaklidir.

2. Tilni xalq, millat yaratadi, nutqni esa har bir shaxs yaratadi.

3. Tilning hayoti xalq, millatning hayotiga bog'liq holda uzoq bo'ladi, nutqning hayoti esa qisqa, xususan, og'zaki nutq so'zlangan paytdagina mavjuddir. Ammo yozma nutq nisbatan uzoq davr saqlanishi mumkin.

4. Til nisbatan turg'un, barqaror bo'lsa, nutq doim harakatda bo'lib, o'zgaruvchan hodisa sanaladi.

5. Tilning hajmi noaniq, nutqning hajmi esa aniq. U dialog, monolog, matn shaklida bo'lishi mumkin.

3- mashq. Gaplarni o'qing, mazmuniga ko'ra ikki guruhga ajratib, til to'g'risidagi fikrlarni bir ustunga, nutq to'g'risidagilarini esa ikkinchi ustunga yozing.

1. Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilkim, guhari sharifroq yo'q andin. *(A. Navoiy)* 2. Jamiyatdagi o'zga-

rishlar tilning lug‘at tarkibida o‘z ifodasini topadi. 3. Inson tafakkuri uning tili bilan birga takomillashib boradi. 4. Agar qaysi til bilan so‘zlaysan, deb so‘rasalar, sidq-u sadoqat tili bilan, deb aytgil. *(«Qobusnoma»)* 5. O‘zbek tilining bugungi darajasi, turkiy tillar ichida tutgan mavqeyi uchun biz ko‘p jihatdan o‘tgan asr boshida yashagan ziyolilardan minnatdor bo‘lishimiz kerak. Ular o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlaridan dadillik bilan foydalandilar, xalqda milliy g‘urur, ona tiliga hurmat tuyg‘usini tarbiya qildilar. *(E. Vohidov)* 6. Bobolardan bizga meros ezgu til, Avlodlarga xazinayi bebaho. *(Mirtemir)* 7. Kishilar tilini rostlikdan boshqa narsa uchun ishlatmasliklari, tarbiyasiz so‘zlar so‘zlamasliklari kerak. 8. Har so‘zda har birovga shirin nuqati bor, Bol tomdi og‘zidinki, tilida naboti bor. *(Ogahiy)* 9. Yomon til egasi vaqti kelib jonidan judo bo‘lishi, hatto iymondan ajralishi mumkin. 10. Tili bo‘lsa uning shakardan shirin, Ulug‘ ham, kichik ham beradi bo‘yin. *(Yusuf Xos Hojib)*

8- topshiriq. Yuqoridagi gaplardan ikkitasini tanlab, ma’nosini sharhlang.

9- topshiriq. Matnni o‘qing. Til va nutq to‘g‘risida adib bildirgan fikrlarni ajratib, o‘z so‘zlaringiz bilan yozing va mustaqil matn tuzing.

Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy og‘iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdur. Chunki so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurg‘on tarozusidur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar. «Quruq so‘z quloqqa yoqmas», – demishlar.

Agar so‘z aql va hikmatga muvofiq bo‘lib, o‘ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurg‘on bo‘lmasa, asalarilar orasida g‘o‘ng‘irlab yurgan qovog‘ari kabi quruq g‘o‘ng‘urlamoq faqat bosh og‘rig‘idan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga keladurg‘on qattig‘ kulfatlarning

ko‘pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: «Ko‘p o‘yla, oz so‘yla», – demishlar.

Tillarning eng yaxshisi so‘zga usta til, so‘zlarning eng yaxshisi bilib va oxirini o‘ylab so‘ylangan so‘zdir.

(A. Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq»)

NUTQIY FAOLIYAT

10- topshiriq. Matnni o‘qing. Ajratilgan so‘zlarning ma’nosini sharhlang.

Tilning ijtimoiy vazifasi **nutqiy faoliyat**da, ya’ni nutq sifatida kishilar o‘rtasida aloqa, fikrlashish, so‘zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko‘rinadi. Nutqiy faoliyat kishilarning bir-birlariga tushunarli bo‘lgan til vositasida o‘zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: **og‘zaki** va **yozma** tarzda.

Og‘zaki nutqning ikki turi mavjud: **oddiy so‘zlashuv nutqi** va **adabiy so‘zlashuv nutqi**. Oddiy so‘zlashuv nutqi tabiiy nutq sifatida namoyon bo‘lib, sheva ta’sirida bo‘lgan kundalik so‘zlashuv nutqining turli ko‘rinishlaridan iborat. Adabiy so‘zlashuv nutqi esa adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda gapirishni taqozo etadi.

Yozma nutq og‘zaki nutqdan so‘ng yozuv ta’sirida paydo bo‘lgan bo‘lib, adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo‘ysunuvchi grafik shakldagi nutqdir. Yozma nutqning mazmuniy bo‘laklari, gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko‘rsatiladi. Yozma nutq og‘zaki nutq kabi kishilar o‘rtasidagi bevosita aloqa vositasi emas, u boshqa joyda va zamonda (kelgusi davrda) yashovchi kishilar bilan **aloqa bog‘lash vositasidir.** Yozma **manbalar** orqali biz o‘tmish tariximizni o‘rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishini ta’minlaymiz.

Nutqning bu shakllari turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Nutq ayrim shaxsga tegishli bo‘lishi **(monolo-**

gik), ikki kishi o‘rtasida yuz berishi **(dialogik)** va bir necha shaxslar orasida **(polilogik)** bo‘lishi mumkin. Nutq ko‘rinishlari ifoda maqsadi, qurilishi, hissiy-ta’siriy vositalari bilan farqlanadi. Yozma nutq uslubiy turlari **(so‘zlashuv, ilmiy, badiiy, ommabop, rasmiy-idoraviy)** bilan o‘ziga xos nutq ko‘rinishlarini yaratadi.

11- topshiriq. Yuqoridagi matn asosida savollarga javob bering.

1. Nutqiy faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Eng qadimiy nutq qanday shaklda bo‘lgan? Uning xususiyatlarini so‘zlab bera olasizmi?
3. Kundalik so‘zlashuv nutqi qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?
4. Adabiy so‘zlashuv nutqi qayerlarda namoyon bo‘ladi?
5. Yozma nutq qanday me’yorlarga asoslanadi?
6. Dialogik nutq mazmunan qanday ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin?
7. Badiiy adabiyotlardan monologik nutqqa misol keltiring.

4- mashq. Matnlarni o‘qing va nutqiy ko‘rinishi nuqtayi nazaridan tavsiflang.

I. ...Turobjon tugunchani orqasiga bekitib, tegishdi:
– Akajon, degin!
– Akajon, jo-on aka!
– Nima berasan?
– Umrimning yarmini beraman!..
Turobjon tugunchani berdi. Xotini shu yerning o‘zida, eshik oldida o‘tirib tugunchani ochdi-da, birdan bo‘shashib ketdi va sekin boshini ko‘tarib eriga qaradi. O‘z qilmishiga gerdayib turgan Turobjon uning ko‘zida jiqqa yosh ko‘rib:
– Nima ekanini bildingmi? – dedi. – Asalarining uyasi! Turgan-bitgani asal! Mana, mana, siqsang asal oqadi.

Bunisi oq mum, harom emas: shimsa ham bo‘ladi, chaynasa ham bo‘ladi. *(A. Qahhor. «Anor»)*

II. ...Mirzo Ulug‘bek bo‘g‘ilib ketayotganday tomog‘ini silab, uh tortdi-da, go‘yo shogirdi bilan bahslashayotganday qo‘l siltab:

– Yo‘q! – deb xitob qildi. – Men saltanatdan ayrilishdan qo‘rqmaymen. Faqat bu elga qirq yil rahnamolik qilib orttirgan boyligim – madrasa-yu rasadxonam, nodir xazinam – to‘plagan kutubxonam va, nihoyat, yaratgan asarlarim – barchasi poymol bo‘lishidan qo‘rqamen. Ha, faqat shundan qo‘rqamen. Tag‘in bir narsadan – kelgusi avlodlar bandayi ojizdan hazar qilmasmu, deb qo‘rqamen. Mirzo Ulug‘bekday koinot sirlarini ochmoqni tilagan, fozillikni da’vo etgan mavlono, hayhot, oxir-oqibat barcha shoh, barcha taxt sohiblariday saltanatni deb, o‘z pushtikamaridan bo‘lgan farzandi bilan toj-u taxt talashibdur-da, degan nom qoldirmoqdin qo‘rqamen, mavlono Ali! *(O. Yoqubov. «Ulug‘bek xazinasi»)*

O‘ZBEK TILINING TARAQQIYOTI

5- mashq. Matndagi gaplarni tushunarlilik darajasiga ko‘ra guruhlang va bu nutq namunalari til taraqqiyotining qaysi davriga xosligini ayting.

1. Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo‘lmaydigan fikr, tuyg‘u yo‘q! *(A. Qahhor)* 2. Tang tangri kalti, Tang tangri o‘zi kalti. Turunglar, qamug‘ beklar, qadashlar, Tang tangrig‘a o‘galim... *(Aprinchur Tegin)* 3. Til arslan turur, ko‘r, eshikda yatur. Aya evlug, arsiq bashingni yeyur. *(Yusuf Xos Hojib)* 4. So‘zkim dard choshnisidin harorati bo‘lmag‘ay va nazmkim ishq haroratidin hirqati bo‘lmag‘ay, nursiz sham’ bil va sarvarsiz jam’ gumon qil. *(A. Navoiy)* 5. Emdi ochuq ma’lum bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go‘zallandurmak, zehnimizni ravshanlandur-

mak lozim ekan. *(Abdulla Avloniy)* 6. Turk zuhuridur ochunda bu kun, Boshla uluq yir bila turkona un! *(Haydar Xorazmiy)* 7. Yeti yuz kishig uduzig‘ma ulug‘i shad erti. *(«To‘nyuquq»)*

O‘zbek tili turkiy tillar guruhiga kiruvchi yirik tillardan biridir. O‘zbek (turkiy) tilda yozilgan dastlabki yozma yodgorliklar VI–VII asrlarga tegishli bo‘lib, umumturk adabiy tili sifatida shakllandi. X–XII asrlarda bu tilda «Devonu lug‘otit turk», «Qutadg‘u bilig», «Hibat ul-Haqoyiq», «Devoni hikmat», «Muqaddimat ul-adab» kabi nodir asarlar yaratildi. XIII–XIV asrlarda yaratilgan «Qissasi Rabg‘uziy», «Muhabbatnoma», «Me’rojnoma», «Yusuf va Zulayho», «O‘g‘uznoma» kabi o‘nlab mashhur kitoblar eski o‘zbek tilini mahalliy shevaning go‘zal unsurlari bilan boyitdi.

O‘zbek xalqi tilining takomillashuvida XIV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan tarixiy davr muhim rol o‘ynaydi. Temur davlatining ravnaqi ostida ijod etgan Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mumtoz adiblarimiz o‘zbek adabiy tilining mavqeyini yuksak darajaga ko‘tardilar. Keyinchalik o‘zbek tilini xalq tilining boy imkoniyatlari asosida Abulg‘ozixon, Turdi, Gulxaniy, Maxmur, Munis, Ogahiy kabi adiblar yanada boyitdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek adabiy tilining uslublari ham shakllana bordi, o‘zbek milliy tilida me’yorlashish jarayoni barqarorlashish bosqichiga kirdi.

Hozirgi **o‘zbek adabiy tili** rivojlangan, ijtimoiy mavqeyi yuksalgan, sayqal topgan, fonetik va leksik-grammatik jihatdan me’yorlashgan milliy tildir.

12- topshiriq. Adabiyotimiz tarixining turli davrlariga xos badiiy ijod namunalaridan parchalar o‘qing, ularning o‘zbek adabiy tili taraqqiyotining qaysi davriga xosligini aniqlab, xronologik jadval tuzing.

6- mashq. Matnni ko‘chiring, eski o‘zbek tiliga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarni aniqlab, ostiga chizing va ularning ustiga hozirgi tildagi muqobillarini yozib qo‘ying.

Yana bir Marg‘inondur. Andijonning g‘arbidadur. Andijondin yetti yig‘och yo‘ldur. Yaxshi qasaba voqe bo‘lubtur, purne’mat: anori va o‘rugi asru ko‘p va xo‘b bo‘lur. Bir jins anor bo‘lur, «dona kalon» derlar, chuchukligida zardolu mayxushlig‘idin andak choshni bor. Samnon anorlarig‘a tarjeh qilsa bo‘lur. Yana bir jins o‘ruk bo‘lurkim, donasini olib, ichig‘a mag‘z solib quruturlar, «subhoniy» derlar, bisyor lazizdur. Ovi qushi yaxshidur, oq kiyik yovuqta bo‘lur. Eli sorttur va mushtzan va pursharu sho‘r eldur. *(Z. M. Bobur. «Boburnoma»)*

7- mashq. Matnni o‘qing. Shevaga xos so‘z va grammatik shakllarni aniqlang, ularni o‘zbek adabiy tilidagi muqobillari bilan solishtiring.

...Tayyor bo‘lgan bachkana mahsilarni taxlayman, ba’zilarini oyoqlarimga o‘lchab ko‘raman. Bobom peshin namoziga ketgach, darrov uning o‘rniga o‘tiraman. Xuddi bobom kabi jiddiyat va qunt bilan ishga kirishmoqchi bo‘laman: chol o‘tkir gazanlarni mendan yashirib ketgan ekan. Kichkina o‘tmas gazan bilan charmlarni kesaman, shirach bilan bir-biriga yopishtiraman. Burishgan eski charmlarni ho‘llab, kunda ustiga qo‘yib, kuva bilan urib tekislashni juda sevaman.

Mahalla machitining minorasidan bobomning baland, toza yangragan ovozi eshitiladi (u muazzin edi).

– Buvam! – deyman birdan qichqirib.

– Minoradan tusholmay qoldi buvang. Tushirib qo‘y!– deydi cho‘tir xalfa.

Jahlim chiqadi, lekin indamasdan ko‘vani kundaga uraveraman. Quloqlari bitgan, shekilli, ko‘vani qo‘limdan tortib olishadi... Ayvonning piromonidagi indan mo‘ltayib qaragan bir juft musicha bolasiga ko‘zim tushgan hamon o‘rnimdan sapchiyman. *(Oybek. «Bolalik xotiralarim»)*

O‘ZBEK TILI – DAVLAT TILI

Ma’lumki, o‘zlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. *(Islom Karimov)*

13- topshiriq. Matnni o‘qing va shu asosda ona tilini puxta o‘rganish uchun nimalar qilayotganingiz haqida bayon yozing.

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni 1989- yil 21- oktabrda qabul qilingan. Shu davrdan boshlab har yili bu kunni til bayrami sifatida nishonlaymiz. Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek tili – davlat tiliga e’tibor kuchaydi, ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi.

1993- yil 2- sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida» Qonun qabul qilinishi Vatanimizning ma’naviy-madaniy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Yangi alifboga kiritilgan o‘zgarishlar asosida «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari» ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995- yil 24- avgustda tasdiqlandi.

Davr taqozosi bilan «Davlat tili haqida»gi Qonunga ham ayrim o‘zgartirishlar kiritildi va 1995- yilning 21- dekabrida O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda

«Davlat tili haqida»gi Qonuni e'lon qilindi. Bu qonun 24 moddadan iborat bo'lib, uning 1- moddasida asosiy qonunimiz bo'lgan Konstitutsiyamizning 4- moddasida ta'kidlanganidek: «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir», – deb yozib qo'yilgan.

Davlat tilini o'rganish, unga amal qilish tabiiy ehtiyoj va zaruratga, hatto anglangan majburiyatga aylanib bormoqda. O'zbek tilida to'g'ri, ifodali so'zlash va yozish, ona tilimizning sofligi va boyligi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilish, uning iste'mol doirasini kengaytirib borish davlatimiz fuqarolarining burchi sanaladi. Xususan, har bir yosh va o'quvchi o'z ona tilidagi so'z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanishga doimo harakat qilishi lozim. So'z fikr qurolidir. Kishi qanchalik ko'p so'z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo'ladi.

14- topshiriq. «O'z tilimni puxta bilamanmi?» mavzusida bahs-munozara o'tkazing va do'stingizga so'z boyligini yanada oshirishi uchun tavsiyalar yozib bering.

8- mashq. Maqol va hikmatli so'zlarni ko'chiring, o'zingizga ma'qul bo'lganlaridan ikkitasiga sharh yozing.

1. Til millatning birinchi haqqidir. Shu haq o'ksitilgan bo'lsa, demak, millat o'zini o'zi o'ksitib kelgandir. *(I. G'ofurov)* 2. Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. *(A. Navoiy)* 3. Tilga e'tibor – elga e'tibor. 4. Kishining go'zalligi uning tilidan bilinadi. *(«Hadis»dan)* 5. O'z vataningga bo'lgan chinakam muhabbatingni o'z tilingga bo'lgan muhabbatingsiz tasavvur etish mumkin emas. *(K. G. Paustovskiy)* 6. Kimki qisqa so'zda deydi ko'p ma'no, Ravonlik bobida ul kishi a'lo. *(Abu Shukur Balxiy)* 7. So'z so'zlashda va undan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. *(A. Qodiriy)* 8. So'z ichra mudom aql yashirindur, So'z chimildig'-u aql kelindur. *(Nosir Xisrav)* 9. Tilingda bo'lsa boling, kulib turar iqboling.

BU BO‘LIMDA QUYIDAGI BILIM VA MALAKALARNI EGALLAYSIZ:

- ***o‘zbek tilining imlo qoidalarini sharhlash;***
- ***unli va undosh tovushlar imlosiga oid hodisalarni farqlash;***
- ***qo‘shimcha qo‘shilishi tufayli tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlarni to‘g‘ri yoza olish;***
- ***qo‘shma va juft so‘zlarning yozilishi;***
- ***ish yuritishda bosh harflar imlosiga, bo‘g‘in ko‘chirilishiga amal qilish usullari;***
- ***tinish belgilarini o‘rinli ishlatish.***

15- topshiriq. Matnni o‘qing. Berilgan imlo qoidasini sharhlang.

To‘g‘ri yozish qoidalari tilshunoslar tomonidan tuziladi va jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi. Imlo qoidalari hukumat tomonidan tasdiqlanadi. Kishilar o‘zaro yozishmalarida, rasmiy ish yuritishda, ta’lim jarayonida, madaniy-ma’rifiy faoliyatda tilning imlo qoidalariga amal qilishga majburdirlar.

So‘z va qo‘shimchalarning yozilishi ma’lum bir qoidalarga asoslanmasa, yozuvda har xillik yuzaga keladi, natijada bir-birini tushunish imkoniyati yo‘qoladi. Shuning uchun ham o‘zbek tilining imlo qoidalarini puxta o‘zlashtirish lozim. 1995- yilning 24- avgustida tasdiqlangan «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari»da «Harflar imlosi», «Asos va qo‘shimchalar imlosi», «Qo‘shib yozish», «Chiziqcha bilan yozish», «Ajratib yozish», «Bosh harflar imlosi» va «Ko‘chirish qoidalari» nomli bo‘limlar bor. Masalan, «Asos va qo‘shimchalar imlosi» bo‘limidagi bir qoida bilan tanishamiz:

«33. Qo‘shimcha qo‘shilishi bilan so‘z oxiridagi unli o‘zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan fe'llarda **-v, -q, -qi** qo'shimchasi qo'shilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: *sayla – saylov, sina – sinov, aya – ayovsiz, so'ra – so'roq, bo'ya – bo'yoq, o'yna – o'ynoqi, sayra – sayroqi* kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga **-v, -q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: *o'qi – o'quvchi, qazi – qazuvchi, sovi – sovuq* kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga **q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **i** aytiladi va shunday yoziladi: *og'ri – og'riq, qavi – qaviq* kabi».

16- topshiriq. Gazeta yoki jurnal maqolalaridan imlo qoidalariga amal qilinmagan jumlalarni aniqlang va to'g'ri yozilishini ko'rsating.

17- topshiriq. Imlo qoidalarining ahamiyati, tinish belgilarining ishlatilishiga oid 10 ta test tuzing va ularning o'rtog'ingiz tomonidan yechilishini nazorat qiling.

!

TALAFFUZ VA IMLO

Talaffuz bilan imlo bir-biriga chambarchas bog'liq. Adabiy til qonuniyati asosida to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz qilish ham shunchalik zarur. Ammo so'zning talaffuzi bilan yozilishi doim mos kelavermaydi. Buni tovushlarning so'zdagi o'rni va o'zaro ta'siri bilan izohlash mumkin. Tilshunoslikda to'g'ri talaffuz qoidalari to'plami **orfoepiya**, to'g'ri yozuv qoidalari to'plami esa **orfografiya** deyiladi.

UNLI TOVUSHLAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Unli tovushlar ovoz paylarining o'pkadan chiqayotgan havo oqimi ta'sirida tebranib, og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay o'tishi natijasida hosil bo'ladi. Ovoz (un) paychalarining titrashidan bo'g'iz bo'sh-

lig‘ida sof ovoz yuzaga keladi. Unlilarni talaffuz qilganda og‘iz bo‘shlig‘i ochiq bo‘ladi, asosiy vazifani esa ovoz paychalari, til va lablar bajaradi. Ovoz paychalarining harakati musiqiy ohangni vujudga keltiradi. Shuning uchun unli tovushlarda musiqiylik, ohangdorlik kuchli bo‘ladi. Ularni nutq talabiga ko‘ra istagancha cho‘zib talaffuz etish mumkin.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida oltita unli tovush mavjud: *A, O, I, U, O‘, E.*

A (a) harfi lablanmagan, til oldi, keng unli tovushni ifodalaydi. Bu unli yumshoq o‘zakdagi til orqa **k, g** va boshqa til oldi undoshlari bilan yonma-yon kelganda old qator, ochiq tovush sifatida aytiladi: *aka, man, olam, kalla, gala* kabi.

Lekin chuqur til orqa **q, g‘, x** undoshlaridan so‘ng kelganda orqa qator unlidek aytiladi va asliga muvofiq yoziladi: *qand, qarz, g‘aliz, xamir, xat* kabi.

A (a) harfini to‘g‘ri yozishda quyidagilarga e’tibor bering:

– *bahor, zamon, palov, tamom* kabi so‘zlarda **a** unlisi **o** ga moyil aytilsa ham, **a** yoziladi;

– *a’lo, a’zo, ma’no, ta’na* kabi so‘zlarda tutuq belgisi ta’sirida cho‘ziqroq aytilsa ham, bitta **a** yoziladi;

– *mutolaa, mudofaa, manfaat, taalluqli, taajjub* kabi so‘zlarda cho‘ziq talaffuz qilinadi va ikkita **a** yoziladi;

– *disk, bank, tank* kabi rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarning oxiri qo‘sh undosh bilan tugagani uchun o‘zbek tilida bu so‘zlarda **a** qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi: *diska, banka, tanka*;

– *xavf, gavda, navbat, vafo, varaq* kabi so‘zlarda **v** undoshi bilan yonma-yon kelganda **o** ga moyil aytilsa ham, asliga ko‘ra **a** yoziladi;

– ayrim ruscha-o‘zlashma so‘zlardagi **ya** tovushlar birikmasi o‘rnida **a** aytiladi va yoziladi: *sentabr, oktabr, flaga* kabi.

9- mashq. Matnni o‘qing va so‘zlardagi **a** unlisining talaffuzi va imlosini tushuntiring.

VATAN NIMA?

Vatan atamasi aslida arabcha so‘z bo‘lib, ona yurt ma’nosini bildiradi. Vatan tushunchasi keng va tor ma’nolarda qo‘llaniladi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma’nodagi tushunchadir. Kishi tug‘ilib o‘sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma’nodagi tushunchadir. O‘zbeklarda falonchi vatanli bo‘ldi, deyilganda o‘sha odam uy-joyli, boshpanali bo‘ldi, degan ma’no anglashiladi. Hazrat Alisher Navoiy Vatan tushunchasini ona yurt, o‘rin, tug‘ilib o‘sgan joy, maskan, manzil ma’nolarida ishlatganlar. Shuningdek, Vatan so‘zi badiiy adabiyotda ko‘chma ma’noda ko‘ngil mulkining maskani tarzida ham qo‘llanadi.

...O‘zbekiston Respublikasi o‘zbek millatining vatanidir. Bu o‘rinda davlat va vatan ayni bir ma’noni ifodalaydi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi deganimizda Vatanimizni tushunamiz, Vatan deganda O‘zbekiston Respublikasini idrok etamiz. *(«Vatan tuyg‘usi» kitobidan)*

O (o) harfi lablangan, til orqa keng unli tovushni ifodalaydi. Yondosh tovushlardan qat’i nazar, so‘zlarning barcha bo‘g‘inlarida kelib, cho‘ziq unli sifatida talaffuz qilinadi va asliga ko‘ra yoziladi: *ona, bobo, nom, havo, oq, qoramol* kabi. O‘zlashma so‘zlarda **u** yoki **o‘** bilan **o** o‘rtasida aytilsa ham, **o** tarzida yoziladi.

Masalan: *opera, bolt, nota, rol, tok (elektr)* kabi.

Bunday so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inlarida **o** unlisi **i** kabi talaffuz qilinsa ham, **o** yoziladi: *traktor, direktor, ekspeditor, kartoshka* kabi.

Qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida **o** tovushi imlosiga oid quyidagi o‘zgarishlarga diqqat qiling:

parvo, avzo so‘zlariga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda bir **y** tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying, parvoyi, avzoyimiz, avzoyingiz, avzoyi* kabi.

Fe’l asosli so‘zlardan ot yoki sifat yasovchi **-v, -q, -qi** qo‘shimchalari **à** unlisi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda **a** tovushi **o** tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *sina* + **v** > *sinov, sayla* + **v** > *saylov, tara* + **q** > *taroq, sayra* + **qi** > *sayroqi* kabi.

10- mashq. Quyidagi so‘zlarda **o** va **a** tovushlarining talaffuzi, yozilishini tushuntiring. Bu unlilarning qo‘shaloq kelishini eslab qoling.

I. Osmon, tog‘, soy, oftob, havo, navo, bronza, botanika, fonetika, vokzal, futbol, globus, o‘rikzor, revizor, televizor, inkubator, ekvator, stabilizator, attor, gavda, gavjum, davlat, davr, javlon, javob, kavush, kamol, muomala, muallaq.

II. Manfaat, matbaa, mutolaa, mudofaa, murojaat, mutaassib, taajjub, taalluqli, taassub, taassurot, taassuf.

III. Faoliyat, faol, maorif, jamoa, ziroat, soat, kakao, itoat, qiroat, badiiy, shoir, shuaro, baobro‘, inshoot, majmua, memuar, nainki, vakuum, voqea, doimo, doimiy, dialog, fojia, mushoira.

18- topshiriq. a va **o** unlilarining talaffuziga e’tibor berib, she’rni ifodali o‘qing va yod oling.

ONA DEGAN NOM

Deydilar, qahrli bahodirlar ham
Janglarda jon berar chog‘i mardona,
Behad azoblarga chidab so‘nggi dam,
Bitta so‘z dermishlar shivirlab: Ona.
Ulug‘ bir donishmand olamni sharhlab,
Axiyri tanibdi tuqqan elini.
Zabon baxsh etganga ehtirom saqlab,
Ona deb atabdi ilk bor tilini.
Dunyo shoirlari Vatan sha’niga
Sifat axtarmishlar qator va qator.
Nihoyat kelmishlar bitta ma’niga:
Ona-Vatan deya bitmishlar ash’or.
Bisyor bo‘lsa agar bol ham beqadr,
Takror aytilganda rangsizdir kalom.
Bu yorug‘ olamda Vatan bittadir,
Bittadir dunyoda Ona degan nom!

(Abdulla Oripov)

I (i) harfi lablanmagan, til oldi, yuqori tor unli tovushni ifodalaydi. **I** tovushi *tilak, bir, tish, dil* kabi so‘zlardagi qisqa **i** unlisi o‘rnida; *mohir, shoir, ilmiy, adabiy, lirika* kabi so‘zlarning urg‘uli bo‘g‘inidagi cho‘ziq **i** o‘rnida; *qish, qir, g‘ilof, xizmatchi, xil* kabi so‘zlarda chuqur til orqa **q, g‘, x** tovushlari bilan yonma-yon keladigan qisqa va qattiq **i** unlisi o‘rnida va rus tilidan o‘tgan *vimpel, bilina, vishka, richag* kabi so‘zlardagi ruscha **ы** unlisi o‘rnida yoziladi.

So‘z o‘zagining ochiq bo‘g‘inida **i, e, a** unlilaridan biri kelsa, keyingi yopiq bo‘g‘inda **i** yoziladi. Masalan: *bilim, iliq, etik, beshik, sariq, vakil* kabi.

Arab-fors va rus tilidan o‘zlashgan bir bo‘g‘inli so‘zlarning qo‘sh undoshlari o‘rtasida qisqa **i** tovushi talaffuz etilsa-da, ammo yozilmaydi. Masalan: *fikr, ilm, ufq, matn, litr* kabi.

19- topshiriq. Quyidagi so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring va yozilishini bilib oling.

Azm, aysh, arz, aft, aql, badnafs, bahs, boks, bazm, bayt, brak, vazn, vahm, vaqf, gips, globus, dafn, dahr, jazm, jalb, janr, jahl, jahd, jips, juft, irq, zehn, zikr, zulm, zulf, karch, kaft, kasr, kasb, keks, kibr, mayl, mehr, mashq, lutf, nasr, naqsh, metr.

E (e) harfi lablanmagan til oldi, o‘rta keng unli tovushni ifodalaydi. So‘z tarkibidagi o‘rniga qarab turlicha aytiladi va yoziladi:

– so‘z boshida yopiq bo‘g‘inda **i** ga moyil aytilsa ham, **e** yoziladi: *ehtimol, eshik, ehson, ertak* kabi;

– so‘z boshida ochiq bo‘g‘inda va ikki undosh orasida qisqa aytiladi va doim **e** yoziladi: *erta, meva, sezgir, tepki* kabi;

– so‘z boshida tutuq belgisidan oldin cho‘ziqroq va **i** ga moyil aytiladi va **e** yoziladi: *e’zoz, e’tibor, e’lon, e’tiqod* kabi.

20- topshiriq. Lug‘atdan tarkibida **e** unlisi bo‘lgan 10 ta madaniy-ma’rifiy atama topib yozing va ulardagi **e** tovushini tavsiflang.

11- mashq. Matnni o‘qing, ajratilgan so‘zlardagi **i** va **e** unlilarining yumshoq va qattiq talaffuz etilishi hamda yozilishi qoidasini izohlang.

Insoniyat jamiyatining **tarixiy** taraqqiyoti jarayonida **ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy** fikr-g‘oyalarning yaxlitligi mafkurani tashkil qildi. Sog‘lom g‘oyalar **tarbiyasi** yuksak dunyoqarash va **e’tiqod** tarbiyasini anglatadi. Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va g‘oyalarning majmui bo‘lib,

u shaxsni jamiyatda o‘zligini saqlagan holda munosib o‘rin **egallashga** chorlaydi. Sog‘lom dunyoqarash kishidan mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashni talab qiladi. **Mas’uliyat** odamning har bir amali, faoliyati mahsulini to‘liq tasavvur qilgan holda uning o‘zi va o‘zgalar uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. **E’tiqod** – odamning muayyan qarash, nazariya, hayotiy aqida, qadriyat yoki faoliyat **tamoyillarini emotsional-hissiy** qabul qilish jarayonida shakllangan sobit fikr va tasavvur majmui. Haqiqiy e’tiqod egasi bo‘lgan odamda **iymon** ham bo‘ladi.

U (u) harfi lablangan, til orqa, yuqori tor unli tovushni ifodalaydi.

Quyidagi holatlarda **u** unlisi **i** tovushiga moyilroq aytilsa ham, **u** yoziladi:

– oldingi bo‘g‘inlarida **a, o, u** unlilardan biri bo‘lgan va shundan so‘nggi yopiq bo‘g‘in boshidagi **v** tovushidan keyin: *qovun, ovul, tovuq, sovuq, tarvuz, quvur, chuvur-chuvur* kabi;

– birinchi bo‘g‘inida **u** bo‘lgan so‘zlarning ikkinchi bo‘g‘inida: *uzun, uzum, chumchuq, tushuncha, yulduz, yutuq, yumush* kabi;

– birinchi bo‘g‘inida **u** bo‘lgan so‘zlarning keyingi ochiq bo‘g‘ini **q** yoki **g‘** bilan boshlansa: *bug‘u, urg‘u, uyqu, tuyg‘u, yog‘du* kabi.

Tarkibida **u** bo‘lgan bir bo‘g‘inli so‘zlarning oxirgi ikki undoshi o‘rtasida **u** aytilsa ham, yozilmaydi: **umr, uzr, rukn, hukm** kabi.

12- mashq. Quyidagi so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring va yozilishini bilib oling.

Burun, butun, bujur, buzruk, buzuvchi, guruch, guruh, durust, jujun, zuhur, kunjut, kukun, kunduz, nufuz, suruv, tutun, tuturiq, tushuncha, tumshuq, uzum, umum, uchun,

tuzum, chumchuq, quduq, quruq, g‘urur, g‘ulu, huzur, hukumat, xushnud.

O‘ (o‘) harfi lablangan, til orqa, o‘rta-keng unli tovushni ifodalaydi. So‘zning ochiq bo‘g‘inlarida nisbatan kengroq, yopiq bo‘g‘inlarda esa torroq talaffuz qilinadi. Masalan: *so‘lim, qo‘riq, to‘plam, ko‘krak* kabi.

O‘ (o‘) unlisi, asosan, so‘zning birinchi bo‘g‘inida uchraydi: *o‘t, ko‘l, ko‘za, o‘jar, to‘lqin* kabi.

Ko‘pgina so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida **o‘** kelsa, ikkinchi bo‘g‘inida i unlisi yoziladi: *do‘ppi, ko‘prik, to‘qimoq, so‘zlik* kabi.

Rus tili orqali o‘zlashgan *tort, tok, kubok, bochka, nota* kabi so‘zlardagi **o** unlisi o‘zbekchada **o‘** ga moyil aytilsa ham, asliga ko‘ra **o** yoziladi. Lotin yozuviga asoslangan alifbomizga ko‘ra *mo‘tabar, mo‘tadil, mo‘jiza kabi so‘zlarda* **o‘** unlisidan keyin tutuq belgisi qo‘yilmaydi, ammo **o‘** cho‘ziqroq talaffuz qilinadi.

13- mashq. Birinchi bo‘g‘inida **o‘**, ikkinchi bo‘g‘inda **i** ishtirok etgan so‘zlar topib, ular yordamida bir nechta gap tuzing.

14- mashq. Gaplarni o‘qing. **U** va **o‘** unlilariga tavsif bering. Talaffuzi va yozilishini izohlang.

Navoiy kuzning so‘lg‘in nafosati bilan nafas olgan xiyobonlarni oralab, tabiat va hayotdagi o‘zgarishlar ustida fikr qilib, kechinmalar, hislarga to‘lib yurarkan, navkar kelib, safar uchun otni tayyorlab qo‘yganini bildirdi. Shoir go‘yo Marvga – podshoh qoshiga jo‘nash kerakligini endi eshitganday ikkilanib: «Hozir borurman»,– dedi-da, yana avvalgicha sekin ketdi. Bog‘bonlar va boshqa xizmatchilar bilan so‘zlashdi, ularning umaloq-

dumaloq bolalarining boshlarini siladi, keyin kissasidan oltin va kumush chiqarib, hammaga «yo‘l oyoq» ulashdi. Bolalarning shodligi, ayniqsa, benihoya bo‘ldi. Ular sakrashib, chuvullashib tangalarni dam kaftlariga qisib, dam bir-birlariga ko‘z-ko‘z qilishardi. Kattalar o‘z xojalariga oq yo‘l tilab, ko‘zlarida yongan samimiy chuqur mehr bilan vidolashdilar. *(Oybek. «Navoiy»)*

QO‘SH UNLILAR

Arab-fors tilidan o‘zlashgan so‘zlarda unli tovushlar yonma-yon va qo‘shaloq holda kelishi mumkin. Masalan:

a) *fa**o**liyat, fa**o**l, jam**oa**, itoat, sh**oi**r, majm**ua**, mem**ua**r, voq**ea**, d**oi**mo, mush**oi**ra;*

b) *bad**ii**y, insh**oo**t, matb**aa**, mudof**aa**, muto-la**a**, manf**aa**t, muroj**aa**t, t**aa**lluqli, t**aa**ssurot, t**aa**ssuf.*

21- topshiriq. Lug‘atdan yonma-yon va qo‘sh unlilar bilan yoziladigan so‘zlarga 10 ta misol toping, ular ishtirokida 5 ta gap tuzing.

UNDOSH TOVUSHLAR TALAFFUZI VA IMLOSI

22- topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Jarangli va jarangsiz undoshlarni qiyoslab, jadval tuzing.

Undosh tovushlar turlari va ovozning ishtirokiga ko‘ra belgilanadi. Undosh tovushlar tarkibida shovqin miqdori ovozga nisbatan ko‘p bo‘lsa yoki ovoz mutlaqo qatnashmasa, bunday tovushlar **shovqinlilar** deb nomlanadi. Agar ovoz miqdori ustunlik qilsa, bunday tovushlar **sonor (ovozdor)** sanaladi. Bular **m, n, ng, l, r** undoshlaridir.

Shovqinli undoshlar ovozning ishtirokiga ko‘ra **jarangli** va **jarangsizlarga** bo‘linadi.

Jarangli undoshlar tarkibida shovqin bilan birga

ma'lum darajada ovoz ham ishtirok etadi: **b, v, g, d, j, z, y, g‘.**

Jarangsiz undoshlar ovoz mutlaqo qatnashmaydigan, faqat shovqindangina iborat bo‘lgan tovushlardir: **k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, h**. Nutq paytida ba'zan jarangli tovushlar jarangsizlar bilan o‘rin almashadi: *sabab-sabap, maqsad-maxsat, miting-mitink* kabi.

Undosh tovushlar nutq a'zolarining biror yerida to‘siqqa uchrab, shu to‘siqda portlab yoki sirg‘alib o‘tib ketishiga ko‘ra ham tavsiflanadi.

Ikki nutq a'zosining jipslashuvi natijasida o‘pkadan chiqayotgan havo oqimining zarb bilan portlab o‘tishidan **portlovchi** undoshlar hosil bo‘ladi. Bular **b, g, d, j, k, p, t, ch, q** tovushlaridir. Portlovchilar portlashning xususiyatiga qarab **sof** va **qorishiq portlovchilarga** ajraladi. Sof portlovchilar bir usul – portlash usuli bilan paydo bo‘ladi: **b, g, d, k, t, p, q.** Qorishiq portlovchilar ikki usul asosida – to‘la bo‘lmagan portlash va undan keyin sirg‘alish natijasida vujudga keladi: *d+j – dj, t+sh – ch*.

Ikki nutq a'zosining o‘zaro jipslashmasidan, bir-biriga yaqinlashishi natijasida havo oqimining ular orasidan ishqalanib-sirg‘alib chiqishidan **sirg‘aluvchi** undoshlar hosil bo‘ladi. Bular **v, f, j, sh, z, s, y, x, h, g‘** tovushlaridir.

B, P UNDOSHLARI

B (b) harfi lab-lab, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. So‘z o‘rtasida va, asosan, so‘z oxirida jarangsizlashib **p** tarzida aytilsa ham, doimo **b** yoziladi. Masalan: *sabab-sabap, javob-javop, zarb-zarp, mubtalo-muptalo, ibtido-iptido* kabi.

P (p) harfi lab-lab, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Bu tovush ko‘pincha **b** va **f** undoshlari o‘rnida talaffuz qilinsa ham, asliga ko‘ra **b** va **f** yoziladi. Qarang: *kelib-kelip, g‘arb-g‘arp, insof-insop, ulfat-ulpat* kabi.

15- mashq. Gaplardagi **b** va **p** harflari bo‘lgan so‘zlarni ko‘chiring, talaffuzi va yozilishini sharhlang.

1. Pomirga borish yo‘li menga besh qo‘ldek ravshan edi. *(Ch. Aytmatov)* 2. U Muhabbatning shifoxonada yotganini bilgan, o‘z jigarbandlari axtarib kelib-ketishganidan xabardor edi. 3. Nopok odamlar uning buloqdek tiniq, musaffo muhabbatiga og‘u soldilar. *(M. Qoriyev)* 4. Otang mirob bo‘lsa ham, ariqni tozalab suv ich. *(Maqol)* 5. Oftob kirmagan uyga tabib kiradi. 6. Obro‘ misqollab keladi, qadoqlab ketadi. *(Maqol)* 7. Otni tepmaydi, itni qopmaydi, dema. *(Maqol)*

23- topshiriq. Lug‘atdan **b** harfi bilan tugagan va **p** harfi bilan boshlangan so‘zlarga 10 ta misol toping, bu so‘zlarning ma’nolarini izohlab, **b, p** tovushlarini tavsiflang.

24- topshiriq. B va **p** harflarining qo‘shaloq kelishiga misollar topib, daftaringizga ko‘chiring. Yozilishini eslab qoling. Shu so‘zlar ishtirokida to‘rtta gap tuzing.

V, F UNDOSHLARI

V (v) harfi lab-lab, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Sof o‘zbekcha so‘zlarda va so‘z boshida kelmaydi, arab-fors tilidan o‘zlashgan so‘zlarda esa turli o‘rinlarda kela oladi: *vaqt, vafo, tavsif, sovun, qovurg‘a* kabi. Hozirda bu tovushning lab bilan tish orasida aytiladigan varianti keng qo‘llanmoqda. Shuning uchun so‘z oxirida keluvchi **v** so‘zlashuv nutqida **p** yoki **f** ga o‘tadi, ammo qoidaga muvofiq **v** yoziladi. Masalan: *Norqulov-Norqulop, Olimov-Olimof, avtomat-aptomat, kooperativ-kooperatip* kabi.

F (f) harfi lab-tish, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Talaffuzda ba’zan **p** ga o‘tsa ham, **f** yoziladi. Masalan: *fasl, safar, futbol, latif, isrof, insof* kabi.

16- mashq. E. Vohidovning «O‘zbegim» qasidasidan olingan quyidagi parchalarni ifodali o‘qing, **v, f** undoshlari bo‘lgan so‘zlarni ko‘chirib, bu tovushlarning aytilishi va yozilishini tushuntiring.

... So‘ylasin Afrosiyob-u,
So‘ylasin O‘rxun xati,
Ko‘hna tarix shodasida
Bitta marjon, o‘zbegim.
Ma’rifatning shu’lasiga
Talpinib zulmat aro
Ko‘zlaringdan oqdi tunlar
Kavkabiston, o‘zbegim...
Men Vatanni bog‘ deb aytsam,
Sensan unda bitta gul,
Men Vatanni ko‘z deb aytsam,
Bitta mujgon, o‘zbegim.
Men buyuk yurt o‘g‘lidurman,
Men bashar farzandiman,
Lekin avval senga bo‘lsam
Sodiq o‘g‘lon, o‘zbegim.

25- topshiriq. Ushbu she’rni to‘liq o‘qib chiqib (yoki yoddan aytib) **b – p, v – f** undoshlari bo‘lgan so‘zlarning ma’nolarini izohlang va yozilishini eslab qoling.

G, K UNDOSHLARI

G (g) harfi til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. So‘z oxirida jarangsiz **k** kabi eshitiladi, ammo yozuvda **g** tarzida yoziladi. Masalan: *barg, tug, pedagog, eg* kabi.

Imlo qoidasiga ko‘ra oxiri **g** bilan tugagan so‘zlarga **g** undoshi bilan boshlanuvchi **-ga, -gacha, -gach, -gan, -gina** kabi qo‘shimcha qo‘shilganda **k** tarzida talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq **g** yoziladi. Qarang: *bargga, eg-guncha, dialoggacha, tuggin*.

K (k) harfi til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Oxiri **k** bilan tugagan so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda **k** jaranglashadi va **g** tarzida aytiladi hamda shunday yoziladi. Masalan: *yurak-yuragim, tilak-tilagim, bek-begim* kabi.

26- topshiriq. G, k undoshlari bo‘lgan so‘zlar ishtirokidagi tez aytishlarni davom ettiring. Bu tovushlarning talaffuzi va yozilishini izohlab bering.

1. Gulnor guzardagi gulzordan go‘zal gullar uzdi.
2. Kaftdek tepa, kaftdek tepa ustida kemadek kapa.
3. Oq ko‘ylakka ko‘k tugma, ko‘k ko‘ylakka oq tugma.

17- mashq. Matnni o‘qing, **b – p, v – f, g – k** undoshlari qatnashgan so‘zlarni topib, daftaringizga ko‘chiring. Bu tovushlarni o‘zaro qiyoslab tavsiflang.

Til bir jihatdan tabiat va insondagi go‘zallikni aks ettiruvchi vosita bo‘lsa, ikkinchi jihatdan unda go‘zallikni vujudga keltiruvchi javharlar ham mavjud. Tilga go‘zallik javhari sifatida nazar soladigan bo‘lsak, uning kishini hayratlantiradigan darajada yetukligi bor.

Qaysi bir tilni olmang, undagi tovushlar yuzga yetmaydi. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘ttiz bitta tovush bor. O‘zbek tiliga tarixan nazar solgan vaqtimizda yoki shevalarni hisobga olganimizda ko‘proq bo‘ladi, ammo qirqtadan oshmaydi. Mana shu qadar ozgina to-

vushdan o‘zbek tili tarixida milliondan ortiq so‘z yasalgan va bu so‘z yasalishi kerak bo‘lgan taqdirda cheksiz davom etishi mumkin.

Tilning mana shu yetukligi uning go‘zalligini va undan foydalanuvchining, ya’ni so‘zlovchining yoki yozuvchining nutqiy mahoratini ta’minlaydi.

(A. Rustamov. «So‘z xususida so‘z»)

D, T UNDOSHLARI

D (d) harfi til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. So‘z oxiridagi **d** doimo jarangsiz talaffuz qilinadi. Biroq asliga muvofiq **d** yozilaveradi: *band-bant, xursand-xursant, avlod-avlot* kabi. So‘zning oxirida **d** tovushidan oldin **n** kelsa va bunday so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shilsa, **d** talaffuz etilmaydi, ammo yoziladi: *payvanchi-payvandchi, balan-roq-balandroq, xursanchilik-xursandchilik* kabi.

T (t) harfi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh. So‘z oxiridagi **t** talaffuzda ko‘pincha tushib qoladi. Biroq asliga muvofiq yozilaveradi: *do‘st-do‘s, daraxt-darax* kabi. Bunday so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shilganda ham talaffuzda **t** undoshi eshitilmay qoladi, ammo bu hol ham imloda aks etmaydi: *do‘slik-do‘stlik, dasro‘mol-dastro‘mol, mashinisga-mashinistga* kabi.

Jonli nutqda **t** bilan tugagan so‘zlarga **ch** undoshi bilan boshlanuvchi qo‘shimchalar qo‘shilganda **t** ning ham **ch** ga aylanish hodisasi yuz beradi: *sutchi-suchchi, yigitcha-yigichcha, uyatchan-uyachchan* kabi.

27- topshiriq. Lug‘atdan **d, t** undoshlari so‘z oxirida kelgan lug‘aviy birliklardan 10 ta topib yozing va tovush o‘zgarishi hodisasini izohlang.

18- mashq. D, t undoshlari qo‘shaloq yozilishi zarur bo‘lgan so‘zlarni topib ko‘chiring va yozilishini eslab qoling.

Bad...iy, muqad...am, mad...oh, bot...ir, qat...q, mod...a, o‘t...iz, od...iy, tarad...ud, at...or, muqad...as, muat...ar, sat...in, o‘t...kir, jid...iy, od...mi, qad...i-qomat, bat...ar, it...ifoq, jad...id, yet...i, gard...ay, but...oq, bud...izm, bot...il, pat...ak, tad...qiq, shad...od, shat...irlamoq, e...tir, xa...tm, qa...doq, qat...ron, g‘ad...or, ha...dik, hat...o.

Z, S UNDOSHLARI

Z (z) harfi til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Jonli nutqda so‘z oxirida kelgan **z** tovushi jarangsizlanib, **s** tovushiga moyil talaffuz qilinadi, biroq asliga muvofiq **z** yozilaveradi: *boramiz-boramis, og‘iz-og‘is* kabi. Bu holatni **z** bilan tugallangan o‘zakka jarangsiz undoshlar qo‘shilganda ham kuzatish mumkin: *yuz so‘m-yus so‘m, so‘zsiz-so‘ssiz, izchil-ischil* kabi.

S (s) harfi til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. **E, i** unlilaridan oldin kelganda yumshoq talaffuz etiladi: *sezgi, sekin, silamoq, sim* kabi.

19- mashq. Quyidagi maqollar va to‘rtlikdagi **z, s** undoshlarini qiyoslab tavsiflang.

1. Ko‘p so‘zning ozi yaxshi, oz so‘zning o‘zi yaxshi.
2. Oz so‘z – soz so‘z.
3. Yer haydasang, kuz hayda,
   Kuz haydamasang, yuz hayda.
4. Do‘stlar, yaxshilarni avaylab asrang!
   «Salom» degan so‘zning salmog‘in oqlang!

O‘lganda yuz soat yig‘lab turgandan,
Uni tirigida bir soat yo‘qlang!

(Maqsud Shayxzoda)

28- topshiriq. Matnni o‘qing. **Z, s** undoshlari bo‘lgan so‘zlarni topib, talaffuzi va yozilishini izohlang.

... San’atkor kishilarga ta’sir etishi uchun uning o‘zi izlanuvchan, asari ham izlanishdan iborat bo‘lishi shart. Agar u hamma narsani topib-bilib olgan bo‘lsa va pand-nasihatga berilsa yoki atayin maynavozchilik qilsa, u hech kimga ta’sir etolmaydi. Faqat izlangan taqdirdagina tomoshabin, tinglovchi, o‘quvchi u bilan birga izlanib, yakdil bo‘lib ketadi.

Men san’atkorman va mening butun hayotim go‘zallikni izlashdan iborat. Agar siz menga shu go‘zallikni ko‘rsatganingizda edi, sizdan xuddi mana shu oliy baxtga meni ham sazovor qiling, deb tiz cho‘kib yolvorgan bo‘lurdim.

San’at asari deb ataladigan narsani yaratish uchun, avvalo, kishi nima yaxshi, nima yomonligini aniq-ravshan, hech shubhasiz bilishi, bularni ajratib turadigan chegarani noziklik bilan ko‘rib turishi va shu boisdan ham bor narsani emas, balki bo‘lishi mumkin narsani yozishi kerak...

...Go‘zallik nima? Go‘zallik biz uchun suyukli narsadir. Go‘zal – go‘zal emas, suygan go‘zaldir. Nega suygan go‘zal – hamma gap ana shunda. *(L. N. Tolstoy)*

J, SH UNDOSHLARI

J (j) harfi til oldi, qorishiq, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Sof o‘zbekcha so‘zlarda qorishiq tovush tarzida, forscha-tojikcha va ruscha o‘zlashmalarda sirg‘aluvchi tovush kabi talaffuz qilinadi. Qiyoslang: *jon, ajoyib, jajji,*

ajdar, mujda, janr. Jonli nutqda **ch** yoki **sh** tovushlariga moyil aytiladi, ammo asliga muvofiq **j** yoziladi. Masalan: *to**j**-toch, bo**j**-boch, i**j**-timoiy-ishtimoiy, gara**j**-garach, massa**j**-massash* kabi.

Sh (sh) harfi til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Til oldi undoshlari bilan kelganda yumshoq, orqa qator unlilar bilan yonma-yon kelganda esa qattiq talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Masalan: *shirin, ishkal, shol, sho‘x* kabi.

Rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarda yumshoq va cho‘ziqroq aytiladi va doim **sh** yoziladi: *plash, borsh, obshina* kabi.

29- topshiriq. Tez aytishlarni o‘qib, davom ettiring. **J, sh** undoshlarining talaffuzi va ketma-ket yozilishiga e’tibor bering.

1. Sijjakdagi g‘ijjakchi jiydadan g‘ijjak yasarmish.
2. Jajji jiblajibon jajji Jo‘ra bilan jo‘ra,
   Jajji Jo‘ra jajji jiblajibon bilan jo‘ra.
3. Shokir shamolda sholini sharillatib shopiryapti.
4. Qishda kishmish pishmasmish, kishmish pishsa qishmasmish.

20- mashq. Berilgan so‘zlarni talaffuz me’yorlariga amal qilib o‘qing. **J, sh** undoshlari qo‘shaloq kelgan so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.

A. Jahon, jamol, janjal, jerkish, jild, hujjat, jumboq, najjor, jo‘yak, taajjub, jimillamoq, jigarpora, ajnabiy, abajur, bajon-u dil, bijillamoq, gijja, budjet, lojuvard, munajjim, murojaat, oranjereya, ruju, tajovuz, g‘ijjak, hijjalamoq.

B. Shabada, shamshir, sharshara, ash’or, andisha, bashorat, boshboshdoqlik, govmish, dashnom, yondashuv,

ishorat, ishshaymoq, kaft, kashshof, kelinposhsha, klavish, maishiy, mashshoq, mushkulkushod, nisholda, oshiq-ma'shuq, pashsha, pishpishlamoq, ushshoq, qashshoq, hash-pash.

G‘, Q UNDOSHLARI

G‘ (g‘) harfi chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi.

So‘z oxirida **g‘** tovushi ba’zan qo‘shimchalar ta’sirida **x** tarzida aytilsa ham, **g‘** yoziladi. Masalan: *bo**g‘**cha-boxcha, belbo**g‘**cha-belbo**x**cha, zo**g‘**cha-zo**x**cha* kabi.

Lotin yozuvidagi alifbomizning yangi imlo qoidasiga ko‘ra oxiri **g‘** bilan tugagan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi **-ga** va **g** bilan boshlanuvchi boshqa qo‘shimchalar qo‘shilganda, o‘zakdagi **g‘** va qo‘shimchadagi **g** undoshlari **q** tarzida talaffuz etilishi mumkin, ammo yozuvda asliga ko‘ra yoziladi. Qarang: *sog‘ga, tug‘gan, tog‘gacha, sig‘guncha, sog‘gan* kabi.

Q (q) harfi chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi.

Jonli nutqda so‘z o‘rtasi va oxirida **q** tovushi **g‘** va **x** ga moyil aytilsa ham, imloda asliga ko‘ra yoziladi. Masalan: *botqo**q**lik-botqo**g‘**lik, bali**q**-bali**g‘**, shu yo**q**da-shu yo**g‘**da, to‘**q**son-to‘**x**son, va**q**t-va**x**t* kabi.

q undoshi bilan tugagan so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda **q** jaranglashib **g‘** ga o‘tadi va bu hodisa imloda aks etadi: *taro**q**-taro**g‘**i, qo‘shi**q**-qo‘shi**g‘**im, o‘rto**q**-o‘rto**g‘**ing* kabi. Ammo bir bo‘g‘inli so‘zlarda, chetdan o‘zlashgan so‘zlarda bunday paytda **q** undoshi aslicha aytiladi va yoziladi: *ha**q**-ha**qq**i, to**‘q**-to‘**q**in, ishtiyo**q**-ishtiyo**q**i, huqu**q**-huqu**q**im, ravna**q**-ravna**q**i* kabi.

q bilan tugagan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi **-ga** yoki **g** bilan boshlanuvchi boshqa qo‘shimchalar qo‘shilganda, **g** undoshi **q** tarzida aytiladi va bunday so‘zlar qo‘shaloq **q** bilan yoziladi: *soliqqa, yoqqach, chiqquncha, qo‘rqqudek, achchiqqina* kabi.

30- topshiriq. Lug‘atdan tarkibida **g‘, q** undoshlari bo‘lgan 10 ta so‘z toping, ularning talaffuzi o‘zgarishini izohlang va shu so‘zlar ishtirokida 4 ta gap tuzing.

21- mashq. Matnni o‘qing. Ajratilgan so‘zlardagi **g‘, q** undoshlarini tavsiflang.

NEGA OYDA HAYOT YO‘Q?

Inson Oy yuzasini sinchiklab **tadqiq** qilgach, u haqida ko‘pgina **qiziq** narsalarni bilib oldi. Ammo Oyda hayot yo‘qligini u yerga qadami yetmasdan oldin ham bilar edi. Oyda atmosfera yo‘q. Munajjimlar buni Oyda Quyoshning botish payti yoki kechqurun va tonggi **g‘ira-shira** payt bo‘lmasligiga qarab aniqlashgan. Yerga tun astasekin cho‘ka boradi, chunki havo Quyosh botgandan keyin ham uning nurlarini aks ettirib turadi. Oyda esa butunlay boshqa manzarani ko‘rish mumkin: birpasda **qorong‘ilik** tushadi.

Atmosfera yo‘qligi sababli Oyga Quyoshning barcha nurlari **to‘g‘ridan to‘g‘ri** tushaveradi. Quyosh o‘zidan issiqlik, yorug‘lik va **radioto‘lqinlar** chiqaradi. Yerdagi hayot shu issiqlik va **yorug‘likka bog‘liq.**

Quyosh o‘zidan yana zararli radiatsiya ham **tarqatadi**. Yer atmosferasi bizni ulardan himoya qiladi. Oyda esa bunday zararli radiatsiyani yutadigan atmosfera yo‘q. Quyoshdan chiqayotgan barcha foydali va zararli nurlar hech bir **to‘siqsiz** Oy yuzasiga yetib kelaveradi. Atmosfera yo‘qligi sababli Oy yuzasi yo haddan ziyod issiq

yoki nihoyatda **sovuq** bo‘ladi. Aylanayotgan Oyning Quyoshga qaragan tomoni juda qizib ketadi va harorat 150 darajaga yetadi. Bu **shaqirlab** qaynayotgan suvning haroratidir. Jazirama Oy kuni ikki hafta davom etadi. So‘ngra ikki hafta davom etadigan tunga navbat keladi. Tunda harorat 125 darajaga tushib ketadi. Bu Yerning Shimoliy **qutbidagi** haroratdan ikki barobar sovuqdir.

X, H UNDOSHLARI

X (x) harfi chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi.

So‘z o‘rtasida va oxirida ba’zan **q** tovushiga moyilroq aytilsa ham, asliga muvofiq yoziladi. Masalan: *a**x**loq-a**q**loq, mi**x**-mi**q**, so**x**ta-so**q**ta* kabi. O‘zbek tilida, asosan, **e** dan boshqa unlilar bilan yonma-yon kelganda yoziladi va ularning qattiqroq talaffuz qilinishiga sababchi bo‘ladi. Qarang: *xalq, xabar, to‘xta, axtar, xush, xamir* kabi.

H (h) harfi ham sirg‘aluvchi, jarangsiz undoshni ifodalaydi. Ammo bu tovush bo‘g‘izda hosil bo‘lgani uchun bo‘g‘iz undoshi hisoblanadi. O‘zbek tilida bu tovush **oh, eh, ha** kabi undov so‘zlarda va, asosan, arab-fors tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarda uchraydi.

H harfi ifodalagan tovush **x** tovushiga nisbatan yumshoqroq, nafisroq talaffuz etiladi va quyidagi so‘zlar kabi yoziladi: *himoya, hosil, hokim, Shohista, ohang, sahna, tuhfa* kabi.

Jonli nutqda **h** tovushi ba’zan o‘zidan keyingi undosh kabi aytiladi yoki butunlay talaffuz etilmaydi: *mahkam-makkam, mahsi-massi, daxlsiz-dalsiz, shahodatnoma-shaodatnoma* kabi. Kundalik so‘zlashuvda yumshoq bo‘g‘iz tovushi **h** undoshining ko‘pincha qattiq, chuqur til orqa tovushi **x** tarzida aytilishi adabiy talaf-

fuz me'yoriga xos emas. Chunki bu tovushlarning bir xilda talaffuz etilishi so'z ma'nosini butunlay o'zgartirishi mumkin: *sho**h**i-sho**x**i, **h**ol-**x**ol, **h**il-**x**il* kabi.

22- mashq. Quyidagi so'zlarda **h** undoshini to'g'ri talaffuz qiling va yozilishini esda tuting.

Sulh, bahor, subh, sahv, sahifa, sahro, sayyoh, ruhoniy, ruhan, ruhiy, rohat, rahm, rahmat, mehmon, pinhon, ohista, oh-zor, ohu, muhtaram, mahalla, mahkam, lahza, ishtaha, zohid, ahvol, ahd, ahamiyat, muharrir, muhtasham, muhtoj, muhabbat, muhayyo, muhrdor, muhim, muhlat, muhojir, muhokama, muhr, mehr, mehnat, mahsulot, mohtob, mahkum, zahmat, himmat.

23- mashq. Nuqtalar o'rniga **x** yoki **h** harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring, **x** yoki **h** bilan yozilish sababini tushuntiring.

Ishta...a, ji...oz, jo...il, za...ar, za...matkash, ze...n, ba...odir, mar...amat, masla...at, e...son, e...tiyotkorlik, sa...iy, so...il, giyo..., sayrgo..., ...orij, ...azil, ...arakat, guru..., ...attot.

M, N UNDOSHLARI

M (m) harfi lab-lab, jarangli, burun undosh tovushini ifodalaydi. **E, i** old qator unlilaridan oldin kelganda yumshoq *(meva, mehmon, miqyos* kabi), orqa qator unlilar, chuqur til orqa undoshlari bilan yonma-yon kelganda esa qattiq *(somon, mol, muborak, mo'min* kabi) talaffuz qilinadi.

N (n) harfi til oldi, jarangli, portlovchi, burun undosh tovushini ifodalaydi. Bu tovush **b, m** undoshlari oldida kelganda **m** tarzida aytiladi, ammo asliga muvofiq yozilaveradi: *tan-*

*burchi-ta**m**burchi, mi**n**bar-mi**m**bar, yo**n**bosh-yo**m**bosh, ma**n**manlik-ma**m**manlik* kabi. Jonli nutqda **n** tovushining ba'zan o'zidan oldingi undosh ta'siriga uchrab, o'sha tovush tarzida qo'shaloq aytilishi adabiy talaffuz me'yoriga ziddir: *gap**n**i-gap**p**i, yo'l**n**i-yo'l**l**i, ko'z**n**i-ko'z**z**i* kabi.

24- mashq. Maqol va hikmatli so'zlarni o'qing, **m** va **n** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling.

1. Mehnat mamnuniyat va madaniyat manbayidir.
2. Ona yurting omon bo'lsa,
   Rang-u ro'ying somon bo'lmas.
3. Yaxshi bo'lgin, hatto dushmaning oson
   Seni deyolmasin yaramas-yomon.
   Tanburning ovozi soz chiqib tursa,
   Qulog'in buramas sozchi hech qachon

(Sa'diy Sheroziy)

4. Hamma qobiliyatlarning sarvari sog'lom fikrdir.
5. Xayrli ishning o'zi kifoya emas, bu ishni vaqtida va mavridi bilan bajarmoq lozim. *(U. Metyuz)*

CH, NG HARFLARI

Ch (ch) harfi til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. **Ch** harfi bilan tugallanuvchi o'zakka qo'shimcha qo'shilganda hamda ayrim so'zlarda **ch** tovushi **sh** kabi aytiladi, ammo asliga muvofiq yoziladi. Masalan: *u**ch**ta-u**sh**ta, u**ch**di-u**sh**di, ki**ch**kina-ki**sh**kina, qari**ch**-qari**sh*** kabi.

NG (ng) harfi til orqa, portlovchi, jarangli, burun undosh tovushini ifodalaydi. Bu tovush so'z boshida uchramaydi. So'zning o'rtasi (*ma**ng**lay, i**ng**ichka* kabi) va oxirida (*te**ng**, o**ng***

kabi) kela oladi. Bu harfning imlosida quyidagi holatlarga e'tibor berish lozim:

a) *jang, zang, so'ng, ko'ndalang, durang, ingramoq* kabi so'zlarda uchraydigan til orqa **ng** tovushi o'rnida yoziladi. Bunday so'zlarni bo'g'inlarga ajratganda **ng** harfiy birikmasi **n** va **g** harflariga ajratilmaydi va alohida tovushlar sifatida talaffuz qilinmaydi.

b) *kongress, tangens, bugungi* kabi so'zlarda **ng** alohida tovushlar **n** va **g** ni ifodalaydi, shu sababli bo'g'in ko'chirishda ajratib yoziladi.

ng tovushi ikki unli o'rtasida kelganda ikkinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi va bir satrdan boshqasiga shunday ko'chiriladi: *si-**ng**il, de-**ng**iz, opa-**ng**iz* kabi.

Agar **ng** tovushidan so'ng undosh kelgan bo'lsa, **ng** tovushi birinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi: *si**ng**-lim, te**ng**-qur, a**ng**-lagan* kabi.

25- mashq. Matnni o'qing. Ajratilgan so'zlardagi **ch, ng** undoshlarini tavsiflang.

Urgutda adir tepasidagi Navro'z bayrami o'tkaziladigan **yalanglikka** chiqadigan tik so'qmoq yonboshida bir qabr bor. Andak to'xtab, unga e'tibor bering. Bu **jangchi**, qahramon otning qabri. U frontda yaralangan egasini olib ketayotgan sanitar vagon orqasidan **chopib**, poyezd tezlab ketganda yetolmay, yo'lda qolib ketgan. **Necha** oylab tog'-toshlardan, daryolardan o'tib, **cho'llarda** sargardon bo'lib, **so'ngra** Urgutga kelgan. Bu vafodor ot egasini ko'rish ilinjida oylab Samarqand vokzalidagi poyezdlarni boshdan oyoq aylanib chiqadi. O'ziga tanish sanitar vagonini topolmay, kelgusi poyezdni kutadi. Urgut bilan Samarqand oralig'ida qatnayverib, tuyoqlari yemirilib, yurishga imkon bermay qo'yadi. U oxiri qadrdon **chavandoziga** ilhaq bo'lib jon beradi...

«Ot kishnagan oqshom» **qissasining so‘nggi** satrlarini yoddan o‘qiyman: «Ayo Tarlon, sen **mening** akamsan, Uka desa degulik mendayin **ukang** bor. Ayo Tarlon, sen **mening** qiyomatlik birodarimsan, qiyomatlik...» Bu so‘zlar insonning eng yaqin do‘sti, vafoli jo‘rasi – ot sha’niga aytilgan madh-u taronadir.

(S. Ahmad. «Yo‘qotganlarim va topganlarim»)

QO‘SH UNDOSHLAR

Nutqda har xil undosh tovushlarning qator kelishi bilan birga bir xil undoshlarning qator-qo‘shaloq holda qo‘llanishi ham uchraydi. Qo‘sh undoshlar, odatda, o‘zbek tilida so‘z o‘rtasida keladi: *ma**ll**a, sho**vv**oz, ti**zz**a, do‘**pp**i* kabi. Rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarda esa so‘z oxirida ham qo‘llanadi: *gra**mm**, meta**ll**, kilova**tt*** kabi. Bunday so‘zlarga o‘zakdagi qo‘sh undoshlar kabi ayni tovush bilan boshlanuvchi qo‘shimcha qo‘shilganda bir harf yozilmaydi. Qarang: *kongre**ss** + si – kongre**ssi**, kilogra**mm** + + mi – kilogra**mmi*** kabi.

Og‘zaki nutqda so‘z o‘rtasida qo‘shaloq kelgan undoshlardan biri ba’zan talaffuz qilinmasa-da, yozuvda to‘liq saqlanadi: *mi**ll**ion – milion, komi**ss**ar – komisar, o**dd**iy – odiy* kabi.

Talaffuzda qo‘sh undoshlardan birini aytmaslik adabiy talaffuz maromiga ziddir, ayniqsa, o‘zbek tilida bu holat ma’no farqlashga ham xizmat qiladi: *so**dd**a – soda, mo**dd**a – moda, bi**ll**ur – bilur (bilar ma’nosida)* kabi.

O‘zbek tilida qo‘sh undoshlar o‘zak oxiridagi undoshdan keyin shunday undosh bilan boshlanuvchi qo‘shimcha qo‘shish *(eshit+tir, es+siz, gul+lar* kabi), o‘zak oxiri va qo‘shim-

cha boshidagi tovushlarning o‘zgarishi *(bir+ta – bi**tt**a, vatan+ni – vatanni, ek+gin – ekkin, chiq + guncha – chiqquncha* kabi), sifatning kuchaytirma shakli yasalishi *(o**pp**oq, so**pp**a-sog‘, chi**pp**a-chin* kabi) bilan hosil bo‘ladi.

31- topshiriq. Lug‘atdan qo‘sh undoshli 10 ta so‘z topib, daftaringizga ko‘chiring. **Ch, m, k, l** undoshlari qo‘shaloq kelgan so‘zlarga gaplar tuzing va bu undoshlarning yozilishini izohlab bering.

26- mashq. She’rni ifodali o‘qing. Ajratilgan so‘zlardagi undosh tovushlarning talaffuzi va yozilishiga sharh yozing.

...Sizga qarsaklarda chiniqdi ilgim,
Istiqbol sizniki, **baringizniki**.
Olamning egasi siz bo‘lmayin, kim?
Shundayin olamki, kelmagan tengi.

Sizsiz **kelajak** yo‘q, siz axir xalqning
Ming yilni ko‘rajak **qarog‘larisiz**.
Sizsiz yorimaydi osmonda **Zuhra**,
Zamonlar tongining charog‘larisiz.

Qo‘chqor bo‘laturgan qo‘zichoqlarning
Manglayi tug‘ilgan chog‘da do‘ng bo‘lur.
G‘alaba asrining o‘smirlarisiz –
Sherbachcha qilig‘i sherday cho‘ng bo‘lur.

Bebaho **naslsiz**, hayot va mehnat
Olam qalbingizga sut bilan kirgan.
Sizning xamiringiz shu ulug‘ **xalqqa**,
Vatanga **muhabbat** bilan yo‘g‘rilgan.

(G‘afur G‘ulom)

ASOS VA QO‘SHIMCHALAR IMLOSI

27- mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratilgan so‘zlarning o‘zagidagi o‘zgarishlarni aniqlang va sababini izohlang.

1. **O‘ynab** gapirsang ham o‘ylab gapir. 2. Xalq botir **o‘g‘lonlarini** hech qachon unutmaydi. 3. **Og‘zaki** nutq qisqa va ifodali bo‘lishi kerak. 4. Qizcha erkalanib opasining **bo‘ynidan** mahkam quchdi. 5. Bolaning ko‘ngli o‘ksimasin deb **yumshoq** o‘rindiqqa o‘tqazdi. 6. So‘roq qilingan kishining ayblarini **sanab** berdik. 7. Sog‘lom va zehnli bo‘lib **ulg‘aygan** bola hayotda **qiynalmaydi**. 8. So‘z bilan **o‘ynovchilardan** yuragim bezillaydi. 9. Musavvirning **bo‘yog‘ida** hayot chizgilari aniq ifodalangan edi.

1. O‘zakdagi unlining o‘zgarishi:

-a unlisi bilan tugagan fe’llarga **-v, -q, -qi** qo‘shimchalari qo‘shilganda **a** unlisi **o** ga o‘zgaradi va shunday yoziladi. Masalan: *sin**a** > sin**o**v, so‘r**a** > so‘r**o**q, tir**a** > tir**o**q, sayr**a** > sayr**o**qi* kabi.

- i unlisi bilan tugagan fe’llarga qo‘shilgan **-v, -q** qo‘shimchalari **i** unlisini **u** ga aylantiradi. Masalan: *sov**i** > sov**u**q, to‘q**i** > to‘q**u**vchi, o‘q**i** > o‘q**u**v*. Lekin *og‘riq, iliq, qaviq* so‘zlarining o‘zagidagi **i** o‘zgarmaydi.

-illa qo‘shimchasi orqali taqlidiy so‘zlardan fe’l yasalganda *(taqilla, chirilla* kabi) asos so‘z tarkibida **v** yoki **u** tovushi bo‘lsa, bu qo‘shimcha **-ulla** tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *gur**ulla**, shov**ulla**, lov**ulla*** kabi.

Unli tovushlar bilan tugagan *parvo, avzo, obro‘, mavzu, mavqe* kabi fors-arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda quyidagicha yoziladi:

a) I va II shaxs qo‘shimchalari qo‘shilganda ushbu so‘zlardan so‘ng **y** tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvo**y**im, avzo**y**ing, obro‘**y**ingiz, mavzu**y**im, mavqe**y**ing* kabi;

b) III shaxs egalik qo‘shimchasi *parvo, obro‘, avzo, mavqe* so‘zlariga **-yi** shaklida qo‘shiladi, *mavzu, orzu* so‘zlariga **-si** shaklida qo‘shiladi: *avzo**yi**, obro‘**yi**, mavzu**si**, orzu**si*** kabi.

32- topshiriq. Quyidagi fe’llardan qo‘shimchalar yordamida ot yoki sifat yasang va so‘z o‘zagidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatib bering.

Ili, qayna, sovi, yumsha, qot, tin, yon, sana, to‘qi, qizi, to‘xta.

33- topshiriq. Matnni o‘qing. Tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlarni aniqlab, bu o‘zgarishlarning sababini tushuntiring.

Odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi; yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo‘ladilar. Odob ulug‘lar ko‘nglida yoshlarga mehr uyg‘otadi va u odobli yoshga bo‘lgan muhabbat ko‘ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko‘zga ulug‘ qilib ko‘rsatadigan fe’l-atvori odobdir, odoblilarning yurish-turishida xalq ulug‘vorlik ko‘radi.

Odob kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo‘lgan hurmatsizlik eshigini bekitadi va odamni hazil-mazaxdan, kamsitishdan saqlaydi. Odobdan kichiklarga shunchalik foyda yetadigan bo‘lsa, kattalarga nechog‘liq ekanini tasavvur qiling. Odob va tavoze do‘stlik oynasiga jilo beradi va ikki oraga yorug‘lik bag‘ishlaydi.

Odob urug‘ini ekkan odamning hosili javohir bo‘ladi. Odobli va go‘zal xulqli odamlar ko‘payaversa, xalqning do‘stligi, ularning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi.

(Alisher Navoiy. «Mahbub ul-qulub»)

2. O‘zak va qo‘shimchadagi undoshning o‘zgarishi:

-k, -q bilan tugagan so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda **k** undoshi **g** ga, **q** undoshi esa **g‘** ga o‘zgaradi va shunday yoziladi. Masalan: *oha**k** > oha**gi**, bek > be**gi**, tayoq > tayo**g‘i**, yo‘q > yo‘**g‘i*** kabi.

Ammo *ishtirok, erk, huquq, ravnaq, yuq, haq, ishtiyoq* so‘zlari bundan mustasno.

-ga, -gacha, -gach, -guncha, -gani, -gudek, -gan, -gin, -gina kabi **g** harfi bilan boshlanuvchi qo‘shimchalar qanday tovush bilan tugagan o‘zakka qo‘shilishiga qarab quyidagicha aytiladi va yoziladi:

a) **-k** undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda yuqoridagi qo‘shimchalarning bosh tovushi **k** tarzida aytiladi va shu harf bilan yoziladi: *tok + ga > to**kk**a, ek + gin > e**kk**in, kichik + gina > kichi**kk**ina* kabi;

b) **-q** undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi **q** tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *soliq + ga > soli**qq**a, chiq + gani > chi**qq**ani, yoq + gach > yo**qq**ach, qo‘rq + guncha > qo‘r**qq**uncha* kabi;

d) qolgan barcha hollarda so‘z qanday tovush bilan tugashidan qat’i nazar (jumladan, **g, g‘** bilan tugasa ham), ushbu qo‘shimchalarning bosh harfi **g** bilan yoziladi: *barg + ga > bar**gg**a, dialog + ga > dialo**gg**a, bug‘ + ga > bu**g‘g**a, tog‘ + ga > to**g‘g**a* kabi.

28- mashq. Lug‘atdan **k, q, g, g‘** undoshlari bilan tugagan 10 ta so‘z toping va avval egalik, so‘ngra **g** bilan boshlanuvchi boshqa qo‘shimchalarni qo‘shib, tovush o‘zgarishiga uchrash hollarini sharhlang.

34- topshiriq. She'riy parchalarni ifodali o'qing. Tovush o'zgarishiga uchragan so'zlarni aniqlab, daftaringizga ko'chiring.

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
Har nechaki ag'yor durur yor aylar,
So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngullarni giriftor aylar.

(Alisher Navoiy)

Orzum shul, o'chmasin yongan charog'ing,
Quyoshday nur sochsin chashming-qarog'ing,
Magar chinor bo'lsang, chinorday yasha,
Bevaqt uzilmasin biror yaprog'ing.

(Abdulla Oripov)

Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak.
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o'zbegim.

(Erkin Vohidov)

!

3. O'zak va qo'shimchadagi tovushning tushib qolishi:

– ikkinchi bo'g'in yopiq bo'lgan ayrim otlarga egalik qo'shimchalari va shunday tarkibli fe'llarga **-il** nisbat qo'shimchasi qo'shilganda o'zakdagi ikkinchi unli aytilmaydi va yozilmaydi. Masalan: *og'iz>ogzim, shahar > shahring, o'g'il > o'g'li, ayir > ayril, qayir > qayril* kabi.

– ikkinchi bo'g'ini ochiq unli bilan tugagan sonlarga **-ov, -ala** qo'shimchalari qo'shilganda ham o'zakdagi **-i** unlisi yozilmaydi: *ikkov, oltov, yettala* kabi.

-**men, sen** olmoshlariga **-ni, -ning, -niki** qo‘shimchalari qo‘shilganda qo‘shimchadagi **n** aytilmaydi va yozilmaydi. O‘zagi **n** bilan tugagan boshqa so‘zlar bundan mustasno. Masalan: *meni, sening, meniki va o‘rinni, nonning, matniki* kabi.

29- mashq. Gaplardagi qaysi so‘zlarning o‘zak va qo‘shimchasida tovush tushish hodisasi yuz berganligini aniqlang va shu so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.

1. O‘z ko‘nglingni ko‘tarishning eng yaxshi yo‘li kimningdir ko‘nglini ko‘tarishdir. *(Mark Tven)* 2. Har kimki atog‘a ko‘p rioyat qilg‘ay, o‘g‘lidan anga bu ish siroyat qilg‘ay. *(Alisher Navoiy)* 3. Sening har bir ishing boshqalarga ibrat bo‘lishini unutma. 4. Og‘ziga kelganni demoq nodonning ishi. *(Alisher Navoiy)* 5. Ikkalasi ham shahrimizdagi o‘zgarishlarni ko‘rib lol qolishdi. 6. To‘pidan ayrilganni bo‘ri yer. *(Maqol)* 7. Sening tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ingdan ayrilmasligingni bilar edim. 8. Meniki-seniki deb tortishib, necha marta burni qonadi hamki, og‘zini tiyolmaydi. 9. Men ham bir o‘g‘lingman, ona sayyora, Bag‘ring men uchun ham xoki pok bo‘lsin. *(A. Oripov)*

35- topshiriq. Do‘stlik va sadoqat mavzusidagi maqollardan ayting. So‘zlarida tovush o‘zgarishlari bo‘lgan maqollarni yozib oling va bu o‘zgarishlarni imlo qoidalari asosida izohlab bering.

36- topshiriq. Matnni o‘qib, **-ni**, **-ning** kelishik qo‘shimchalarining qo‘llanishi va yozilishini tushuntiring.

KITOBXONLIK

– Yur, seni kitobxonlikka olib boray, – dedilar bir kuni rahmatli otam Maqsud Sobir o‘g‘li. Kitobni yolg‘iz

o‘qishga o‘rganib qolgan kamina ra’ylarini qaytarmay ergashdim.

Isajon tog‘amning mehmonxonasiga mulla Muhammad Zohid domla, Ne’matxon bobo, yana bir qancha keksalar yig‘ilishgan edi. O‘zimcha hayronman: nega bu kishilar kitob o‘qirkanmiz, deb shuncha taraddudlanib o‘tirishibdi? Hammasi o‘z uyida o‘qiyvermaydimi?

Nihoyat mutolaa boshlandi: mulla Muhammad Zohid domla yo‘l-yo‘l beqasam jildli kitobni qo‘lga olib, dedilar:

– «Javome’ul-kalima»ni davom ettiramizmi?

– Shunday bo‘lsin, taqsir...

Mulla Muhammad Zohid domla bosiq bir shirador ovoz bilan dona-dona o‘qir, ba’zan o‘qiganining mazmunini tushuntirar, atrofdagilarning fikrini so‘rardi, so‘ng esa yig‘ilganlar qizg‘in bahsga kirishishar, har bir so‘zning mag‘zini chaqishardi. Kamina lol bo‘lib o‘tirardim. Mana, kitobning mag‘zini qanday chaqish kerak ekan! (*Turob Maqsud)*

!

Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi yozuvda ***-ning*** *shaklida ifodalanadi: O‘zbekistonning iqtisodi, bilimning kuchi.* Bu kelishik ma’nosi jonli nutqda **-ni,** she’r tilida **-n, -im** shakllarida ifodalanishi mumkin: *Ukamni oldiga kirdim. O‘zbekiston – Vatanim manim*.

Tushum kelishigi doimo **-ni** shaklida yoziladi: *Lolani ko‘rdim, mehrimni berdim* kabi. She’riy til va og‘zaki nutqda **-n, -di, -ti, -i** shakllarida qo‘llanishi mumkin: *Har fasl o‘z ishin qilar. Adl qulog‘i-la eshit holimi. (Muqimiy)*

Qaratqich va tushum kelishiklari ba’zi o‘rinlarda belgili (**-ning, -ni** qo‘shimchalari bilan), ba’zan belgisiz (qo‘shimchalarsiz) qo‘llanadi. Xususiylik, aniqlik ma’nosi ifodalanganda bu

kelishiklar belgili ishlatiladi *(uyning eshigi, oq gulni uzatmoq* kabi), umumiylik, noaniqlik ma'nosi esa bu kelishiklarning belgisiz shakli orqali ifodalanadi *(shahar ko'chasi, olma yemoq* kabi).

30- mashq. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan qo'yib, gaplarni ko'chiring, **-ning, -ni** qo'shimchalarining qo'llanishini izohlang.

1. Mamlakat... kichik bir qismi bo'lgan oila..., un... tinchligi... asraylik. 2. Hayotda o'z o'rni... topishida odam... bolalikdagi faoliyati, olgan bilimi va tarbiyasi katta o'rin tutadi. 3. Ba'zan o'ylab deyman, ne bo'lardi gar, qudrat... ko'rgizsa tabiat hassos. Va inson suvrat... u... muqarrar, fe'l-u atvoriga aylab qo'ysa, bas. *(A. Oripov)* 4. Yo'lchi arava... nimasi shikastlangani... payqamay, hayron bo'lib turar ekan, arava... tagidan dehqon... ayanchli tovushi eshitildi. *(Oybek)* 5. Ko'p til... bilmoqlik... foydasi katta, u inson... katta boyligi hisoblanadi. 6. Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado o... haq... yuz ganj ila. *(A. Navoiy)* 7. Inson dunyo... qanchalik bilsa, o'zligi... ham shunchalik anglaydi. *(I. Gyote)*

37- topshiriq. Matnni monolog tarzida ifodali o'qing. Kelishik qo'shimchalarining qo'llanishi va yozilishini sharhlab bering.

O, yulduzlar... yulduzlar!.. Mirzo Ulug'bek ellik yil ularga oshufta bo'ldi. Kechalarni bedor o'tkazib, har bir sitora, har bir yulduzning burjini, ya'ni harakatidagi chambar yo'lini kuzatdi. Hayhot! Qirq yil umrini sarf qilib, yulduzlar sirini, koinot sirini o'rgandi-yu, zamin siriga, insonlar hayotiga kelganda g'aflatda qoldi. U falak sirlarini bilsam, zamin va hayot sirlarini ham bilurmen, deb o'ylagan edi. Yo'q, yanglishdi! Falak sirlarining bir

chetini xiyol ochganday bo‘ldi, lekin insoniyat, nainki insoniyat, hattokim o‘z pushti kamaridan bo‘lgan zurriyotlarining yuraklariga qo‘l solib ko‘rolmadi, matlablari ne? Bilolmadi!..

(O. Yoqubov. «Ulug‘bek xazinasi»)

QO‘SHMA VA JUFT SO‘ZLAR IMLOSI

31- mashq. Gaplarni o‘qing, ulardagi qo‘shma va juft so‘zlarni toping va alohida-alohida ustunlarga ajratib, daftaringizga ko‘chiring.

1. Farg‘ona vodiysi osmono‘par tog‘lar bilan o‘ralgan. 2. Quyosh tog‘-toshlarni qizdirgan payt, ertapishar olmalar qip-qizil. 3. G‘o‘zapoyasi yig‘ib olingan daladan yoz-u qish hosil olinadi. 4. Yosh-qari, erkak-ayol aralash-quralash bo‘lib ko‘cha boshida to‘planishdi. 5. «Qo‘shariq» jamoa xo‘jaligida g‘o‘za obihayotga qondirilmoqda. 6. Ona-bola uy-joyni yig‘ishtirib, sadarayhon atrofida dam olishdi. 7. Bu bodomqovoq qiz xushfe’l tabiati bilan katta-yu kichikning olqishiga sazovor bo‘ldi.

38- topshiriq. Lug‘atdan ikki va undan ortiq o‘zakli qo‘shma so‘zlarga 10 ta misol toping va ularning 4 tasi ishtirokida gaplar tuzing.

!

1. Quyidagicha tuzilishdagi qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi:

– bir tushunchani bildiradigan va bir bosh urg‘u bilan aytiladigan qo‘shma so‘zlar: *belbog‘, asalari, oshqozon, sheryurak, qashqargul* kabi;

– *xush, kam, ham, umum, bop, noma, xona, sifat, rang, baxsh* kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma so‘zlar: *xushxabar, kamhosil, hamfikr, umumxalq, hammabop, tavsiyanoma* kabi;

– ikkinchi qismi **-(a) r, -mas** qo‘shimchalari bilan tugaydigan qo‘shma so‘zlar: *o‘rinbosar, cho‘lquvar, ishyoqmas, qushqo‘nmas;*

– keyingi qismi turdosh ot yoki obod so‘zi bilan ifodalangan geografik nomlar: *Amudaryo, Yangiyo‘l, Kosonsoy, Yunusobod* kabi.

32- mashq. Berilgan qo‘shma so‘zlarning tarkibini aniqlang va imlosini tushuntirib bering.

Oqqo‘rg‘on, qushtili, tinchliksevar, umumjahon, baqaterak, makkajo‘xori, Sirdaryo, sovuqmijoz, devqomat, pirpirak, olmaqoqi, suvilon, bayramoldi, qo‘lbola, sohibjamol, birpas, mingoyoq, xushhavo, qo‘ziqorin, bodomnusxa, izzattalab.

39- topshiriq. Ruboiylardagi qo‘shma so‘zlarni aniqlab, tarkibini izohlang.

Shoho, fuqaroki munisi g‘amdurlar,
Bedordil-u ko‘zlari purnamdurlar
Zinhor alarni qilmag‘il ozurda,
Otashdam-u barhamzani olamdurlar.

(Shermuhammad Munis)

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

(Z. M. Bobur)

!

2. Quyidagi tuzilishdagi qo‘shma so‘zlar ajratib yoziladi:

– birinchi qismi sifat, ikkinchisi atoqli ot bo‘lgan geografik nomlar: *Kichik Osiyo, Sharqiy Turkiston, Quyi Chirchiq* kabi;

– qo‘shma fe’lning qismlari ajratib yoziladi: *shifo topmoq, olib chiqmoq, yoza boshlamoq, aytib bermoq, ko‘rgan edi* kabi;

– qo‘shma ravishlar ajratib yoziladi: *har kim, hech bir, hamma vaqt, qay kuni* kabi. *Biroz, birpas, birato‘la, birmuncha* so‘zlari bundan mustasno;

– o‘zaro **-dan** qo‘shimchasi bilan bog‘langan takror so‘zli birikmalar: *kundan kunga, tomdan tomga, ochiqdan ochiq, ko‘pdan ko‘p* kabi.

40- topshiriq. Lug‘atdan ajratib yoziladigan so‘zlarga 10 ta misol toping va ularning 4 tasi ishtirokida gaplar tuzing.

33- mashq. Matnni o‘qing. Ajratib yoziladigan so‘zlarni aniqlab, tuzilishini izohlang.

– ...Maqsadlari juda ochiq! Bittasi mingboshi bo‘lmoqchi, ikkinchisi Normuhammadning o‘rniga minmoqchi, uchinchisi yana bir shaharni o‘ziga **qaram qilmoqchi.** Xon ersa Musulmonqulga bo‘lgan adovatini qipchoqni qirib alamdan chiqmoqchi! Menga qolsa o‘rtada shundan boshqa **hech gap** yo‘q, o‘g‘lim! Men ko‘p umrimni shu yurtning tinchligi va fuqaroning **osoyishi uchun** sarf qilib, o‘zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni nima ekanini bilmagan, yolg‘iz **o‘z manfaati**, shaxsiyati yo‘lida bir-birini yebichgan mansabparast, dunyoparast muttahamlar Turkiston tuprog‘idan yo‘qolmay turib, bizning odam bo‘lishimizga aqlim **yetmay qoldi...** Biz **shu holda** ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadigan bo‘lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo‘lsak o‘z qo‘limiz bilan kelgusimizni o‘ris qo‘liga qoldirgan bo‘lurmiz. O‘z naslini kofir qo‘liga tutqin qilib topshiruvchi – biz ko‘r va aqlsiz otalarga xudoning la’nati al-

batta tushar, o‘g‘lim! Bobolarning **muqaddas gavdasi** madfun Turkistonimizni kofirxona qilishga hozirlangan biz itlar, yaratuvchining qahriga, albatta, yo‘liqarmiz! Temir ko‘ragon kabi dohiylarning, mirza Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug‘bek va Abu Ali ibn Sino kabi olimlarning **o‘sib-ungan** va nash’u namo qilganlari **bir o‘lkani** halokat chuquriga qarab sudraguvchi, albatta, tangrining qahriga sazovordir, o‘g‘lim! Gunohsiz bechoralarni bo‘g‘izlab, bolalarini yetim, xonalarini **vayron qiluvchi** zolimlar – qurtlar va qushlar, yerdan o‘sib chiqqan giyohlar qarg‘ishiga nishonadir, o‘g‘lim!..

(A. Qodiriy. «O‘tkan kunlar»)

34- mashq. Juft so‘zlarni ajratib oling va daftaringizga ko‘chiring. Ularning ma’nosini tushuntiring.

Urf-odat, nim pushti, yarimorol, tez-tez, baxt-saodat, dori-darmon, toshko‘mir, yalangoyoq, tasdiq etdi, uch-to‘rt, yoza-yoza, o‘g‘il-u qiz, qosh-qovoq, olgan bo‘ldi, qo‘rqa-pisa, shu on, tokqaychi, yuzma-yuz, hovli-joy, so‘ramay-netmay, olaqarg‘a, asbob-uskuna, yer-u osmon, sap-sariq, hol-ahvol, ko‘ksulton, keta ber, yoz-u qish.

41- topshiriq. Quyidagi so‘zlar yoniga mos so‘zlar qo‘yib juft so‘zlar yasang va yozilishini izohlang.

Qarindosh - ..., kuch - ..., qovun - ..., yo‘l - ..., non - ..., osh - ..., o‘yin - ..., bo‘lar - ..., gul - ..., yer - ..., yor - ..., dor - ..., temir - ..., asta - ..., oq - ..., chora - ..., kirim - ..., mehr - ..., aytdi - ..., kecha - ..., uzoq - ... .

!

3. Quyidagi so‘zlar chiziqcha bilan ajratib yoziladi:

– juft va takror so‘zlarning qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *asta-sekin, uch-to‘rt, kiyim-kechak, qop-qop, uy-uyiga* kabi;

– juft so‘zlar orasida **- u (-yu)** bog‘lovchisi qo‘llansa, bog‘lovchidan oldin chiziqcha qo‘yiladi: *oq-u qora, kecha-yu kunduz* kabi;

– **-ma, -ba** yordamida birikkan so‘z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *yuzma-yuz, rang-barang, qadam-baqadam* kabi;

– arab raqamlari bilan yozilgan tartib sonlar chiziqcha bilan yoziladi: *5- sinf, 6- «V» sinf, 1991-yil, 3- mart* kabi.

42- topshiriq. Matnni o‘qing. Chiziqcha bilan yozilgan so‘zlarni aniqlab, chiziqcha qo‘yilishining sabablarini aniqlang.

Biz hayotlik chog‘larida ota-onamizning qadriga yetamizmi, axir, ular bizni deb sog‘liqlaridan kechishgan, tunlarni bedor o‘tkazishgan. Ko‘p mashaqqatlar chekishgan. Ne-ne to‘siqlarni yengishgan va oxir-oqibatda kuch-quvvatdan qolishgan. Asablari bora-bora ishdan chiqqan. Ko‘ngillari yarimta bo‘lib qolgan. Tabiiyki, bunday holatda ular o‘g‘il-qizga munosabatda, muomalada, gap-so‘zda, ehtimolki, xatoga yo‘l qo‘yishlari mumkin. Ana shunday paytda biz ularni to‘g‘ri tushunamizmi, kechira olamizmi, oshiqmay, asabiylashmay, yuzma-yuz o‘tirib, xushmuomalalik bilan fikrimizni tushuntira olamizmi?

Dunyodan, hayotdan, kelajakdan, puf-puflab, avaylab, oq yuvib, oq tarab o‘stirayotgan farzandlarining orzu-havasini ko‘rishdan, ularning kelajakda baxtli bo‘lishidan umidvor bo‘lgan odamlar, yigit va qizlar bu haqda chuqur o‘ylab, mushohada qilib ko‘rishlari lozim.

43- topshiriq. Lug‘atdan 10 ta so‘z tanlab, ularni yuklamalar bilan qo‘llang va chiziqcha bilan yoziladiganlarini bir ustunga, qo‘shib yoziladiganlarini boshqa ustunga yozing.

BOSH HARFLAR VA QISQARTMA SO‘ZLAR IMLOSI

35- mashq. Matnni o‘qing. Bosh harf bilan yozilishi zarur bo‘lgan so‘zlarni aniqlab, qoidaga muvofiq ko‘chirib yozing.

...abdulla qodiriy, ba’zi bir odamlar aytmoqchi, «bir-ikkita risola yozgan» anchayin yozuvchi emas, balki yangi davr adabiyoti, yevropa adabiyoti gazi bilan o‘lchaganda ham to‘laqonli asarlar yozgan, o‘zbek romanchiligini boshlab bergan ulkan adibdir. Uning «o‘tkan kunlar», «mehrobdan chayon» romanlari, bir talay hajviy asarlari xalq orasida g‘oyat mashhur bo‘lib, har bir o‘zbek oilasiga, hatto savodxon odam bo‘lmagan oilalarga ham kirib borgan edi. Allaqayerdan kelgan bir kitobxon «O‘tkan kunlar»ni yod bilar ekan, kitobning istalgan joyini so‘raganda sharros o‘qib berganida abdulla qodiriy unga chopon kiygizgani yodimda bor...

bizning 20- yillar adabiyotimiz tarixi hozirgi turishida kambag‘al ko‘rinadi. O‘z vaqtida faqat abdulla qodiriygina emas, kattakon olim-yozuvchi fitrat, zo‘r talant egasi cho‘lpon, jo‘shqin shoir botu, satira va yumorda tengi, timsoli yo‘q va o‘ziga xos shoir so‘fizoda, yigirmanchi yillar poeziyasini bezagan shoirlardan rafiq mo‘min, g‘ulom zafariy, usta satirik shoir abduhamid majidiy singari ko‘p adiblarimizning ham nomi o‘chgan edi.

(Abdulla Qahhor)

!

Quyidagi so‘zlar bosh harflar bilan yoziladi:

– atoqli ot hisoblangan kishi ismlari, taxallusi, joy nomlari va boshqa geografik nomlar: *Abror, Shokirov, Fitrat, Afshona, Pomir, Turkiya, Mirrix, Oy* kabi;

– davlat va uning oliy tashkilotlari, mansablari, xalqaro tashkilotlar nomlarining barcha so‘zlari: *O‘zbekiston Respublikasi, O‘zbekiston*

Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, Jahon Tinchlik Kengashi kabi;

Boshqa tashkilot, vazirlik, idora va ulardagi yuqori lavozim va idorani bildiruvchi so‘zlarning faqat birinchi so‘zi: *Yozuvchilar uyushmasi, Fan va texnologiyalar markazi, Mudofaa vaziri* kabi;

– *oliy mukofot nomlaridagi har bir so‘z: O‘zbekiston Qahramoni, Oltin Yulduz;* boshqa mukofot, nishonlar nomidagi birinchi so‘z: *«Sog‘lom avlod uchun» ordeni, «Xalq ta’limi a’lochisi» nishoni* kabi;

– muhim tarixiy sana va bayram nomlarining birinchi so‘zi: *Mustaqillik kuni, Ramazon hayiti* kabi;

– qisqartma otlar: BMT, AQSh. Qisqartma tarkibidagi bo‘g‘inga teng qismning birinchi harfi: *O‘zMU, ToshDTU* kabi.

36- mashq. Gaplarni ko‘chiring. Bosh harflarning qo‘llanish o‘rni va sababini izohlang.

1. 1991- yil 31- avgustda O‘zbekiston Oliy Kengashi «O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risida» qonun qabul qildi va 1- sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb e’lon qilindi. 2. 1920- yilda Turkfront qo‘mondoni M. Frunzening bosqinchi armiyasi Buxoro shahrini bosib olib, amir Said Olimxon hokimiyatini ag‘dardi. 3. Polyak olimi Nikolo Kopernik Yerning Quyosh atrofida aylanishiga doir geliosentrizm nazariyasiga asos soldi. 4. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi Inson huquqlari milliy markazi, Oila markazi, Ijtimoiy fikr markazi kabi tashkilotlar bilan birga mafkuraviy ishlarni kuchaytirmoqda. 5. Husayn Boyqaro Navoiyni olib, Balxga jo‘naydi. 6. O‘sha kuni Xalq ta’limi vaziriga uchrashdim. 7. Sharq

adabiyotida birinchi bo‘lib «Xamsa» yozgan kishi buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydir.

44- topshiriq. Markaziy Osiyo hududidagi davlatlar, ularning oliy tashkilotlari, tog‘, ko‘l va daryolarining nomlarini yozing va imlosiga oid test tuzing.

45- topshiriq. Matnlarni o‘qing. Bosh harf bilan yozilgan so‘zlar va qisqartma so‘zlarning yozilishini izohlang.

1. 1954-yil. Sira yodimdan chiqmaydi. O‘shanda to‘qqizinchi sinf o‘quvchisi edim. Mening ilk she’riy mashqlarimdan biri «MGU ga» nomi bilan «Sharq yulduzi» jurnalida bosilib chiqdi. *(E. Vohidov)*

2. «O‘zqishloqxo‘jalikmash-xolding» kompaniyasi aksiyadorlari asosini AQSh ning «Keys-Nyu Xolland» korporatsiyasi va o‘zimizning Paxtabank, O‘zsanoatqurilishbank, Transbank kabi bir qator nufuzli subyektlar tashkil etadi.

3. Har yili 31- avgust kuni – Mustaqillik bayrami arafasida Toshkent shahridagi «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuida qatag‘on qurbonlarini yod etish marosimi o‘tkaziladi. O‘zteleradiokompaniya, O‘zA va boshqa ommaviy axborot vositalari bu tadbirning ahamiyatini keng targ‘ib qiladilar.

!

BO‘G‘IN KO‘CHIRILISHI

Quyidagi hollarda ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi keyingisiga ko‘chiriladi:

– so‘zning bosh yoki oxirgi bo‘g‘ini bir harfdan iborat bo‘lsa, u harfning o‘zi bir satrdan boshqasiga ko‘chirilmaydi: *a-badiy* emas, *abadiy, mudofa-a* emas, *mudo-faa* kabi;

– bo‘g‘inda ikki undosh yonma-yon kelsa, birgalikda keyingi satrga ko‘chiriladi, agar uch

undosh kelsa, oldingi bittasi satrda qoldiriladi: *dia-gramma, silin-drik* kabi;

– bir tovushni ifodalovchi harflar birikmasi birgalikda ko‘chiriladi: *pe-shana, ko‘-ngil, pi-choq* kabi;

– turli xil qisqartmalar, raqamli nomlar va shartli belgilar bir-biridan ajratilib ko‘chirilmaydi: *MDH, 6- «V» sinf, Boing–767, 18 sm* kabi.

37- mashq. Quyidagi so‘zlarning bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga muvofiq boshqa qatorga ko‘chiriladiganlarini chiziqcha bilan ajratib chap tomonga, bo‘g‘inlari ko‘chirilmaydigan so‘zlarni esa o‘ng tomonga yozing.

N a m u n a:

aka	ba-land
dars	sing-lim

Ayrim, abonent, arfa, albom, ana, ariya, BMT, badiiy, vals, videofilm, varaqa, vatan, gulli, guruh, gumanizm, gramm, dunyo, da’vat, diyonat, dengiz, yechim, yetakchi, yengil, itoat, ilmiy, SamDU, singari, staj, sessiya, payrov, taqriz, talant, ta’kid, taassurot, katalog, konspekt, me’yor, mantiqiy, muqova, O‘zOAV, repertuar, rangli, radioritm, qiroatxona, qiliq, ulug‘, urug‘siz, unumdorlik, g‘oya, g‘ilof, hudud, hukm, harakat, etud, elektr, ehtimol.

46- topshiriq. Matnni o‘qing. Ostiga chizilgan so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra bo‘g‘inlarga ajrating va sababini sharhlab bering.

Kishilar **tafakkur** bobida turli darajadadirlar. Shu darajalarni aniqlash uchun tilimizda **layoqat, qobiliyat, iste’dod, iqtidor, salohiyat** va **daho** degan tushunchalar mavjud.

Shaxsning muayyan ish yuzasidan layoqati va uni muvaffaqiyatli bajarishdagi o‘ziga xos imkoniyatlarini belgilovchi **yolg‘iz o‘ziga xos xususiyatlariga** qobiliyat deyiladi.

Har bir kishida **muayyan** soha bo‘yicha biror xususiyat boshqalarga qaraganda **nisbatan** kuchliroq rivojlangan bo‘lishi mumkin. Ana shu uning qobiliyatidir.

Qobiliyatdagi xususiyatlar **tug‘ma** bo‘ladi, shu qobiliyat egasi bilim olishi, malaka hosil qilishi orqali uni **takomillashtira borishi** va, aksincha, **tanballik** qilib, **bora-bora** so‘ndirib yuborishi ham mumkin.

(«Vatan tuyg‘usi» kitobidan)

TINISH BELGILARI IMLOSI

38- mashq. Gaplarni o‘qing. Tinish belgilariga tavsif bering va vazifasini izohlang.

1. Aziz kitobxonlar! Hech qachon unutmangki, sizlar Navoiydek ulug‘, tabarruk boboga nabira bo‘lasizlar. *(E. V.)* 2. «Paxta bizning faxrimiz» degan gap shunchaki shior emas. *(O. Y.)* 3. Darvoqe, o‘sha yigit haqida eshitganmisiz? 4. Axir, qizning qo‘lida guldek hunari bor-ku! 5. Hech o‘ylaysanmi: qishloqda shuncha voqealar bo‘lib o‘tdi. 6. Eh, bu yerning nimasini aytasan: xayoldagi jannatning xuddi o‘zi. *(H.G‘.)* 7. Hamid Olimjon: «Jismimiz yo‘qolur, o‘chmas nomimiz», deb bejiz aytmagan.

Tinish belgilari yakka yoki birikkan holda ishlatiladi. Bu belgi gap mazmuni va ohangiga muvofiq holda qo‘yiladi.

– **so‘roq va undov belgisi birikkan holda** kuchli hayajon bilan aytilgan so‘roq gaplardan so‘ng qo‘yiladi: Masalan: – *Nimalar deyapsiz o‘zi?! Men bu maqsadda kelganim yo‘q-ku?!*

– **nuqtali vergul** o‘z ichida verguli bo‘lgan, mazmunan biroz farqlanuvchi gaplardan iborat bo‘lgan qo‘shma gaplarda qo‘llanadi: *Bir joyda turganimda deyarli fikr qilolmayman; tanam hamma vaqt harakatda bo‘lishi kerak, ana o‘shanda aqlim ham harakatga keladi. (J. J. Russo)*

– ikki nuqta quyidagi hollarda qo‘yiladi:

a) uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi yoki ularni oydinlashtiruvchi so‘zdan keyin: *Bozordagi bor gullardan: atirgul, lola, chinnigul oldim. So‘zga chiqdilar: S. Olimov, I. Shokirov, A. Ulug‘ov va boshqalar.*

b) bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda biror gap boshqa gapni izohlasa, uning sababi yoki natijasini ko‘rsatsa: *Abror qizni darrov tanidi: u qo‘shni mahalladagi do‘konda ishlar edi.*

39- mashq. Nuqtalar o‘rniga tegishli tinish belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Tinish belgilarining qo‘yilish sababini tushuntiring.

1. Albatta... go‘zallik ham har xil bo‘ladi... kechasi qop-qora osmonda olovli iz qoldirib uchgan yulduz ham go‘zal, kunduzi guldan gulga qo‘nib yurgan kapalak ham go‘zal... (A. Q.) 2. Lekin na chora... Bu manhus toj-u taxt... bu saltanat... insonlar ustidan hokimlik qilmoq istagi shunday shirin ekanki, uning niyati pokligiga kim ishonadi... (O. Y.) 3. Biz... Ahror ikkalamiz... allamahalgacha uxlamay... onam haqida... uni xursand qilish haqida gaplashib yotdik... 4. Rus edi, mallaroq edi... o‘zi ham barvasta... kelishgan yigit edi. 5. U olacha chopon kiygan... beliga qiyiqcha bog‘lab olgan... oftobda oqargan do‘ppisi daraxt shoxiga ilingan edi. 6. Qachongacha bizni aldaysizlar... bo‘ldi endi... Boshqa ishonmaymiz...

47- topshiriq. Quyidagilarga javob qaytaring va bajaring.

1. Biror narsadan xursand bo‘lganingizni hayajon bilan ifodalab gap tuzing, so‘ng unda ishlatgan tinish belgilarini sharhlang.

2. Ikkinchi gapda birinchisining izohi ifodalangan gapga misol ayting. Bunday holda qanday tinish belgilarini qo‘llash o‘rinli?

3. Uyushiq bo‘lakli gap tuzing, undagi tinish belgilarini izohlang.

4. Taajjub, kuchli hayajon bilan ifodalangan gap tuzib, unda qo‘llangan tinish belgilariga tavsif bering.

48- topshiriq. Matnni ifodali o‘qing. Qo‘shtirnoq, tire, so‘roq va undovlarning qo‘yilish sabablarini izohlang.

Konsert odatdagicha «Navbatdagi nomerimizda...» deb boshlanib, «kelganlaringga rahmat, o‘rtoqlar» bilan tamom bo‘ldi. Nomi chiqqan ashulachi – san’atkordan boshqa hamma xursand bo‘lib tarqaldi. San’atkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalga chiqqan edi, bir traktorist uni savodsizlikda aybladi. Traktorist tanqid qilganiga san’atkor asti chiday olmas edi: traktor qayoqda-yu, masalan, «chorzarb» qayoqda, traktorist qayoqda-yu ashulachi qayoqda!

San’atkor uyiga ketgani izvoshga o‘tirganida yana tutaqib ketdi: «Hech bo‘lmasa aytadigan ashulangni o‘rgan, so‘zlarini to‘g‘ri ayt» emish! Nimasini bilmayman, nimasi to‘g‘ri emas? Meni shu vaqtgacha muxbirlar, yozuvchilar ham tanqid qilgan emas, formalizm, naturalizmlardan o‘tdim – hech kim otvod bergani yo‘q. Otvod berish qayoqda, hech kim meni og‘ziga ham olmadi. Endi bir traktorist tanqid qilar emish!..

San’atkor izvoshchini hayron qoldirib, o‘zidan o‘zi g‘uldirab borar edi. Uyda xizmatchi ovqat qilib qo‘ygan

ekan, san'atkorning tomog'idan hech narsa o'tmadi – ikki piyola choy ichdi, xolos... *(Abdulla Qahhor)*

Tire (–) quyidagi hollarda qo'llanadi:

– ega kesim bilan hech qanday bog'lovchilarsiz birikkanda: *Bu – sening ishing. Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz;*

– zidlik, shart, o'xshashlik mazmuni ifodalangan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda: *Qor yog'di – izlar bosildi. Qo'shning tinch – sen tinch;*

– kirish gaplar, ajratilgan bo'laklar o'rtasida: *Rufat Risqiyev – mashhur bokschi – musobaqa to'g'risida gapirib berdi;*

– uyushiq bo'lakdan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: *Paxta, oltin, gaz – bular bizning boyligimiz;*

– ko'chirma gap bilan muallif gapi orasida: *«U bilan internet orqali tanishdim»,– dedi Abror;*

Qo'shtirnoq (« ») quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

– ko'chirma gapni ajratib ko'rsatish uchun: *«Inson bolalikdan boshlanadi», – deydi xalqimiz;*

– shartli nomni, kinoya ma'nosini bildirgan yoki ko'chma ma'noda qo'llangan so'z yoki birikmalar: *«Lochin!» «Lochin!» «Parvoz»ni eshit! Uning bunday «chiroyli» qilig'idan uyalib ketdim.*

40- mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Tire va qo'shtirnoqning qo'yilishini izohlang.

1. Ikki dugona... Lobar bilan Nazira birga to‘yga ketishdi. 2. Ahror ovoz egasini tanidi.... Hasan naychi edi. 3. ...Hunari bor hech kimga zor bo‘lmas... degan maqol bor. 4. Yaxshidan bog‘ qolar... yomondan dog‘. 5. Telefon ...jiring... etsa... yuragim ...shuv... etadigan bo‘lgan. 6. ...Men qoqi o‘t, karnaygul, tog‘ piyozi... giyohlarni teraman... dedi yo‘lovchi.

49- topshiriq. She’riy parchani ifodali o‘qing. She’rning davomini yoddan yozing. Tinish belgilariga tavsif bering.

Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo?!
Nechun Vatan deya yer-u osmonni
Muqaddas atayman, atayman tanho?
Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir, quyoshli-ku butun Osiyo.
Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Bog‘larin jannat deb ko‘z-ko‘z etaman,
Nechun ardoqlayman tuprog‘ini men,
O‘paman: «Tuprog‘ing bebaho, Vatan»...

(*Abdulla Oripov*)

BU BO‘LIMDA SIZ QUYIDAGILARGA AMAL QILISHNI O‘RGANASIZ:

- ***nutqiy muomala odobi mezonlari;***
- ***nutqda so‘zni to‘g‘ri tanlash va o‘rinli qo‘llash yo‘llari;***
- ***so‘z ma’nolarini aniqlash va farqlay olish;***
- ***ko‘chma ma’noli so‘zlardan o‘rinli foydalana bilish;***
- ***so‘zlarni shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra farqlash, nutqda bu imkoniyatlardan foydalanish;***
- ***so‘zlarning hissiy-ta’siriy belgilarini tavsiflash.***

50- topshiriq. Matnni o‘qing. So‘z va til odobi to‘g‘risidagi misralarning ma’nosini sharhlang.

Donolik ramzi – so‘z, bilib so‘zlansa,
Nodonning o‘zi ham so‘zi qo‘lansa.
Ko‘p so‘zlab topmadim ochunda bir naf,
Ko‘zlangan bu naf ham so‘z ko‘pidan daf.
So‘zni ko‘p so‘zlamay, sizlab ayt, oz-oz,
Tuman so‘z tugunin shu bir so‘zda yoz.
Erkim so‘z vajhidan taxtga egadir,
So‘zkim, er boshini pastga egadir.
Bor so‘zni keltirsam, sig‘dirmas naql,
O‘zida bor odam bilar: So‘z – aql.
So‘zlamoqdan, o‘g‘lim, seni ko‘zladim,
Ba’zan so‘zim tuzlab, o‘zim bo‘zladim.
Mendan ulush qolsa, yumushdan o‘zga,
Oltin-u kumushni teng ko‘rma so‘zga.
Kumushsiz boshingga tushsa yumush ham,
So‘zimdan keladi yombi, kumush ham.
Otadan o‘g‘liga qolgani bu – so‘z,
Otalar so‘zin tut, nafi ham yuz-yuz.

Yusuf Xos Hojib

O‘zbek tilida, avvalo, uning boy lug‘at tarkibida o‘zbek xalqining ilm-u madaniyati, san’ati aks etgan, insonning bilish faoliyati jarayoni va uning natijalari ifodalangan. Asosiy lug‘aviy birlik hisoblangan so‘z orqali kishilik jamiyatining madaniy-tarixiy qadriyatlari, to‘plangan tushuncha va bilimlar avloddan avlodga yetkaziladi.

So‘z shakl va mazmun yaxlitligiga ega bo‘lib, ma’no va grammatik jihatdan shakllangan til birligidir.

So‘zning shakli, ya’ni **tashqi tomoni** tovush (harf)lardan iborat bo‘lib, bu xususiyatlari fonetikada o‘rganiladi. So‘zning **ichki tomoni** esa unda ifodalangan ma’nolar bilan tavsiflanadi. So‘zlar bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli bo‘lishi mumkin. Ko‘p ma’noli so‘zlar til taraqqiyoti natijasida paydo bo‘ladi. So‘zning bir narsa-hodisani bildirishi uning **lug‘aviy (leksik) ma’nosi** sanaladi. Ana shu lug‘aviy ma’no asosida boshqa ma’nolar ham ifodalansa, u **yasama (ko‘chma)** hisoblanadi. Badiiy nutqda so‘zning yasama ma’nolaridan keng foydalaniladi.

41- mashq. Gaplarni o‘qing, ajratilgan so‘zlarning ma’nolarini izohlang. Nutq odobi masalasi berilgan gaplarda so‘z qanday talqin etilganligini tushuntirib bering.

1. Har bir odamning **noaniq** so‘zini eshitmagil, ehtiyot bo‘lgilki, avvalgi so‘zingni keyingi so‘zing buzib yubormasin. *(«Qobusnoma»)* 2. Tilda uni nomlovchi so‘z bo‘lmasa, shunday so‘zni qo‘shni tildan olish mumkin. Ammo **tilda mavjud** so‘zlar o‘rnida boshqa so‘zni qo‘llash zararlidir. *(M. Qoshg‘ariy)* 3. Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning so‘zi, nutqidir. *(A. Navoiy)* 4. Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi so‘z qisqa – muxtasar; kimning miyasida illat bo‘lsa, so‘zida mantiq

bo‘lmaydi. *(A. Navoiy)* 5. Kishi so‘z tufayli bo‘ladi malik, ortiq so‘z bu boshni etadi egik. *(Yusuf Xos Hojib)* 6. Bor so‘zni so‘z sanab tebranmasin til, ko‘rib, o‘ylab so‘zla, keragini bil. *(So‘fi Olloyor)* 7. Kimki so‘zni qadrlasa har qachon, o‘z-o‘zini qadrlagay begumon. *(A. Jomiy)*

51- topshiriq. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonidagi «So‘z ta’rifida» bobini o‘qing va shu asosda quyidagi savollarga javob bering.

1. Alisher Navoiy so‘zni nima uchun gavharga o‘xshatadi?
2. «Tanida ruh – aning tolibi» jumlasini sharhlang.
3. Alisher Navoiy qaysi misralarida so‘zni fikr majmui ma’nosida qo‘llagan?
4. So‘zning badiiy imkoniyatlari xususida shoir nimalar deydi?
5. «...dur so‘zini afsona bil» jumlasi orqali qanday fikr ilgari suriladi?

52- topshiriq. Matnni o‘qing. Alisher Navoiyning til imkoniyatlari va so‘z ma’nosi taraqqiyoti haqidagi qarashlari asosida bayon yozing.

...Ko‘ngil barcha ma’nolarni jamlagan ummondir, so‘z – ko‘ngil dengizidagi bir inju. Dengizdan injuni g‘avvos olib chiqqani va uning qiymatini tayin etganidek, ko‘ngildagi so‘z injusi so‘zlovchi tarafidan bezaladi, qiymati ham anglash darajasining nisbatiga ko‘ra belgilanadi. Injuning qiymati haqida: «darajalari ko‘p», hatto «qiymati bir dirhamdan 100000 dirhamgacha bo‘lgan injular bor», deyish mumkin...

So‘z injusining qiymati bundan-da ulug‘, darajasi bundan-da yuksakdir. Uning ulug‘ligi shu darajaki, o‘lik tanga ruh bag‘ishlaydi. Ayni paytda, tirik jonni ruhdan mahrum etmog‘i mumkin. Har bir jamiyatning so‘z boyligi boshqalaridan, so‘zlarning ma’nolari-da o‘zgala-

ridan farqlidir va bir-birlarida bo‘lmagan bir necha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qushlarning, hayvonlarning, yirtqichlarning tillari ham shundaydir. Har birining o‘ziga xos gapirish tarzi, bir bo‘lmagan tovush va sayrashlari bor. Ammo so‘z ma’no ifodalash xususiyatiga, inson fikrlash salohiyatiga egadir. So‘z – ma’no, inson esa bayon bulog‘idir...

(«Muhokamat ul-lug‘atayn»)

Ajdodlarimiz qadimdan to‘g‘ri, ta’sirchan, chiroyli gapirishga intilish va ularni odatga aylantirishga ma’rifiy-axloqiy talab sifatida qarab kelganlar. So‘zni qadrlash, yaxshi so‘zlay olish, so‘zlaganda o‘ylab, tushunib gapirish, chin so‘zlash, tilni tiyish, suhbat sirlarini saqlash, ezma va vaysaqi bo‘lmaslik kabilarga amal qilish nutq odobining asosiy talablari hisoblangan. Nutqiy muomaladagi bu odatlar xalqimizning mangu an’anasi sifatida yashab va takomillashib kelmoqda.

Nutq madaniyatini egallash birinchi galda hozirgi o‘zbek tili va uning mavjud ifoda vositalarini puxta o‘zlashtirish, adabiy til me’yorlariga to‘liq amal qilish kabi lisoniy omillarga, ikkinchidan, so‘zlashganda muayyan axloq-odob me’yorlariga rioya etish, o‘z va o‘zgalar gapiga e’tiborli bo‘lish, o‘rinli so‘zlash, tinglash, suhbatlashish, munozara madaniyatini bilish kabi ijtimoiy-ruhiy omillarga bog‘liqdir.

53- topshiriq. Nutq odobiga oid 10 ta maqol yozing va shulardan to‘rttasining mazmunini izohlang.

42- mashq. Gaplarni o‘qing. Noto‘g‘ri qo‘llangan so‘zlarni aniqlab, ma’nosiga ko‘ra mos so‘z bilan almashtirib, gaplarni ko‘chiring.

1. So‘zlovchining o‘z fikrini qisqa va batafsil ifodalab, tinglovchiga yetkazishi ham o‘ziga xos san’atdir. 2. So‘zga benazir kishi mayda bir maqsadni uzoq so‘zlab bayon qiladi. 3. Nojo‘ya so‘z yurak ko‘zgusini parchalashi, tag‘in insonni vayron qilishi mumkin ekanligini yodda tuting. 4. Nutqi asal kishining mehribon odamzodi ham ko‘p bo‘ladi. 5. Shirin so‘z, go‘zal til inson dilini bunchalik xushnud etsa, aksincha, achchiq so‘z, beso‘naqay gap inson dilini qanchalik noxush qiladi, dil piyolasini parchalaydi. 7. Mashq sababli so‘zlash qobiliyatini, nutq madaniyatini, notiqlik san’atini odamlar olqishlaydigan saviyada egallash mumkin.

!

SO‘Z TANLASH VA QO‘LLASH

Nutqda so‘zni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash nutq madaniyatining muhim shartlaridan hisobla-nadi. Fikrni tinglovchiga tushunarli va aniq yetkazishda so‘zni to‘g‘ri tanlash lozim.

So‘z tanlashda quyidagilarga e’tibor beriladi:

– so‘zning lug‘aviy ma’nosini bilgan holda tanlash;

– tanlangan so‘zni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;

– so‘zning suhbatdoshlarga tushunarli bo‘lishini hisobga olish;

– so‘zning ma’no xususiyatlariga asoslanib, uni nutq maqsadiga muvofiq tarzda tanlash.

Atamalar, kasb-hunarga oid so‘zlar faqat bir ma’noni ifodalash uchun qo‘llanadi. Bular bir ma’noli so‘zlardir. Masalan: Piyola – choy ichishga mo‘ljallangan idish; leksikologiya – so‘z ma’nolarini o‘rganuvchi fan ma’nosidagina qo‘llanadi.

So‘zlar ikki va undan ortiq ma’noni ifodalasa, ko‘p ma’noli sanaladi. Avval bir ma’noda qo‘llangan so‘zning ko‘p ma’nolarda ishlatilishi ko‘p ma’nolilikni vujudga keltiradi.

Masalan:



43- mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratilgan so‘zlarning ma’nolarini izohli lug‘atdan foydalangan holda izohlab, daftaringizga yozing.

1. Daraxt bir yerda ko‘karadi. *(Maqol)* 2. Tarix g‘ildiragini orqaga aylantira oladigan kuch dunyoda yo‘q. 3. Oydin kechada ko‘l yoqasida sayr etishni xush ko‘rardi. 4. Cho‘lpon o‘zbek she’riyatiga yangi usul olib kirdi. 5. Men bu gapni tarjima vajidan aytayotganim yo‘q. *(A.Q.)* 6. Shifti qubbasimon muhtasham xona yana g‘alati guvillab ketdi. *(Y.O.)* 7. Fursat g‘animatdir, shoh satrlarla Bezamoq chog‘idir umr daftarin. *(G‘.G‘.)*

54- topshiriq. Lug‘atdan bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlarga 10 tadan misol toping, ularni ikki ustunga ajratib yozing. 4 ta ko‘p ma’noli so‘zni tanlab, ularga ikkitadan gap tuzing.

55- topshiriq. Matnlarni o‘qing. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni topib, ma’no ko‘lamini aniqlang.

I. Ustoz adibning mashhur «Ming bir jon» hikoyasida shunday so‘zlar bor: «Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta edi. Hozir tugab qolgan shamdek lipillab yonayotgan joni basharti so‘ngan taqdirda ham qolgan mingtasini yoqib, keyin so‘nadi».

Abdulla Qahhorning ham chirog‘i so‘ndi. Lekin u ming-minglab o‘quvchilari, ixlosmandlari, shogirdlari yuragiga chiroq yoqib ketdi. Bu chiroq sira zavol bilmaydi. Bu chiroq sira o‘chmaydi. *(Said Ahmad)*

II. Oy gulladi. Osmon toqiga
yulduzlarni kimdir qoqadi.

O‘zanlarda sokin to‘lg‘anib
Tag‘in quyuq kunduz oqadi.

(*Shavkat Rahmon*)

III. So‘ri uzra egilgan ishkom
Soya tashlar quyuq, yoqimli.
Qayerdasan, jonajon makon,
Bugun seni yomon sog‘indim!

(A. Oripov)

44- mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlab, daftaringizga yozing. Bu so‘zlarning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolari o‘rtasidagi bog‘lanishni chizmada ko‘rsating.

1. Alisher Navoiyning asarlari o‘zbek tilini baland pog‘onaga ko‘tardi. 2. Kishilar o‘rtasidagi iliq munosabat mehr-oqibat tuyg‘usini tarbiyalaydi. 3. Bu qasidam senga, xalqim, Oq sut-u tuz hurmati. (E. V.) 4. Olam sari ochib yangi ong, Sekin-sekin yorishardi tong (H. O.) 5. Tog‘-ning ko‘rki tosh bilan, odamning ko‘rki bosh bilan. *(Maqol)* 6. Mustaqillik tufayli millatning g‘ururi, obro‘-e’tibori o‘sdi. 7. Tinchlik xalqni farovon qiladi, yurtni gullatadi, uning istiqboliga keng yo‘l ochadi.

SO‘Z MA’NOSINING TARAQQIYOTI

Tilimizdagi mavjud so‘zlar ma’nolarining **o‘sishi ma’no ko‘chishi, ma’noning kengayishi va torayishi** tarzida ro‘y beradi.

So‘zlarda ma’no ko‘chishi metafora, metanomiya, vazifadoshlik, sinekdoxa kabi hodisalarni o‘z ichiga oladi.

1. **Metafora** (yunoncha «metapora» – ko‘-chirma) nisbiy o‘xshashlikka ega bo‘lgan ikki predmetdan birining nomi bilan ikkinchisini ham atash hodisasidir. Masalan: **yoqa – to‘n-ning yoqasi, daryoning yoqasi; etak – ko‘ylakning etagi, tog‘ning etagi.**

2. **Metanomiya** (yunoncha «metanymia»— qayta nomlash) narsa va hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi asosida bir predmet nomi bilan ikkinchisini ifoda etishdir. Bunda ikki predmet o‘rtasida hech qanday o‘xshashlik bo‘lmaydi. Ular orasidagi doimiy bog‘lanish tufayli birini aytganda ikkinchisi ham anglashiladi. Masalan: **Bir kosa suv ichdim,** deyish o‘rniga **bir kosani simirdim. Navoiyning asarini o‘qidim**, deyish o‘rniga **Navoiyni o‘qidim** kabi.

3. **Sinekdoxa** (yunoncha «sinekdoche» – birga anglamoq, qo‘shib fahmlamoq) qismning nomi bilan butunni yoki butunning nomi bilan qismni atash hodisasidir. Masalan, **«bosh»** yoki **«tuyoq»** so‘zlarining qoramol, qo‘y-echki ma’nosida, **«tirnoq»** so‘zining farzand ma’nosida qo‘llanishi.

4. **Vazifadoshlik** muayyan narsaning vazifasini ikkinchi bir narsa bajarishi natijasida avvalgisining nomi bilan keyingilarini ham ifodalashdir.

Masalan, **«siyoh»** so‘zi ilgari yozuvda **«qora rangli suyuqlik»,** keyinchalik yozishda ishlatiladigan **«turli rangdagi suyuqlik»** ma’nolarida qo‘llanadi. Yoki **«o‘q»** so‘zi **kamonning o‘qi > miltiq o‘qi > zambarak o‘qi > raketa o‘qi** birikmalarida ishlatilishi kabi.

56- topshiriq. She’riy parchalardagi so‘zlarda uchragan ma’no ko‘chish hodisalarini aniqlang va tavsiflang.

1. Lermontovni tashlamadim hech,
So‘ngra qo‘lga oldim Hofizni.
Pushkin menga ko‘rsatdi har kech
Yig‘lab turgan bir cherkas qizni.

(H. Olimjon)

2. Boyqaro irg‘ishlab istak otida,
Jahonga boqqanda misli bola sher —
Hirot darvozasin bir qanotida,
She’riy lashkarini tizgan Alisher.

(Abdull Oripov)

45- mashq. Gaplarni ko‘chiring. Ko‘chma ma’noli so‘zlarning ma’nolarini farqlab ko‘rsating. Bu so‘zlarning badiiy nutqda qanday maqsadda qo‘llanganligini tushuntiring.

1. Gunohi ne edi bu tilla boshning, Gunohi ne edi porloq quyoshning. *(I. Sulton)* 2. Yanvarning o‘n beshlarida butun qishloq to‘g‘on qurishga otlandi. *(O.)* 3. Eshikka kiring, aka, choy-poy ichib keting. *(S. A.)* 4. Chorva desam, deguday. Tuyog‘imiz ko‘paysa ko‘paydiki, kamaygani yo‘q. *(Sh.)* 5. Insoniyat dushmani mal’unga qiron solib, Qilichim tili bilan so‘zimni ayta oldim. *(G‘.G‘.)* 6. Lekin san’atimiz hozir o‘smirlik chog‘idayoq qudratli qanot paydo qilayotipti. *(A. Q.)* 7. Ikki ko‘zi har nav mollar bilan to‘la xurjunni yelkaga tashlab, inqillab kirdi. *(O.)*

57- topshiriq. Matnlarni o‘qib, ibora va g‘ayritabiiy so‘zlarni toping. Ularning ma’nolari va qo‘llanish sabablarini izohlang.

1. ...Muhiddin Jabborovich xo‘mrayib, birdan jurnalistlardan xafa bo‘lib ketdi. «Ularga uchini chiqarsa bas, quruq aravani toza olib qochishadi. O‘zlari masalani tuzukroq tushunib yetmay turib, haqiqatni arzon shovshuvga qurbon berishlariga, ilmiy faktlarni yuzaki bilgan holda yana uyalmay umumiy xulosalar chiqarib, olimlarga aql o‘rgatishlariga kuyasanmi yo o‘lasanmi?!. «Iste’dodli olim» emish! Shunday dongdor paxtakorni ham yo‘ldan urishibdi-ya?! Uning obro‘yi kerak-da, axir! Gavhar uzuk bilan danak chaqish bu!.. Vaholanki, partiya minbaridan bunday pala-partish foydalanish... bilmadim, nima deyish mumkin buni?! Tishlarining oqini ko‘rsatib, kulib turishlarini qarang! Go‘yo tog‘ni qulatib berganday...»

2. «...Hammasiga mana shu kalondimog‘ aybdor! – degan fikr o‘tdi Saltanatning xayolidan, ko‘z qiri bilan erining do‘rdaygan burniga qararkan. – Hatto muomalani bilmaydi-ku, tag‘in dimog‘laridan qor yog‘adi... Ko‘ngliga qarayverib-qarayverib, tug‘ishganlarimdan ham begona bo‘ldim. Bu avliyoga esa hali-hali bir gap oz, ikki gap ko‘p...» Saltanat qimmatbaho ziraklari elektr nurida yalt-yult chaqnab ko‘zni olayotgan nozanin opa-singillarga yana bir bor qaradi-yu, chuqur xo‘rsindi: «O‘zi shu – ovi yurganning dovi ham yurarkan!

(O‘ktam Usmonov. «Girdob»)

46- mashq. She’riy misralardagi yangi so‘zlar va g‘ayritabiiy birikmalarni anglatgan ma’nolari bilan asl ma’nolarini qiyoslab yozing. Bu so‘zlarning adabiy til me’yorlariga muvofiq-nomuvofiqligini aniqlang.

1. Och nazarim tushar suratga...
   Surat, surat! Nega sen tilsiz?..

   (Mirtemir)

2. Tovushlarning kichik, ulug‘i,
   Tovushlarning hidi-bo‘yi bor.
   Tovushlarning sovuq, ilig‘i,
   Tovushlarning rangi-ro‘yi bor.
   Tovushlarning shirin-achchig‘i,
   Bordir hatto yumshoq, qattig‘i.

   (Maqsud Shayxzoda)

MA’NODOSH, SHAKLDOSH VA ZID MA’NOLI SO‘ZLAR TAVSIFI

Nutqda so‘z va iboralar o‘zaro ma’nodosh, shakldosh va zid ma’noli tarzda qo‘llana oladi. Lug‘aviy birliklarning bu imkoniyatlaridan foydalanish nutqqa ifodaviylik, ta’sirchanlik bag‘ishlaydi.

1. **Ma’nodosh so‘zlar** bir umumlashtiruvchi ma’noga ega, ammo ma’no nozikliklari bilan farqlanuvchi, talaffuzi va yozilishi har xil bo‘lgan so‘zlardir. Masalan: **kasal, bemor, xasta, betob** kabi so‘zlar ma’no qirralari bilan o‘zaro farqlanadi.

2. **Shakldosh so‘zlar** talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo anglatgan ma’nolari turlicha bo‘lgan so‘zlardir. Masalan: a) **soz** – *puxta, ma’qul*; b) **soz –** *cholg‘u asbobi*; d) **soz** *– inoq, o‘zaro yaqin*. Agar ko‘p ma’noli so‘zning anglatgan ma’nolari o‘rtasida ichki bog‘liqlik bo‘lsa, shakldosh so‘zlarda bunday bog‘lanish bo‘lmaydi, shakldosh so‘zlarning har biri mustaqil lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan alohida so‘zdir.

3. **Zid ma’noli so‘zlar** bir-biriga zid, qarama-qarshi ma’noni bildiruvchi, ba’zan umumlashtiruvchi ma’noni ifodalovchi, chiziqcha bilan ajratib yoziladigan so‘zlardir. Masalan: **uzoq-yaqin, do‘st-dushman, oq-qora, yerga urmoq-ko‘kka ko‘tarmoq** kabi.

47- mashq. Gaplarni o‘qing, sinonim so‘zlarning ma’nosi va ma’no nozikliklarini tushuntiring.

1. G‘azal ham bo‘lurmi buncha dilrabo, Bunchalar serishva, bunchalar sernoz. *(E. V.)* 2. Lekin general unga parvo qilmay ochiq yuz, tabassum bilan kapitanni chaqirdi. *(Sh.)* 3. Endilikda boya o‘ylamagan o‘ylarini, insof-u adolat, diyonat, halollik va yaxshilik to‘g‘risidagi o‘ylarini ro‘yobga chiqarish lozim edi *(O.Y.)* 4. Hamisha shunday baxtli, farog‘atda yashashimga yuragim bovar qilmaydi. *(Sh.)* 5. Bechora qizim! Sho‘rlik qizim. *(O‘.O‘.)* 6. Kokili gul, ko‘ylagi nur bahorning quchog‘ida yayra, yashna, qanot qoq. *(K. Yashin)* 7. Unganman qip-qizil bahor qo‘ynida, g‘am-alam, qayg‘uga ulfat emasman. *(K. Yashin*)

58- topshiriq. Quyidagi badiiy parchalardagi ta'sirchan vositalarni toping va ularning qaysi janrda va qanday ma'noda qo'llanganini ayting.

1. Yo'ldoshxon: Shirin gapirasizda, Ayniddin aka! Bu safar o'zimiz bilan «Ochil dasturxon» ham olib kelganmiz, qandolatchilikning eng noyob mevalaridan topiladi. Hatto qush suti ham bor.

Zaynobiddin aka: Hamma chuchuklik muhayyo ekanku, manavi shogirdim Shirayev bo'lsa, kelishda bir do'konda savdo qilayotgan yosh juvondan iris bormi, deb so'rayapti.

G'ulomjon aka: Juvon ham bo'sh kelmay, «Aka, Qoraqumdan kelganmisiz, birovning irisini so'rab nima qilasiz? Ana, sizbop kis-kis, tuziklar bor», – deganmish.

2. Kelur sel, ko'kda goho bo'lsa chaqmoq,
Zarar qilg'ay danakni tishda chaqmoq.
Yomondir ikki o'rtoq o'rtasida
Urishtirmoq uchun bir-biriga chaqmoq.

(*Habibiy*)

3. Ul yor agar yoshursa yuz oh,
Ag'yorga gar ko'rinsa yuz oh.

(Zahiriddin Muhammad Bobur)

4. Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

(Fozil Yo'ldosh o'g'li)

48- mashq. Avval shakldosh, keyin ko'p ma'noli so'zlarni ko'chiring, ularning farqini shu so'zlar ishtirokida tuzgan gaplaringiz asosida sharhlang.

Asir, bog', yoz, chang, yozmoq, quloq, ot, bosh, toy, oshiq, tomir, ko'k, qirq, qo'y, lab, oylik.

Ma’nodosh so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llay bilish gap mazmunining aniq ifodalanishini, nutqning noo‘rin takrorlardan xoli bo‘lishini ta’minlaydi. Ma’nodosh so‘zlar qatorini to‘g‘ri tuzish, undagi bosh so‘zni ajrata olish muhim. Masalan: *osmon, ko‘k, gumbaz* so‘zlarida *osmon* so‘zi, *shirin, mazali, lazzatli, xushta’m* ma’nodoshlarida *shirin* so‘zi bosh so‘zdir.

Shakldosh so‘zlar so‘z san’atining ta’sirchan vositasidir. Bunday so‘zlarni o‘rinli qo‘llash orqali so‘z o‘yinlari, askiya, payrovlar yaratiladi, mumtoz she’riyatdagi tuyuq janri shakldosh so‘zlarga asoslanadi. Matn mazmunini ochishda shakldosh so‘zlarning ma’nolarini to‘g‘ri farqlay bilish lozim.

Zid ma’noli so‘zlar fikrni ta’sirli, tasviriy ifodalash, ajratib ta’kidlash maqsadida badiiy nutqda keng qo‘llanadi. Hayotiy hodisa, munosabatlarni zidlash usuli orqali ta’sirchan ifodalash, ma’noni kuchaytirish, belgilarni aniq ajratish uchun bunday so‘zlardan o‘rinli foydalana bilish kerak.

49- mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va iboralarning ma’no munosabatlarini izohlang hamda ma’no qirralarini ajratib ko‘rsating.

1. So‘zni **to‘g‘ri** yozishni o‘rgan. U – **to‘g‘ri** odam. 2. Usta **o‘tkir** asbob bilan simni qirqdi. **O‘tkir** – zehnli bola. 3. **Bo‘sh** o‘ringa o‘tiring. Uning **ko‘ngli bo‘sh**. – **Bo‘sh** idish bormi? 4. Bizga **toza** suv kerak. **Ko‘ngli toza** kishining do‘sti ko‘p bo‘ladi. 5. Eshik **ochiq.** Mehmonni **ochiq chehra** bilan kutib ol. U ochiq, samimiy yigit. 6. O‘g‘lingiz **katta** yigit bo‘libdi. Bu bola **katta** ketyapti, mashina olaman deydi. Tashabbus **katta gap**. 7. Qopni **teskariga** ag‘dardi. Bu yo‘l menga **teskari**. Ombor mudiri **to‘nini darrov teskari kiyib oldi.**

59- topshiriq. Matnni o‘qing. Shakli va ma’no munosabatlariga ko‘ra farqlanuvchi so‘zlarning ma’nosi va qo‘llanish maqsadini izohlang.

Mirzo Bobur yoshligidanoq ziyrak bola bo‘lib o‘sibdi. Kunlardan bir kun Umarshayx saroy a’yonlari bilan qasrda o‘ltirgan ekan, bir kabutar uchib kelib ayvon peshtoqiga qo‘nibdi-da, «g‘ulu-g‘ulu-g‘ulu» qilaveribdi. Umarshayx a’yonlaridan: «Kabutar ne deydur?» – deb so‘rab qolibdi. Anchadan buyon urush ko‘rmay qilichlari qonsirab qolgan a’yonlar: «Oliyhazrat, kabutar qilichlarni qindan sug‘urmoq kerak, deydur», – deb javob berishibdi.

Gapga aralashmay bir chekkada jim o‘ltirgan Mirzo Bobur: «Yo‘q, kabutar unday demaydur. Bobo qovun sayliga chaqiribdur. Jonivor shu xushxabarni keltiribdur», – debdi. Umarshayx kabutarni tutib keltirishni buyuribdi. Kabutarni tutib kelib, oyog‘idagi mis halqani olib qarashsa, ichidan bir xat chiqibdi. Xatda: «Oliyhazrat, qovun ayni pishdi. Kelib qo‘l urib bersalar», – deb yozilgan emish. Mirzo Boburning gapi to‘g‘ri chiqqanidan hayratga tushgan Umarshayx o‘g‘lidan: «Mirzoning bunchalik bilag‘on va topqirligiga bois nedur?» – deb so‘rabdi. «Ota, – debdi Bobur, – bu kabutarga e’tibor qilmadingiz. O‘tgan yili ham qovun sayli xushxabarini xuddi mana shu jonivor xabar qilg‘on erdi, kaminaning ko‘zi kabutarning o‘ng qanotidagi qora xolga tushgan zahoti ani tanidim va shu so‘zni taxmin etdim», – deb javob beribdi.

Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx a’yonlariga qarab: «Qilichni emas, aqlidrokni ishga solmoq lozimdir. Xabar qilinglar, barcha qovun sayliga otlansin», – deb buyuribdi.

(«Allomalar ibrati» kitobidan)

60- topshiriq. O‘zingiz o‘qigan yoki yod bilgan monolog matnini daftaringizga yozing. Matndagi ma’nodosh va zid

ma’noli so‘zlarni boshqa so‘zlar bilan almashtirishga harakat qiling, bu o‘zgarishlarning matn mazmuniga ta’sirini aniqlang.

Paronim so‘zlar. Tarkibidagi tovushlar miqdori, talaffuzidagi yaqinlik bilan farqlanib, alohida-alohida leksik ma’no ifodalovchi so‘zlar **paronimlar**dir.

Masalan: *ar**q**on – ar**k**on, asr – as**i**r, diplomat – diploma**n**t.*

So‘z ma’nosining darajalanishi. So‘zlarning ma’no guruhlari tarkibida biror-bir belgi boshqasiga nisbatan kuchli yoki kuchsizroq ifodalanishi mumkin.

a) yosh belgisiga ko‘ra: *qiz – juvon – ayol.*

b) rang belgisiga ko‘ra: *qizil – qizg‘ish – qip-qizil.*

d) harakat belgisiga ko‘ra: *yurmoq – chopmoq – yugurmoq – yelmoq.*

SO‘ZLARDA HISSIY-TA’SIRIY MUNOSABAT IFODASI

So‘zlovchining turli hissiy-ta’siriy munosabatlarini ifodalash xususiyatlariga ko‘ra so‘zlar ikki turga ajratiladi. Bular **betaraf so‘zlar** va **bo‘yoqdor so‘zlar**dir.

Muayyan tushunchani ifodalab, so‘zlovchining turli munosabatini bildiruvchi, qo‘shimcha ma’no jilosi bo‘lmagan so‘zlar hissiy-ta’siriy jihatdan **betaraf so‘zlar** hisoblanadi. Masalan: *yil, kun, joy, qo‘shiq, yashil, tuman, barcha, kelmoq, yurmoq* kabi.

Leksik ma’no bilan birga ma’nosi anglashilayotgan narsa, belgi yoki harakat-holatga so‘zlovchining turlicha munosabatlarini ham ifodalovchi so‘zlar hissiy-ta’siriy jihatdan bo‘yoqdor so‘zlar sanaladi. Masalan: *chehra, ja-*

mol, bashar, tabassum, noshud, naynov, bashara, do‘mboq, xomxayol, gazanda, ko‘rkam, ustuvor kabi.

Bo‘yoqdor so‘zlar hurmat, erkalash, xushmuomalalik, ko‘tarinki ruhiyat kabi qo‘shimcha ma’nolarni ifodalasa, **ijobiy bo‘yoqdor so‘z** sanaladi: *ukajon, kenjatoy, dilbar, dono, fusunkor, orombaxsh, jilmaymoq* kabi.

Hissiy-ta’siriy munosabat nafratlanish, mensimaslik, kinoya, qarg‘ash, hurmatsizlik ma’nolariga ega bo‘lgan *surbet, baloxo‘r, nonko‘r, ahmoq, imonsiz, mijg‘ov, tirjaymoq* kabi so‘zlar orqali ifodalansa, bunday so‘zlar **salbiy bo‘yoqdor so‘zlar** sanaladi.

50- mashq. Gaplarni o‘qing, hissiy-ta’siriy jihatdan betaraf va bo‘yoqdor so‘zlarni topib, farqini ayting.

1. So‘yla, gulim. Yashirmagil nedirsa darding, Yaralanmish yurak, nechun qizarding? *(Fitrat)* 2. Uch qadamcha narida Umar aka jiyronni jilovidan tutib turardi. *(O‘.H.)* 3. Bashirjonning xumkallasi, ko‘ksiga solingan kichik, ensiz bag‘baqasi ikki buklanib, osilib turardi. *(N. A.)* 4. E, akillayberasan-da, Safar! – dedi bo‘qoq. – Biz nima deyapmiz-u, sen nima deyapsan! *(A. Qod.)* 5. Rasadxona zimiston bo‘lsa ham, Ali Qushchining o‘tkir ko‘zlari darrov ko‘rdi: poygakda bir kimsa gavdasi bilan eshikni to‘sib, qaqqayib turardi. *(O. Y.)* 6. Qo‘shiqning oxiri olqishlarga ko‘milib ketdi. *(N. A.)* 7. Ustaning chehrasidagi mahzunlik, ovozidagi dard Qalandarning yuragiga nashtardek sanchildi. *(O. Y.)*

61- topshiriq. Matnni o‘qing. Hissiy-ta’siriy jihatdan bo‘yoqdor so‘zlarni topib, ijobiy va salbiy ma’no jilolarini izohlang.

... Bolam... Muzaffarim yigit bo‘pqopti. Mo‘ylovi sabza uribdi. Ovozi do‘rillab qolibdi... Vijdonsiz cho‘loq!

Aqalli shu kuni yasantirib qo‘ysa o‘ladimi! Anavi shallaqi Robiya jillaqursa tug‘ilgan kunida bolaga yirtiq shim kiygizishga uyalmaydimi? Zolimmi, ablahmi, otasi Nasibaga har yili tug‘ilgan kuni bosh-oyoq sarpo qiladi-ku! O‘g‘lim bo‘lsa pochasi ilma-teshik shim kiyib yuribdi. Tug‘ilgan kunni qayoqdan biladi qishloqi Robiya! Bolaning ko‘nglini olish xayoliga keladimi to‘pori cho‘loqning! Yaxshiyam cho‘ntagiga pul solib qo‘yganim. Bilib qo‘yinglar! Bolaning ko‘nglini senlar ololmasang, xursand qiladigan onasi bor!

Qayerga kelib qoldim? Ajab, o‘zimizning ko‘cha-ku!..

Qiziq, inson umri shunaqa tez o‘tarkanmi? Kechagina emasmidi, shu ko‘chada qo‘shni qizaloqlar bilan sopolak o‘ynaganimiz! *(O‘tkir Hoshimov)*

62- topshiriq. She’riy parchalarda so‘zlar vositasida yaratilgan badiiy tasvir ifodalarini aniqlang va ularni sharhlang.

Tongotar chog‘ida juda sog‘inib,
Bedil o‘qir edim, chiqdi oftob.
Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob...

(G‘afur G‘ulom)

Siz deysizkim men ko‘klarni o‘ylaymen,
Yer betiga sira nazar solmaymen.
Yanglishasiz: men ko‘klarga berkingan
Yer qizidan xayolimni olmaymen.

(Cho‘lpon)

USHBU BO‘LIM SIZGA FIKRINGIZNI ANIQ IFODALASHNING QUYIDAGI YO‘LLARINI KO‘RSATADI:

- ***fikr ifodasida mantiqiy va grammatik talablarga amal qilish usullari;***
- ***matnni shakliy-mazmuniy tuzilishiga ko‘ra tasniflash;***
- ***dialogik matn yaratishning lisoniy vositalari;***
- ***tavsifiy matnda fikr rang-barangligini ta’minlash yo‘llari;***
- ***kiritma gaplarning vazifasi;***
- ***ot kesim va fe’l kesim;***
- ***uyushgan va ajratilgan bo‘lakli gaplar;***
- ***qo‘shma gap turlari, ularda tinish belgilarining qo‘llanishi;***
- ***nutq uslubi jihatidan matnlarni farqlash;***
- ***matnni kengaytirish va qisqartirish yo‘llari.***

51-mashq. Gaplarni o‘qing. Gap qismlarini bog‘lab turgan grammatik vositalarni aniqlang.

1. Do‘stlar to‘planishdi va biz uzoq suhbatlashdik. 2. Odamga andisha kerak, lekin undan ilgariroq insof kerak. *(A. Q.)* 3. Zangori osmon shunday tiniq, shunday beg‘uborki, ko‘zni oladi. *(O.)* 4. Bir vaqtlar siz ham, Temir Akbarovich, xato qilishdan qo‘rqmaslik kerak, deb dadil gapirar edingiz. *(P. Q.)* 5. Yo uning tovushi chiqmaydi, yo odam yo‘q. *(As. M.)* 6. Oltin-kumushning eskisi bo‘lmas, ota-onaning bahosi bo‘lmas. *(Maqol.)* 7. Biz shunday bino quraylikki, butun shaharda eng baland va ko‘rkam bo‘lsin.

GAP VA SINTAKTIK ALOQA VOSITALARI

Gap obyektiv borliqni kishining unga munosabati orqali ifodalaydigan leksik-grammatik

va ohang butunligidan iborat nutq shaklidir. Gap fikrni ifodalovchi birlik sifatida matnning eng kichik ko‘rinishi hisoblanadi.

So‘z va so‘z birikmalari muayyan grammatik shakllar, ohang va tartib bilan mantiqiy jihatdan bog‘langan tarzda gapni shakllantiradi.

Gapda so‘zlar quyidagi vositalar orqali o‘zaro bog‘lanib, sintaktik aloqaga kirishadi:

1. **Egalik, kelishik va shaxs-son qo‘shimchalari.**

2. **Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama va bog‘lamalar.**

3. **Ohang**.

4. **Tartib.**

Qo‘shma gaplarning qismlari esa bog‘lovchilar, bog‘lamalar, sifatdosh va ravishdosh qo‘shimchalari, ohang yordamida o‘zaro bog‘lanadi.

Gapda maqsadga mos tarzda so‘zni qo‘llash, ifoda bayoniga muvofiq ketma-ketlikda so‘zlarni joylashtirish fikrning mantiqiy izchilligini ta’minlaydi. So‘z tartibi yoki ohangning o‘zgarishi gapning mazmuni va qurilishini o‘zgartiradi. Qiyoslang: ***Xona bo‘sh – Bo‘sh xona. Ko‘p // bolali ayol – Ko‘p bolali //ayol.***

63- topshiriq. Gazeta yoki jurnaldan xat boshi bilan ajratilgan biror matnni ko‘chiring. Gaplardagi so‘zlarning qanday vositalar bilan bog‘langanligini aniqlang.

52- mashq. Nuqtalar o‘rniga tegishli qo‘shimcha yoki yordamchi so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Tanlagan grammatik vositalaringizning vazifasini izohlab bering.

1. Xalq... qalbiga uzoqdan qo‘l solib bo‘lmaydi, qo‘l solish ... uning oldi... borish kerak. *(A. Q.)* 2. Odobli ... go‘zal xulqli odamlar ko‘payaver.., xalqning do‘stlig... bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbati borgan ... rivoj topadi.

(A. Navoiy) 3. Tarbiya bizlar ... yo hayot, yo mamot, yo najot ... halokat, ... saodat, yo falokat masalasi... . *(A. Avloniy)* 4. Shu sabab yaxshilik qilmoq niyati... dilim... jo qilib, ilm ahli... qayta yukunib keldi..., ustod! *(O. Y.)* 5. Nazarimda, u... bo‘g‘ziga yig‘i tiqilib qol..., ... ovozi bo‘g‘iq va g‘amgin edi. *(P. Q.)* 6. Siddiqjon etagini qoqib o‘rni... turdi- ... , jadallaganicha ko‘cha eshigi... qarab ketdi. *(A. Q.)* 7. Men bir kuy to‘qigan... , bilmadim, mehmonlar... ma’qul bo‘ladi..., yo‘qmi? *(O.)*

53- mashq. O‘qing. Gapda so‘z tartibi o‘zgargan holatlarni aniqlang va uning sababini izohlang. So‘z tartibi va ohang yordamida bog‘langan so‘zlar mazmunidagi mantiqiy aloqadorlikni tushuntiring.

1. Xo‘sh, nechun sevaman O‘zbekistonni?
   Sababini aytgin desalar menga,
   Shoirona, go‘zal so‘zlardan oldin
   Men ta’zim qilaman ona xalqimga.

(A. Oripov)

2. Non shunday qizarib pishganki, ko‘rgandayoq tamshanadi kishi. *(O. Y.)* 3. – Ey, tegma, it yomon, – dedi bobom meni chaqirib. *(O.)* 4. Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam – o‘qish, o‘qiganda ham a’lo o‘qish edi. *(O‘.U.)* 5. Talant qanchalik katta, qanchalik qudratli bo‘lmasin, har nechuk yuzada bo‘lmaydi, konga o‘xshash yerning qa’rida bo‘ladi. *(A. Q.)* 6. Taqdirin qo‘l bilan yaratur inson, G‘oyibdan kelajak baxt – bir afsona. *(G‘. G‘.)* 7. Eng gullagan yoshlik chog‘imda, Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda. *(H. O.)*

64- topshiriq. Matnni o‘qing, undagi savol-javob shaklidagi gaplarni ajratib ko‘rsating. Bu savol-javoblarda bildirilgan fikr mazmunini izohlang.

Madumar aka yangi damlangan choynakdan choy quyib, o‘rtog‘iga uzatdi, odam kam bo‘lgani uchun o‘zi ham yoniga o‘tirdi.

– Hech gap eshitmadingmi? – so‘radi jiddiy ohangda Sarsonboy ota.

– Eshitsam, senga shu zahotiyoq odam yuborardim, eshitmadim...

Oraga jimlik cho‘kdi. Madumar aka o‘zini noqulay sezib, ichgisi kelmasa ham xo‘rillatib bir-ikki choy ho‘pladi.

– Zebi qalay? Yuribdimi?

– Tuzuk, – dedi Sarsonboy ota derazaga bir qarab qo‘yib. – Bugun zo‘rg‘a yubordi. Bu yoqqa kelishimni bilib, yarim kechada otni dalaga haydabdi.

– So‘kmadingmi? – xavotirlanib so‘radi Madumar aka.

– Yo‘q, u sho‘rlikka ham qiyin. Endi so‘kmayman.

– So‘kma. Bechoraning sendan boshqa kimi bor?

– So‘kmayman... Lekin... – Sarsonboy ota birdan qiqir-qiqir kulib yubordi.

– Ha? – hayron bo‘ldi Madumar aka.

– So‘kmayman-u, lekin otni haydab nima qiladi? Piyoda bo‘lsa ham kelishimni biladi-ku? Buning ustiga to‘riq yo‘talimni eshitsa, oldimga yugurib keladi. Shuni biladi, nima qiladi haydab?

– Ha, endi achinadi-da, – dedi Madumar aka ham kulishga harakat qilib.

– Men achinmaymanmi? Men ham achinaman unga. Yolg‘izlik yomon. Buni o‘zing ham bilasan. Lekin nachora? Qiyomat qarz bu. Qarz bilan go‘rga kirmoqchimasman. Tushunishi kerak-da. Innakeyin...

(O‘lmas Umarbekov)

KIRITMA GAPLAR

Kiritma gaplar so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan fikriga turlicha munosabatini ifodalash uchun qo‘llanadi. Ular so‘z, so‘z birikmasi yoki gap shaklida bo‘lishidan qat’i nazar, gapdagi

biror bo‘lak bilan sintaktik aloqaga kirmaydi, faqat gapning umumiy mazmuniga aloqador bo‘ladi.

Kiritma gaplar so‘zlovchining o‘z fikrini izohlash, qo‘shimcha ma’lumot berish ehtiyoji bilan qo‘llanadi. Ular yozuvda qavs ichida, ba’zan boshqa kiritmalar kabi vergul yoki tire bilan ajratilgan holda beriladi. Kiritma gaplar, asosan, dramatik nutqda ishlatiladi.

Masalan: ***Sizga to‘g‘risini aytsam***, *men bu vazifaga loyiq emasman.*

54- mashq. Kiritmalar ishtirok etgan gaplarni ajratib ko‘chiring. Kiritma yoki bo‘lagiga qanday qo‘shimcha ma’no qo‘shayotganini tushuntiring.

1. Mehmon (familiyasi Yovqochev ekan, so‘rab bilib oldi) ertalab turib ovga otlandi. *(S. An.)* 2. Darvoqe, Anvarga ko‘p mehnatim singgan. *(A. Qod.)* 3. Farida bu rangni Narimon yaxshi ko‘radi deb tanlagan emas edi, albatta. *(P. Q.)* 4. Ikkinchidan, ertaga viloyat yosh yozuvchilarining anjumani ochiladi. *(O. Y.)* 5. Xayriyatki, men «Muboraknoma»ni o‘qitib ko‘rgan ekanman. *(S. Ahm.)* 6. Aytganday, sizga rasm yuborganimni Toshkentdagilar bila ko‘rmasinlar. *(G‘. G‘.)* 7. Yigirmanchi avgustda, albatta, Leningradda bo‘lishim kerak. *(G‘. G‘.)* 8. Chamamda, yetti-sakkiz yil bo‘ldi, shekilli. *(M. Ism.)* 9. Ochib ko‘rish kerak, aftidan, klapanlarini kir bosganga o‘xshaydi. *(F. N.)* 10. Demak, u Hafizdan juda qattiq xafa bo‘lgan. *(Mirm.)*

65- topshiriq. Hamid Olimjonning «Muqanna» dramasidan parchani o‘qing. Undagi kiritma gaplarning vazifasini izohlang.

X a l q d a n b i r o v *(tayoq ko‘tarib o‘rtaga chiqib, Battolga hamla qiladi):*

Bekor debsan, o‘ldiramiz shu zamon,
Ko‘z oldimda bo‘g‘zidan oqsin qon.

M u q a n n a *(uning tayog‘ini qo‘lidan olib sindiradi):*

Yovga qarshi shu ham qurol bo‘ldimi,
Shu cho‘p bilan yengib bo‘larmi yovni?!

X a l q d a n b i r o v *(qo‘lida tosh, o‘rtaga chiqadi):*

Shu tosh bilan parchalayman boshini,
Ko‘zlaridan oqizaman yoshini.

M u q a n n a *(toshni uning qo‘lidan olib otib yuboradi):*

Kesak otib yovni yengganmi hech xalq,
Qilich taqqil, bo‘lmay desang qonga g‘arq.

(F e r o ‘ z n i G‘irdakka ko‘rsatib):

Bu ablahdan hech bir zotga foyda yo‘q,
Buni eldan sarson qilib haydab chiq.
Mol-mulkini butun elga bo‘lib ber.

FE’L KESIM VA OT KESIM

Gapning kesimi fe’l kesim yoki ot kesim shaklida ifodalanadi.

Fe’l kesim turli shakldagi fe’l so‘zlardan tashkil topadi. Fe’l kesimning shakllari:

1. **Sof fe’l kesim:** *Shu kollejda o‘qiyman.*
2. **Ravishdosh bilan ifodalangan kesim:** *Shamol esib, qog‘ozlarni uchirib yubordi.*
3. **Sifatdosh bilan ifodalangan kesim:** *Shu hunarni ustozidan o‘rgangan.*

Ot kesim fe’ldan boshqa so‘zlar (ot, sifat, son, olmosh, ravish) yoki fe’lning harakat nomi shakli bilan ifodalanadi:

1. **Ot bilan:** *Poyingda bu jahon misli bir* ***oshyon****,*
Inson bamisoli sochilgan ***tariq****. (A.O.)*

2. **Sifat bilan:** *Bola edik, tanlar – **olov**, qalb – **qaynoq**, ko‘zlar – **o‘tkir**, dillar – **sof**, erkin-erkin o‘ynardik. (H. O.)*

3. **Son bilan:** *Birniki – **mingga**, mingniki – **tumanga** (Maqol.)*

4. **Ravish bilan:** *Gap kam joyda uning salmog‘i **ko‘p**.*

5. **Modal so‘z bilan:** *O‘zi haqida ko‘p gapirishdan xunukroq ish **yo‘q**.*

6. **Harakat nomi bilan:** *Indamaslik, demak, **rozi bo‘lmoq**.*

55- mashq. Gaplarning kesimlarini topib, qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini va kesimning qaysi turiga mansubligini ayting.

1. Oltita bolani bag‘riga olgan Mahkam taqachi – shu. *(R. F.)* 2. Mo‘tabar eshikni sekin yopib chiqib ketdi. *(R. F.)* 3. Sanasangiz-sanamasangiz ham hammasi qirqta. *(O.)* 4. Tez hal qilish kerak, talabgorlar ko‘p. *(O‘. U.)* 5. Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam – o‘qish, o‘qiganda ham a’lo o‘qish edi. *(O‘. U.)* 6. Mingbuloq o‘zi yaxshi, suv serob, lekin u qarovsiz. Ko‘chalari tor, qing‘ir-qiyshiq. *(O‘. U.)* 7. Uning Vohid Mirobidov haqidagi gaplari ham qiziq. *(O. Y.)* 8. Tabiatda hech qanday sirli kuch ta’sirida ro‘y beradigan narsa yo‘q. *(J. Abd.)*

ESDA TUTING!

Ega bilan kesim orasiga quyidagi hollarda tire qo‘yiladi:

1. Ega ot, sifat, son, sifatdosh bilan; kesim ham ot, sifat, son, olmosh, modal so‘z bilan ifodalanganda: *Yaxshi ro‘zg‘or – jannat. Yo‘mon ro‘zg‘or – do‘zax. (Maqol) Yaxshi – xunuk libos bilan ham yaxshi. (Maqol)*

2. Gapning egasi ham, kesimi ham harakat nomi bilan ifodalanganda: *O‘qish – ulg‘ayish. (Maqol)*

3. Ega yoki kesim ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalanganda: *Bu – siz uchun katta sinov. Maqsadim – shu* kabi.

56- mashq. Maqollarni ko‘chiring, bosh bo‘laklarni topib, qanday so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting, tirening qo‘yilish sabablarini bayon qiling.

1. Elga el qo‘shilsa – davlat, eldan el ketsa – mehnat. 2. Tuyaga yuk azob beradi, odamga – vijdon. 3. Kishilarga muhabbat – eng yaxshi odat. 4. Yer – xazina, suv – oltin. 5. O‘qish – boshqa, uqish – boshqa. 6. Oz yemak – tani sog‘liq, oz demak – hikmatga bog‘liq. 7. Oz yemak – soz yemak. 8. Achchiq til – zahri ilon. 9. Tomchi – yel bo‘lmas, dushman – el bo‘lmas. 10. Davlating – ota-onang. 11. Qo‘l yugurigi – oshga, til yugurigi – boshga. *(Maqollar)*

UYUSHIQ BO‘LAKLI GAPLAR

Uyushiq bo‘laklar gapda bir xil so‘roqqa javob beradi, bir xil sintaktik vazifani bajaradi, o‘zaro teng aloqaga kirishadi. Bunday bo‘laklar teng bog‘lovchilar yoki tenglashish ohangi bilan birikadi.

1. **Uyushiq kesim:** *Nutq qudratli kuch:* ***u ishontiradi, undaydi, majbur etadi.***

2. **Uyushiq ega:** *Yurtimizning* ***farovonligi, tinchligi*** *va* ***iqboli*** *bizga bog‘liq.*

3. **Uyushiq hol:** ***Ustozingdan*** *yoki* ***do‘stingdan*** *ko‘rmagan yaxshilikni kitobdan ko‘rishing mumkin.*

4. **Uyushiq to‘ldiruvchi:** *Kulgi* ***tanni ham, qalbni ham*** *davolaydi.*

5. **Uyushiq aniqlovchi:** ***Mijg‘ov*** *va* ***past***, ***g‘iybat*** *gaplardan jajji she’rim qo‘yurman baland. (A. Or.)*

Uyushiq bo‘lakli gapda uyushib kelgan bo‘laklarning ma’nosini **umumlashtiruvchi so‘z** qo‘llash orqali ham ifodalash mumkin. Uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi. Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘laklardan keyin kelsa, ular tire bilan ajratiladi.

Masalan: ***Hamma narsa:*** *uylar, do‘konlar qiyofasi o‘zgardi. Bu bog‘da sava, bulbul, mayna –* ***barcha qushlar*** *bor.*

57- mashq. Ko‘chiring, ularning o‘zaro qanday bog‘langanini, qaysi gap bo‘lagi uyushayotganini tushuntiring.

1. Saida goh afsuslanib, goh kuyib va goh kulib gapirib berdi. *(A. Q.)* 2. Har birimiz o‘z institutimizni, talabalik vaqtlarimizni esladik. *(O. Y.)* 3. Ertadan kechgacha zavoddan chiqmaydi, yangi paxtalarni yoydiradi, quritadi. *(M. Ism.)* 4. Hayotjon G‘ulomjonning mardligiga, chidam, qanoat va sadoqatiga, azamatligiga qoyil qoldi. *(M. Ism.)* 5. Darrani qoziqdan oldi, siltab ko‘rdi: vazmin, mayin, lekin zahardek achchiq, nishtardek o‘tkir, qilichdek keskir! *(M. Ism.)* 6. Bog‘ning turli joylarida har xil mevali daraxtlar: nok, o‘rik, jiyda va hokazo anchagina *(O.)* 7. Farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo‘shni o‘g‘il-qizlarni ham – barchasini sizlab gapiradi.

AJRATILGAN BO‘LAKLI GAPLAR

Ajratilgan bo‘laklar qaysi gap bo‘lagiga oidligiga qarab uning ma’nosini izohlab, bo‘rttirib, aniqlashtirib yoki ta’kidlab keladi. Gapning ajratilgan bo‘lagi o‘zi izohlayotgan

bo‘lakdan doim keyin keladi va yozuvda vergul yoki tire, ba’zan qavs bilan ajratiladi.

1. **Ajratilgan hol:** *Pastlikka – **Labzak tomonga** tusha boshladik.*

2. **Ajratilgan to‘ldiruvchi:** *Bu iltimosingni tog‘amga, **Muxtor akam**ga ayta olmayman*.

3. **Ajratilgan aniqlovchi:** *Axir, uning, **Vohid**ning ham o‘ziga yarasha obro‘si, yigitlik g‘ururi, izzat-nafsi bor-ku! (O. Y.)*

4. **Ajratilgan izohlovchi:** *Ustozim – **Xoliq aka** Forishda tug‘ilgan.*

58- mashq. Ko‘chiring. Gapning qanday bo‘laklari ajratilganligini aniqlang.

1. Tok ostida o‘tirgan ikki do‘st – Davron bilan Sergey issiqqa dosh berib qizg‘in suhbatlashmoqda... (*Y. Shukurov)* 2. Sen, tug‘ishgan ukam, oxiri meni yiqitib, yuzimga oyoq qo‘yding-a! *(P. Q.)* 3. Ana, u kichkina, qora munchoqday ko‘zlarini ochdi. *(G‘.G‘.)* 4. Mashinadan xo‘jalik raisi Matqovul aka – pakanagina, semiz odam tarvuzday yumalab chiqdi *(O. Yo.)* 5. Boyagi yigitning, Avazning, qo‘li gul ekan. *(P. Q.)* 6. U vaqtda endigina o‘ttiz beshga to‘lgan barvasta yigit, Dadavoy, Lobarga bir ko‘rishdayoq yoqdi. *(H.G‘.)* 7. Siz o‘zingiz-chi, Musa Nazarovich, fakultetga borib ko‘pchilikdan so‘rab ko‘rdingizmi? *(P. Q)* 8. Uning Xolbek degan tengdoshi – o‘ng ko‘zi bilan qulog‘ining orasida danakday qora xoli bor bola – bir kun Avazning butun oshiqlarini qoqlab yutib oldi. *(P. Q.)* 9. Bir vaqtlar siz ham, Temir Akbarovich, xato qilishdan qo‘rqmaslik kerak, deb dadil gapirar edingiz. *(P. Q.)*

66- topshiriq. Matnni o‘qing. Gaplardagi uyushiq va ajratilgan bo‘laklarni aniqlab, vazifasini izohlang.

Ma’lumki, san’at, shu jumladan, so‘z san’ati – adabiyot ham kishilarning ongiga his orqali – yurak orqali ta’sir qiladi. Adabiyot biron ijtimoiy hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini faktlar, raqamlar bilan isbot qilib, xulosa chiqarmaydi; uning yaxshi yoki yomon ekanligini ko‘rsatib kishilarda shu hodisaga nisbatan muhabbat yoki nafrat hissi tug‘diradi. Biron hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini bildirish bilan unga nisbatan nafrat yoki muhabbat hissi tug‘dirish orasida juda katta farq bor. Bilgan kishi bilib qo‘ya berishi mumkin, lekin his qilgan kishi his qilib qo‘ya bermaydi. Adabiyotning zo‘r tashviqiy kuchi ham mana shundan iborat.

Bundan ma’lum bo‘ladiki, yozuvchi biron hodisaga o‘quvchida muhabbat yoki nafrat hissi qo‘zg‘atishi uchun avval o‘sha his o‘zida bo‘lishi kerak. *(Abdulla Qahhor)*

MATN TURLARI

Ma’lum voqelik haqida tasavvur (ma’lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik **matn** hisoblanadi.

Matn og‘zaki yoki yozma nutqqa xos bo‘lishidan qat’i nazar, ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: *dialogik* va *monologik*. **Dialogik matn** ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat.

Ikki kishi o‘rtasidagi dialogik nutq **savol-javob, buyruq-javob, xabar-e’tiroz** kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani bildiradi. Ko‘p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo‘lmay, o‘rtaga tashlangan savol, taklif, da’vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida so‘roq olmoshlari, muomala odobiga oid so‘z va iboralar, yukla-

malar, undovlar, kirish so‘zlar keng qo‘llanadi. Bunday matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to‘liqsiz gaplar, so‘z-gaplar faol ishlatiladi.

Dialogik matn so‘zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.

Monologik matn so‘zlovchining o‘z-o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi bo‘lib, **o‘z ruhiy kechinmalari, voqelikka munosabatin**i o‘ziga xos ohang bilan ifodalashga xizmat qiladi. Bunday matn tavsifiy matn tarkibiga kirsada, badiiy uslub xususiyatlarini o‘zida namoyon etishi, hissiy ifoda tarzi va, muhimi, ijtimoiy-estetik maqsadi bilan ajralib turadi.

Monologik matnda tilning barcha tasviriy vositalari, so‘z-gaplar, kiritma, undov va undalmalar, sodda uyushiq bo‘lakli va ritorik so‘roq gaplar faol ishlatiladi.So‘zlovchining fikr-mulohaza va shaxsiy kechinmalari I shaxs nomidan bayon qilinadi. Og‘zaki nutqda monologik matn ohang, urg‘u, to‘xtam, ritm, tovush sur’ati kabi fonetik hodisalarni kuchli ifodalovchi nutq ko‘rinishi sanaladi.

67- topshiriq. Yuqorida bayon etilgan ma’lumotlar asosida matnni tahlil eting. Tahlilda quyidagilarga e’tibor bering: ushbu dialogik matn necha a’zoli; matnda ifodalangan fikr; matnni shakllantirgan leksik vositalar; matn gaplarining tuzilishi.

– Shu, deyman, Toshpo‘lat, sen menga mundoq xushomad qilsang-u Xolidaga uylansang nima bo‘larkan?— deb hazillashdi Samad. – U mening jiyanim, sen mening do‘stim, begonaga uzatgandan ko‘ra...

– Senga xudo bas kelsin, oshna, – dedi G‘aybarov.— Esing joyidami yo meni uyingga kelmaydigan qilmoqchimisan?

– Nega, qarindosh bo‘lsak yomonmi?

– Xolida hali yosh-ku?.. – Ma’suma bu gap og‘zidan qanday chiqib ketganini payqamay qoldi. Labini tishladi. G‘aybarovga zimdan razm soldi: yo‘q, og‘rinmadi, tusi o‘sha-o‘sha...

– Hazil, – deb kuldi Samad. – Darvoqe, Toshpo‘lat, ko‘pdan beri so‘ramoqchi bo‘lib yuraman, haliyam Galatepaga ko‘milishim shart, deb o‘ylaysanmi?

– Harholda, tug‘ilgan joying...

(Murod Muhammad Do‘st)

58- mashq. Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi Xisrav bilan Farhod munozarasini shakllantirgan leksik vositalar va ohang turlarini aniqlab, ajratib ko‘rsating. Dialoglarning mazmunidagi farqlarni izohlang.

Dedi: Nedur senga olamda pesha?
Dedi: Ishq ichra majnunliq hamesha.
Dedikim: Ishqig‘a ko‘nglung o‘rundur?
Dedi: Ko‘nglumda jondek yoshurundur.
Dedi: Ko‘nglung fido qilsa jafosi?
Dedi: Jonimni ham aylay fidosi.
Dedi: U ishqdin inkor qilg‘il!
Dedi: Bu so‘zdin istig‘for qilg‘il!
Dedi: Joningni olsa la’li yodi?
Dedikim: Ushbudir jonim murodi.
Dedi: Ko‘ksungni gar chok etsa bebok?
Dedi: Ko‘nglum tutay ham ayla deb chok!
Dedikim: Shohg‘a bo‘lma shirkat andesh!
Dedi: Ishq ichra tengdur shoh-u darvesh!..

68- topshiriq. Do‘stingiz bilan bugungi rejalari to‘g‘risida suhbatlashing va shu asosida dialogik matn yarating. Buning yozma yoki badiiy nutqqa xos matndan farqini tushuntirib bering.

59- mashq. Berilgan matnni o‘qing, uning dialogik matndan qanday farqlanishini izohlang. Ajratib ko‘rsatilgan tayanch so‘zlarining ma’nolarini lug‘atdan aniqlab, ko‘chirib yozing.

Otalikning **farzi** ayni – farzandga munosib ism qo‘ymoq, deydilar. U hamisha baqadri imkon bunga intildi; ikkinchi o‘g‘li tug‘ilganda unga umrlik baxt tilab, Komron nomini berdi; uchinchi o‘g‘il dunyoga kelganida unga askarlik **shijoatini** tiladi – Mirzo Askariy deb bag‘riga bosdi; Hindni olganida haq taolo to‘rtinchi o‘g‘ilni ato etdi – shavkatli kunlarimdan **yodgor** deb Hindol ism qo‘ydi; tangri bir onadan uch qizni unga **karomat** qildi – gul bargi monand nozik zebolarga chaman gullarning xush ismlarini ravo ko‘rdi – Gulrangbegim, Gulchehrabegim, Gulbadanbegim deb suydi. Mana, endi yaratgan unga nabira quvonchini baxsh etibdi...

U barqut bolishga horg‘in suyangan ko‘yi asta o‘yga toldi. Bu go‘dakning **manglayiga** kotibi qudrat nelarni yozdi ekan? Saltanat dag‘dag‘asinimi, sarkardalik shavkatinimi, allomalik rutbasinimi, shoirlik qismatinimi? Tangri tanglayini qandoq **fazl-u karamlar** bilan ko‘tardi ekan? Istiqboli yorug‘mikan, qorong‘i? Zero, shohlar inon-ixtiyori o‘zida deguvchilar adashur. Bu olamda shoh-u shahzodalar mudom o‘zgalarga – o‘zlaridan qudratliroq hukmdorga, ularning qosh-qovog‘iga qaram. Shu **vajhdankim**, taxt tegrasida bobolar-u otalar, otalar-u bolalar aksar qirpichoq... *(Xayriddin Sultonov)*

TAVSIFIY MATN

Tavsifiy matn so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma’lumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi.

Ma’lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta’riflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos xususiyatlardan. Shuning uchun bunday matnda belgi-xususiyatni ifodalovchi so‘zlar,

atamalar, modal so‘zlar, fe’lning funksional shakllari, ravishlar faol qo‘llanadi.

Tavsifiy matn yaratishda uyushiq bo‘laklar, ajratilgan gap bo‘laklari, atov gaplar, qo‘shma gap ko‘rinishlaridan keng foydalaniladi.

Tavsifiy matn ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir.

60- mashq. A. Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanidan olingan Kumushbibi tasviriga oid parchani o‘qib, belgi-xususiyat bildiruvchi so‘zlarni ajratib ko‘chiring. Bu so‘zlar nimalarni tasvirlashga qaratilganligini aniqlang.

... Uning qora zulfi paryostiqning turli tomoniga tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jingila kiprik ostidagi tim qora ko‘zlari bir nuqtaga tikilganda, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qop-qora kamon, o‘tib ketgan nafis, qiyiq qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lgan oydek g‘uborsiz oq yuzi biroz qizillikka aylanganda, kimdandir uyalgan kabi... Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilgan qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o‘tirdi. Sariq rupoh atlas ko‘ylakning ustidan uning o‘rtacha ko‘kragi biroz ko‘tarilib turmoqda edi. Turib o‘tirgach, boshini bir silkitdi-da, ijirg‘anib qo‘ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to‘zg‘igan soch tolalari o‘rab olib jonsiz bir suratga kirgizdi. Bu qiz suratida ko‘ringan malak qutidorning qizi – Kumushbibi edi!

69- topshiriq. O‘zingiz yoqtirgan badiiy asar qahramoni yoki san’atkor aktyorning qiyofasini va tabiatini tasvirlab matn tuzing.

70- topshiriq. Berilgan matn parchalarini o‘qing, ular tavsifiy matnning qaysi shakllariga xosligini aniqlang, mazmun jihatdan bayon usuli qanaqaligini belgilang va shular asosida farqlarini izohlang.

71- topshiriq. Matnni o‘qing, uning qaysi nutq uslubiga xosligini aniqlang. Til materialining ishlatilishidagi farqlarni izohlang.

... Registon maydoniga kirdik. G‘afur aka jimib qolgandi. U go‘yo ulug‘ bobolar bosgan tuproqni oyoqosti qilishni istamagandek, avaylab yurayotganga o‘xshardi. Gapirganida ilgarigicha baland ovoz bilan emas, shivirlab gapirardi:

– Mana shu yerdan necha marta Navoiy yurgan. Mana shu peshtoqlarga tikilib ne-ne xayollarga borgan. Manavi to‘g‘ridagi naqshin eshikdan Ulug‘bek necha bor kirib, necha bor chiqqan. Ajab!

G‘afur akaning bola tabiatini yaxshi bilardim. Sal narsadan quvonib, sal narsaga mo‘lt-mo‘lt yosh to‘kkanini ham ko‘p ko‘rganman. Obbo, shu topda yig‘lab yuborsa nima qilamiz, deb o‘ylab unga qaradim. O‘ylaganim to‘g‘ri chiqdi. G‘afur akaning ikki ko‘zi jiqqa yosh edi. Shunday paytlarda uni alahsitish kerak edi.

– Menga qarang, G‘afur aka, bunaqa qiladigan bo‘lsangiz ertaga saylovchilar bilan bo‘ladigan uchrashuvda, yig‘loqi deputat olib keldik, deb aytaman.

G‘afur aka darrov hushini yig‘di.

– Ha shayton, sezib qolding-a! Shu topda xayol o‘lgir olib qochgan ekan. Navoiy bilan gaplashayotgan edim. Suhbat juda shirin joyiga kelganda xayolni bo‘lib qo‘yding. She’r tug‘ilayotgan edi-ya!

Duraxshon yulduzlar sari
o‘kirgan,
Bo‘ynida zanjir-u qalbi ozod
sher.
Insoniy muhabbat mehri-la
vafo,
Erk-u baxt timsoli ulug‘
Alisher.

Albatta, bitta zo‘r she’r yozaman. Yozib qo‘y, keyin esimdan chiqib qolmasin. *(Said Ahmad)*

BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAP

Bog‘langan qo‘shma gap qismlari biriktiruv, zidlov, ayiruv bog‘lovchilari **bo‘lsa, esa** so‘zlari, **-u(yu), -da** yuklamalari vositasida bog‘lanadi.

1. **Biriktiruv bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar** o‘zaro payt, sabab-natija munosabatidagi gaplarning qismlarini bog‘laydi. Bunday gapning qismlari **va, ham, hamda** biriktiruv bog‘lovchilari va shu vazifada kelgan **-u(yu), -da** yuklamalari yordamida bog‘lanadi. Masalan: *To‘satdan eshik sharaqlab ochildi **va** ostonada Eltoyev paydo bo‘ldi (O. Y.)*

2. **Zidlov bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gap**ning qismlari zidlik munosabati orqali bog‘lanadi. **Ammo, lekin, biroq** bog‘lovchilar gapning ikkinchi qismida, **-u(yu), -da** yuklamalar esa birinchi qismda qo‘llanadi. Masalan: *Dunyoda yaxshi kitoblar ko‘p, **ammo** bu kitoblar uni o‘qib biladigan kishilar uchungina yaxshidir*.

3. **Ayiruv bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gap** galma-gal ro‘y beradigan, faqat bittasi yuzaga chiqadigan voqea-hodisalarni ifodalaydi. Bunday gaplarda **goh, dam, ba’zan, xoh, yo, yoki, bir** bog‘lovchilari takror qo‘llanadi, **yo (yoki)** esa yolg‘iz holda ishlatiladi. Masalan: **Yo** *biz bu ishni bajaramiz,* **yo** *ular bilganlarini qilishadi.*

4. **Bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gap**ning qismlari o‘zaro qiyoslash, zidlash, munosabatlari orqali o‘zaro bog‘lanadi. Masalan: *Aql eskirmas kiyim, bilim **esa** tuganmas buloqdir. (Maqol)*

61- mashq. Ko‘chiring. Bog‘langan qo‘shma gaplarni topib, ularning qismlari qanday bog‘lovchi vositasida bog‘langanini ayting.

1. Turobjon bu gapni aytdi-yu, ammo xotinining ahvolini ko‘rib achchig‘idan tushdi. *(A. Q.)* 2. Oldimdan katta odamlar o‘tib turadi, lekin shaftoliga kimsa boqmaydi. *(O.)* 3. Shu payt tog‘ cho‘qqisidan katta bir tosh yumaladi va yo‘ldagi boshqa toshlarni qo‘porib, dahshatli toshbo‘ron boshlandi. *(S. A.)* 4. Do‘stlar to‘planishdi va biz uzoq suhbatlashdik. 5. Qirlarda lolaqizg‘aldoqlar gulxani yonadi, ammo qush malla to‘nini yechmay tura beradi. *(S. A.)* 6. Xolbek ularning orasida bir jarga o‘xshab turar va bu jar yil sayin ulkanlashar edi. *(P. Q.)*

62- mashq. Nuqtalar o‘rniga mos bog‘lovchilarni qo‘yib, bog‘langan qo‘shma gaplarni ko‘chiring, turini aniqlang.

1. Kech kuz bo‘lsa ham hali uncha sovuq tushmagan... salqin etni junjiktiradi. *(O‘. U.)* 2. Ular ancha yo‘l bosishdi ... hamon yo‘l ko‘rinmas edi. *(O‘. U.)* 3. Dunyoda yaxshi kitoblar juda ko‘p... bu kitoblar uni o‘qib biladigan kishilar uchungina yaxshidir. *(«Aql aqldan quvvat oladi»)* 4. Mashina xo‘p yaxshi narsa ... uning ham o‘ziga yarasha nag‘malari bor. *(S. Ahm.)* 5. Nuri har gal og‘ir yumush qildirar edi... bu safar qizga ish buyurmadi. *(O.)* 6. Tantiboyvachchaning nafasi ichiga tushib ketdi ... u uyalgan kabi o‘zini bilmaslikka soldi. *(O.)* 7. U yoq-bu yoqdan gapga soldi ... ovutmoqchi bo‘ldi ... bemor og‘iz ochmadi. *(O‘. U.)* 8. Majlis bir lahza jim qoldi ... undan-bundan tovushlar chiqa boshladi. *(A. Q.)*

63-mashq. Bog‘langan qo‘shma gaplarni turiga ko‘ra ajratib ko‘chiring, tinish belgilarining qo‘yilishini tushuntiring.

1. U bolalarini sog‘ingan, deraza orqali bo‘lsa-da, ularni va, albatta, xotinini ham bir ko‘rib olmoqchi

edi. *(E. A.)* 2. Elmurodga tashakkur e'lon qildi va yonidan o'z soatini chiqarib taqdim etdi. *(SH.)* 3. Kech edi ... lekin uni ko'rdi, daf'atan ko'zi ilindi. *(E. A.)* 4. Mashrabning ko'nglidagi butun g'urbat birdan bulutday to'zg'idi va u yerdan sakrab tushdi. *(O. Y.)* 5. Bolalar uxlab qoldi-yu, lekin kattalar allamahalgacha uxlashmadi. *(X. G'.)* 6. Yo uning tovushi chiqmaydi, yo odam yo'q. *(As. M.)* 7. Ba'zan bu chiziqlar millimetrning o'ndan biri darajasida goh o'ngga, goh chapga burilib turar, ba'zan uning izlaridan ingichka yo'lkaning mayda o'xshash chiziqlari hosil bo'lardi. *(I. R.)*

ERGASHGAN QO'SHMA GAP

Ergashgan qo'shma gapning qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'lanadi.

Aniqlanayotgan, izohlanayotgan gap **bosh gap**, aniqlaydigan, izohlaydigan gap esa **ergash** gap hisoblanadi. **Ergash gapning bosh gapga bog'lovchi vositaga ko'ra ergash qo'shma gaplarning quyidagi turlari farqlanadi:**

1. **Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gap** bosh gapda ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, sharti, qiyosini anglatadi: *Chunki, negaki, toki* kabi **sabab-maqsad**, *go'yo, go'yoki, xuddi* kabi **qiyoslash-chog'ishtiruv** bog'lovchilari ergash gap boshida qo'llanadi. Masalan: *Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi,* **go'yo** *yangi ranglar, yangi jilvalar bilan chorlaydi. (Oybek)*

Agar, agarda, basharti, mabodo kabi shart bog'lovchilari ergash gap tarkibida keladi yoki bunday gaplarning kesimi shart maylida fe'ldan iborat bo'ladi. Masalan: **Agar** *o'gay ona o'lgandan keyin tinchlanganimizda, men o'zimni baxtli sanardim. (S. A.)*

2. Ko‘makchili qurilmalar yordamida **ergashgan qo‘shma gap**ning bosh gapi tarkibida **shuning uchun, shu sababli, shu tufayli** kabi ko‘makchili qurilmalar qo‘llanadi. Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababi birinchi qismda, ya’ni ergash gapda aniqlanadi. Masalan: *Musavvirlikka menda havas uyg‘ondi, **shu sababli** uning sirlarini o‘rganishga astoydil bel bog‘ladim. (S. A.)*

3. **«Deb» so‘zi yordamida ergashgan qo‘shma gap**ning ergash gapi tarkibida **«deb»** so‘zi qo‘llanadi va uning kesimi III shaxs buyruq mayli shaklida bo‘ladi. Ergash gapda bosh gap ifodalagan mazmunning maqsad yoki sababi aniqlanadi. Masalan:

Sen otash ichida urasan javlon,
Dushman qolmasin deb sevgan elimda.
(Hamid Olimjon)

4. **Shart mayli vositasida ergashgan qo‘shma gapdagi ergash gap**ning kesimi shart mayli shaklidagi fe’l bilan ifodalanadi. Bunday ergash gapda bosh gap ifodalagan mazmunning ro‘yobga chiqishi yoki chiqmasligi, payti bildiriladi. Masalan:

Alpomishga alla aytgan momolarim,
Ruhini shod etay desang, xalq bo‘l elum!
(Muhammad Yusuf)

5. **Ko‘rsatish olmoshli ergashgan qo‘shma gapda bosh gap**ning kesimi **-ki** yuklamasi orqali ifodalanadi. Ergash gap bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshining ma’nosini izohlab keladi. Masalan: *Shuni biling**ki**, intilgan odam maqsadiga yetadi.*

6. **Nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gap**ning har ikkala qismida bir-biriga nisbatan qo‘llanuvchi va biri ikkinchisini taqozo etuvchi

nisbiy so‘zlar qo‘llanadi. **Kim, nima, qancha, qanday, qayer** kabi so‘roq olmoshlari kesimi shart mayli shaklidagi ergash gap tarkibida, **shu, o‘sha, shunga, shunday** kabi olmoshlar esa bosh gapda qo‘llanadi. Masalan: *Ko‘z* **qayerda** *bo‘lsa, mehr ham shu yerda bo‘ladi. (Maqol)*

64- mashq. Ergashgan qo‘shma gaplarni ko‘chiring, qismlari qanday vosita yordamida bog‘langanligini aniqlang. Bog‘langan qo‘shma gaplarni ergashgan qo‘shma gapga aylantiring.

1. Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan *(Maqol)* 2. Qoratoyim qanday bo‘lsa, sen ham menga shundaysan. *(O.)* 3. Vali aka kallasini qimirlatdi, ammo buni G‘ulomjon ko‘rmadi. *(M. Ism.)* 4. Ular xaspo‘shlash uchun qanchalik urinmasinlar, biroq ko‘z bog‘lamchilikni Navoiy oldida o‘tkaza olishdan ojiz edilar. *(O.)* 5. Go‘yo hayot tamomila uxlaganday, hamma yoq jimjit edi. *(P. Q.)* 6. So‘z bilan ish bir bo‘lmasa, el xush ko‘rmas. *(«Aql aqldan quvvat olar»)* 7. Mehnatni ayamasang, bu yerda hosil qaynayveradi. *(O.)*

65- mashq. Ergashgan qo‘shma gaplarni topib, ularni bog‘langan qo‘shma gaplarga aylantiring. Gap tuzilishida va tinish belgilarida yuz bergan o‘zgarishlarni tushuntiring.

1. Yomonning yaxshisi bo‘lguncha, yaxshining yomoni bo‘l. *(Maqol.)* 2. Kun chiqquncha, biz dalaga yetib boramiz. 3. Jamol xola gapini tugatgach, Manzura xola: «To‘g‘ri aytadilar, qo‘zim», – deb qo‘ydi. *(H. N.)* 4. Tabiat oq yopinchig‘ini tashlar-tashlamas, kurtaklar ko‘z uqalay boshladi. *(M. Ism.)* 5. Shamsi o‘rnidan turib, do‘ppisini ikki buklab «Bog‘aro»ni shunaqayam avjdan aytibdiki, hammasi qoyil qolishibdi. *(S. Ahm.)* 6. Endi o‘t yoqaman deb turganda, ko‘cha eshigi birdan taqillab qoldi. *(M. Ism.)* 7. Shu o‘yin amri bilanmi, u eshikni qattiq itardi. *(M. Ism.)*

72- topshiriq. She'riy parchalarni o'qing. Ergashgan qo'shma gaplarni aniqlab, nasrga aylantiring va ko'chiring.

... Baxtim borki, har narsa go'zal
Ko'rinadi mening ko'zimga.
Vodiylarga quyosh to'kkan hal,
Shuning uchun sarxat so'zimga.
Aybim yo'qdir, gul vodiylarda
Badbinlarni xushlay olmasam.
Ko'kka qarab turib saharda
Shod o'tarman, deb ichsam qasam.

* * *

...Bilsinlarkim, yo'ldoshim bo'lmas
Ko'zda yoshi bilan kulganlar,
Tillari bor, o'zlari hayot
Lekin yurak-bag'ri o'lganlar.
Har aytganing buyuk jangnoma,
Qayga desang, qaytmay keturman,
Ko'zlarimni yummasman aslo —
Daryo kabi uyg'oq o'turman.

(Hamid Olimjon)

BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAP

Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi mazmunan bir-biriga bog'liq bo'lgan sodda gaplar maxsus bog'lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog'lanadi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi gap qismlarining o'zaro mazmun munosabati asosida quyidagi tinish belgilari qo'yiladi:

1. Qo'shma gap qismlari bir paytda yoki ketma-ket yuz beradigan voqea-hodisalarni ifodalab kelsa, ular orasiga **vergul** qo'yiladi. Masalan: *Kuz keldi, terim ishlari boshlandi.*

2. Qo‘shma gapning keyingi qismlari birinchi gapning biror bo‘lagini izohlasa, shu gapdan keyin **ikki nuqta** qo‘yiladi. Masalan: *Yaxshisi shu: har kuni savob ish qilishga odatlan*.

3. Qo‘shma gapning qismlari o‘zaro o‘xshatish, zidlash, shart kabi munosabatlarni bildirsa, ular tire bilan ajratiladi. Masalan: *Qo‘shning tinch – sen tinch.*

4. Qo‘shma gap qismlari mazmunan unchalik yaqin bo‘lmagan voqea-hodisalarni ifodalagan va ular orasida bir necha tinish belgi (asosan, vergul) qo‘llangan bo‘lsa, **nuqtali vergul** qo‘yiladi. Masalan: *Adabiyot biron ijtimoiy hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini faktlar, raqamlar bilan isbot qilib, xulosa chiqarmaydi; uning yaxshi yoki yomon ekanligini ko‘rsatib, kishilarda shu hodisaga nisbatan muhabbat yoki nafrat hissi tug‘diradi*. *(A. Q.)*

66- mashq. O‘qing. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni ajratib ko‘chiring. Ularning har biriga izoh bering. Ergashgan qo‘shma gaplarni bog‘lovchisiz qo‘shma gapga aylantiring. Farqini tushuntiring.

1. Paxtakorlik shunchalik ota-bobodan meros, u bilan egizaklar bizdagi urf-odat. *(G‘. G‘.)* 2. Qish keldi – sovuq kunlar boshlandi. 3. Oltin-kumushning eskisi bo‘lmas, ota-onaning bahosi bo‘lmas. *(Maqol)* 4. Siz ketishingiz bilan u bizga ko‘p narsalarni gapirib berdi. *(A. Q.)* 5. Terakzorlar xushbichim, bog‘larda hamma yoq jim. Yer ham, ko‘k ham moviy rang, havoning yuzi tiniq. *(M. M.)* 6. Uzoqda baland-past tog‘lar yashnaydi, tepalar, adirlar rang-barang gullar bilan yasanadi. 7. Anjir xazon bo‘lay deganda, Qo‘qondan amakim keldi. *(A. Q.)*

67- mashq. Quyidagi gaplarni bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarga aylantiring. Gap qurilishida yuz bergan o‘zgarishni tushuntiring.

1. To‘lagan aka nima deyishini bilmay qolganini ko‘rib, Safarov besh-olti buklangan arizasini uning qo‘lidan oldi. *(A. Q.)* 2. Mayli desangiz, urinib ko‘raman. *(M. Ism.)* 3. Siddiqjon garchi tabelchi haqida Boltaboyga qaytib og‘iz ochmagan bo‘lsa ham, uchinchi kuni tabelchi bexosdan uning nomini aytdi. *(A. Q.)* 4. Inson fazilati shunday katta bir dunyoki, uni odam hayotini boyitadigan ma’naviy xazina desa bo‘ladi. *(M. Ism.)* 5. Ibrohimov yana kim so‘zga chiqmoqchi ekanini so‘ragan edi, hech kim qo‘l ko‘tarmadi. *(A. Q.)* 6. Do‘konda edim, Yormat yo‘q, sen izvoshni qo‘sh, bir yerga borib kelamiz. *(O.)*

KO‘CHIRMA GAPLI QO‘SHMA GAP

Ko‘chirma gapli **qo‘shma gap** ko‘chirma gap va **muallif gapi**dan tashkil topadi. So‘zlovchining birovlarning hech o‘zgarishsiz keltirgan gapi **ko‘chirma gap,** so‘zlovchining o‘z gapi esa **muallif gapi** hisoblanadi.

Masalan: *Umarshayx a’yonlarga qarab: «Qilichni emas, aql-idrokni ishga solmoq lozimdir», – deb buyurdi. («Allomalar ibrati» kitobidan)*

Muallif gapi (M) va ko‘chirma gap (K)ning o‘zaro joylashishiga ko‘ra tinish belgilari quyidagicha qo‘yiladi:

1. M: «K». M: «K?». M: «K!».
2. M: «K», – M. M: «K?» – M. M: «K!» – M.
3. «K», – M. «K?» – M. «K!» – M.
4. «K, – M, – K».

68- mashq. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni aniqlang. Ko‘chirma gap bilan muallif gapining o‘zaro aloqasini tushuntiring.

1. Ba’zilari menga o‘qrayib: «Jim o‘tir-e», – deb qo‘yishdi. *(O.)* 2. «Tushuntir o‘zing», – deydi menga jahldan qizarib Turg‘un. *(O.)* 3. «Shunaqa, o‘rtoq Nizomiddinov, – dedi Bo‘taboy, – bu dushmanning ishi». *(S. Ahm.)* 4. O‘ylar edi: «Ishning qizig‘i keyin keladi. Chol to‘g‘ri aytyaptimi? Yo dovdirayaptimi?..» *(S. Ahm.)* 5. «Xo‘p, xo‘p, – dedi kulib mahdum, – Anvardan eshitganim bor edi, janoblarining tavsiflarini eshitganman». *(A. Qod.)* 6. Oldiniga ikkilanib turgan Ummatali tavakkal qilib: «Bor!» – dedi. *(Sh.)*

69-mashq. Ko‘chirma gap va muallif gapini topib, ularning o‘rnini aniqlang. Tinish belgilarining qo‘yilishiga e’tibor bering.

1. «Qiziq ekan. Ra’noga ko‘rsataman buni», – dedi u o‘z-o‘zicha ruhlanib. (H. N.) 2. «Siz meni mazax qilmay qo‘ya qoling!» – dedi zarda qilib xo‘jayin. *(N. S.)* 3. «Dalilim yo‘q, – dedi Bo‘taboy qo‘rslik bilan, – shunga chaqirganmidingiz?» *(S. Ahm.)* 4. Nima ko‘rdingiz? – dedi polvon. – Hech narsa, – dedi qo‘rboshi. *(A. Q.)* 5. «Kam bo‘lmang, – dedi pulni uzatib, – yana xizmatingizdaman». *(A. Q.)* 6. Navbat o‘ziga kelganda, ayvondan turib mahdum baqirdi: «Ra’no, akangning qo‘liga suv quy!» *(A. Qod.)* 7. «Bozorni ko‘rdingmi? Qo‘y bozoriga bordingmi?» – so‘raydi dadam muloyim tabassum bilan. *(O.)*

73-topshiriq. Rivoyatni o‘qing. Sodda gaplarni ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarga aylantiring.

Amir Temur Fors viloyatini zabt etgandan keyin Sherozga keladi. Hofizi Sheroziyni o‘z huzuriga chaqirtiradi. Amir Temurga yaqin shaxslardan biri darrov

Hofizni topib keladi. Hofiz juldur kiyim kiyib, faqirona hayot kechirib yurgan ekan. Amir Temur shoirga razm solib:

– Ey Hofiz, men Buxoro bilan Samarqandni obod qilish maqsadida qilich ko‘tarib olamni xarob qilib yuribman-u, sen bu ikkala shaharni bitta hindu xoliga bag‘ishlab:

Agar ko‘nglimni band etsa o‘shal Sheroz jononi,
Hindu xoliga baxsh etgum Samarqand-u Buxoroni, –

deb she’r yozasanmi? – desa, Hofiz:

– Sultonim, saxiyligim tufayli shu ahvolga tushib yuribman-da! – debdi. *(«Hikoyat va rivoyatlar»dan)*

MURAKKAB QO‘SHMA GAP

Murakkab qo‘shma gap turli bog‘lovchi vositalar yordamida o‘zaro bog‘langan uchta va undan ortiq gaplardan tashkil topadi.

Tuzilishiga ko‘ra bunday gaplar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. **Bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap** ikki va undan ortiq ergash gaplardan tashkil topadi. Masalan: *Kishilarning huquqiy ongi yuksalsa, har kim o‘z haq-huquqini bilsa va himoya qila olsa,* jamiyatda demokratiya rivojlanadi.

2. **Bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap** tarkibida ikki va undan ortiq bosh gap qo‘llanadi. Masalan: *Kimki ko‘p o‘qisa, u bilimli bo‘ladi, dunyoqarashi kengayadi, mustaqil fikrlashga odatlanadi.*

3. **Aralash murakkab qo‘shma gap** ergashgan, bog‘langan yoki bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan tuziladi.

Masalan: *Shuni bilingki, ezgulikda xosiyat katta va u sizning fazilatingizni bezaydi.*

4. **Qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap** bir turdagi ikki va undan ortiq gaplardan tashkil topadi. Masalan: *Qushlar o‘tadi, jamiyat rivojlanadi, odamlar o‘zgaradi*.

70-mashq. Ko‘chiring. Murakkab qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni aniqlab, ularning qanday ergash gap ekanligini ayting.

1. Qasrlarda yurmay, boshimdan nimalar kechmasin, sizni hech qachon yurak daftarimdan o‘chirib tashlay olmayman. *(O. Y.)* 2. Kattalar qancha ishlasa, bolalar ham shuncha ishlar edi, biroq xo‘jayin bolalarga kam haq to‘lardi. *(A. Q.)* 3. Kimki tez-tez dalalarga chiqib tursa, bahri-dili ochiladi, tanasiga quvvat yuguradi. *(O.)* 4. Juda yaxshi deymiz, mana bu narsa, Go‘yo hukm kabi yangrar so‘zimiz, o‘ylab ko‘rganmizmi hech biror marta, Xo‘sh, kimmiz o‘zimiz? *(A. O)*. 5. Ota – xazina, aka-uka – tayanch, do‘st esa har ikkovidir. *(Hikmat)* 6. Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygan edi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko‘zlari dumaloq shakl olgan edi. *(O.)* 7. Havo ochiq bo‘lib, quyosh tuzukkina ko‘tarilgan, ammo uning ham bu kun uncha ta’siri yo‘q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da kesgan edi. *(A. Qod.)*

74-topshiriq. Matnni o‘qing. Murakkab qo‘shma gaplarning qismlarini bog‘lovchi vositalarni va gaplarning ma’no munosabatini aniqlang.

Agar har qancha dono bo‘lsang ham o‘zingni nodon tutgil, toki senga hunar o‘rgatish eshigi hamisha ochiq bo‘lg‘ay. Gar so‘zni va hunarni yaxshi bilsang ham hech bir so‘zni sindirmag‘il, to‘g‘ri ta’rif qilg‘il va uni bir rangda aytgil: xosga xos so‘z, omiyga omiy so‘z deg‘il, toki u hikmatga muvofiq bo‘lsun va eshitg‘on kishiga og‘ir kelmasin, yo‘qsa so‘zingni dalil va hujjat birla ham

eshitmag‘aylar. Undin so‘ng ularning rizosiga qarab so‘zlag‘il, to salomat bo‘lg‘aysan.

Ey farzand, agar har nechakim suxandon bo‘lsang, o‘zingni bilg‘ondin kamroq tutg‘il, to so‘zlash vaqtida nodon va beburd bo‘lib qolmag‘aysan. Ko‘p bilib, oz so‘zlag‘il va kam bilib, ko‘p so‘z demag‘il. Nima uchunki, aqlsiz shundog‘ kishi bo‘ladur – u ko‘p so‘zlar. Debdurlarki, xomushliq salomatlik sababidur, chunki ko‘p so‘zlaguvchi oqil kishi bo‘lsa ham, avom uni aqlsiz derlar. Aqlsiz kishi xomush bo‘lsa, uni oqil hisoblaydilar. Har necha pok, porso (xudojo‘y), ravish (yo‘l, yo‘sin, qoida) bo‘lsang ham o‘zingni ta’rif qilmag‘ilki, har kishi sening guvohlig‘ingni eshitmas. Qo‘shish qilkim, xaloyiq seni ta’rif qilsunlar va shundoq so‘z degilkim, u ishga yarasun, bekor va zoye ketmasun. *(«Qobusnoma»dan)*

NUTQ USLUBLARI VA ULARNING IMKONIYATLARI

Til birliklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni **nutq** sanaladi. Hayotning turli sohalari, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo‘ladi. Shunga ko‘ra nutqning quyidagi uslublari o‘zaro farqlanadi: **so‘zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy uslub.**

So‘zlashuv uslubi til birliklarini tanlash va ularni qo‘llashning nisbatan erkin uslubidir. Bu uslub o‘z xususiyatlariga ko‘ra ikki turga: adabiy so‘zlashuv uslubi va oddiy so‘zlashuv uslubiga ajratiladi.

Adabiy so‘zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining keng tarqalgan va barcha sohalar uchun bop turi bo‘lib, u adabiy til me’yorlariga mos, ishlangan va tartibga solingan bo‘ladi.

Adabiy so‘zlashuv uslubi kundalik muloqot uchun xizmat qiladi, o‘qitish ishlari, tarbiya va tashviqot shu uslubda olib boriladi, badiiy adabiyot shu uslubda yaratiladi.

Oddiy so‘zlashuv uslubi nutq muomalasi jarayonida (erkinlik bilan) adabiy til hamda sheva elementlari ishtirok etishi, fikriy idrokni keng qamrovli bayon etishi bilan ta’riflanadi. Bu uslubda so‘z tartibi qoidaga nomuvofiq bo‘lishi **(Kecha konsert bo‘ldi klubda)**; ko‘chma, obrazli-emotsional vositalar ko‘proq **(g‘ayrat qil, shalvirama; Alini qarang, og‘zi qulog‘ida** kabi) dialogik shaklda bo‘lib, to‘liqsiz gaplar va imo-ishoraning ko‘p ishlatilishi (**Kelyapti** (navbatchi), **Ketdimi?** – **Ha,** kabi), takrorlar **(Kelib-kelib shu gapni topdingmi?),** talaffuzda erkinlik **(na’lat (la’nat), yangitdan (yangidan), opti (olibdi)** kabi) yaqqol namoyon bo‘ladi. Oddiy so‘zlashuv uslubi badiiy asarda personajlar nutqini individuallashtirishda keng qo‘llanadi.

75- topshiriq. O‘z shevangizga xos so‘zlashuv uslubining belgilarini adabiy til me’yorlari bilan qiyoslang va farqlarini tushuntiring.

71- mashq. Matnni o‘qing. So‘zlashuv uslubiga xos til birliklari va grammatik vositalarning xususiyatlarini izohlang.

– Tur, Shariyf, tur, peshin bo‘libtu!

Ikkinchi yigit ko‘zini ochdi:

– E, qo‘ysang-chi, Rahem.

– Tur-da, axe, ana, Qobilboy ham keb to‘xtabtu!

Sharifboy yostiqdan burilib yonidagi, uchinchi yigitga qaraydi:

– Pala’nat, qachon kelgan ekan?

– Kim bilsin... Inisini bo uchratdimikin? Qani, uyg‘otchi pala’natini!

Sharifboy yotgan joyidan qo‘lini uzatib, Qobilboyning murtidan tortdi, Qobilboy g‘ingshib uyg‘ondi:

– Tek yot, Sharif!

– Iningga yo‘liqdingmi?

– Yo‘liqdim, ikavingga salom aytdi, – dedi Qobilboy va yuzini ulardan chetga o‘girib oldi. – Biroz tinch qo‘y, uxlayman.

– Iybi, iybi, – dedi Rahim, – burodaring ahvolini gapur-da, axe. Barpadari uyquki peshinga chikin bo‘lsa; ko‘chaga bo‘lib yotgan to‘palangni go‘shingga ilasanmi?

– Kech keldim, ko‘p jovrama-chi, Rahim!

– Qorunni to‘yg‘uzib, so‘g‘un uxla, akun! Qorinlar ham piyoz bo‘lib to‘xtabtu, nonushtani qayerga qilamiz, Shariyf?

– Choyxonaga qilamiz.

(Abdulla Qodiriy)

76- topshiriq. Tarjimayi holingizni yozing. Bu matnning so‘zlashuv uslubidagi matnlardan farqini izohlang.

Rasmiy-idoraviy uslub jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubidir. Bu uslub hujjatlilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e’lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati **aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy shtamplar, kasbga oid so‘zlar, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar** keng qo‘llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta’minlaydi. Tayyor nutq formulalari *(shu asosida,*

shunga ko‘ra, ma’lum qilamizki, ... ni e’tiborga olib, ... ga ko‘ra, ... biz, quyida imzo chekuvchilar, ... ga asosan (muvofiq), ... uchun, ... dan kelib chiqib, ... sharti bilan, ... berilsin, ... taqdirlansin kabi) hujjat matnining darak-axborot xarakterida bo‘lishini, so‘zlarning bir ma’noda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo‘lmasligini, fe’lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo‘shma gap turlarining keng qo‘llanilishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

72- mashq. Gaplarni ko‘chiring. Rasmiy-idoraviy uslubga xos so‘z va grammatik shaklli birikmalarning vazifasini izohlang.

1. Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. *(O‘zR Konstitutsiyasi, 49- modda)*

2. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi. *(«Davlat tili haqida» Qonun, 7- modda)* 3. Shu yil 28- oktabr kuni soat 14.00 da «Davlat tili haqida»gi Qonun tasdiqlangan kun munosabati bilan adabiy-badiiy anjuman o‘tkaziladi. 4. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o‘tkazilgan VII sessiyasida 1991- yil 18- noyabr kuni tasdiqlangan. 5. Yotoqxonada yashovchilar belgilangan tartib-intizom va tozalikka rioya qilmagan taqdirda yotoqxonadan chiqariladi. 6. Betobligim haqidagi tibbiy ma’lumotnoma ilova qilinadi. 7. Abror Rasulov marketing bo‘limi boshlig‘i vazifasiga tayinlansin.

77- topshiriq. Kollejingizda o‘tkazilgan tadbir (majlis, uchrashuv, adabiy kecha va hokazo) to‘g‘risida e’lon yoki hisobot yozing.

73- mashq. Matnni o‘qib, mazmuni va til vositalariga ko‘ra rasmiy-idoraviy uslubdagi matnlardan farqlanishini yozing. Ilmiy atamalarni ajrating va ma’nosini izohlang.

Kometaga ilk bor ko‘zimiz tushganda, garchi diametri bir necha ming kilometrni tashkil etsa ham, uning kichik bir shu’lali jism ekanini kuzatamiz. Kometaning markazidagi kichik, yarqiroq yorug‘lik nuqtasini ham ko‘rish mumkin. Ushbu yorug‘lik nuqtasi kometaning yadrosi deb ataladi. Munajjimlarning fikricha, yadro muz va chang zarralari aralashmasidir.

Quyoshga yaqinlashishi bilan kometaning dumi paydo bo‘ladi. Dum juda siyrak gaz va o‘ta mayda zarralardan iborat bo‘lib, ular kometa yadrosidan quyosh ta’siri ostida ajralib chiqadi.

Kometa Quyoshga yaqinlashayotganda, undan dum o‘sib chiqadi va harakati ham tezlashadi. Bu vaqtda kometa boshi oldinda ko‘yi harakat qiladi. So‘ngra qiziq bir vaziyat yuz beradi. Kometa Quyoshdan uzoqlashgani sari dumi uning oldiga o‘tadi. Buning sababi shundaki, Quyosh nurlari kometa yadrosidan materiyaning mayda zarralarini yulib oladi va uning Quyoshga teskari bo‘lgan yo‘nalishda dumi paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to‘g‘risida aniq, asoslangan, izchil ma’lumot berishda qo‘llanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta’riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisob-lanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksika-sini tashkil qiladi, unda adabiy me’yorga qat’iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe’llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi.

Ilmiy uslub bilimning turli sohalariga qarab, shuningdek, kimga mo‘ljallanganligiga nisbatan o‘zaro farqlanadi. Masalan, fan sohalari muay-

yan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish materiali bilan ajralib turadi.

Ilmiy uslubdagi kitoblar ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislargagina mo'ljallanishi yoki bunday ilmiy ma'lumotlar keng ommaga qaratilgan bo'lishi mumkin. Keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan, tasvir bayonida emotsionallik, obrazlilik mavjud bo'lgan uslub **ilmiy-ommabop uslub** sanaladi. Ko'pchilikka mo'ljallangan ma'ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko'rinishlaridir.

Ilmiy-ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi.

78- topshiriq. Mutaxassisligingizga oid darslikdan o'tilgan mavzudagi biror parchani tanlab, daftaringizga ko'chiring. Undagi atamalar va tayanch so'zlarning ma'nosini izohlang.

74- mashq. Ilmiy-ommabop uslubdagi ushbu matnni ilmiy uslubga aylantiring. Bu uslubdagi gaplarning leksik va grammatik xususiyatlarini ajratib ko'rsating.

... Tovushdoshlikning ma'no bilan singishib ketgan oliy namunalarini Navoiy asarlarida ko'rish mumkin. Masalan, shoir «Xamsa»ning Nizomiy Ganjaviyga bag'ishlangan qismlarining birida:

Ganja ganjurikim chekib ko'p ranj,
Qo'ymish erdi jahonda besh ganj, —

deydi. Bu baytda «ishtiqoq» deb atalgan san'at ham bor.

«Ishtiqoq» so'zining badiiy atama bo'lishiga uning grammatik ma'nosi asos bo'lgan. So'z yasalishi ishtiqoq deyiladi. Shunga asosan gapda bir o'zakdan yasalgan so'zlarni keltirishni ishtiqoq deb ataganlar. Biz bu hodi-

sani o‘zakdoshlik va uni vujudga keltirishni o‘zakdoshlashtirish deb atasak ham bo‘ladi. Lekin ishtiqoq so‘zini yodimizdan chiqarmasak yaxshiroq bo‘ladi. Demak, Navoiy mazkur baytda so‘zlarni ham tovushlashtirgan, ham o‘zakdoshlashtirgan. Bu baytda «ranj», «ganj», «jahon» so‘zlari e’tibori bilan tovushdoshlik, «ganja», «ganj» va «ganjur» so‘zlari e’tibori bilan o‘zakdoshlik bor. Chunki bularning hammasi xazina ma’nosidagi «ganj» o‘zak so‘zidan yasalgan. «Ganjur»ning ma’nosi «ganj» egasidir. Bunda Ganjaviyning Ganjada haqiqiy ganj ekanligi va uning jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan besh ganjni qoldirganligining haqiqatligi tovushdoshlik va o‘zakdoshlik bilan ta’kidlangan. *(Alibek Rustamov)*

79- topshiriq. Biror gazetadan madaniyat yoki sport mavzusidagi xabarni o‘qib, tili va uslubiy xususiyatlariga ko‘ra boshqa nutq uslublaridan farqlanishini tushuntiring.

Publitsistik uslub siyosiy-ijtimoiy doiradagi munosabatlar uchun xizmat qiladi. Bu uslubning yozma turiga publitsistik maqolalar, felyeton, murojaatnoma, xatlar, chaqiriqlar kirsa, og‘zaki turiga notiqlik kiradi. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ‘ibot uslubi bo‘lganligi uchun ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, o‘tkir va ta’sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi.

Shunga ko‘ra publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatilishi) ham, badiiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar, bo‘yoqdor so‘zlarni qo‘llash) ham o‘zaro uyg‘unlashadi. Bu uslubda hayotiy voqea va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo‘shqin va haroratli

misralarda ifodalanadi, ulardan umumiy xulosalar chiqariladi hamda muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqtirish orqali o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatiladi.

80- topshiriq. A. Matnni o‘qing. Uning tili va uslubiy xususiyatlarini izohlang.

... Hayot go‘zal, yashash maroqli. Biroq inson uchun eng aziz bo‘lgan umr qisqa. Shu bois bo‘lsa kerak, inson borki, hamma vaqt imkon qadar bu dunyoning go‘zalliklaridan ko‘proq bahra olishga, u in’om etgan lazzatlardan tatishga intilib yashaydi. Bu istak esa ba’zida odamzodga baxt keltirsa, ba’zan shu kimsa umrini xazon ham qiladi. Insoniyatning eng zaif tomoni ham shunda, menimcha. Zero, u amal qilayotgan ko‘plab zararli odatlarning oxir-oqibatini bilsa-da, uni takrorlashdan o‘zini tiyolmaydi.

Bugun yoshlar orasida ommalashib borayotgan chekish odati ham ayni yuqoridagi fikrimizga dalil. E’tibor bergan bo‘lsangiz, yoshlarimiz ruju qo‘yayotgan sigareta tutunlari yomg‘ir yog‘ishi oldidan qora bulutning ko‘m-ko‘k, beg‘ubor osmonni qoplagani singari tobora farzandlarimizning katta qatlamini o‘z iskanjasiga olmoqda.

Yurtimizda sog‘lom avlod tarbiyasiga har qachongidan ko‘ra ko‘proq e’tibor berilayotgan bir paytda kelajagimiz vorislari bo‘lgan o‘g‘il-qizlarimizning bu qadar o‘zlarini zaharlashlariga nima sabab bo‘lmoqda?

Aytish joizki, farzandlarimizning har qanday illatga ruju qo‘yishlarida, avvalo, ota-ona, mahalla-ko‘y, bir so‘z bilan aytganda, o‘zimizning bilib-bilmay qilgan xatti-harakatimiz bosh omil bo‘lib xizmat qiladi.

(«Ma’rifat» gazetasidan)

B. Shu uslubda matnni davom ettiring va o‘z xulosangizni yozing.

75- mashq. A. Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanidagi Kumushbibi va Otabekning bir-birlariga bitgan maktublarini daftaringizga ko‘chirib, matndagi so‘roq-ritorik gaplar, takrorlar, murojaat shakllari, haroratli va jo‘shqin fikrlar bildirilgan jumlalarning ma’nosini izohlang.

81- topshiriq. Matnni ifodali o‘qing va publitsistik uslubdan qanday farqlanishini tushuntiring. Badiiy tasvir vositalarini aniqlang.

... Bu qishloqda ayiqning fe’l-atvorini Xoliq buvachalik yaxshi biladigan odam yo‘q edi. Asqar shu sababli bobosining bu ishga bosh qo‘shishini juda-juda istardi.

Xoliq buva Asqarga o‘ychan ko‘z tikib kulimsiradiyu: «Shu nevaramning ko‘ngli juda kuyrak-da, – dedi ichida. – Men tog‘da yolg‘iz siqilib o‘tirganimda ham doim bu borib xabar oladi. Bo‘lmasa, Xudoga shukr, Asqardan boshqa o‘n oltita nevaram bor. Bu faqat menga shunday mehribon desam, hammaga rahmdil ekan-da. Och ayiqqa ham hammadan ortiq qayishyapti. Jonkuyar odam bolaligidan ma’lum bo‘larkan-da».

Xoliq buva ko‘nglidan o‘tgan shu o‘ylar ta’sirida Asqarga mehri tovlanib qaradi-da:

– Bo‘pti, o‘g‘lim! – dedi. – Men ham o‘sha... sen aytgan jamiyatga a’zo bo‘la qolaman.

– Rahmat, bobojon! – deb Asqar uni bo‘ynidan quchoqlab, sersoqol yuzidan o‘pdi. So‘ng maktabiga qarab chopib ketdi. *(Pirimqul Qodirov)*

Badiiy uslub kishi hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, o‘quvchi yoki tinglovchiga hissiy-estetik ta’sir etishga yo‘naltirilganligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta’sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan va

ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo‘llashi yoki o‘zi yangilarini yaratishi mumkin bo‘ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so‘zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o‘ziga xos so‘z va iboralar ham ijod etadilar. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi.

Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni badiiy idrok etish ko‘lami, ijod usuli, poetik mahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Shunga ko‘ra badiiy nutq uslubi nisbatan keng imkoniyatlarga ega o‘ta qamrovli va boy nutq ko‘rinishidir. Barcha turdagi san’at va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi.

76- mashq. Quyidagi matnlarni ifodali o‘qing. Badiiy nutqni shakllantiruvchi leksik-grammatik vositalarni ko‘chirib yozing.

I. Siyohdon, azizim, qora ko‘zligim,
Qora tunlar aro yoritgan ko‘zgu.
Sendagi u siyoh – yo‘q, siyoh emas,
Qalbimni qiynagan qip-qizil qonim.

(G‘afur G‘ulom)

II. Kuz kunlarining oyog‘i va qish kunlarining boshi edi. Daraxtlardagi sariq barglar to‘kilib tugalgan, yer yuzi o‘zining qishki sariq kiyimini kiygan edi. To‘rt tomonining o‘ralganligi soyasida yaproqlarini to‘kilishdan saqlab qolgan bu gilos yog‘ochlari ham bukun tungi qora sovuqqa chidolmay yelning ozgina harakati bilan-da barglarini shirt-shirt uzib tashlamoqda edilar. Havo ochiq bo‘lib, quyosh tuzukkina ko‘tarilgan, ammo uning ham bu kun uncha ta’siri yo‘q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchinida kesgan edi. *(Abdulla Qodiriy. «O‘tkan kunlar»)*

Uslubiy ma'no. Nutqda so'zlarni ma'nosiga muvofiq tarzda qo'llash lozim. So'z ma'nosini to'g'ri anglamaslik natijasida ko'pincha uslubiy xatoga yo'l qo'yiladi.

Masalan: *Yo'l yurib **raso (rosa)** charchadi.*

Buxoroli **(buxorolik)** *yigit g'olib bo'ldi.*

*Derazadan go'zal qizning **basharasi (chehrasi)** ko'rindi.*

82- topshiriq. A. Matnni o'qing va uning asl uslubini aniqlang, uslubiy o'zgarishlarni ko'rsating.

... Notiq rumkani olib o'rnidan turdi. Qoshlari chimirildi, rangi biroz o'zgardi, avval rumkaga, keyin uyining burchagiga qarab so'z boshladi:

– O'rtoq rafiqam! Ijozat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali bajarib kelayotganimizga bir yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!

Xotin bu muqaddimani hazil gumon qilganligi uchun qiyqirib chapak chaldi. Notiq yana ham jiddiyroq qiyofada davom etdi:

– Bundan 365 kun muqaddam siz bilan biz o'z hayotimizda qat'iy burilish yasab, zo'r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo'ydik. Ilgarigi vaqtda faqat erkak, endilikda esa ham erkak, ham xotin boshchilik qiladigan oila masalasi o'zingizga ma'lum bo'lganligi uchun bunga keng ravishda to'xtab o'tirishni lozim ko'rmayman.

...Siz bilan biz bir yillik oilaviy faoliyatimiz natijasida qanday yutuqlarga erishdik? Avvalo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, biz u yoki bu masalada yuz beradigan prinsipial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan o'z kuchimiz bilan, o'zaro keng muhokama qilish yo'li bilan bevosita bartaraf qiladigan bo'lib qoldik. Ikkinchidan, o'rtoq rafiqam, oilamizni tashkiliy xo'jalik jihatidan misli ko'rilmagan darajada mustahkamladik. Men bu borada

faktlarga murojaat qilib o‘tirmayman, chunki ordenli onangiz o‘zlarining har bir tarixiy kelishlarida bu narsani ayrim ravishda qayd qildilar. *(Abdulla Qahhor. «Nutq»)*

B. Yuqoridagi matnni o‘z so‘zlaringiz, fikrlaringiz bilan to‘ldiring va mazmunini saqlagan holda matnni kengaytiring.

77- mashq. Berilgan gaplardagi nuqtalar o‘rniga fikrga mos tarzda birikmalar qo‘shing, gap bo‘laklarini uyushiq yoki ajratilgan bo‘laklar hisobiga kengaytiring.

1. ... men «muboraknoma»ni o‘qitib ko‘rgan ekanman. *(S. Ahmad)* 2. Onajonim, ... men ham bir kun shavqqa to‘larman. *(A. Oripov).* 3. Bir ko‘rdim men uni – shunchalar go‘zal, Oydan-da go‘zaldir, ... go‘zal! *(Cho‘lpon)* 4. Har birimiz o‘z maktabimiz, ... esladik. 5. Nahotki u erta-indin uzoq ayriliq boshlanishini ... ..., yuragi ezilmaydi. *(O.)* 6. Boyagi yigitning, ... qo‘li gul ekan. *(P. Q.)* 7. Biz Toshkentdan janubga – ... tomonga qarab yura boshladik.

MATNNI KENGAYTIRISH YO‘LLARI

Matnni kengaytirish quyidagi yo‘l va vositalar bilan amalga oshiriladi:

– matnning bosh fikri, g‘oyasini shakllantiruvchi tayanch so‘z yoki gap, ifodani aniqlash va shunga bog‘liq holda o‘z mustaqil, ijodiy fikrini ifodalovchi gap, ifoda qo‘shish;

– matn mazmunini maqol, matal, hikmat-lar bilan boyitish, dalillar bilan asoslash;

– gapni uyushiq bo‘laklar, kiritmalar, ajra-tilgan bo‘laklar hisobiga kengaytirish;

– so‘z va birikmalarni ma’nodoshlari – tasviriy ifodalar, frazeologik iboralar va boshqa badiiy tasvir vositalari bilan almashtirish;

– sodda gapni qo‘shma gapga, qo‘shma gapni alohida sodda gaplarga ajratish;

– asosiy fikrni ifodalovchi gapga qo‘shimcha fikr, izoh bildiruvchi sintaktik parallel gaplarni mantiqiy izchillikda bog‘lab kiritish;

– matnning kirish, xulosa qismlarini o‘z qarashlari, mulohazalari, ilovalari bilan to‘ldirish.

78- mashq. Nuqtalar o‘rniga oldingi va keyingi gaplarning mazmuniga mos keluvchi so‘z va gaplarni qo‘shib matnni to‘ldiring. Matnning asosiy mazmunini aniqlab bering.

NAVRO‘ZNING YAXSHILIK VA EZGULIK NURI

Ma’lumki, Navro‘z kelishi bilan butun tabiat uyg‘onadi...

Navro‘z bizning zamonamizda yangicha mazmun kasb etyapti. Bu bayram quvonchlarini millati, ... irqidan qat’i nazar, har bir xalq-elat birgalikda baham ko‘rib, tantana qilyapti.

O‘zbek xalqi qadimdan bag‘rikenglik, ... va mehmondo‘stligi bilan tanilgan. ... Navro‘z mehmondo‘stlik ayyomiga aylanadi.

... Navro‘z shuning uchun ham baynalmilal ayyomga aylangan.

Xalqimiz yaxshi ... bildirganda: «Tinchlik-xotirjamlik bo‘lsin, el-yurtimiz omon bo‘lsin», – deb niyat-tilak bildiradi.

Navro‘zda inson ulug‘lanadi va dillarda ezgu niyatlar tug‘iladi...

83- topshiriq. O‘zingiz o‘qigan biror badiiy asardan yoki gazeta, jurnal maqolasidan muayyan parchani tanlab oling va bu matnni mazmuniy qurilishiga ko‘ra asosiy va qo‘shimcha qismlarga ajratib tavsiflang.

84- topshiriq. Matnlar mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan kengaytiring.

I. Hech qachon inson o‘ziga manfaat keltirmaydigan maqsadsiz biror harakat qilmaydi. U qanday qobiliyatlardan foydalanmasin, fikr va pul bamisoli chiroq kabi uning yo‘lini yoritib, yaxshi yoki yomon, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yo‘ldan boshlab ketaveradi... Odamlar aql-u zakovati va fikrlaridagi g‘oyalar va obrazlar shunday yashirin kuch-dirkim, ular hammavaqt harakatlarni boshqaradi, o‘ziga bo‘ysundiradi. Shuning uchun fikrni e’zozlash, uni to‘g‘ri yo‘naltirish, shu orqali bilimlarni orttirish va yaxshi xulosalarga o‘rgatish nihoyatda muhimdir. *(Jon Lokk)*

II. Har qanday sharoitda ham odamning kuchli quroli – bu uning aql-u zakovatidir. Olamning cheksiz sirlarini bilish, inson ehtiyojlarini, borliqni o‘zgartirish va unga moslashishga bo‘ysundirishda aqlga teng keladigan kuch yo‘q. O‘ylaymanki, inson aql-u zakovatining ijodiy kuchi va ta’siri Quyoshning energetik quvvatigagina teng kelishi mumkin. *(Chingiz Aytmatov)*

79- mashq. A. Oripovning «Men nechun sevaman O‘zbekistonni» she’rini nasriy matnga aylantirib yozing. Matn mazmunini o‘z xulosangiz bilan to‘ldiring.

85- topshiriq. Berilgan matndagi ajratilgan so‘zlarni tayanch so‘z sifatida izohlang, asosiy fikrni belgilang.

«Har qanday **qilmishning aksi**, qaytarma oqibati mavjud: shunday ekan, faqat o‘z prinsipimni himoya qilaman deb, bir kun borib ko‘pchilikni dog‘da qoldirmaylik tag‘in?! Axir, mavjud nazariyalar qolipiga tushmaydigan faktlar, ayniqsa, fan uchun **qimmatli** emasmi?! Chunki shu noma’lum faktlarni ishlab chiqish bilan yaqin oralarda fanning yangi yo‘nalishlariga **yo‘l ochib berish** mumkin-ku? **Fan** tarixida bunday misollar to‘lib-toshib yotibdi. Faktni tan olmaslik, aslida – hazm qilinmagan na-

zariyaning **oqibati-ku**! ... Men nasihatgo‘ylik qilishni o‘ylamagandim, ammo o‘rni kelib qoldi. Koinot azaldan insonni zulmat bilan o‘ragan. Fan esa odamzod qo‘lidagi mangu mash’ala! Zero fan – **cheksizlikni** o‘rganar ekan, ayni paytda, o‘zining ham had-chegarasi yo‘q. Inson bilimi tugamaydi, u abadiy yaratiladi, abadiy **harakatda**... Modomiki shunday ekan, men ochgan kashfiyot uslubiga boshqa bir uslub **qarama-qarshi** chiqib qolsa, nima uchun endi men unga, albatta, tosh otishim kerak?! Nima uchun?! Yo‘q, aqlimiz bo‘lsa, istiqbolimizga chinakam **qayg‘ursak**, bo‘g‘maylik. **Orzu** har qanday faktdan ham qudratli! Orzu bamisoli hayot ko‘ksidagi mildirab turgan buloq, gurkirab o‘suvchi nihol...

(O‘ktam Usmonov. «Girdob»)

MATNNI QISQARTIRISH YO‘LLARI

Matnni qisqartirish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

– matnning asosiy fikrini ifodalovchi gaplarni ajrata olish;

– gaplardagi uyushiq va ajratilgan bo‘laklarni, kiritma va ilova qurilmalarni qisqartirish;

– birikmalarni ma’nodosh so‘zlarga, sodda yoyiq gaplarni yig‘iq gaplarga, qo‘shma gaplarni sodda gaplarga, ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirish;

– matnning qo‘shimcha fikr ifodalovchi gaplarini, sintaktik parallellar va takrorlarni qisqartirish;

– matnni qisqa mazmunli tarkibiy qismlarga ajratish;

– birikmali sifatdosh, o‘xshatish va boshqa tasviriy ifodalarni sodda va ixcham shaklga keltirish.

80- mashq. Gaplarning asosiy mazmunini saqlagan holda ixchamlashtiring, ortiqcha leksik-grammatik vositalarsiz daftaringizga ko‘chiring.

1. Uning manfaatlarini, fikr-o‘y doiralarini, g‘oya va maqsadlarini yaxshi bilamiz. *(Zulfiya)* 2. Gapni yana cho‘zmasin deb, unga qarshi hech narsa demadi. *(A. Q.)* 3. Menga qara, bir ish buyursam, yo‘q demaysanmi? *(S. A.)* 4. Na muattar chamanzorlar, na muhtasham qo‘shiqlar, na kumushlangan hovuzlar, na chiroyli qafasdagi qushlar – hech nima uni qiziqtirmadi. *(O.)* 5. Kunduzi bo‘lsa, o‘zingizdan o‘tar gap yo‘q, xunukroq ko‘rinadi. *(A. Q.)* 6. Kim maqtanchoq bo‘lsa, u hamisha xijolat tortadi. 7. Ko‘z qayerda bo‘lsa, mehr ham o‘sha yerda bo‘ladi. *(Maqol)*

86- topshiriq. Matnni asosiy fikrni saqlagan holda qisqartirib ko‘ring. Qanday usullar bilan matnni qisqartirganingizni izohlang.

Qadimgi Yunonning eng buyuk faylasufi Arastu o‘limiga yaqin o‘g‘lini chaqirib shunday debdi:

– Bolajonim, o‘z umrimni ilm-u hikmatning sirlaridan voqif bo‘lish yo‘lida sarf qildim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko‘p tugunlarni yechdim, ammo o‘limga kelganda chora topolmadim. Senga qiladigan vasiyatim shuki, o‘g‘lim, mol-davlat orqasida orttirgan izzat-obro‘da baqo yo‘q. Izzat-hurmat, shon-sharaf ilmda. Ilm orqasida qo‘lga kiritilgan shon-sharaf fano va zavolni bilmaydi, davlat va siyosatning o‘zgarishi unga ta’sir qilmaydi.

O‘g‘lim, shohlar sening otangni ilmi tufayli ulug‘lashdi, bo‘lmasa, otang ham ular qaramog‘idagi bir odam edi. Shohlar tobeligidagi odamlar shohlarga ta’zim qilishadi va sig‘inishadi. Obidlar va ma’budlar orasida yer bilan osmoncha farq bor.

Otangning ilmi bo‘lmaganda, uning podshohlar uchun kitob ortilgan eshakdan farqi qolmasdi. Ularga sig‘inadi-

gan va xizmatini bajo keltiradigan bir g‘ulom bo‘lar edi, xolos.

Izzat-ehtiromga loyiq bo‘lay, nomim abadiy qolsin desang, ilm orttir! *(Muhammad Avfiy)*

87- topshiriq. Tanlagan kasbingiz, mutaxassisligingizga oid biror matnni (darslik yoki jurnaldan) tanlab oling. Uni ixchamlashtiring va qisqa tarkibiy qismlarga ajratib, har biriga alohida sarlavha qo‘ying.

81-mashq. Matnni o‘qing, asosiy fikr ifodalangan gaplarni aniqlab, daftaringizga ko‘chiring va ularning mazmunini izohlang.

Istiqlol yillarida o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari, yangi-yangi lug‘atlar ko‘plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e’tiborlidir. Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo‘ladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot anjumanlarida o‘zbek tilining o‘rni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi.

Biz ajdodlardan avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. *(Islom Karimov)*

NAZIRA G‘ULOMOVA

ADABIYOT

SO‘ZBOSHI

Aziz o‘quvchi!

Siz endi maktab bolasi emas, balki hayotda o‘z yo‘lini belgilab olgan yigit-qizlarsiz. Endi Siz hayotga, jamiyat taraqqiyotiga befarq qarashingiz mumkin emas. Chunki sizning taqdiringiz, kelajagingiz shu mamlakat va millatning taqdiri bilan uzviy bog‘liq. Shunga aqli yetgan har qanday inson bugun mamlakatda sodir bo‘layotgan islohotlar, ilgari surilayotgan g‘oyalar haqida o‘ylamasligi ham aqlga sig‘maydigan ish.

Qo‘lingizdagi darslikka kiritilgan asarlarning deyarli hammasida xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o‘tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog‘laydigan, millatning asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan ilg‘or fikrlar jamlangan. Siz ularni o‘qish, asarlar bilan ishlash jarayonida har biringiz yetuk inson bo‘lib shakllana borasiz, o‘zingizning tarbiyalanishingiz uchun o‘zingiz ishlaysiz. Bu faqat siz uchun, odamlar orasida o‘z o‘rningiz, o‘z so‘zingiz bo‘lishi uchun kerak. Elning mehrini, hurmatini qozonishingiz uchun, hayot deb atalmish makonda odamlardek yashab o‘tishingiz uchun zarur. Ertaga, kechagi kuningizning sarhisobi bo‘lganda alamlar, iztiroblar qurshovida qolmasligingiz uchun kerak.

Darslikda bir qator so‘z, ibora va jumlalar qora harflar bilan berilgan. Siz ular ustida alohida to‘xtaling. Ularning nima uchun shunday berilgani haqida o‘ylang, mohiyatini anglashga harakat qiling. Ularning zimmasiga qo‘yilgan yukka, ular tashiyotgan ma’noga e’tibor qiling, mag‘zini chaqing. Bu ham Siz uchun, Sizning ma’naviy kamolotingiz uchun qilingan.

Darslikdagi savol va topshiriqlar shunchaki tuzilmagan. Ular Sizning asar mohiyatiga kirishingiz, qahramonlar timsolida odamni kashf etishingiz, shu asarlarni bitgan adiblar shaxsi ko‘magida o‘zingizni tarbiyalashingiz, Odam va Olam sirlarini, ular orasidagi bog‘lanishni anglashingiz uchun xizmat qiladi. Ular Sizni kamolot sari yetaklaydi.

RUSTAMXON[1]

(Dostondan parcha)

Zamoninda Oqtosh viloyatinda Sultonxon degan o‘tdi. Sultonxonning uch zaifasi bor edi, tug‘maydigan aybi bor edi. Necha vaqt Oqtosh mamlakatinda podsholik qildi, yoshi qaytib soqoli oqarib qoldi... Hademay o‘rtanchasi – Huroyim degan zaifasi homilador bo‘ldi.

Sultonxon Huroyim yoriga aytdi:

– Dunyoda: «Bir qo‘rqqan yomon, bir quvongan yomon», – degan gap bor. Men shu yerda yursam, sen bir kun tug‘ib, men quvongandan yuragim yorilib o‘lib qolarman. Qurudim mamlakatiga safar qilayin. O‘n to‘rt yilda borib kelarman, oldima suyunchi deb chiqqan kishiga ayamasdan tanga-tilla berarman, balki qo‘rg‘onbiy qilarman.

Shunda ketmakka ixtiyor qilib taxti-baxtini kimga topshirarning hisobini topmay, amalini, davlatini hech kimga ishonmay, hayron bo‘lib, qozikalonlardan so‘radi. Qozikalonlar aytdi:

– Huroyimning bo‘yida bir homila gumona bo‘lsa, o‘g‘il bo‘lsa ham o‘g‘il, qiz bo‘lsa ham o‘g‘il. Gumonaning tufaylidin mamlakatni Huroyim so‘ramog‘i to‘g‘ri keladi.

Sultonxon taxti-baxtini Huroyimga topshirib, karnay-surnay qo‘ydirib, odamlarni yig‘dirib, jo‘namak harakatida bo‘ldi. Sultonxon otlanib, Huroyimga qarab, murtini burab, uzangiga oyog‘ini tirab bir so‘z aytayotir:

– Men ketgan so‘ng uydan chiqib o‘tirma,
Do‘st yig‘latib, dushmanimni kuldirma.

[1] Dostonni 1937-yilda baxshi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tilidan Hodi Zarif yozib olgan.

Bir yetar-yetmasga sirim bildirma,
Men qanday so‘rasam shundayin bo‘lgin,
Oqtoshga ega bo‘b podsholik qilgin...
Sultonxon jo‘nadi shahardan chiqib,
Qancha odam mahramlari jam bo‘lib.
Cho‘llarda ostiga mingani tulpor,
Xizmatida olti yuz mahrami tayyor,
Qancha sipohi ham adadsiz lashkar,
Shavkati olamni bosib boradi...

Shunday bo‘lib, yo‘l yurib Qurudim mamlakatini yoqalab chodir-chaman tikib qo‘ndi.

Bu yerlar, tevaragidagi ellar, necha qo‘rg‘on so‘rab turgan beklar ilgaridan bir-biriga ma’lum: goh Sultonxonga boj berib, goh bermay qaytib turar edi. Bu mamlakatning amaldorlari Sultonxonga borishli-kelishli bo‘lib yotdi...

* * *

Oqtosh mamlakatida Huroyim podsholik qilib ichkarida arz so‘radi. Ximcha degan kanizi bor. Ximcha – tillari bulbulcha, kimki yaxshi desa, shuncha, ikki yuzi ochilgan gulcha, bellari xipcha, o‘zi suluv oyimcha. Ximcha oyim tashqarida arz so‘radi. Huroyim Oqtosh mamlakatida Sultonxondan ziyoda ish tuta berdi. Huroyimning ish tutuviga ikki kundosh bezovtalik qilaberdi. Vaqti yetib, oyi bitib, Huroyim o‘g‘il tug‘di, otini Rustam qo‘ydi.

Rustam birga, ikkiga, uchga kirdi. Tilga enganda madrasadan bir mulla olib kelib, o‘qitib yotaberdi.

«Zamon Huroyimniki bo‘ldi», – deb ikki kundosh nima qilarini bilmay o‘y o‘ylar edi. Oqtosh viloyatida daftari mastondan uch yuz oltmish mastoni bor edi, boshlig‘ini Momogul maston der edi, mazgili shahardan tashqari bir g‘orda edi.

G‘orda yotar edi, xurrakni baland tortar edi, botmon nosvoyni to‘rt bo‘lib otar edi, yurish-turishi odamlarga xatar edi, ne er yigitlarni ikki pulga sotar edi, yaxshilikni

uch pulga olmay, qayerda yomonlik bo‘lsa, izlab yetar edi, qanday odam ko‘rsa, bu kampirdan hazar qilib uzoqqa ketar edi, yomonlik izlab borgan odamning ishi mastondan bitar edi.

Ikki oyim Momogulning ko‘ngliga olib, so‘roqlab borib qoldi. Huroyimning ustidan bir so‘z aytib turgan ekan:

– Eshit, momo, oyimlarning tilini,
Vayron qilsang bunda Oqtosh elini,
Xazon qilgin tar ochilgan gulini,
O‘lsin deymiz Huroyim ham ulini,
O‘zgalardan sizni yaxshi bilaman,
Xizmatingga bir qop tilla beraman,
Vayron qilgin Oqtosh mamlakatini,
Nima desang, xizmatkoring bo‘laman.
Bizga dushman bilmaganin bildirgin,
Xanjar urmay bag‘rin qonga to‘ldirgin,
Mamlakatdan buni benasib qilib,
Huroyim ham yolg‘iz ulin o‘ldirgin.

Ikki kundosh Huroyimdan qutulish uchun Momogul maston bilan til biriktiradilar. Maston tilla tangalar evaziga Huroyim ustidan fitna-g‘iybat to‘la arznoma yozdiradi, firib bilan Oqtosh ahliga tasdiqlatadi va Sultonxonga olib boradi. Sultonxon g‘azabga minib, o‘zi safardan qaytguncha Huro-yimni shahardan haydab, dorga osishga buyuradi. Jallodlar Huroyimni dorga osmoqchi bo‘layotganlarida Rustam jallodlarning dodini berib, onasini qutqaradi. Rustam boradigan yerining tayini yo‘q, enasini otga mindirib, tozilarini ergashtirib, «Adashganning oldi yo‘l», deya yo‘lga tushadi. Ular yo‘l yursa ham mo‘l yurib, Hukumu tog‘iga yetib boradilar, shu yerda qo‘nim topadilar...

Rustam tog‘-toshda ov qilib keladigan, enasi esa pishirib beradigan bo‘ldi.

Bir kuni Rustam enasi va tozilarini qoldirib, zarur anjomlar topish uchun yo‘l tortdi. Ko‘zi tog‘ bag‘ridagi o‘tovga tushdi.

Ot ustida o‘tovning bo‘sag‘asidan qaradi. Ko‘rdi: ajab suratli bir qiz, jamoli kunni xira qilguday, har kim husnini ko‘rsa, aqli ketib, otdan yiqilib qolguday. Ikki qo‘li orqasiga boylangan, sochidan uyning keragasiga[1] boylovli turibdi. Rustam ko‘rib hayron qoldi. «Shunday odamni ham ovloq bir cho‘lda, ko‘z ko‘rmagan yerda boylab tashlaydigan ham gaplar bor ekan-da! Kel-e, o‘ylab turguncha so‘ylab bilayin»,— deb Rustam bir so‘z aytib turgan ekan:

– Alifday qomating, xipcha belingdan,
Menga bayon ayla o‘sgan elingdan,
Xabar olmay hech kim sening holingdan,
Bu yerlarga qanday nomard boyladi?
Boylaganni menga bayon aylagin!

Qanday odam qildi qayg‘u-zulmni,
Xafa qipti senday toza gulimni,
Otdan tushib yechayinmi qo‘lingni?
Boylaganni menga xabar ber endi.

Maloyik suratli, gul yuzli dilbar,
Seni ko‘rgan odam bo‘lar beqaror.
Oy-u kundan ziyod sening husning bor,
Ne qildi seni boylab giriftor?

O‘z yurtingda biror ishni qildingmi,
O‘lim ishga duchor bo‘lib qoldingmi,
Bir tuhmatga sen giriftor bo‘ldingmi,
Xabar bergin, qanday nodon boyladi?

Menga aytsang o‘ynab-o‘sgan yurtingni,
Nima deydi sening ismi-zotingni,
Menga aytsang sen ham sir-u holingni,
Javob bersang, yechib qo‘yay qo‘lingni.

Qiz bu so‘zni eshitib, Rustamga javob berib, boylovli turgan yerida bir so‘z aytib turgan ekan:

---

[1] K e r a g a – o‘tovning chetanga (to‘qima devor) o‘xshatib ishlangan devori.

– Meni so‘rab bexos bo‘lib turmagin,
Hayallama, ketgin, yo‘ldan qolmagin,
Vaqti zamon mening kunim bitgandir,
Ketgin, menday bo‘lib bunda o‘lmagin!

Dam-badam yetib kelar ajdahar,
So‘ngra qochib qutulolmassan undan,
Hayallamay bundan ketmog‘ing darkor!
Kelsa mamlakatni to‘zon qiladi.

Ishqirib damiga tortib oladi,
Kim yaqinda bo‘lsa tayin o‘ladi,
Sendayin yo‘lbarsni nobud qiladi,
Hayallama, ketgin, bu yerda turma!

Bizning shahrimizni ajdahar olgan,
Uy boshiga bir qizdan soliq solgan,
Men boylandim, bugun navbatim kelgan,
Ko‘p turmagin, ketgin bundan, begimjon.

Xayolingni bunda turib bo‘lmagin,
Yaxshilik ko‘r, yomonlikni ko‘rmagin,
Sen mening husnimga hayron qolmagin,
O‘lib ketib ajdaharning damida,
Sen meni qoningga zomin qilmagin!

Bu so‘zni qizdan eshitib, Rustam o‘z boshini qutqarib, qizni tashlab ketgani ko‘zi qiymay, ajdaharga bir begunohni bergusi kelmay, qizga qarab bir so‘z aytib turgan ekan:

– Oh ursam to‘kilar ko‘zimning yoshi,
O‘limdan qaytarmi, bilgin, mard kishi,
Bundan qo‘rqib ketmoq nomardning ishi!
Ushbu damdir, o‘zga damni dam dema,
Ajdahardan sira meni kam dema,
Mushtiparsan, o‘ladi deb g‘am yema.

Qay tarafdan munda kelar ajdahar,
Ajdahar yo‘lini ko‘rsatgin, dilbar,
Ajdahar deganing bitta ilon-da,
Bir ilonning nima ham quvvati bor?!

Elingning zaxirasin toza olibdi,
Zaharini butun elga solibdi,
Elingda yo‘q ekan daf etgich odam,
Bir ilonga seni duchor qilibdi.

Hech zamonda shunday ishlar bo‘larmi,
Ajdahar deb seni boylab berarmi!
Meni o‘ladi deb, munglig‘, g‘am yema,
Ko‘rsatgin ajdahar kelar yo‘lini.

Ajdaharga ko‘rsatayin ishimni,
Yo‘lingda berayin aziz boshimni,
Omon-eson ajdahardan qutulsang,
So‘ngra borib ko‘rgin qarindoshingni.

Qiz ilgari ajdaharni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani yo‘q, ajdaharning siyosati xalqning qilgan ta’rificha, Rustamning qaddi-jasadiga qarab, «Yaxshi yigit ekan, o‘lmasin», – deb yana ham ko‘proq qaytardi. Shunda ham Rustam: «Mard so‘zidan, yo‘lbars izidan burilmaydi, degan gap bor, ajdahar domiga tortadi, meni yutadi, deb vahm qilmayman, qayishmay ajdaharning yo‘lini aytgin», – dedi.

Unda qiz aytdi: «Harchand zo‘r urdim, bo‘lmadi, sening ham ajaling yetgan ekan, kuning bitgan ekan, – deb bir qirni ko‘rsatdi. – Ajdahar shu tarafdan keladi», – dedi.

Shunda Rustam qizning gapi bilan otiga qamchi urib, boyagi ko‘ndalang qirning ustiga chiqdi. Qarasa, ajdahar ko‘zi olovdek yonib, ishqirib, har tarafga o‘t sochib, tog‘ ustidan Charxinko‘lga tushib kelayotgan ekan.

Haybat bilan kelayotir ajdahar,
Yaqinladi Rustambekday zo‘rabor,
Ajdahar chopinib damga tortganda,
Langar to‘kib Rustam o‘zin to‘xtatar.
Hech narsani pisand qilmas ajdahar,
Chiday olmay endi Rustam zo‘rabor,
Bir-biriga endi yaqinlab qolar.
Na’ra tortib bunda Rustamday qaysar,
Quvvatiman Rustam na’ra urganda,
Rustamning tovushi ajdarga yetdi,

Bu tovushdan uning qulog‘i bitdi,
Ko‘targan boshini yerga tashladi,
Jiyirib quyrug‘in o‘ziga tortdi.
Ajdahar behushdi, Rustambek bildi,
Qilichni chiqarib qo‘liga oldi,
Haybatli ilonning qoshiga bordi,
Ilonning boshiga qilichni soldi.
Haybatidan qo‘rqmay Rustam ish qildi,
Ajdaharni qaysar Rustam o‘ldirdi.
Dushmanni o‘ldirib ko‘nglin xushladi,
Qirq bir g‘o‘la qilib kesib tashladi.
Bir g‘o‘ladan oldi uzun bir tasma,
«Ajdahar belgisi», – dedi, jo‘nadi.
Rustam qaytdi ajdaharni o‘ldirib,
O‘tovdagi qizning qoshiga yetdi.
U qiz ko‘rdi: Rustam keladi omon,
«Ajdaharni ko‘rmabdi», – deb mushtipar
Ko‘nglidan kechirdi ana shu zamon.

Rustam qizning oldiga borib, ishonar belgisi deb ajdahardan olgan tasmani tashladi. Qiz ajdaharning terisidan olingan tasmani ko‘rib, ajdahar o‘lib, o‘zining omon qolganini bilib quvondi...

Ajdarho zulmidan qutulgan Bujul shahri va uning shohi Rustamni shohlikka ko‘taradilar va Oftoboyimni unga to‘y qilib olib beradilar.

Rustam Bujulda uch kun podsho bo‘lib turadi. So‘ngra enasi va tozi itlari yoniga qaytadi...

... Oqtosh mamlakatidagi ikki kundoshi Rustam va Huroyimning tirik ekanligi daragini eshitgach, yana shum kampirni ishga soladilar. Shum kampir Bahra tog‘iga kelib, Oqrabotga kiradi. Huroyimni zindonband qilib, uning qi-yofasiga kiradi va dev yordami bilan Rustamni o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Qizil dev shunday yigit bu shum kampirning o‘g‘li emasligiga aqli yetib, kampirning o‘zini o‘ldirib, Rustamni qutqaradi. Rustamni Oftoboyim parvarish qiladi, Huroyimni zindondan qutqaradi. Ular Bahra tog‘ida baxtli yashay boshlaydilar. Rustam va Huroyim haqidagi haqiqatni bilgan Sultonxon o‘z guno-

hini yuvish va ulardan afv so‘rash ilinjida qalandar qiyofasiga kirib, yurt kezadi, qirq qalandarga qo‘shiladi, o‘g‘li va Huroyimni qidiradi...

Ka’ba izlab bundan ketib boradi;
Kam xarj qolgan yerda gadoylik qildi.
Xarjli bo‘lganda qichab yo‘l yurdi...
Sultonning dardini ular bilmaydi,
Ka’ba deydi, yurar yo‘ldan qolmaydi.
Shunday qilib necha shaharni ko‘rdi,
Ulfatlarman har yerlarda o‘tirdi,
Sultonxon dardini endi gapirdi:
– Yaproqday titraydi qalandar joni,
Men qalandar, biling, Oqtoshning xoni,
Izza qildi debon zinhor koyinmang,
Mendayin gadoning yolg‘iz o‘g‘loni.
Shularning ishqida bo‘ldim xor-zor,
Daragini bilib bo‘ldik qalandar.
Ka’ba bilan ishim yo‘qdir, ulfatlar!
Mening Ka’bam, ko‘rdim, u yerda tayyor!
Mendan bilsang ko‘p xatolik o‘tgandir,
So‘zlaganim yo sizlarga botgandir,
Sizlar ko‘nglingizga og‘ir olmangiz,
U gaplarni asli menga aytgandir.
Oti Rustam, o‘zi nor kalla qo‘chqor,
Men shuning ishqida bo‘ldim qalandar;
Ka’ba ketsang, borabergin ulfatlar,
Qaytib borsam mening Ka’bam topilar.
Necha kunlar bo‘ldik birga ham yo‘ldosh,
Bir-birimiz bilan bo‘lganmiz sirdosh.
Men qaytaman endi kelgan yo‘limga,
Qayga borsang borabergin, qarindosh!..
Bu so‘zni aytib, bir-biriman xo‘shlashdi.
Qirq qalandar ketdi Ka’baga qarab,
Sulton yurdi bir shaharni oralab.
«Qani mening borsam joni-dilim, deb,
Chamanda sayragan u bulbulim, deb,
O‘ldirsa o‘ldirsin yolg‘iz ulim», – deb
Tag‘i qaytib, Bahra toqqa jo‘nadi...

Shunda yo‘l yursa ham mo‘l yurib, bir o‘zi telpagi qayqayib, tag‘i bir kun Oqrabotga borib qoldi.

Rustam ovda edi. Sultonxon eshagini bog‘lab, sarhovuzning bo‘yiga tushib edi, Oftoboy hovuzga suvga chiqdi. Bu qalandarni ko‘rdi: belida kamarlari tilladan: qaddi-jasadi kelbati Rustamga keladi. Shunda qalandarga qarab Oftoboy bir so‘z aytib turgan ekan:

– G‘am bilan sarg‘aydi guldayin diydor,
Bir nechalar ahvolidan bexabar,
Bu manzilga kelib qo‘ngan, qalandar,
Xabar bergil, kimda sening ishing bor?
Beliga yarashgan zarrin po‘tasi,
Ko‘p bo‘ladi aytgan so‘zning xatosi.
Siz bo‘p yurmang bizning xonning otasi,
Xabar ber, qalandar, qaydan kelasan?
Qora zulfim eshilgandir tol-tol,
Qalandar, bu aytgan so‘zga quloq sol,
Dushman kelsa, bunda bo‘ladi poymol,
Bir qalandar, bobo, qaydin kelasan?..

Bu so‘zni eshitib, Oftoboyga qarab, boshini ko‘tarib, Sultonxon bir-ikki og‘iz so‘z aytib turgan ekan:

– Dardim ko‘pdir, kim biladi ishimni,
Qo‘limdan qochirdim olg‘ir qushimni.
Ko‘p yurdim, yetmadi bemahal o‘lim,
Qaysi bir gulshanga ketdi bulbulim,
Shu ko‘ylarga soldi qodir xudoyim,
Xarob bo‘lib qoldi u manzil-joyim,
Havoga davr olib bo‘z qarchig‘ayim,
Shu gulshanga qo‘ndimi deb so‘rayin.

Bu so‘zni eshitib, Oftoboy bildi – Rustamning otasi ekan:

– Maydon bo‘lsa bedov otlar chopilar,
Chopib kelsa banot jullar yopilar,
Men ham bildim yo‘qchi bo‘lib kelibsan,
G‘am yema, begijon, yo‘g‘ing topilar.

Ko‘tar yuragingdan qayg‘u vahimni,
Ko‘rarsan izlagan qarchig‘ayingni.
Qayta boshdan obod qilsang joyingni.
G‘am yema, begijon, yo‘g‘ing topilar
Ko‘rib sizni ketdi ko‘nglim jo‘shib,
Bir-biringdan necha vaqtlar adashib,
Endi kepsan bunda izlab yonashib.
Adashganning barin qo‘ysam bir qo‘shib,
G‘am yemagin izlaganing topilar.

Oftoboy ko‘zasini to‘ldirib, uyga qaytib Huroyimning qoshiga bordi. Oftob aytdi: «Bular bir-biridan ko‘ngli qolishib yurgan odam. Agar aytsam, sira ham bunda ergashtirib kel, deb aytmaydi. Agar shu vaqtda Rustam ovdan kelib qolsa, men unday-bundayman, deganiga quloq solmaydi, chopib tashlaydi. Nima bo‘lsa, enasining qoshida ko‘rsa, enasini hurmat qilib zarar yetkazmas», – deb bu gaplarni ko‘ngliga olib, uyni supirib-sidirib to‘shanchi solaberdi.

«Bu nimaga sertaraddud bo‘lib yuribdi», – deb Huroyim qarasa, Sultonxonni iyartib[1] kelyapti.

Huroyim ko‘nglida aytdi: «Bu birga yurgan yor edi, bizlarga ko‘p zulmni qildi, oxiri pushaymon bo‘lib, bosh egib keldi. Rustamga tavba qildi. Oradan necha vaqtlar o‘tdi. Oftoboyning bu yelib-yugurishiga qaraganda, Rustam otasini tog‘dami, ovdami ko‘rib, tag‘i qaytib kelsa, jo‘natmay xizmat qilib turasan, degan ekan-da; Rustamdan bexabar bunday ishni qilmasa kerak edi».

Sultonxon Huroyimga salom berib, bosh egib turdi. Oftoboy uni ichkariga kirgizdi, ko‘rpachaga o‘tqizdi. Huroyim ham kirib o‘tirdi. Ikkovi hol-ahvol so‘rab, boshidan o‘tgan kulfatni gapirib, bir-biridan o‘pka qilib, Huroyim Sultonxonni uyaltirib, Oftobxon xizmatda bo‘lib turib edi, Rustam ovdan kelib qoldi. Rustam Oftoboyga qarayman deb ichkariga ko‘zi tushdi.

---

[1] I y a r t i b – ergashtirib.

Rustamning hushi boshidan uchib, xayoli qochib, qilichga qo‘l uzatib, ... ichkari kiraberdi...

Qalandarni ko‘rib g‘ayrati keldi,
G‘ilofdan sug‘urib qilichni oldi.
Yaqinladi qalandarning qoshiga,
Xanjar solmoq bo‘ldi uning boshiga.
Huroyim shu zamon o‘rnidan turdi:
– Bolam! – deb qaytardi Rustamday uldi,–
Tavba qilib o‘zi axtarib keldi,
Chopib tashlab, bolam, senga ne bo‘ldi?
Qanday bo‘lsa, qo‘zim, manmanlik qilma,
«Rustam otasini chopibdi», – degan
Lanqa[1] gapni, qo‘zim, o‘zingga olma.
Xazon bo‘lib, bog‘da gullar so‘lgandi,
So‘lgan gulga bulbul kelib qo‘ngandi.
Buncha ham darqahr bo‘lma, Rustamjon,
Qurudimga ketgan otang kelgandi(r).
Qanday farzand otasiga tig‘ tortar?
Egilgan bo‘yinni kesmaydi xanjar.
Enasi Rustamga nasihat aytar.
Shu zamon Rustamning bo‘g‘ni bo‘shadi,
Enasining so‘zi bilan bek Rustam,
Qo‘lidan qilichni yerga tashladi.
Turib edi ong-tong bo‘lib Rustamxon,
Boshidan ketganday qorong‘u tuman,
Ingranib o‘rnidan turib shu zamon,
– Bolam,— deb bag‘riga bosdi Sultonxon.
Omon-eson endi o‘g‘lini ko‘rib
Yuragidan ketdi qancha g‘am-armon.
Adashganlar bir-biriman topishdi,
Necha kun, necha tun orada o‘tdi,
Rustamga Sultonxon bu so‘zni aytdi:
– Quloq solgin xon otangning tiliga,
Qo‘zim, ketayik-da Oqtosh eliga,
Bundayin sen yolg‘iz joyda yurmagin,

[1] L a n q a – ta’na.

Bu yolg‘iz makonda, qo‘zim, qolmagin,
Borib ko‘rgin Oqtosh mamlakatingni,
Bino bo‘lib, o‘ynab-kulgan yurtingni.
Necha so‘z Sultonxon bunga aytadi,
Qayta-qayta ko‘p va’dalar beradi.
O‘z ishiga tavba qildi Sultonxon,
Oqtosh elga bormoq bo‘ldi Rustamxon.
Oqtosh ketmoq taraddudin qiladi,
Ot-ulovin bu abzallab minadi,
Yov-yaroq, darkorlisini olib,
Hammasi ham Oqtosh qarab jo‘nadi.
Chiqib ketdi bundayin Oqrabotdan,
Yo‘l boshlab boradi endi Rustamxon;
Bahra tog‘dan o‘tib yo‘l yurib ketdi,
Adadsiz cho‘llarni ko‘p bosib o‘tdi...
Oqtoshga yaqinlab, yetib boradi.
Borayotgan xabar Oqtoshga yetdi,
«O‘g‘li bilan keldi Sultonxon»,— deydi.
Qancha amaldorlar peshvoz chiqibdi.
Qancha xaloyiqlar ko‘nglini xushlab
Rustamni kirgizdi shaharga boshlab.
Shunday qilib keldi Oqtosh shahriga,
Kelib tushdi shohning o‘rdalariga.
Rustam bilan ko‘ring endi enasi,
Ega bo‘ldi qolgan kirdikoriga.
Kanizlarman qolgan u Ximchaoyim
Zolimlar dastidan yig‘lagan doim,
Turib manzilida bular eshitdi:
«O‘g‘li bilan kelgan emish Huroyim».
Rustam, Huroyimni ko‘rmoqqa keldi,
Qancha xaloyiqlar bunda yig‘ildi,
Bir-birining ahvolini so‘radi,
Bunda bo‘lgan ishni Rustam bilmadi.
Huroyim nazar sop shunday qaradi,
Hamma keldi, ikki kundosh kelmadi.
Sultonxon ikkovin shunday o‘yladi:
Bulardan o‘zgani dushman bilmadi,

Amaldorlar bilan maslahat qilib,
Bir nechaga sir bilgin, deb so‘yladi.
So‘ragandan bir kun anig‘in bildi,
G‘aznavonlar so‘ragancha gapirdi:
To‘rt qop tilla ikki kundoshga bergan,
Ikki kundosh olib, mastonga bergan,
Mastonman birikib shu ishni qilgan.
Endi Sultonxon ikki xotinini chaqirtib oldi.

– Bularning qilgan ishi mamlakatni buzib, qancha sarsonlikni soldi, – deb ikki xotinni haydatib, mirg‘azablarga shunday buyurib, deydi:

– Gunohkor ikkovi, qo‘lin boylanglar,
Turmasin, shahardan darrov haydanglar!
Kim yomonlik qilsa, jazosin ko‘rsin,
Hech tirik qolmasin, ikkovi o‘lsin.
Xaloyiqni yig‘ib endi Sultonxon:
– Omon-eson Rustam elga keldi, deb,
Yurtimga farzandim ega bo‘ldi, deb
Xaloyiqni xabar qilib yig‘dirdi,
Qancha so‘qim, qancha qo‘yni so‘ydirdi,
Necha yerdan endi o‘choq o‘ydirdi;
Vaqti xush bo‘p Oqtosh elda Sultonxon
O‘g‘li uchun el-u xalqqa to‘y berdi.
– Rustam bolam yurtga ega bo‘lsin, deb,
Podsholik navbatin Rustam olsin, deb,
Elni endi Rustam so‘rab tursin, deb
El-u xalqqa shunday xabar bildirdi.
Podsholikni Rustam qabul qilmadi,
Zo‘rlagan gaplarga quloq solmadi.
– Ovda-dovda, ko‘p yuraman dalada,
Podsholik saltanat menga nima-da:
O‘z yurganim menga endi bo‘ladi.
Podsholiging menga ma’qul bo‘lmadi.
Otam tirik, so‘raybersin yurtini.
Cho‘l-u ko‘lni kezib o‘zim yuraman,
Yurishimni shohdin ziyod bilaman.

Otam zo‘rlamasin, ko‘nglim bilar-da,
Otam o‘lsa, bir yo‘rig‘i bo‘lar-da,
Podsholik ishlari bir og‘ir yuk-da,
Meni qo‘ysin, o‘zi so‘rab turar-da.
Besh kun unda, o‘n kun bunda yuraman,
Mening ko‘nglim bahodirlik qilaman,
Yomon topsam, jazosini beraman...

Sultonxon qancha gapirdi, Rustam: «Men podsho bo‘lmayman», – dedi. Sultonxonning o‘zi tag‘i o‘z yurtida podsholikda qoldi. Rustam o‘z yori Oftoboy bilan o‘ynab-kulib, bu ikkovi Huroyimning duosini olib, Rustambek: «Men botirman», – deb polvonlik, botirlikni mashq qilib yuraberdi. Shunday qilib, Huroyim ham, Rustamxon ham murod-maqsadiga yetdi.

?

1. Sultonxonning safarga ketishi sabablariga asoslanib, unda qanday sifatlarni kashf qilganingizni o‘rtoqlashing.

2. Kundoshlar bezovtaligi va qilmishlariga tayanib, odamlarga baho bering. Sabablari haqida o‘ylab ko‘ring.

3. Rustamxon bilan Oftoboy shaxsini ochadigan o‘rinlarni qayta o‘qing. Ularga xos sifatlarni aniqlashga urinib ko‘ring.

4. Rustamning **«O‘limdan qo‘rqarmi, bilgil, mard kishi, bundan qo‘rqib ketmoq nomardning ishi»** so‘zlarida uning qaysi sifatlari aks etadi?

5. Ajdarho bilan olishuv tasvirini qayta o‘qing, Rustamni qanday tasavvur qildingiz?

6. Rustam nima uchun Bujulda podsholik qilib qolmadi? Buning sabablari haqida mulohaza yuriting.

7. Sultonxonni o‘g‘li va yoridan afv so‘rash ilinjida qalandar kiyimini kiyib yurt kezishga undagan sabablar haqida o‘ylab ko‘ring.

8. Sultonxonga Oftoboyning munosabatidan uning qaysi fazilatlari namoyon bo‘ladi?

9. Huroyimning ota-bola uchrashuvi paytidagi so‘zlariga tayanib, odamning shakllanishida onaning o‘rni va ahamiyatiga baho bering.

10. Rustam bilan Huroyimning Oqtoshga qaytganini eshitgan xaloyiqning xatti-harakatiga baho bering.

NAZARIY MA'LUMOT

Doston haqida

Hurmatli o‘quvchi! Maktabda dostonlar bilan tanishganingizda ular haqidagi nazariy ma'lumotni ham o‘zlashtirgansiz. Bilasizki, doston – xalq og‘zaki ijodining eng yirik janri bo‘lib, u qahramonlik, ishqiy-sarguzasht, fantastik mazmunga ega bo‘lgan voqealarni bayon qiluvchi asar. Qahramonlarning sarguzashtlari, o‘zaro munosabatlari va kechinmalarini keng ko‘lamda tasvirlovchi yirik hajmli she'riy asar **doston** deyilishini ham eslagandirsiz.

Doston davr, tuzumdagi xalq ruhiyatini, xususiyatlarini aks ettiradi. Zamonlar o‘tishi bilan ular yangi-yangi mavzular va g‘oyaviy mazmun bilan boyib boradi. Dostonlar xalq tomonidan yaratilgach, ijodkor xalq ular orqali o‘z maqsadlarini, orzu-istaklarini, his-tuyg‘ularini ifodalaydi.

Odatda, dostonlarning birinchi ijodkori unutilib, ular nasldan naslga, avloddan avlodga o‘tishi natijasida xalq mulkiga aylanadi.

Dostonlar mavzu jihatdan rang-barang, mazmunan xilma-xil bo‘lganligi bois ularning quyidagi turlari mavjud: **qahramonlik dostonlari; ishqiy-sarguzasht dostonlar; ta-rixiy dostonlar.** Xalq og‘zaki ijodidagi «Rustamxon», «Alpomish» qahramonlik dostoni bo‘lsa, «Go‘ro‘g‘li», «Ravshan», «Oshiq G‘arib va Shohsanam» kabilar ishqiy-sarguzasht dostonlardir.

Aziz o‘quvchi! Xalq dostonlarining baxshilar tomonidan ijrosini eshitganmisiz? Baxshilarning ichki ovoz bilan kuylashi, ming-ming misrani yoddan, ohangga solib ijro qilishi sizni hayajonga solmasligi, tuyg‘ularingizni junbushga keltirmasligi, to‘lqinlantirmasligi mumkin emas. Shunda xalq o‘z dostonlarini necha ming-ming yillardan beri nega saqlab, asrab-avaylab sizgacha olib kelganining sabablarini tushunasiz. Bu qadriyatni siz ham e'zozlashga harakat qiling.

AVESTO

«Husayn, qarshingda turli falsafa maktablaridan bahs etuvchi misoli zilol suvli katta-kichik ko'zalar turibdi. Geraklit, Demokrit, Platon, Aristotel... Ularning eng yetugi va yorqini Aristotel falsafasi... Sen hamma ko'zadan ichib bahramand bo'lding. Ayt-chi, bu ko'zalardagi suvlarning manbayi qayerda, ular qaysi quduqdan? ... Bu quduq sening hovlingda, u zardushtiylik ta'limotidan barpo bo'lgan».

«Ibn Sino» romanidan

Hurmatli o'quvchi! Sizga ma'lum qilmoqchi bo'lganimiz qadimgi yozma yodgorliklardan biri «Avesto»dir. Siz tarixdan bilasizki, dunyo xalqlari orasida turonzamin xalqlaridek tarixiy ildizlari chuqur va mustahkam bo'lgan xalq kam. Bunga asrlarga tengdosh osori-atiqalarimiz, ko'hna obidalarimiz va uch ming yillik tarixga ega bo'lgan muqaddas kitob «Avesto» guvoh. Unda dunyo ilm-fani, falsafasi, ma'naviyati va madaniyatining o'ttiz asr ilgarigi tafakkurlar majmui mujassamlangan.

«Avesto» – o'lkamizda islom dini tarqalgunga qadar (VII asrgacha) bo'lgan davrda ajdodlarimiz e'tiqod qilgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobidir. U qomusiy mohiyatga ega asar hisoblanadi.

Kitobda zardushtiylik ta'limoti qonun-qoidalari, Yazdoni pokning (Allohning) yaratuvchilik qudrati madhi, moddiy olamning yaratilishi, mazdaparastlikning asl mohiyati, shuningdek, xalq hayotining hamma sohalariga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Zardushtiylik dinining asoschisi Ko'hna Xorazmdagi Spitama qavmining farzandi Zardushtdir. U turonza-

minda ko‘pxudolikka (butparastlik, otashparastlik va h.k.) e’tiqod qilinishi bois xilma-xil urf-odatlar, udum va marosimlar kelib chiqqanligi, natijada xalqlarning jaholatga berilishlari, turli kelishmovchilik va qirg‘in-barot urushlar oddiy xalq uchun kulfat keltirayotganligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Bu haqda «Avesto fayzlari»[1]da shunday tarixiy voqea keltiriladi: «Zardusht kunlardan bir kunko‘chaga chiqsa, bir ko‘cha odamlar parastishgoh»ga boramiz, deb ketayotgan ekan. Yigit ham ularga qo‘shilibdi. Ko‘p o‘tmay atrofi devor bilan o‘rab olingan bir maydonga yetib borishibdi. Ichkariga kirishsa, odamlarning katta izdihomi. Bir chekkada qo‘y, echki, novvoslarning murdalari yotganmish. O‘rtada esa qo‘lida qonga belangan xanjar ushlagan o‘n chog‘lik kohinlar o‘ljasini kutgan sayyodday olazarak turganmish. Shu payt o‘ng tomondagi xonadan ikki kishi bir qo‘yni yetaklab chiqibdi. Haligi ulamolar turli xil ovoz chiqarib, ashula aytib, raqsga tushib, qo‘yga yopirilibdi: to‘g‘ri kelgan joyiga tig‘ suqib, bir soniyada azob berib o‘ldirishibdi. Bu holat bir necha soat davom etibdi. Maydon hayvonlar murdasiga to‘lib ketibdi. Mazkur joy qishloq ahlining o‘z tangrilariga qurbonlik qiladigan joyi – parastishgoh ekan. Zardusht bu dahshatli manzaradan g‘oyatda g‘amgin bo‘lib, gandiraklab qaytibdi».

Oradan ko‘p o‘tmay yigit «Suv havzalaridan foydalanish ahdnomasi»ni buzganlarga qarshi jangga safarbar etiladi. Arzimagan bahona, sababni deb minglab begunoh odamlarning yostig‘ini quritgan urushning bevosita guvohi, ishtirokchisi bo‘ladi. Ana shu ikki hodisa bo‘lajak xalq va din peshvosi Zardusht dunyoqarashining shakllanishida muhim bir turtki, omil bo‘ldi. Natijada yakka tangri Ahura Mazda kashf etilib, Turon-u Eronda mazdaparastlik dini qabul qilindi. Ko‘pxudolik davridagi aksariyat udumlar, jumladan, hayvonlarni azoblab o‘ldirib qurbonlik qilish rasmi man etildi, mollarni bo‘g‘zidan so‘yish joriy qilindi. El farovonligi, yurt osoyishtaligi,

[1] H o m i d j o n H o m i d i y. «Avesto fayzlari» T., 2000.

sulh, qavmlar birodarligi-yu hamjihatligini ta’minlash, johiliyat o‘rnida ilm-u ma’rifatni, dunyoviylik ruhidagi yangi dinni qaror toptirish uchun kurashildi.

Zardusht – dunyo tarixida dinni mazhab, sehr-u joduдan, zohiriy udum va marosimlarni ko‘r-ko‘rona bajarishdan, mavhumlik va xurofotdan xalos qilgan buyuk inson. U axloq me’yorini hayot mezoni deb bildi va bashariyatga ***yaxshi ish, yaxshi xulq va yaxshi amal olamni ham, odamni ham bezaydi***, deb tushuntiradi.

Zardushtiylik ta’limoti tarafdorlari dunyodagi barcha mazhablarga ehtirom bilan qaraydilar, o‘zga dindagilarning izzat-nafsini e’zozlaydilar. Mazdaparastlikda insonning qadr-qimmati, martabasi nazr-u niyoz va qurbonlik qilish bilan emas, jaholat va zulmga qarshi mardona kurash va amaldagi ezgu ishlar bilan belgilanadi. Shuningdek, ular uchun eng ulug‘ inson yerni sevadigan, mo‘l hosil yetishtiradigan, bog‘lar barpo etib, mehnat qurollari yaratadigan hunarmand, chorvador va dehqonlardir.

«Avesto»da yozilishicha, bug‘doy yerga ekilgach, Axriman bezovta bo‘ladi, bug‘doy o‘sib boshoq bog‘lagach, dev nola qiladi, bug‘doy xirmonga to‘plangach, dev o‘kirib yig‘laydi va bug‘doy un qilib non yopilgach, dev toqat qilolmay jon beradi. «Avesto»da yaratuvchi inson qudrati, mehnat va hayoti ana shunday tasvirlanadi. Mehnat yomonliklarni mahv etadi. Bu qudrat timsoli olamning yakka-yu yagona yaratuvchisi, posboni, yaxshi insonlarning himoyachisi Ahura Mazdadir. Ahura Mazda – haqiqat va adolatni, rostgo‘ylik va poklikni himoya qiladi, u yorug‘lik va farovonlik xudosi.

Axriman esa yolg‘on va bo‘hton, zulm va zulmat timsoli. U odamlarni chalg‘itadi. U sohibqudrat tangri emas. Sohibqudrat tangri Ahura Mazdaning o‘zi. «Avesto»da boshdan oyoq yolg‘on va rost orasida bahs davom etib, yaxshi so‘z, yaxshi ish, yaxshi xulqning tantanasi tasvirlanadi.

«Avesto» Zardusht va mazdaparastlik dini ulamolari tomonidan yozilib, to‘planib bo‘lgach, maxsus kotiblar

tomonidan o‘n ikki ming ho‘kiz terisiga oltin suvi bilan ko‘chirilgan. Makedoniyalik Aleksandr (Iskandar) Eronni bosib olgach, «Avesto»ning Eron podshosi xazinasida saqlanayotgan eng nodir nusxasidan o‘ziga kerakli joylarini tarjima qildirib olib, qolganini yoqtirib yuboradi. Keyinchalik sosoniylar podshosi «Avesto»ning qolgan qismini qayta tiklab, tartibga soldirgan.

«Avesto» quyidagi qismlardan iborat:

1. Gohlar (Zardushtning qo‘shiqlari). Zardusht she’rlari va ibodat payti ijro etiladigan matnlar.

2. Yashtlar. Maxsus ohanglar asosida ijro etiladigan qo‘shiqlar.

3. Vendidod. Devlar, zulmat kuchlariga qarshi qonunlar majmuasi, turli mavzulardagi asarlardan parchalar.

4. Visparad. Ibodat matnlari va yo‘sinlari.

Zardusht ta’limoti kishilarni faqat ibodat bilan shug‘ullanishga, go‘shanishinlikka da’vat etmaydi. Aksincha, uning aqidalari kishilarni faollikka, yaratuvchilikka, dunyoni takomillashtirish uchun kurashga undaydi.

U ruhiyatda Tangrini asrab, tilda ibodat qilib, yerga ikki qo‘llab ishlov berish lozimligini, chorvani ko‘paytirib, bog‘lar yaratish zarurligini qayta-qayta uqtiradi. ***Insonning yashashdan maqsadi metindek e’tiqodli bo‘lib yurtni obod, elni farovon, turli qavmlarning bir-biri bilan do‘st, inoq bo‘lib yashashini ta’minlashdan iborat bo‘lmog‘i lozimligini ta’kidlaydi.*** Shu bois «cho‘lga suv chiqarib, yerning sho‘rini yuvib, zaxini qochirib, unga ishlov berganlar» eng mo‘tabar insonlar hisoblanadi. Bular Ahura Mazda buyurgan amallardir. Muqaddas kitobda xabar berilishicha, podshoh Jamshid Tangri buyrug‘i bilan qattiq sovuqlarda odamlarni asrash uchun yerostida shahar ham qurdirgan.

«Avesto»ning ayrim qismlari deyarli boshidan oxirigacha xalq og‘zaki ijodi unsurlari, timsollari bilan ziynatlangan. Badiiy adabiyotda an’anaviy timsollarga aylangan o‘nlab afsonaviy tarixiy shaxslar, sulolalar, shahanshohlar

haqidagi noyob ma'lumotlar kitobning qismlariga sochilgan. Mazkur masalalar Zardushtning savoli va Yazdonning javobi sifatida bayon etilsa-da, hammasining asosi Tangri ekanligi sharhlarda izohlab beriladi.

Mazkur asar Movarounnahr, Xuroson va Eron xalqlarining miloddan bir necha asr oldingi tarixi, geografiyasi, dehqonchilik, bog'bonchilik, chorvachilik, hunarmandlik, binokorlik, harbiy hunarmandlik, maktab, madrasa, xususiy ta'lim tarixini o'rganishda qimmatli manbadir.

Ayniqsa, kitobdagi tabobatning nazariy va amaliy jihatlari, tabiatni g'orat qilmaslik, atrof-muhitni muhofaza qilish, poklik va halollik, halolni haromdan farq qilish kabi muammolar bugunda ham dolzarb bo'lib turibdi.

Ta'kidlash joizki, islom dini ramzi hilol bo'lganidek, zardushtiylik dinining ramzi olovdir. Olov – nur, u turli yomonlik va ins-jinlarni yo'q qiluvchi sifatida qabul qilingan. Zardushtiylik dini o'z davrida juda keng tarqalgan va keyinchalik pahlaviy xati zamonidagina «Avesto» yozma holatga keltirilgan.

Inson fikri, so'zi va ishi bilan go'zaldir, degan g'oya «Avesto»ning boshidan oxirigacha asosiy shior bo'lib turadi. Mana shu fazilatlar inson qalbi va amallarining go'zalligini belgilaydi. Zardusht nazarida ***So'z yaxshi fikr va ezgu amal ifodasidir.*** Shuning uchun ham ovozning shiraliligi va mayinligi, she'rlarni chiroyli o'qiy bilish va duolar tilovatida me'yorni saqlay olish inson estetik madaniyatining belgisi hisoblangan.

Zardushtiylar uchun ***haqiqat, qudrat va tinchlik tantana qilgan hayot go'zal hisoblangan:*** «Kimda-kim bug'doy eksa, u Ashah (Haqiqat)ni ekadi. U mazda dinini yana va yana ko'kartiradi. U mazda dinini yuzlab hamd-u sano, nazr-u niyoz va o'n minglab qurbonliklar bilan quvvatlantirgandek qudratli qiladi».

Zardushtiylik ta'limoti bo'yicha tinch mehnat, insonning yaratuvchilik faoliyati tana va jondagi barcha nopok kuchlarni quvadi, faqat mehnat va olijanob amallar orqali

nur va shodlik olamini ko‘paytirish, faqat mehnat tufayli haqiqat, tinchlik va davlatga erishish mumkin.

Insonning bunday yaratuvchilik qudratini idrok etish juda qadim zamonlarda yashagan bobokalonlarimizning tafakkuri, ma’naviyati va zakovatidan darak beradi.

«Avesto»dek noyob va nodir qadriyatning iste’dodli ijodkor Asqar Mahkam tomonidan tarjima qilinganligi va uning kitob holida chop etilishi mamlakatimiz ma’naviy hayotida katta voqeadir.

Zardusht ta’limoti, «Avesto»da ilgari surilgan ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amal hamon insoniyatni ezgulikka chorlab, odamlarni ruhan poklab, ma’nan rivojlantirib kelmoqda.

Hurmatli o‘quvchi! Quyida sizning «Avesto» haqidagi tasavvuringizni tiniqlashtirish maqsadida asardan parchalar taqdim etiladi.

?

1. Avvalo, «Avesto»ga bog‘lab keltirilgan epigrafni qayta o‘qing. Uning mohiyatiga kiring, ulug‘lar falsafasining mohiyati haqidagi tushunchangizni o‘rtoqlashing.

2. Zardushtiylikkacha bo‘lgan davr hayotining Zardushtga ta’siri asosida uning shaxsini, tabiatini aniqlang. Munosabat bildiring.

3. Zardushtiylik ta’limotining asl mohiyatini ajratib oling, adabiyot daftaringizga ko‘chirib yozing.

4. ***«Yaxshi ish, yaxshi xulq va yaxshi amal olamni ham, odamni ham bezaydi»***, degan falsafiy qarashga munosabat bildiring.

5. «Avesto»da inson mehnatiga, hunarmandlikka berilgan e’tibor haqida o‘ylab ko‘ring. Bularning hammasi nima uchun deb o‘ylaysiz?

6. «Avesto»da keltirilgan: ***«So‘z yaxshi fikr va ezgu amal ifodasidir»***, – degan fikrning mag‘zini chaqing. So‘z xususida yana kimlarning ta’limotini bilasiz?

7. «Avesto»da ulug‘lanadigan eng buyuk insonlar va buning mohiyati haqida fikrlashing. Sabablarini tahlil qiling.

IKKINCHI FARGARD[1]

1. Zardusht Ahura Mazdadan so‘radi:

– Ey Ahura Mazda! Ey olamlar mumtozi! Ey astumand olamining sohibi! Ey Ashavan[2]! Bir ashavan olamni tark aylasa, uning ruhi dastlabki kecha qayerda orom oladi?

2. Shunda Ahura Mazda javob berdi:

– Ashavanning ruhi o‘z yostig‘i ustidan joy oladi. «Ushtavad goh[3]»ni kuylagancha, istig‘for aytadi:

«Afv bo‘lsin unga!

Ahura Mazda o‘z xohishi bilan kechirgan zotlarga afv bo‘lsin!»

Bu tunda ashavanning ruhi tamomiy tirikligi davomida kabi xushliq topadi.

3. – Ikkinchi kecha uning ruhi qayerda orom oladi?

Shunda Ahura Mazda dedi:

– Ashavanning ruhi o‘z yostig‘i ustidan joy oladi. «Ushtavad goh»ni kuylagancha istig‘for aytadi:

«Afv bo‘lsin unga!

Ahura Mazda o‘z xohishi bilan kechirgan zotlarga afv bo‘lsin!»

Bu tunda ashavanning ruhi tamomiy tirikligi davomidagi kabi xushliq topadi.

4. – Uchinchi kecha uning ruhi qayerda orom oladi?

Shunda Ahura Mazda dedi:

– Ashavanning ruhi o‘z yostig‘i ustidan joy oladi. «Ushtavad goh»ni kuylagancha istig‘for aytadi:

«Afv bo‘lsin unga!

Ahura Mazda o‘z xohishi bilan kechirgan zotlarga afv bo‘lsin!»

Bu tunda ashavanning ruhi tamomiy tirikligi davomida kabi xushliq topadi...

---

[1] F a r g a r d – kesik yoki bo‘lak, qism ma’nosida.

[2] A sh a v a n – rostlik, to‘g‘rilik, haq, haqiqat so‘zlarining sinonimi.

[3] U sh t a v a d g o h – Zardusht yaratgan qo‘shiqlarning ikkinchisi shunday nomlanadi.

5. Uch kecha o‘tgandan so‘ng tong mahali ashavan erning ruhi o‘zini go‘yo giyohlar va xush bo‘ylar qurshovida qolgandek xayol qiladi, tasavvurida choshtgoh[1] sarzaminlaridan yoqimli hidlarni shamol uning dimog‘iga eltgandek (bo‘ladi). Bu bod shu qadar xushbo‘yki, misoli yo‘q.

6. Ashavan er xayolida go‘yo bod bu yoqimli bo‘yni uning dimog‘iga keltirgandek (bo‘ladi). Shunda o‘z-o‘ziga deydi:

– Bu bod o‘xshashi yo‘q hidni mening dimog‘imga qayerlardan eltmoqdaykin?

7. Ana shu bod oqimi bilan ashavan erning dini sohibjamol qiz qiyofasida namoyon bo‘ladi: sohibjamol porloq, bilaklari sutdek, qudratli, xush chehra, ko‘kraklari bo‘liq, harir vujud, ozoda va najoda, go‘yo o‘n besh yashar qiz. Qomati yaratilgan jamiyki xilqat xush qomatlaridan go‘zalroq.

8. Shunda ashavan erning ruhi unga yuz buradi va so‘raydi:

– Kimsan, ey sohibjamol? Ey men hech qachon ko‘rmagan mukammal xilqat, kimsan?

9. Uning dini javob beradi:

– Ey ezgu fikrli, ezgu so‘zli, ezgu amalli va ezgu dinli javonmard! Men sening diningman.

Ashavan so‘raydi:

– U holda qani seni ulug‘vorliging, ezguliging, go‘zalliging, xush bo‘ylaring, qudrating, yovdan g‘olibliging uchun sevgan zot?

10. Sohibjamol javob beradi:

– Ey ezgu fikrli, ezgu so‘zli, ezgu amalli va ezgu din sohibi bo‘lgan yigit! U sensan mening ulug‘vorligim, ezguligim, go‘zalligim, xush bo‘ylarim, qudratim, yovdan g‘olibligim uchun sevgan zot.

---

[1] Ch o sh t g o h – kunning yarmi. Zardushtiylik tasavvurida ilohiy farog‘at, jannat manzillari.

11. Qachonki birov murdor yoqqanida, butlarga sig‘inganda, zulm qilganda, daraxtlarni kesganda, o‘tirardingda goh[1]larni kuylarding, ezgu suvlar va Ahura Mazdaning Ozarini olqishlarding; yiroq-yovuqdan o‘tib qolgan ashavan erni xushnud etarding.

12. Men suyumli edim, sen meni suyumliroq qilding.
Go‘zal edim, sen meni go‘zalroq qilding.
Dilbar edim, sen meni dilbarroq qilding.
Baland poygohli edim, sen meni yana ham baland poygohli qilding.

13. Shu payt ashavan erning ruhi ezgu fikr poygohiga ilk qadamini qo‘yadi. Ikkinchi qadamini ezgu so‘z poygohiga qo‘yadi. Uchinchi qadamini ezgu amal poygohiga qo‘yadi va nihoyat to‘rtinchi qadamini bepoyon farog‘at poygohi bo‘lgan Aniyronga qo‘yadi.

14. Shundan so‘ng burunroq dunyoni tark etgan bir ashavan mard unga yuz buradi va so‘raydi:

– Ey ashavan!

Tiriklikni qanday qilib tark aylading?

– Ey ashavan!

Qanday qilib, jonivorlar va orzu-istaklarga to‘la uyingni tashlab kelding?

Qanday qilib astumand (moddiy) olamdan miynu olamiga yetishding?

Qanday qilib dahshatlarga to‘la olamdan abadiyat mulkiga kirding?

Bu mangulik saodat senga qanday tuyulayapti?

15. Shu chog‘ Ahura Mazda deydi:

– G‘oyat og‘ir, mashaqqatli va dahshatli yo‘llarni bosgan, ruhning tanadan judo bo‘lish mashaqqatini chekkan odamdan hech narsa so‘rama.

16. Keyin ashavan erga zarimaya moy[2]ini keltirishadi.

---

[1] G o h – qo‘shiq.

[2] Z a r i m a y a m o y i – lazzatli, xushbo‘y, g‘oyat yoqimli moy bo‘lib, behisht ne’mati hisoblanadi. U parhezkorlar va ashavanlarning ruhi jannatga doxil bo‘lgandan so‘ng ularga beriladi.

Ezgu fikrli, ezgu so‘zli, ezgu amalli va ezgu din sohibi bo‘lgan yigitga o‘limidan so‘ng shunday nasiba bor.

G‘oyat ezgu fikrli, g‘oyat ezgu so‘zli, g‘oyat ezgu amalli, oqila va eriga itoatkor ashavan ayollarga o‘limidan so‘ng shunday nasiba bor.

1. Ikkinchi fargarddagi ashavan ruhining xuddi tirikligidagidek gohlarni kuylashi haqida mulohaza yuriting.

2. Ashavan o‘limidan so‘ng qilgan yaxshiliklarining go‘zal qiz shaklida namoyon bo‘lishiga e’tibor qiling. Bu mukofotni tahlil qiling.

3. Go‘zal qizning: ***«Men suyumli edim, sen meni suyumliroq qilding. Go‘zal edim, sen meni go‘zalroq qilding. Dilbar edim, sen meni dilbarroq qilding», –*** deganlariga diqqatingizni qarating. Bunda Ashavanning xizmati nimadan iborat deb o‘ylaysiz?

4. ***«Ezgu fikrli, ezgu so‘zli, ezgu amalli va ezgu din sohibi bo‘lish»***ni tahlil qiling. Bunday sifatli kishilarga buyurilgan mukofotni izohlashga urining. Munosabat bildiring.

UCHINCHI FARGARD

Zardusht Ahura Mazdadan yovuz durvand kimsa vafotidan keyin uch kecha davomida uning ruhi kechiradigan hodisalar haqida so‘rarkan, Ahura Mazda Zardushtga javoban yovuz ruh uch tun davomida sargashta va parishon bo‘lishi va gohlardan ushbu parchani kuylashi haqida gapirib beradi:

«Ey Ahura Mazda! Qayoqqa bosh uray? Qayoqqa yuz buray?»

Uch kechadan keyin, tong mahali durvand erning ruhi go‘yo qor va muzliklarga parchinlangandek bo‘ladi. Iflos hid va noxush bo‘y uni qurshab oladi. Uning nazarida badbo‘y bod apoxtar (do‘zax) sarzaminlaridan unga tomon esmoqda. Yovuz durvand o‘zidan so‘raydi:

– Bu qanday badbo‘y bodki, men uni hech qachon his qilmaganman?

Shunda shamol oqimida uning dini ta’viya, gunohkor, chirkin, bukri eng palid xrafsastalardan battar, jamiki yaratilmish xilqatdan tuban bir xotin qiyofasida namoyon bo‘ladi. Durvand ruhi undan so‘raydi:

– Kimsan sen, ey osiy? Men sendan-da battarinroq kimsani ko‘rganim yo‘q.

Xotin unga shunday javob beradi:

– Ey qabih fikrli, qabih so‘zli, qabih amalli! Men sening amalingman. Sen tufayli men ko‘rib turganingdek, gunohkor, tuban, chirkin, churuk, badbo‘y va shikastaman. Sen boshqa birovlar ilohlar sha’nini kuylayotgan, suv, olov, giyoh va boshqa ezgu yaratilmish xilqatni e’zozlayotgan chog‘da Ahriman va devlarni xushnud etarding. Sen kimsaning o‘zgalarga madad qo‘lini cho‘zayotganini, uzoq-yaqindan kelgan ashavanga panoh berib, mehmonnavozlik qilayotganini ko‘rib turarding, biroq ko‘zlaring va ko‘ngling torligi uchun eshigingni ularning yuziga tambalarding.

Nopisand edim, nopisandroq qilding.
Dahshatli edim, dahshatliroq qilding.
Irkit edim, irkitroq qilding.

Men apoxtar (do‘zax)da edim. Biroq sen o‘z qabih fikr, qabih so‘z, qabih amaling bilan undan-da tubanroqqa tashlading.

Gumrohlar – Ahrimanning amriga bo‘ysunganlar – menga nafrat o‘qiydilar.

Shu chog‘ durvand erning ruhi yomon andisha poygohiga ilk qadamini qo‘yadi; ikkinchi qadamida yomon so‘z poygohiga kiradi; uchinchi qadamida yomon amal poygohiga doxil bo‘ladi. To‘rtinchi qadamda poyonsiz zimiston saroyi – do‘zaxga tushib ketadi.

Shu chog‘ burunroq tiriklikni tark qilgan durvand er undan so‘raydi:

– Ey durvand! Qanday qilib dahshatlar olamidan abadiyat mulkiga kelding?

Bu mangulik azob senga qanday tuyulmoqda?

Shunda Ahriman deydi:

– G‘oyat og‘ir, mashaqqatli va dahshatli yo‘llarni bosib o‘tgan, ruhning tanadan chiqishdek azobini boshdan kechirgan kimsadan hech narsa so‘rama!

Shundan keyin unga zahar keltiradilar. Yomon fikrli, yomon so‘zli, yomon amalli va yomon din sohibining nasibasi shudir.

Juda yomon fikrli, juda yomon so‘zli, juda yomon amalli, bilimsiz va eriga sarkashlik qiluvchi durvand xotinning nasibasi shudir.

?

1. Har ikkala fargardlarning shaklini taqqoslang. Farqli jihatlarni toping va sabablari haqida fikrlashing.

2. Uchinchi fargarddagi durvand ruhining ***«sargashta va parishon»*** bo‘lishi va uning kuylagan qo‘shig‘iga e’tibor qiling. Munosabat bildiring.

3. Yaxshi va yomon deya baholanadigan fikr, so‘z va amallar haqida mulohaza yuriting.

O‘RXUN-ENASOY[1] OBIDALARI

O‘rta Osiyo qadimdan ma’rifat-madaniyat o‘choqlaridan biri sifatida shuhrat qozonganini siz tarixdan, adabiyotdan yaxshi bilasiz. O‘tmishning ko‘plab madaniy yodgorliklari yozma va og‘zaki manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari shunday qadriyatlardan hisoblanib, u VI—VIII asr hayotini o‘zida aks ettirgan. Mazkur obidalar O‘rxun, Enasoy daryolari qirg‘oqlaridan topilgani uchun «O‘rxun-Enasoy yodgorliklari» nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bu yodgorliklar toshlarga o‘yib yozilgani bois «tosh bitiklar» deb ham yuritiladi.

Bilga xoqon[2], Kultegin, To‘nyuquq va boshqa yod-

[1] O‘rxun-Enasoy – hozirgi Rossiya hududidagi Yenisey daryosi va joy nomi.

[2] Xoqon – O‘rta asr turkiy xalqlardagi yirik davlat boshliqlarining unvoni va shu unvonni olgan shaxs; ulug‘ xon.

noma tosh bitiklar qadimiy yozma badiiyat namunalari bo‘lib, ularda tarixiy voqealar, hayot haqiqati o‘sha davr nuqtayi nazari bilan aks ettirilgan. Ularda turkiy elatlarning mamlakat mustaqilligi, el-yurt ozodligi uchun chet bosqinchilarga qarshi qahramonona kurashganliklari, turk xoqonligining paydo bo‘lishi, turkiy qavmlarning urf-odatlari, rasm-rusumlari, kasb-korlari haqida qiziqarli hamda qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Masalan: Turk xoqonligi tarixi haqida Kultegin bitiktoshida shunday deyiladi: «Yuqorida ko‘k osmon, ostida qora yer qilinganda ikkisi-ning o‘rtasida inson bolalari yaratilgan. Inson bolalari ustidan ota-bobom Bumin xoqon va Istamin xoqon o‘rnashganlar. O‘rnashib, turk xalqining davlatini, qonun va qoidalarini boshqarganlar».

Mazkur fikr mag‘zida tarixiy haqiqat mavjud bo‘lib, kuchli va jasur urug‘boshisi Ashinning o‘g‘li Bumin turk xoqonligiga asos solgan. Kultegin bitigi muallifi Yo‘llug‘ tegin bu fikrni asoslab, Bumin va Istamin turk davlatining asoschilari, ular taxtga o‘tirgach, to‘rt tarafdagi xalqni birlashtirib qudratli davlat barpo etganlar, deydi. Keyinchalik turkiy xalqlarning qat’iyatsizligi bois Turk xoqonligi Tabg‘ach (Xitoy) davlatiga bo‘ysundirilgan, yigitlar qul qilingan. To‘nyuquq ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi, sarkardasi bo‘lgan. Bitiktosh uning sharafiga yozilgan. To‘nyuquq bitigi uning hayotligida — 712—716-yillarda uning o‘zi tomonidan toshga o‘yib yozdirilgan.

Bitiktoshda turkiylarning dushman qabilalariga qarshi kurashi, To‘nyuquqning bu kurashlarda ko‘rsatgan qahramonliklari hikoya qilinadi. Toshbitik To‘nyuquqning Tabg‘ach elida tarbiya topganligi, turkiylarning tabg‘achlarga qaram ekanligini hikoya qilish bilan boshlanadi. «Bilga (dono) To‘nyuquq – men o‘zim, Tabg‘ach davlatida tarbiyalandim. Turk xalqi Tabg‘ach davlatiga bo‘ysunar edi...» To‘nyuquqning bu xabari haqida N. Rahmonovning «Turk xoqonligi» risolasida shunday tarixiy voqea keltiriladi: «To‘nyuquq turk zodagonlari-

ning Tabg‘ach imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan o‘g‘illaridan biri edi. Bundaylarga ular xitoycha nom berar, xitoycha o‘qitar va xitoyparastlik ruhida tarbiya qilar edilar. To‘nyuquqning xitoycha nomi Yuanchjen ham xitoyparastlik sabab qo‘yilgan edi. Yuanchjen «To‘nyuquq» so‘zining aynan tarjimasi bo‘lib, «to‘ng‘ich javhar» degan ma’noni bildiradi»[1].

To‘nyuquq Xitoyda tutqunlikda, zindonlarda yotadi, keyinchalik imperator saroyida ishonch qozonadi. U Xitoy imperiyasiga qarshi bosh ko‘targan Qutlug‘ tomonga o‘tib, uning maslahatchisiga aylanadi.

To‘nyuquq bitiktoshida Vatan tushunchasi, vatanparvarlik va erk g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi. To‘nyuquq xalqning, vatanning haqiqiy, asl o‘g‘loni sifatida gavdalanadi. U turk xalqini tabg‘achlar asoratidan qutqarish uchun astoydil kurashadi.

Xalq o‘z erkini himoya qilmasa, u og‘ir fojialarga, hatto yo‘qlikka yuz tutishi mumkinligi yodnomada shunday tasvirlanadi: «Xoningni qo‘yib taslim bo‘lding. Shuning uchun tangri «O‘l!» degan, shekilli, turk xalqi o‘ldi, tugadi, yo‘q bo‘ldi. O‘z xonini qo‘yib, Tabg‘ach xoqoniga sajda qilgani tangriga ham xush kelmadi. Ularni har tomonga tarqatib yubordi. Turk xalqi yerida biror ulug‘ qolmadi. Chakalak orasida qolgani yetti yuz nafar bo‘ldi».

To‘nyuquq turk xalqi fojiasi, alam-qayg‘ularini ko‘rar ekan, ota-bobolari asos solgan Turk xoqonligini tiklash bilangina erkinlikka erishish mumkin deb hisoblaydi va yetti yuz sonli askar bilan ko‘p sonli dushmanga qarshi kurashadi. Xalqni nihoyatda og‘ir vaziyatdan olib chiqadi. To‘nyuquq – mard, dovyurak sarkarda va dono maslahatchi, kerak bo‘lganda xalqni birlashtira oladigan jasoratli boshliq sifatida namoyon bo‘ladi va «Shad» (Turk xoqonligida oliy darajadagi unvon) unvonini oladi. To‘nyuquqda tushkunlik, qo‘rqoqlik mutlaqo yo‘q. Unda

---

[1] N. R a h m o n o v. Turk xoqonligi. Xalq merosi, 1993.

o‘ziga, xalqiga mustahkam ishonch bor. Shuning uchun u doimo g‘alabaga erishadi.

Bitiktoshlar badiiy jihatdan ham qimmatli. Unda xalq og‘zaki ijodining hikmat, maqol, o‘gitlari ko‘plab keltiriladi. Masalan, «Yupqa yig‘in tor-mor qilishga oson emish, ingichka yig‘in uzishga oson emish», «Yupqa qalin bo‘lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish» yoki «G‘am o‘z uyingda» kabi maqollar, «Vatan mustaqilligi uchun jon kuydirish hammaning burchi, beparvolik yomon oqibatlarga olib keladi» singari o‘gitlar bitikni o‘qishli va ta’sirchan etgan.

Bitiktoshlar Shimoliy Mo‘g‘ulistondan topilgan bo‘lib, hozir ham o‘sha yerda saqlanadi.

Hurmatli o‘quvchi! Biz sizga bu bitiklardan keltirilgan namunalarning, afsuski, mazmunini o‘rganishga taqdim etmoqdamiz. Mana shu mazmunni yaxshilab uqib olish sizda o‘zlikning shakllanishiga, milliy iftixor hissi, farzandlik g‘ururi, o‘zbeklik faxri tuyg‘ularining kurtak otishiga ko‘maklashadi, deb umid qilamiz. Siz ham bu bitiklarga shunday niyat bilan yondashing. O‘zbek millati alohida Sizlardan tashkil topishini unutmang. Bilasizki, Odamning shakllanishi oson kechadigan jarayon emas. Qiyinchilik bilan, mashaqqatli mehnat bilan o‘zlashtirilgan bilim insonga yuqadi, ko‘nglida iz qoldiradi. Bu iz Shaxs shakllanishida, albatta, o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

?

1. O‘rta Osiyoning qadimdan madaniyat-ma’rifat markazi bo‘lib kelgani haqida o‘z bilganlaringizni o‘rtoqlashing.

2. Bobolarning o‘z qahramonlari haqida toshlarga yozganlari haqida mulohaza yuriting. Buning sabablari va oqibati haqida fikrlashing.

3. Bitiktoshlar haqida avval ham eshitganmisiz? Bilganlaringizni hozir o‘qiganlaringiz bilan taqqoslang, boyiting.

TO‘NYUQUQ BITIGI

(Mazmuni)

Dono To‘nyuquq – men o‘zim, Tabg‘ach davlatida tarbiyalandim. Turk xalqi Tabg‘ach davlatiga bo‘ysunar edi.

Turk xalqi o‘zining xoni bilan bo‘lmay, Tabg‘ach xoqonligiga qo‘shildi, xonlik bo‘ldi. O‘z xonini qo‘yib, yana Tabg‘ach xoqonligiga qo‘shildi. Tangri shunday degan ekan: Xon berdim. Xoningni qo‘yib taslim bo‘lding. Tabg‘achga taslim bo‘lgani uchun tangri «O‘l», degan, shekilli, turk xalqi o‘ldi, yo‘q bo‘ldi, tugadi. Turk xalqi yerida birorta ham urug‘ qolmadi. Ichkari-yu tashqarida qolgani to‘planib yetti yuzta bo‘ldi, ikki qismi otliq, bir qismi yayov edi. Yetti yuz kishini uyushtiradigan boshlig‘i shad edi. Unvon ol, dedi. Unvon oladigan men edim – Bilga To‘nyuquq. Xoqonni ham qo‘lga olayin, dedim, so‘ngra o‘yladim: oriq va semiz buqani (birov) tezagidan bilsa, birov semiz buqani oriq buqadan ajrata olmas emish. Shundan so‘ng Tangri bilim bergani uchun faqat o‘zim xoqonni qo‘lga oldim. Dono To‘nyuquq bo‘yla bag‘a tarxon[1] Eltarish xoqon birga bo‘lib, janubda Tabg‘achni, Sharqda (Sharqiy) Xitoyni, Shimolda o‘g‘uzni ko‘plab o‘ldirdi. Allomasi, chovushi[2] men o‘zimgina edim, Chug‘ay[3] kuzni (tog‘ning quyosh tushmaydigan tomonini) va Qoraqumni manzil qilib olgan edik. U yerda kiyik, quyon yeb turar edik. Xalqning tomog‘i to‘q edi. Dushmanimiz atrofga qanotini yetkazdi. Biz shay edik. Shunday turar (yashar) erk ahli. O‘g‘uzdan o‘shanda kuzatuvchi keldi. Kuzatuvchining gaplari shunday: «To‘quz o‘g‘uz xalqi ustiga bir xoqon hukmron. U Tabg‘achga Kuni Sangunni yuboribdi. Xitoyga To‘ngra Semni yuboribdi. Ularga shunday gap yuboribdi: «Turk xalqi yurgan emish. Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi

---

[1] B o‘ y l a b a g‘ a t a r x o n — To‘nyuquqning unvoni.

[2] Ch o v u sh i — shuhratlisi.

[3] Ch u g‘ a y — hozirgi Inshan.

alloma ekan. O‘sha ikki kishi bor bo‘lsa, seni Tabg‘achni o‘ldirajak ekan, deyman. Shimolda Xitoyni o‘ldirajak, u meni, o‘g‘uzni ham o‘ldirajak, deyman. Tabg‘ach, sen o‘ngdan, hujum qil! Xitoy, oldidan hujum qil! Men chapdan hujum qilay. Turk sir xalqi yerida boshqa ega yurmasin. Eplasak o‘sha egani yo‘q qilaylik, deyman». Bu gapni eshitib, tunlar uyqum kelmadi. Kunduz o‘tirgim kelmadi. Undan so‘ng xoqonimga iltimos qildim: Tabg‘ach, O‘g‘uz, Xitoy – bu uchovi hujum qilsa, qamalda qolajakmiz. Unda vujudining ichi-tashini, mol-u jonini topshirgan kishiday bo‘lamiz. Yupqa yig‘in (to‘da) tor-mor qilishga oson emish, ingichka yig‘in uzishga oson emish. Yupqa qalin bo‘lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish. Ingichka yo‘g‘on bo‘lsa, uzadigan bahodir emish. Sharqda Xitoydan, janubda Tabg‘achdan, g‘arbda Qurdandan, shimolda O‘g‘uzdan himoyalanish uchun ikki-uch ming lashkarimiz bor. Bundan boshqa keladiganimiz yo‘q. Shunday (hujum boshlaylik) deb iltimos qildim. Xoqonim men dono To‘nyuquqning arzini eshitdi. Ko‘nglingga qarab yo‘l tut, dedi. Ko‘k o‘ng (daryosi)ni yuqorilab, O‘tukan (tog‘ining) yish (yon bag‘ri)ga tomon yo‘l oldim. Inigak ko‘li bo‘yiga To‘g‘la (daryosi) tomonidan O‘g‘uz keldi. Ularning lashkari uch ming ekan, biz ikki ming edik. Urushdik, tangri yorlaqadi, qochirdik, daryoga tushdi. Qochganlar yo‘lda yana o‘ldi. Shundan keyin O‘g‘uz ko‘plab taslim bo‘lib keldi. Men o‘zim turk xalqini O‘tukan yeriga (boshlab) keltirdim. Bilga To‘nyuquq O‘tukan yeriga qo‘nibdi deb eshitib, janubdagi, shimoldagi xalq keldi. Biz ikki ming edik, ikki qo‘shin bo‘ldi. Turk xalqi yer yuziga o‘rnashgandan beri, Turk xoqoni taxtga o‘rnashgandan beri Shantung shahriga, dengiz, daryoga yetmagan edi. Xoqonimga arz qilib, (u tomonga) lashkar tortdim.

(Xalqimni) Shantung shahriga, dengiz, daryoga yetkazdim, yigirma uch shahar mag‘lub bo‘ldi. Dushmanning uyqusi harom bo‘lib, cho‘l-biyobonda yotib qoldi. Tabg‘ach xoqoni dushmanimiz edi. O‘n o‘q (qabilasi) xoqoni ham dushmanimiz edi. Undan ko‘proq qirg‘izning

qudratli xoqoni dushmanimiz bo‘ldi. Uch xoqon: «Oltin yish (joyning nomi) ustiga talon solaylik, deb maslahat qilishibdi. (So‘ng) Sharqqa, Turk xoqoniga lashkar tortaylik, unga qarshi lashkar tortmasak, agar u g‘azablansa, bizni yo‘q qiladi, – depti. – Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan, qachon g‘azablansa, o‘ldiradigan ko‘rinadi. Uchovimiz yopirilib hujum qilaylik, uni yo‘qotaylik», – depti. (Shunda) Turgash (qabilasining) xoqoni bunday depti: «Mening xalqim u yerda bo‘ladi. (Shunda) Turk xalqi yana hayajonda (qoladi), depti. O‘g‘uzi yana parokanda, depti. Bu gapini eshitib tunlari uyqum, kunduzlari o‘tirgim kelmas edi. Shunday o‘yladim: Tabg‘ach, o‘n o‘q, qirg‘iz xoqon(lig)iga Ko‘gman tog‘idan oshib o‘tib, hujum qilamiz. Shuning uchun avval biz lashkar tortaylik, dedim.

Ko‘gman (joyning nomi) yo‘li bitta ekan. Yo‘lni qor bosgan deb eshitib, bu yo‘l bilan yursa yaramaydi, dedim. Yerchi (yo‘l boshlovchi) surishtirdim. Cho‘llik Az qabilasidan bir yigitni topdim. Az yerini u yaxshi bilar ekan, bir manzili bor ekan. Ani daryosi bo‘ylab borilar ekan, o‘sha yerda yotib, bir otlig‘ yo‘l yurib boriladi, dedi. O‘sha yo‘l bilan yursa imkon bor deb o‘yladim. Xoqonimga buni aytib, qo‘shinni yo‘lga soldim, «Otlantir!» – deb buyruq berdim. Oq tarmal (hozirgi Xua Kem) daryosini kechib o‘tib, qo‘shimcha qarorgoh qurishga ijozat berdim. Biroz dam olgach, otlanishga buyruq berdim, qorni yorib yuqoriga otni yetaklab, o‘zimiz yayov yurib, daraxtlarga tayanib qo‘shinni chiqardim. Oldindagi yigitlar ilgarilab, o‘simliklar bor dovondan oshdi, undan qiynalib pastga tushdik. O‘n kun davomida biz yonlanma yo‘llardan yurdik. To‘siqni aylanib o‘tdik. Yerchi ham yanglishib, bo‘g‘izlandi. Xoqon xafa bo‘lib, otlarni choptiringlar, dedi.

– Ani daryosidan boraylik! – dedim. Daryo suvining quyi tomoniga yurdik. Lashkarni sanash uchun tushirdik. Otlarni o‘tga boyladik. Keyin yana yo‘lga tushdik. Kun ham, tun ham yelib bordik. Qirg‘iz (qabilasi)ni uyquda bosdik. Biz lashkarimizning engagini (old qismini) jangga

kiritdik. Qirg‘iz xonining lashkari yig‘ildi. Jang qildik, sanchdik, xoqonini o‘ldirdik. Bizning xoqonga qirg‘iz xalqi taslim bo‘ldi, ta’zim qildi. Qaytdik. Yana Ko‘gman (tog‘i)ni aylanib o‘tdik. Qirg‘izdan qaytganimizdan so‘ng Turgash xoqonidan kuzatuvchi keldi. Gapi shunday: «Sharqdan Turk xoqoniga qo‘shin tortaylik, qo‘shin tortmasak, u bizni yo‘q qiladi. Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan, har qanday yo‘l bilan bizni o‘ldiradigan ko‘rinadi», – depti. (Kuzatuvchi) Turgash xoqoni yo‘lga chiqibdi. O‘n o‘q xalqning hammasi chiqibdi. Tabg‘ach lashkari ham bor ekan, dedi. Bu gapni eshitib, xoqonim men uyga tushayin (borayin), dedi. Xotini vafot etgan edi. Uning marosimini o‘tkazayin, dedi. (Siz qo‘shin bilan boring, dedi. Oltin yishda o‘rnashing, dedi. Lashkarboshi Inol xoqon, Tardush shad borsin, dedi. Dono To‘nyuquqqa – menga aytdi: bu qo‘shinni olib bor (unga bosh bo‘l), dedi. Karam-u g‘azabni ko‘nglingdagiday qil, men senga nima ham deyin, dedi. Dushman keladigan bo‘lsa, bahodir yigitlarni yig‘ va dushmanni o‘ldir. Kelmaydigan bo‘lsa, til tutib ma’lumot olib tur, dedi.

Oltin yishda o‘rnashdik. Uch kuzatuvchi kishi keldi, gapi bir: Xoqoni lashkar bilan yo‘lga chiqqan, o‘n o‘q lashkari bilan bekam-u ko‘st chiqqan, dedi. Yaris dashtida yig‘ilamiz, degan. O‘sha gapni eshitib, xoqonga u gapni jo‘natdim: «Nima o‘ylayin!» (Bunday) gapni olib qaytib keldi: «Shu yerda turing!» Borma, yaxshilab qorovul qo‘y, dushmanga bostirib qo‘yma! – debdi. Bo‘gu xoqon menga shunday deb aytib yuboribdi. Bosh lashkarboshiga maxfiy gap yuboribdi: dono To‘nyuquq hushyor, u o‘zi biladi. Bu gapni eshitib, qo‘shinni yo‘lga soldim. Oltin yishning o‘tib bo‘lmas joyidan oshdik. Irtish daryosining o‘tib bo‘lmas joyidan kechib o‘tdik, tunda to‘xtamadik. Bo‘luchuga tong otganda yetib keldik.

Bizning kuzatuvchilarimiz til tutib keltirdi. Gapi shunday: Yaris dashtida o‘n tuman (yuz ming) lashkar yig‘ildi. Bu gapni eshitib, beklar hammasi qaytaylik, ***pokiza uyat yaxshidir***, dedilar. Men esa shunday deganman, men dono

Tunyuquq: Oltin yishni oshib keldik, Irtish daryosini kechib keldik. Jangchilarning kelgani qahramon, deganlar. Dushman sezmay qoldi. Tangri Umay[1] muqaddas yersuv (Vatanni) dushmanni bosib (olish yo‘li bilan) bergan ko‘rinadi. Nega chekinamiz, dushmanni ko‘p, o‘zimizni oz deb nega qo‘rqamiz. Qani, bosaylik, hujum qilaylik, dedim. Hujum qildik, dushmanni tor-mor qildik. Ikkinchi kun keldi. Urushdik. Ularning qo‘shini biznikidan ikki qanot yarmicha ortiq edi. Tangri yorlaqagani uchun dushman ko‘p deb biz qo‘rqmadik, jang qildik. Tardush shadi ham O‘n o‘q xoqoni tomonida ishtirok qildi. Ularni ham tor-mor qildik, xoqoni, yabg‘usi (bu ham harbiy unvon), shadi (ham) o‘sha yerda o‘ldirildi. Elliktacha yigitni tutdik va o‘sha kechasiyoq har birini o‘z xalqiga jo‘natdik. U gapni eshitib o‘n o‘q beklari, xalqi, hammasi bizga bosh egib keldi. Kelgan beklar, xalqdan ajrab, ozgina xalq qochgan edi. Biz lashkar tortdik, ularni quvdik. Inju o‘g‘uzni[2] kechib Tinsi o‘g‘li[3] ketadigan Bangligak tog‘ini oshib o‘tib, Temir darvozagacha quvib bordik. O‘sha yerdan qaytardik. Inal xoqonga arab va tuxor (arablarning ittifoqdoshi) hujum qildi. O‘shanda dubulg‘a kiygan so‘g‘doq xalqi hammasi keldi. O‘sha kuni hujum qildi. Turk xalqi Temir darvozaga Tinsi o‘g‘li yotadigan tog‘ga yetdi, egasi yo‘q ekan. U yerga men, dono To‘nyuquq, yetkazib borganim uchun sariq oltin, oq kumush, qizjuvon, egri tuya, ipak hadsiz keltirdilar. Eltarish xoqon dono maslahatchisi qahramon bo‘lgani uchun Tabg‘achga qarshi o‘n yetti marta urush qildi. Qitanilarga qarshi yetti marta urush qildi. O‘g‘uzga qarshi besh marta urush qildi. O‘shanda maslahatchi ham, urushuvchi ham men o‘zim edim. Eltarish xoqonga, Turk Bo‘gu xoqonga, Turk Bilga xoqonga xizmat qildim, tun uxlamay, kunduz o‘tirmay, qizil qonimni tugatib, qaro terim yugurtib, mehnatni, kuchni berdim. Men o‘zim uzoqlarga bosqin uyushtirib turdim. Qo‘ng‘ir qo‘y, oq otni katta qildim. Bosib olishga

[1] U m a y – qadimgi turklarning onalik sifatiga ega bo‘lgan xudosi.
[2] I n j u o‘ g‘ u z – Sirdaryoning qadimgi nomi.
[3] T i n s i o‘ g‘ l i – So‘g‘d podshosining unvon laqabi.

urinadigan dushmanni poymol qilar edim. Xoqonim bilan lashkarlar tortdik, tangri yorlaqasin! Bu turk xalqiga qurolli dushmanni keltirmadim, yalovli otni yugurtirmadim. Eltarish xoqon muvaffaqiyat qozonmasa, unga qo‘shilib men o‘zim muvaffaqiyat qozonmasam, davlat ham, xalq ham yo‘q bo‘ladigan edi. Xoqonim muvaffaqiyat qozongani uchun, men o‘zim muvaffaqiyat qozonganim uchun davlat ham davlat bo‘ldi, xalq ham xalq bo‘ldi, o‘zim chol bo‘ldim, ulg‘aydim.

Turk Bilga xoqon davlatida bu bitikni yozdirdim, men Bilga To‘nyuquq. Eltarish xoqon muvaffaqiyat qozonmasa edi, u bo‘lmasa edi, men o‘zim dono To‘nyuquq, muvaffaqiyat qozonmasam edi, men bo‘lmasam edi, Qapag‘an xoqon boshliq Turk sir xalqi yerida urug‘ ham, xalq ham, kishi ham bo‘lmas edi, turk xalqi yeriga xo‘jayin ham bo‘lmas edi.

Eltarish xoqon va dono To‘nyuquq muvaffaqiyat qozongani uchun Qapag‘an xoqon, Turk sir xalqi yurgan bu davlat yashab turibdi. Turk Bilga xoqon Turk sir xalqini tarbiyat qilib turibdi.

?

1. Eng qadimiy yozma yodgorliklar – bitiktoshlar qahramonlari ko‘nglida qanday insoniy tuyg‘ular hukmronlik qilganini angladingizmi?
2. Tutqunlikdagi To‘nyuquqning o‘zi va xalqini dushmandan qanday omon olib chiqqanligi sababini tahlil qiling. Uning shaxsiga baho bering.
3. Turk xalqining Tabg‘ach davlatiga qaram bo‘lishi sabablarini bitikdan topib o‘qing. Unga bugunning nazari bilan baho bering.
4. Turk xalqini Tabg‘ach, O‘g‘uz, Xitoylarning xavfidan omon olib chiqishda To‘nyuquqning tutmishlarini tahlil qiling.
5. To‘nyuquqning: ***«Tun uxlamadim, kunduz o‘tirmadim»***, – deganini o‘z so‘zlaringiz bilan tahlil qiling va munosabat bildiring.
6. Erk ahli qanday bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz? Fikringizni bitikdagi To‘nyuquq so‘zlari bilan bog‘lab tushuntiring.

IMOM ISMOIL AL-BUXORIY

(810–870)

Rivoyat qilishlaricha, bir kuni Imom Buxoriyni boshqa shaharga ma’ruza uchun taklif qilib, uning qobiliyatini sinamoqchi bo‘ladilar. Yuzta hadisni o‘zgartirib, o‘n kishiga bo‘lib beradilar. Bitta-bittadan hadisni ayttirib: «To‘g‘rimi?» – deb so‘raydilar. Imom Buxoriy: «Bilmayman», – deb javob qiladi. Shu tariqa hamma hadisni buzib aytib, Buxoriydan «bilmadim» javobini oladilar. Hamma hadis aytib bo‘lingach, Imom Buxoriy so‘z boshlab, har bir kishining aytgan hadisini xuddi o‘ziday qilib aytib, ketidan to‘g‘risini aytib beradi. Shu tariqa yuzta hadisni to‘g‘rilab aytib berganlaridan so‘ng shahar ahli u kishining zehniga, xotirasiga lol qolgan ekan.

«Hadis ilmida amir al-mo‘miniyn» degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan Imom Ismoil al-Buxoriy milodiy 810-yilda Buxoro shahrida tavallud topgan. Ismoil yoshligidayoq otasidan yetim qoladi va onasi tarbiyasida voyaga yetadi.

U tabiatan aql-idrokli, ziyrak, o‘tkir zehnli bo‘lgan. O‘n yoshidan arab tilini va hadislarni qunt bilan o‘rgangan. Bilimga chanqoq, ilm-fanlarni o‘rganishga havasi kuchli bo‘lib, hadis ilmini alohida qunt bilan o‘zlashtirgan. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, u hadislarni hadis ilmi olimlari va rivoyatchilardan eshitgach, yodlab olavergan.

Imom al-Buxoriy o‘n olti yoshida sayohatga chiqadi, Makka va Madinani ziyorat qiladi. O‘z bilimini oshirish maqsadida Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag‘dod kabi ilm-fan markazlaridan hisoblangan yirik shaharlarda bo‘ladi. Hadis ilmi bilan birga fiqh ilmidan saboq oladi, yirik olimlar davrasida bahslarda ishtirok etadi, toliblarga

dars beradi. Bunday bahs-munozaralar Buxoriy bilan at-Termiziy o‘rtasida ham bo‘lib, u ikki muhaddisning qizg‘in ilmiy va ijodiy muloqotiga aylangan. Termiziy Buxoriy salohiyatini o‘zidan yuqori qo‘ygan.

Imom al-Buxoriy tinimsiz ishlagan, to‘plagan hadislarini oqqa ko‘chirgan. O‘zining yozishicha, ko‘pincha hatto oyning yorug‘ida ham, qorong‘i kechalarda sham yorug‘ida ham kitob yozar ekan.

Muhaddis ko‘plab shogirdlarga va ulamolarga hadis ilmidan saboq berdi. Buxoro amiri bilan o‘rtalarida ixtilof chiqadi. Amir Buxoriyga odam yuborib, saroyga kelishini, bolalariga kitob o‘qib berishini buyuradi. Biroq Buxoriy ilmini xor qilib hokimlar eshigiga borishni istamaydi. «Ilm izlab bormaydi, ilmni izlab keladilar», – deydi. Bu gapdan darg‘azab bo‘lgan amir uni Buxorodan badarg‘a qiladi. Shundan so‘ng Buxoriy umrining oxirigacha Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida yashaydi va og‘ir dardga chalinib, 870-yili shu yerda vafot etadi.

Ma’lum bo‘lishicha, livanlik shayx Nadim al-Jisr 1956-yili sobiq Sovet Ittifoqini ziyorat qilishga taklif etiladi. Nadim al-Jisr eng avval safarni Imom al-Buxoriy maqbarasi ziyoratidan boshlamoqchi ekanini aytadi. Biroq moskvaliklar Buxoriy haqida hech narsa bilmasdilar. Mehmon bir hafta xonasidan chiqmaydi. Bu vaqt Imom al-Buxoriy shaxsi, maqbarasining qayerdaligi va ahvolini aniqlashga ketadi. Maqbara mehmon ziyorat qiladigan darajada emasligi, yonidagi masjid esa omborxonaga aylantirilgani ayon bo‘ladi.

Yodgorlikni tezkor ta’mirlash va epaqaga keltirish uchun vaqtdan yutish maqsadida mehmonni Moskvadan Toshkentga poyezdda olib keladilar. Maqbaraga esa yarim tunda olib boradilar. Boisi – Xartang qishlog‘i hali elektrlashtirilmagan ekan. Nadim al-Jisr unga peshvoz chiqqanlar orasidan o‘tib, maqbarani tiz cho‘kkancha tavof etib, shu alfozda ertasi peshingacha Qur’on tilovat etadi. Uning ko‘zlaridan tinmay yosh oqar, hamma bu manzaradan hayratga tushgan ekan.

O‘sha voqeaning shohidi Z. Boboxonovning e’tirof etishicha, Shayx Nadim al-Jisr Imom al-Buxoriy qabri va uning atrofidagi tuprog‘ini vazniga teng oltin barobarida sotib olish istagini o‘tinib bayon qilgan ekan.

Mustaqillik sharofati bilan qadriyatlarimiz tiklandi, shular qatorida muqaddas qadamjolar ham ta’mirlandi. Hozir Imom al-Buxoriyning qabri atrofida katta me’moriy majmua barpo etilgan va u musulmonlarning ziyoratgohiga aylantirilgan.

Imom al-Buxoriydan bizga katta, boy va qimmatli meros – yigirmadan ziyod ilmiy asar yetib kelgan. Ular orasida «Al-Jomi’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») va «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asarlari, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Hurmatli o‘quvchi! Siz 5-sinfda al-Buxoriyning «Al-Jomi’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») asaridan namunalar o‘rgangan edingiz. Endi uning «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asari bilan tanishasiz.

?

1. Sizga taqdim etilgan rivoyat mazmuniga tayanib, buyuk bobokalon shaxsiga baho bering. Bunday katta bilimdonlik ortida qanday mohiyat borligi haqida mulohaza yuriting.

2. Al-Buxoriy va Buxoro amiri orasidagi munosabatga diqqat qiling. Ularning xatti-harakatini shaxsiyatidan kelib chiqib baholang.

3. Shayx Nadim al-Jisr bilan bog‘liq hodisaga tayanib, al-Buxoriyning musulmon olamidagi mavqeyiga baho bering.

AL-ADAB AL-MUFRAD

(Asardan namunalar)

Bismillahir rohmanir rohiym!

2-hadis. Abdulloh ibn Umar (roziyallohu anhu[1])dan rivoyat qilinadi: «Alloh Taoloning rozi bo‘lishi otaning rozi bo‘lishiga va uning g‘azabi ham otaning g‘azabiga bog‘liqdir», dedilar».

[1] Alloh undan rozi bo‘lsin.

3-hadis. Musoviya ibn Hayyida (roziyallohu anhu) aytdilar: «Rasulullohdan: «Ey Rasulullоh, men yaxshiligimni kimga qilsam bo‘ladi?» deb so‘radim. «Onangga», – dedilar. Men shu savolimni uch marotaba qaytarsam ham, Rasulullоh: «Onangga», deyaverdilar. To‘rtinchi marotaba so‘raganimda: «Otangga va yaqin bo‘lgan qarindoshlaringga», – dedilar».

Ota-ona haqini ado qilish haqida

11-hadis. Abu Burda ibn Abu Musa al-Ash’ariyning aytishlaricha, Abdulloh ibn Umar bir yamanlik odam o‘z onasini opichlab, xonayi Ka’bani tavof qildirib yurganini ko‘rdilar. U odam quyidagi baytni ohang bilan o‘qirdi:

Onaizorim uchun bo‘ynimni eggan tevaman,
Tevaga mingan onam horsalar ham men charchamam.

U shuni o‘qib turib, Abdullohga qaradi-da: «Ey Abdulloh ibn Umar, mana shu xizmatim bilan men onamning haqini ado qila oldimmi?» – deb so‘radi. «Yo‘q, bu xizmating seni tug‘ish vaqtida onangni tutgan to‘lg‘oqlarning bittasiga ham barobar emas», – dedi. Keyin Abdulloh ibn Umar xonayi Ka’bani tavof qildilar va maqomi Ibrohimga borib, ikki rakat namoz o‘qib olib, menga qarab: «Ey Abu Musa al-Ash’ariyning o‘g‘li! Mana shu yerda o‘qiladigan ikki rakat namoz o‘zidan ilgarigi gunohlarga kafforat (tovon) bo‘ladi», – dedilar».

13-hadis. Abdulloh ibn Amr ibn al-Os (roziyallohu anhu) aytadilar: «Bir kishi Rasulullоh huzurlariga hijrat qilmoq uchun bay’at etishga keldi. Ammo ota-onasi uning ketishiga rozi bo‘lmay, xafalikdan yig‘lab qolgan edilar. Shunda Rasulullоh: «Sen hozir ota-onang oldiga bor! Hijrat qilaman deb ularni xafa qilganingdek, endi hijrat qilmaydigan bo‘ldim, deb ularni xursand qil», – dedilar».

Ota-ona keksaygan vaqtida xizmatlarini qilib, duolarini olmasdan jannatga kira olmagan kishi haqida

21-hadis. Abu Hurayra aytadilar: «Rasulullоh: «Xor bo‘lsin, xor bo‘lsin, xor bo‘lsin!» – deb o‘n marotaba takror qildilar. Shunda sahobalar: «Yo Rassulullоh, kimni aytyapsiz?» – deb so‘rashdi. Rasulullоh: «Ota-onasining ikkalasi yoxud bittalari keksayib qolgan vaqtida (ularni rozi qilmay) o‘zini do‘zaxga tushishga mubtalo qilgan kishini», – dedilar».

Ota-onasini rozi qilgan kishining umri uzoq bo‘lishi haqida

22-hadis. Ma’oz al-Juhaniy (roziyallohu anhu) aytdilar: «Rasulullоh: «Kim ota-onasini rozi qilsa, unga tubo[1] nasib bo‘lib, Alloh Taolo uning umrini ham ziyoda qiladi», – dedilar».

Ota-onaning duosi haqida

32-hadis. Abu Hurayra aytadilar: «Rasulullоh: «Uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz Alloh Taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi, ota-onaning duosi», – deganlar».

Boshqa erga tegmay, bolalarining tarbiyatidagi mashaqqatlarga sabr etgan xotinning fazilati

140-hadis. Ayf ibn Molik Rasulullohdan rivoyat qiladilar: «Rasulullоh: «Eridan beva qolib, bolalarni tarbiyat qi-lishda sabr etgan va turli mashaqqatlarga uchraganidan rangi sarg‘ayib ketgan xotin bilan jannatda shunday bo‘lamiz», – deb ikki barmoqlarini bir-biriga jips qilib ko‘rsatdilar[2]».

---

[1] T u b o — jannatlardan biri.

[2] Y a’ n i: shunday xotin jannatga kiradi va darajasi mening darajamdek baland bo‘ladi.

Kishilar o‘rtasidagi o‘zaro muhabbat haqida

260-hadis. Abu Hurayra aytadilar: «Rasulullоh: «Mening nafsim qo‘lida bo‘lgan zot nomi bilan qasamyod qilaman, sizlar musulmoni komil bo‘lmaguningizcha jannatga kira olmaysiz. Musulmoni komil bo‘lishingiz uchun bir-birlaringizga muhabbat qo‘ymog‘ingiz shart. O‘rtalaringizda muhabbat paydo bo‘lishi uchun salomni oshkora beringiz va bir-biringizga jahl qilishdan saqlaningiz, chunki jahl tarashlaguvchidir, ya’ni u sochni tarashlamaydi, balki dinni tarashlaydi», – dedilar».

Ko‘ngillar yaqin bo‘lishi haqida

261-hadis. Abdulloh ibn Amr al-Osdan rivoyat qilindi, u kishi aytadilar: «Rasulullоh: «Ikki mo‘min banda bir-birin ko‘rmay turib, ularning ruhlari bir kunlik yo‘lda uchrashadi», – dedilar».

Ko‘ngil saxiyligi haqida

276-hadis. Abu Hurayra Rasulullohdan rivoyat qiladilar: «Rasulullоh: «Boylik moling ko‘pligi bilan emas, balki (chin) boylik nafsning boyligidir», – deganlar».

Kimki erta bilan o‘z oilasi ichida tinch va sog‘-salomat bo‘lib tursa, degan hadis haqida

300-hadis. Ubaydulloh ibn Muhsan al-Ansoriy (roziyollohu anhu) aytadilar: «Rasulullоh (sallollohu alayhi vasallam): «Kimki o‘z oilasi ichida tinch, tani sog‘ bo‘lib tursa va oldida shu kuniga yetarlik taomi bo‘lsa, u odamga go‘yo butun dunyo berilgan hisoblanadi», – dedilar».

Alloh taolodan axloqini yaxshi qilishni so‘ragan kishi to‘g‘risida

307-hadis. Abdulloh ibn Amr aytadilar: «Rasulullоh ko‘pincha: «Ey rabbim! Men sendan tan sog‘ligini, nafsning yomon yo‘llarga boshlashdan saqlanishni, o‘zingga

va xalqlaringga ishonchli bo‘lishni, yaxshi axloqli bo‘lish va taqdirga rozi bo‘lishga muyassar qilishingni so‘rayman», – deb duo qilar edilar».

Musulmon kishining boshqa odamlar bilan so‘kishishmog‘i fosiqlik alomatidir

429-hadis. Sa’id ibn Molikdan rivoyat qilinadi: «Rasulullo ko‘pincha: «Musulmon kishining so‘kishishmog‘i fosiqlikdir», – derdilar».

431-hadis. Abdulloh ibn Mas’uddan rivoyat qilinadi: «Rasulullo: «Musulmon kishining so‘kishmog‘i fosiqlik va birovni o‘ldirmog‘i kufrdir», – dedilar».

Muloyim bo‘lish haqida

469-hadis. Hazrati Oysha aytdilar: «Men o‘jar, bo‘yin bermaydigan tevaga mingan edim, Rasulullo uni urganimni ko‘rib: «Muloyim bo‘l, kimda muloyimlik bo‘lsa, husn va kamolotga erishadi va kimda muloyimlik xislati bo‘lmasa, u aybli va nuqsonli bo‘ladi», – dedilar».

470-hadis. Abu Hurayra aytdilar: «Rasulullo: «O‘ta baxillik va mol-mulkka hirs qo‘yishdan saqlaning, chunki baxillik sizdan ilgari o‘tgan kishilarni halok qilgan. Shu baxilliklari tufayli ular bir-birlarining qonini to‘kkan va qarindoshlikni uzib qo‘yishgan. Birovga zulm qilish qiyomat kuni zolimni qorong‘ilikka tushiradi», – dedilar».

?

1. 2-hadisda bayon qilingan otaning roziligi haqida mulohaza yuriting. Shu bilan bog‘liq xalq maqolini eslang. O‘z qilmishlaringiz va ularga otangizning munosabatini o‘z-o‘zingiz uchun tahlil qiling.

2. Yaxshilik borasidagi savolga Rasulullo uch marta «Onangga», – deganlari sababi borasida mulohaza yuriting. Farzandning ota-ona oldida burchliligi haqidagi fikrlaringizni o‘rtoqlashing.

3. Ota-onasini rozi qilmagan farzandlar haqida qanday hayotiy hodisalar va rivoyatlar bilasiz? Ularning sabab va oqibatlariga munosabat bildiring.

4. ***«Musulmoni komil»*** bo‘lish haqidagi hadisni qayta o‘qing. Komil inson bo‘lish uchun qo‘yilgan talablarga munosabat bildiring.

5. Muloyimlik haqidagi hadisni qayta o‘qing. Qo‘pollik va bemehrlikning oqibatlari haqida o‘zaro fikrlashing.

6. Insonlarga xos bo‘lgan baxillik va boylikka hirs qo‘yishning oqibatlari haqida mulohaza yuriting.

NAZARIY MA’LUMOT

Hadis haqida

«Hadis» va «sunnat» so‘zlari Janob payg‘ambarimizning aytganlari, fe’l-atvorlari, axloqlari, taqrirlari va payg‘ambarlikka qadar bo‘lgan hamda payg‘ambarlik yillaridagi siyratlarini, ya’ni hayot yo‘llarini anglatadi. Rasulullo sallollohu alayhi vasallamning turli sharoitlarda shariat ahkomlariga oid aytgan so‘zlari ham hadisdir. Hadislar Janob payg‘ambarimiz hayotliklarida jamlangan emas. Chunki Janob Rasulullo sahobalarga (atrofidagi yaqinlariga): «Mendan Qur’oni karimdan bo‘lak hech narsani yozib olmanglar!» – der ekanlar. Faqat ayrim sahobalarga o‘z shaxsiy maqsadlari uchun hadislarni qayd qilib borishga ijozat bergan ekanlar.

Oradan ma’lum yillar o‘tgach milliy-siyosiy ixtiloflar, o‘z qarashlariga foyda keltirish maqsadida payg‘ambarimiz nomidan yolg‘on hadislar to‘qish, amir va hokimlarga xushomadgo‘ylik oqibatida ko‘plab ishonarsiz hadislar yuzaga kelgan. Ana shunday bir sharoitda o‘zining butun bilim va hayotini to‘g‘ri hadislarni aniqlab, jamlashga sarflagan kishilardan biri xalifa Umar bo‘lganlar. Hadis ilmi bilan shug‘ullangan kishilarni muhaddislar deb ataganlar. Movarounnahrda birinchi bo‘lib hadis to‘plamini jamlagan muhaddis – Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziydirlar. Undan tashqari al-Buxoriygacha o‘nta olim hadis ilmi bilan shug‘ullangan. Imom Buxoriyning «Al-Jomi’ as-sahih» («Ishonarli to‘plam») kitobi – to‘rt jilddan iborat hadislar to‘plami boshqa to‘plamlar orasida

eng ishonarli va mukammali hisoblanadi. Bundan tashqari uning hadis ilmiga bag‘ishlangan o‘ndan ortiq asarlari mavjud.

AHMAD YASSAVIY

Yetti yoshda Arslonbobg‘a qildim salom:
Haq Mustafo omonatin qiling in’om.
O‘shal vaqtda ming bir zikrin qildim tamom,
Nafsim[1] o‘lub lomakonga[2] oshdim mano.

Ahmad Yassaviy

Tarixda shunday zotlar o‘tishganki, ular o‘zlarini, o‘zliklarini anglab yetish uchun inson kim, uning asli qayerdan, dunyoga nima uchun kelgan, nima uchun yashaydi va qayerga ketadi kabi savollarga javob axtarganlar va har birlari bu haqiqatga yetishish uchun o‘z yo‘llarini (tariqatlarini) kashf etganlar. Shunday muborak zotlardan biri Ahmad Yassaviy edi.

Rivoyat qilinishicha, payg‘ambarimiz sahobalari bilan xurmo yeb, suhbatlashib o‘tirganlarida ularga qarab: «Qay biringiz mana bu omonatimni kelgusi izdoshlarimizga yetkazgaysiz?» – deb so‘raydilar. Bu vazifani bajarishni Arslonbob[3] o‘z zimmasiga olishini bildiribdi. Shunda payg‘ambar alayhissalom unga bir xurmo beribdilar va: «Mendan keyin Ahmad ismli bir bola dunyoga keladi. Siz, albatta, uni izlab toping va unga bu xurmoni bering, u ummatimda islom dinini quvvatlantiruvchi eng yetuk kishi bo‘ladi», – degan ekanlar. Hazrati payg‘ambarning duoi barokati ila Arslonbob uzoq umr ko‘ribdi va omonatni topshirish uchun ko‘p yurtlarni kezib chiqibdi. Ahmadning otasi vafot etgan yili Turkistonga kelib, payg‘ambarimiz tavsiflagan bolani ko‘ribdi va unga salom beribdi. Salomga alik olgach, bola Arslonbobga

---

[1] N a f s — yemak-ichmak, mol-mulkka hirs qo‘yish.

[2] L o m a k o n — zamon va makondan tashqari, makonsiz, ya’ni xudoning huzuri.

[3] B o b, b o b o — ulug‘ mashoyix, shayx, pir, valiy.

qarab: «Bobo, omonatimni bering», – deb so‘rabdi. Arslonbob nogahoniy savoldan shoshib qolib, undan: «Ey valiy, sen buni qaydin bilursan», – deb so‘rabdi. «Olloh bildirdi», – deb javob beribdi bola. Payg‘ambar alayhissalom omonatlarini egasiga topshirgach, Arslonbob Olloh huzuriga rixlat qilgan ekanlar.

Har kimga ham nasib etavermaydigan bunday sharaf Olloh oshig‘i bo‘lmish zotlargagina karomat qilinadi. Ahmad Yassaviy hayoti va ijodiga nazar solsak, rivoyat va she’rdagi karomat ayon bo‘lganday bo‘ladi.

«Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixi» (Navoiy, «Nasoyim ul-muhabbat») Ahmad Yassaviy Qozog‘istonning Sayram viloyatida ma’rifat va javonmardlikka ixlosi baland bo‘lgan eng nufuzli Ibrohim ota oilasida 1041-yilda tug‘ilgan. Onasi Muso shayxning qizi Oysha xotun edi. Ahmad ota-onasidan juda erta judo bo‘ladi. Yetti yoshida Yassiga borib birinchi ma’naviy ustozi Arslonbob bilan uchrashadi va ilk saboqni undan oladi. Arslonbobning da’vati bilan Buxoroga boradi. O‘sha paytlar Buxoro ilm-ma’rifatning nufuzli markazlaridan bo‘lib, u yerda Ahmad Yassaviy, eng avvalo, diniy va tasavvufiy ilm sirlarini o‘rganishga kirishadi. Arab, fors tillarini o‘rganadi. Ahmad Yassaviy hayotidagi eng muhim voqea mashhur mutasavvuf olim shayx Yusuf Hamadoniy bilan uchrashgani va unga murid tushgani bo‘ldi. Yassaviy tezda shayxning e’tiborini qozonadi, undan olgan ilmlari bilan komillik martabasiga erishadi. Shundan so‘ng Turkiston sari yuzlanadi va yangi bir tariqatga asos soladi. Bu tariqat turkiy xalqlar orasida «Yassaviya tariqati» nomi bilan shuhrat qozondi.

Yassaviy tariqati ilk marta turkiy tilda talqin etilganligi, islom dini va uning muqaddas kitobi Qur’onni baland rutbada tutganligi, fors tilidagi tasavvuf tajribalaridan foydalanganligi, shuningdek, turkiy axloq, e’tiqod va ishonchni aks ettirganligi bilan boshqa tariqatlardan farq qiladi. Yassaviy tariqatining keng xalq ommasi qalbi va shuuriga oson o‘rnashganligi boisi ham shundadir.

Ahmad Yassaviy hikmat yozish an'anasini boshlab bergan ijodkor. U «Devoni hikmat»ida shariat (islom dini qonun-qoidalari va urf-odatlari), tariqat (tasavvuf maslagi), ma'rifat (ishqi ilohiy), haqiqat (Olloh va unga erishmoq)ni targ'ib qildi.

Ahmad Yassaviyning fikricha, haqiqat – qalbda. ***Qalb esa Ollohning mulki.*** Butun olam bilan ruhan uyg'unlashish – oliy saodat. Saodat – ma'rifat nurlari bilan ong va ruhni tiniqlashtirishdir.

Ayo do'stlar, hech bilmadim men yo'limni,
Saodatqa bog'lamadim men belimni.
G'iybat so'zdan hech yig'madim men tilimni,
Nodonligim meni rasvo qildi, do'stlar.

Shoir insondagi ruhiy boylikni muqaddas tutadi. Illatlar ichida eng xavflisi nafsdir, deydi:

Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi,
Termultirib xaloyiqg'a zor ayladi.

Ahmad Yassaviy hikmatlari mavzu jihatdan rang-barang. Ularni chin dildan o'qib, anglashga harakat qilsangiz, «Inson» degan mavjudotni kashf eta boshlaysiz, o'z-o'zingizni taftish etasiz, o'z ichingizga kirasiz. Bu «kashfiyot» (o'z-o'zini anglash) sizni asta-sekin o'tkinchi hoyu havaslardan uzoqlashtiradi, mohiyatga yuzlantiradi. Odamlikka undaydi.

Ahmad Yassaviy XII asrning birinchi yarmida vafot etgan. Rivoyatlarga ko'ra u oltmish uch yosh (payg'ambar yoshi)ga yetgach, yer ostiga hujra yasatadi va kirib ketadi. Qolgan umrini riyozatda, toat-ibodatda o'tkazadi.

?

1. Epigrafda Yassaviydan keltirilgan hikmatning mazmunidan kelib chiqib payg'ambarimiz haqida ma'lumot bering.

2. Yassaviyning: ***«Haqiqat – qalbda. Qalb esa Ollohning mulki»*** kabi qarashlarini tahlil qiling, munosabat bildiring.

3. Matndagi: ***«Butun olam bilan ruhan uyg'unlashish – oliy saodat. Saodat – ma'rifat nurlari bilan***

ong va ruhni tiniqlashtirishdir» degan jumlaning mohiyatiga kirishga harakat qiling. Fikrlaringizni o‘rtoqlashing.

4. Yassaviy: ***«Nodonligim meni rasvo qildi, do‘stlar»,*** deganda kimni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin? O‘zinimi? «Rasvo bo‘lish» iborasining zamirida qanday ma’no borligi haqida o‘ylab ko‘ring.

«DEVONI HIKMAT»DAN NAMUNALAR

Bismilloh deb bayon aylab, hikmat aytib,
Toliblarga durri guhar sochdim mano.
Riyozatni qattiq tortib, qonlar yutib,
Man daftari soniy[1] so‘zin ochdim mano.

So‘zni aytdim har kim bo‘lsa diydor talab[2],
Jonni jonga payvand qilib, rangni[3] ulab,
G‘arib, faqir[4], yetimlarning ko‘nglin ovlab,
Ko‘ngli qattiq xaloyiqdin qochdim mano.

Madinaga Rasul borib bo‘ldi g‘arib,
G‘ariblig‘da mehnat tortib bo‘ldi habib[5],
Jafo tortib yaratqang‘a bo‘ldi karib[6],
G‘arib bo‘lib aqbolardin[7] oshdim mano.

Oqil ersang g‘ariblarning ko‘nglin ovla,
Mustafo[8]dek elni kezib, yetim ovla.
Dunyoparast nojinslardan bo‘yun tovla,
Bo‘yun tovlab daryo bo‘lib toshdim mano.

---

[1] D a f t a r i s o n i y — ikkinchi daftar.
[2] D i y d o r t a l a b — xudo diydorini ko‘rishga talabgor.
[3] R a n g — tomir.
[4] F a q i r — musofir odam, sirdosh, maslakdosh topmagan, o‘zini begona his etgan kishi, haqparast darvesh.
[5] H a b i b — do‘st.
[6] K a r i b — yaqinlashgan.
[7] A q b o — dovon, qiyinchilik.
[8] M u s t a f o — tanlangan.

Oltmish uchga yoshim yetti, o‘ttum g‘ofil,
Haq amrini mahkam tutmay o‘zum johil.
Ro‘za-nomoz qazo qilib bo‘ldim kohil[1],
Yomon izlab, yaxshilardin kechdim mano.

G‘arib, faqir, yetimlarni har kim so‘rar,
Rozi bo‘lur ul bandadin parvardigor.
Ey bexabar, sen bir sabab, o‘zi asror,
Haq Mustafo pandin eshtib aydim mano.

?

1. Hikmatning ***«Toliblarga durri guhar sochdim mano»*** misrasini tahlil qiling.

2. ***«Ko‘ngli qattiq xaloyiq»*** deganda siz kimni tushunasiz? Nega ulug‘ alloma ulardan qochgan deb o‘ylaysiz?

3. ***«G‘arib bo‘lib aqbolardan oshdim mano»*** deganda Yassaviy qanday g‘ariblikni nazarda tutayotganligi haqida o‘ylab ko‘ring.

4. ***«Ey bexabar, sen bir sabab, o‘zi asror, Haq Mustafo pandin eshtib aydim mano»*** misralarida kimni nimadan bexabar deyilayotir? ***«Sen bir sabab»*** deya kimga murojaat qilinayotir? Kim sabab? Nimaga sabab? Oqibat nima? Shular haqida mulohaza yuriting.

* * *

Nafsing seni oxir damda gado qilg‘ay,
Din uyini g‘orat qilib, ado qilg‘ay,
O‘lar vaqtda imoningdin judo qilg‘ay,
Oqil ersang, nafsi baddin bo‘lg‘in bezor.

Fir’avn[2] Qorun[3] shayton so‘zin mahkam tutti,
Bul sababdin yer yorildi, ani yutti,
Muso halim nosih[4] bo‘lib so‘zlar aytti,
Quloq tutmay ul ikkisi bo‘ldi murdor.

---

[1] K o h i l — yalqov.

[2] F i r’ a v n — Qadimgi Misr podsholarining umumiy nomi, dunyoga mehr qo‘yib, xudoni esdan chiqargan shoh timsoli.

[3] Q o r u n — behisob boylik jamlagan xasis boy. Xasisligidan uni yer yutgan.

Gunohingg‘a tavba qilib, yig‘lab yurg‘il,
Ketarmen deb ko‘rub, sen ham ibrat olg‘il,
Ketganlarni ko‘rub, sen ham ibrat olg‘il,
Ibrat olsang, yotmish yering bo‘lmish gulzor.

Mo‘min qullar dard-u holat paydo qildi,
Haq yo‘lida jon-u dilni shaydo qildi,
Dunyo tashlab, oxiratni savdo qildi[1],
Savdo qilsang, hur-u g‘ulmon bari tayyor.

Qul Xoja Ahmad, nafs ilgidin qilurman dod,
Piri mug‘on bo‘lg‘aymukin anga jallod.
Bexabarlar eshitmaslar dod-u faryod,
Qon yig‘lag‘il, eshitsun ul parvardigor.

?

1. Nima uchun nafs odamning ruhiy dunyosiga bu qadar qarshi qo‘yilayotganligi sabablari haqida o‘ylab ko‘ring.

2. Uchinchi banddagi ***«Ketganlarni ko‘rub, sen ham ibrat olg‘il, Ibrat olsang, yotmish yering bo‘lmish gulzor»*** misralarida ketganlar misolida kimlar nazarda tutilayotir deb o‘ylaysiz? ***«Ibrat olish»*** deganda nimani tushunish mumkin?

3. Keyingi banddagi: ***«Mo‘min qullar dardu holat paydo qildi»*** misradagi shoh ibora – dardli holat tashiyotgan ma’no haqida mulohaza yuriting.

4. Shu banddagi: ***«Dunyo tashlab, oxiratni savdo qildi»*** misrasini tahlil qiling.

NAZARIY MA’LUMOT

Hikmat haqida

Ma’lumingiz bo‘lsinkim, Sharq she’riyatida, dunyoviy va ilohiy ilmlar olamida alohida hikmatlar faqat Yassaviy tomonidan bitilgan. Har xil mavzulardagi hikmatli so‘zlar

[1] Savdo so‘zi bu yerda ikki ma’noda kelgan: a) sotib olish, «oxiratni savdo qildi», ya’ni dunyoni oxiratga almashtirdi; b) shaydo, devona bo‘lib sevish, «savdo qilsang» — shaydo bo‘lsang, sevsang demak.

millatning ko‘p ulug‘lari tomonidan u yoki bu shaklda aytilgan. Lekin ma’lum tartib berib, o‘ziga xos shaklga solib Yassaviy tomonidan yaratilgan. Adabiyotshunoslik bilan bog‘liq lug‘atlarda ham, izohli lug‘atlarda ham hikmatlarga alohida qoidasifat fikr berilmagan. Hikmat so‘zining dastlabki lug‘aviy ma’nosi – o‘ta donolik, donishmandlik, aql-zakovat. Ikkinchi ma’nosi esa tagini anglash qiyin bo‘lgan, yashirin bir ma’no, yashirin bir sabab[1].

Shularga asoslanib, hikmatlarni zamirida katta yashirin ma’no jamlagan, o‘ta donishmandlik bilan bitilgan va nazmiy tartibga solingan, ifodasi hamda o‘qilish ohangi bilan xalq og‘zaki ijodiga yaqin bo‘lgan she’riy asar deyish mumkin. Ular kishi ruhiga yaqin, hamohang qiroat bilan o‘ziga xos bir qo‘shiqday kuylanadi.

Hikmatlar o‘quvchiga uning tushunchalari va dunyoqarashi doirasiga qarab har xil ta’sir ko‘rsatadi, o‘z darajasida mulohaza uyg‘otadi. Yuqoridagi hikmatlarga ishq, haqiqat, adolat, qanoat, diyonat singari masalalarga islom dini aqidalariga tayangan holda tartib berilgan. Ular muallif vafotidan bir necha yillar o‘tgach, xalq og‘zidan yig‘ib olingan. Hikmatlar xalq she’riyatiga o‘xshab kishi ruhiga yaqin. Hikmatlar bir o‘rinda orif nomidan, ikkinchi bir shaklda oshiq tilidan, uchinchi bir holatda shayx da’vati tarzida, yana bir o‘rinda donishmand g‘oyalari sifatida, bir joyda darvesh qarashlari shaklida yangraydi. Hikmatlardagi timsollar juda teran va murakkab. Ularni tahlil va talqin etish ham oson emas. Hikmatlarga erkin mushohada usuli bilan yondashish kerak. Ular odamni o‘z-o‘ziga tanqidiy nazar bilan qarashga undaydi. O‘zligini taftish qilishga yo‘naltiradi.

---

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomlik. 2-tom. Moskva, «Русский язык» nashriyoti, 1981.

NAJMIDDIN KUBRO

(1145—1221)

Muazzam Sharqning ilm-u donishi, ma'naviyatini qancha ko'p va xo'b o'zlashtirsak, fikrimiz shuncha ravshan, ruhimiz shuncha bardam bo'ladi.

Najmiddin Komil

Ulug' insonlar haqida fikr bildirmoq, ularning hayoti va ijodi haqida mulohaza yuritmoq oson emas. Ulug'larning ishqi oliylari, e'tiqodlari, tafakkur ganjinalariga havas qilamiz, ulardan bahramand bo'lishga harakat qilamiz. Bunday kishilar shaxsini o'rganish bilan qalbimizga nazar tashlaymiz. O'z vijdonimizni taftish qilamiz, uni tozalash, hayot tarzimizni to'g'rilik va ezgulik sari yo'naltirishga ehtiyoj sezamiz. Chunki ularning hayot tarzi, ezgu amallari bizga saboq. Shunday buyuk zotlardan biri Najmiddin Kubro bo'ladilar. Siz u haqda tarix darsliklarida o'qigansiz. Xiva yaqinidagi Sayot qishlog'ida tug'ilgan Najmiddin Kubroning nomi tirikligidayoq yetti iqlimga ketgan edi. O'z zamonasi ilm-u urfonida Najmiddin Kubroga teng keladigan birorta olim bo'lmagan. Shu bois ham unga «Kubro» ismi berilgan. Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida shunday yoziladi: «Alarg'a kubro ondin laqab bo'ldiki, har kim bila munozara va mubohasa qilsalar ermish, ul kishi g'olib bo'lurlar ermish». Kubroning «valiytarosh», ya'ni valiylar yetishtiruvchi, «Tummat ul-kubro» (baloqazolarning oldini oluvchi, buyuk bashoratchi), «Abuljannob» (parhez qiluvchi, dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turuvchi) kabi nom va laqablari bo'lgan.

Najmiddin Kubro ham bunday mavqega osonlikcha erishmagan. U o'z ilohiy iste'dodini tinimsiz ilm o'rganish, zahmat chekish orqali yuksaklikka ko'tardi. Ilm olish yo'lida mashaqqatlardan cho'chimadi, egallagan bilimlaridan hech qoniqmadi, ilm istab Misr, Tabriz va boshqa ko'plab o'lkalarni kezdi. Tinimsiz mehnat, izlanish, mashaqqatlar uni komillik darajasiga ko'tardi.

Najmiddin Kubro dunyoviy bilimlarda yuqori martabaga erishgach, bu bilimlar ***Haq ma'rifatini idrok etish*** uchun kam ekanligini anglaydi. Endi u botiniy bilim, g'ayb asrorini o'rganishga kirishadi. Bu nihoyatda mashaqqatli yo'l bo'lib, Najmiddin Kubro bu og'ir sinovlarni ustozlari rahnamoligida yengib o'tdi. Shundan keyin u olamga boshqacha qaraydigan, faqat kitoblardagi bilimlarni takrorlaydigan olimlardan farq qilib, erkin, ozod mushohada etadigan, mohiyatni teran idrok etib, buni odamlarga yetkaza oladigan darajaga erishdi.

O'sha davrlarda qudratli imperiya hisoblangan xorazmshohlar davlatida mansabparastlik, manmanlik, kibr-u havo, boylik ketidan quvish avj olgan edi. Soxta shuhrat Xorazmshoh ko'zini ko'r qiladi. Uning kaltabinligi natijasida mamlakat tanazzulga yuz tutadi. Shoh uni balolardan ogoh etmoqchi bo'lgan olim-u fuzalolarni ta'qib etadi. Hatto Najmiddin Kubroning iste'dodli shogirdi Majdiddin Bag'dodiyni qatl ettiradi. Shunda Najmiddin Kubro shogirdlariga: «Endi yurtingizga boring. Sharqdan fitna olovi kelmoqda, ko'p o'tmay u hamma yoqni kuydirib kul qiladi», – deydi. Shogirdlari: «Ustod, duo qiling, bu ofat musulmon olamidan daf bo'lsin, axir, Sizning duoyingiz har doim ijobat bo'lg'ayku», – deyishadi. Bunga javoban hazrat: «Bu qazoyi mubram (o'zgarmas)dir. Uni duo bilan qaytarib bo'lmaydi», – deydi. «Unday bo'lsa sizni ham olib ketaylik», – deya iltijo qilgan shogirdlarga hazrat qat'iy qilib: «Men bu jangda shahid bo'laman, menga kindik qonim to'kilgan tuproqni, Xorazmni tark etishga ruxsat yo'q», – deydi (Abdurahmon Jomiyning «Nafohot ul-uns» asaridan).

Bashorat qilingan ofat mashriqdan mo'g'ul bosqinchisi qiyofasida bostirib kelib, gullagan o'lkani vayronaga aylantirdi. Chingizxonday shafqatsiz bir xoqon ham Najmiddin Kubroga o'z yaqinlari bilan shahardan tashqariga chiqib ketishga ruxsat beradi. Shayx bu marhamatni rad etadi. Xorazmshoh tashlab qochgan vatan himoyasiga qilich ko'tarib, shohdan marhamat ko'rmagan pok imonlilarga bosh bo'lib 76 yoshli Najmiddin Kubro

chiqadi. Ular bir necha kun Urganch qal'asini dushmandan saqlab turadilar. Alisher Navoiyning yozishicha, Najmiddin Kubro bir hamlada dushman bayrog'ini tortib olgan va o'lganidan keyin ham uni qo'lidan bo'shatmagan. O'n nafar yog'iy harchand urinib bayroqni ololmaganlar. Shunda shahid shayxning barmoqlarini bittalab chopganlar.

Najmiddin Kubro ulkan olim sifatida kishi ruhiyati, ruhiy xislatlarini chuqur tahlil qilgan. U insonning nozik holatlarini, ruhiy kechinmalarini puxta o'rgangach, inson ruhi ko'zga ko'rinmas, latif markazlardan iborat ekanligini kashf etgan, ya'ni «latoyif nazariyasi»ni ishlab chiqqan. Bu ong va tuyg'u, ruh va jism o'rtasidagi nafis bir narsa. U shunday nozikki, uni ilg'ash nihoyatda mushkul. Inson ruhi bilan bog'liq bu manzaralar va holatlar G'arb falsafasida (Kafka, Shopengauer, Freyd) XIX asrga kelib o'rganilgan bo'lsa, inson qobiliyatining bu mo'jizalari Sharq allomalari tomonidan necha asrlar oldin bayon etib qo'yilgandi.

Najmiddin Kubroning «Al-usul al-ashara» («O'n usul»), «Risolai Najmiddin» asarlarida o'z-o'zi bilan kurashish, gunoh ishlarni qilmaslik, gunoh lazzatini totgan nafsga mag'lubiyat alamini tottirish, nafsni yengishga va sabr-qanoatli bo'lishga chaqiradi.

Najmiddin Kubroning badiiy ijodi – ruboiylari ham buyuk shayxning falsafiy qarashlari, ichki dunyosi, botiniy kechinmalarini yorqinroq his etishga yordam beradi. Uning ruboiylari misolida dunyoviy va botiniy ilmlarni iloji boricha ko'proq qalblarga singdirish uchun kurashini ko'rish mumkin. Ruboiylarni o'qir ekansiz, qat'iyatli va go'zal xulq sohibi bo'lishga chorlaganlikning guvohi bo'lasiz, ishq bilan limmo-lim oshiq qalb jilvalanishlari sizni o'ziga rom etadi:

Ishq dardi g'arib tanimdagi jon bo'lg'ay,
Dard cheksa kishi axiyri inson bo'lg'ay.

Ishq dardi bilan yonishga da'vat zamirida mukammallikka erishish maqsadi yotadi. Oshiq odam dardli

bo‘ladi. Bu dard kishini azoblarga soladi, shu bilan birga mard qiladi.

Najmiddin Kubroning fikricha, ma’naviy tubanlik va insonlikni yemiradigan illatlarni nafs keltirib chiqaradi:

Bir dev bor ichimda, asti pinhon bo‘lmas,
Boshini egmak oning oson bo‘lmas.

Nafs devining boshini yanchgan kishi qanoat mulkining sohibqironi bo‘lib, poklik xazinasini qo‘lga kiritishi mumkin ekanligi Najmiddin Kubro badiiyatida katta o‘rinni egallagan.

Najmiddin Kubro ruboiylari o‘zbek tiliga iste’dodli shoir Jamol Kamol tomonidan tarjima qilingan.

?

1. Buyuk allomaga ***«kubro»*** laqabining berilishi sabablarini matnga tayanib tahlil qiling.

2. Najmiddin Kubro erishgan komillik haqida mulohaza yuriting. Umuman, ***«komillik»*** tushunchasi haqida o‘z fikringiz bo‘lishiga harakat qiling.

3. Matndagi ***«Haq ma’rifatini idrok etish»*** degan tushunchani anglashga harakat qiling. ***«Haq ma’rifati»*** deganda nimalar nazarda tutilayotganligi haqida o‘ylab ko‘ring.

4. Najmiddin Kubro haqidagi ***«erkin, ozod mushohada etadigan, mohiyatni teran idrok etib, buni odamlarga yetkaza oladigan darajaga erishdi»*** degan fikrlarning mag‘zini chaqishga urinib ko‘ring.

5. Najmiddin Kubroning shogirdlari bilan suhbati va ***«Men bu jangda shahid bo‘laman, menga kindik qonim to‘kilgan tuproqni, Xorazmni tark etishga ruxsat yo‘q»,*** deganiga tayanib, uning qudratiga baho bering. «Kindik qoni to‘kilgan tuproq» tushunchasini tahlil qiling, munosabat bildiring.

6. Odamning ***«o‘zi bilan o‘zi kurashishi»***ni qanday tushunish mumkin? Shu haqda fikr ayta olasizmi?

7. Matndagi ***«Ishq dardi g‘arib tanimdagi jon bo‘lg‘ay, Dard cheksa kishi axiyri inson bo‘lg‘ay»*** misralarga singdirilgan ishq dardi, dard chekish va insonlik haqida, ularning o‘zaro aloqadorligi to‘g‘risida o‘ylab ko‘ring. Fikrlaringizni o‘rtoqlashing.

RUBOIYLARDAN NAMUNALAR

Yo‘lingda samar hadis va afsona emish,
Ko‘yingda kezib el bari devona emish,
Savdoying ila men kabi ming dilso‘xta
Ka’ba sarimas, azimi butxona emish[1]...

Ishq yetsa ko‘ngilga, dilga u dard aylar,
Dardi dili mardni boz mard aylar.
O‘z otashi ishqida yonar ul, vale
Do‘zaxni chu o‘zgalar uchun sard[2] aylar...

Ul boda ichib demasmen: hushyor bo‘layin,
Bul mastlig‘ aro nainki bedor bo‘layin.
Bir jomi tajalliyi jamoling menga bas,
To yo‘qligi borlikdin bezor bo‘layin...

Ey dil, diyonat[3]da ajab rasvosen,
Insof bila ayt, ishqqa nechun oshnosen?
Ishq otashi tez erur, sendek su emas,
Tuproq chu boshinggaki yetar, bilgosen...

Ay tun, qorong‘u tun, sahar bo‘lgaysen,
Bu dardli dilimga sen samar bo‘lgaysen.
Ay subh, otlanib kelarsan oyo
Maqsudi dilim sari xabar bo‘lgaysen...

Har lahza bu mardona-yu farzona ko‘ngil,
Yongay sening ishqing bila jonona ko‘ngil.
Bir lahza muhabbat mayini tark etsam,
To‘lgan shu jigar qoniga paymona ko‘ngil...

Yuzing, malagim, olamoroyi[4] hama,
Vasling tun-u kun, bas tamannoyi[5] hama.

---

[1] Bu o‘rinda ishq dardida o‘zligini unutib, butxonada (cherkovda) go‘lahlik qilgan shayx nazarda tutilmoqda.

[2] S a r d — sovuq.

[3] D i y o n a t — vijdon, vijdonlilik, insof.

[4] O l a m o r o y — olam aro.

[5] T a m a n n o — istash, xohish, orzu.

Xushdir menga el oldida ohlar urishim,
Lek elga yoqar ohi hama, voyi hama...

Har sabzaki suv yaqosida yuz ochmish,
Bir ruhi farishtadir, magar ko‘z ochmish.
Bir xoki parivashki, yomon qo‘yma qadam,
Bu go‘shaki chun lola-yu nargis ochmish...

?

1. Birinchi ruboiydagi ishq yo‘lida aytilgan gaplarning barisi hadis va afsonalarga aylangan. Ma’shuqa shaxsini aniqlashga urinib ko‘ring.

2. Ko‘yida bari elni devona qilgan, Najmiddin Kubrodek allomani oshiqi zor etgan Ma’shuqa qudrati, oshiqlarning muhabbati haqida mulohaza yuriting.

3. Ikkinchi ruboiyda ko‘ngillarga dard soladigan qanday ishq haqida gapirilayotganligini o‘ylab ko‘ring. Bu ishqning odamga ta’siri haqida matnga tayanib mulohaza yuriting.

4. Ichganda hushdan ayiradigan, bedorlikdan bezishga asos bo‘ladigan bodaning ramziy ma’nosini Najmiddin Kubro shaxsiga tayanib kashf qilishga urinib ko‘ring.

5. ***«Tuproq chu boshinggaki yetar, bilgosen»*** misrasi ifodalagan ma’noni kashf qilishga urinib ko‘ring.

6. Dardli dilga tongning otishidan qanday samar bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring. Muallif dilidagi maqsadga tong qanday ***«xabar bo‘lishi»*** mumkinligi haqida biror fikr aytishga urinib ko‘ring.

7. Yuzi vasli tun-u kun ***«hama»***ning orzusi bo‘lmish Ma’shuqa dardida qiynalayotgan oshiqning ***«ohi hama***, ***voyi hama»***si nechun elga yoqishi sabablari haqida o‘ylab ko‘ring.

8. Suv yoqasida yuz ochmish har qanday sabzaga (o‘simlikka) farishtaning ruhi deb qarashdan ne ma’ni? Buning zamirida qanday fikrlar berkingan?

9. Odamzodning ko‘nglini quvontirish uchun lola-yu nargislarni hadya etgan xokka shoir qanday nom beryapti? Shu haqda matnga tayanib fikr ayting.

JALOLIDDIN RUMIY

(1207—1273)

Ota-bobolari asli xorazmlik Jaloliddin Rumiy tug‘ilishidan ruhiy quvvat sohibi bo‘lgan. Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida yozilishicha, Mavlono Muhammad Jaloliddin Rumiy olti yoshida ekanida uylarining tomida o‘z tengqurlari bilan o‘ynab yurardi. Tengqurlardan biri unga: «Keling, birga tomdan sakraymiz», – deydi. «Bu it va mushuklarning ishidir. Agar sizning joningizda quvvate bo‘lsa, osmon tomiga sekreli», deydi va shu holatda tomdan havoga ko‘tarilib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Bolalar iztirobdan qichqirishib, yig‘lab qoladilar. Bir lahzadan keyin Jaloliddin Muhammad o‘sha tomga tushadi va deydi: «Men sizlarga u so‘zlarni aytib turganimda yashil kistvatlig‘lar (yashil kiyimli farishtalar) meni osmonga eltdilar, ajoyib malaklarni ko‘rsatdilar, sizlarning yig‘i-faryodingiz ko‘kka chiqqach, yana olib tushib qo‘ydilar».

Jaloliddin Rumiy Balxda tug‘ilgan. Uning otasi – Muhammad Bahouddin Valad zamonasining mashhur kishisi, notiq, voyiz (va’zxon) bo‘lgan. U Najmiddin Kubroning yaqin shogirdlaridan bo‘lib, «Sulton ul-ulamo» darajasiga erishgan. Mavqeyi baland bo‘lgan Bahouddin Valad Xorazmshoh bilan munosabati buzilgach, oilasi, yaqinlarini olib Balxdan Bag‘dodga ko‘chib ketadi. Otasi bilan Xuroson, Hijoz, Bag‘dod, Shomga qilgan safarlaridan so‘ng Mavlono Jaloliddin Ko‘niyoda (Turkiya) qo‘nim topadi. Jaloliddin Rumiy otasi vafotidan so‘ng uning o‘rniga madrasaga bosh mudarris bo‘lib tayinlanadi. Shu madrasada fiqh (diniy huquqlar) ilmidan dars bera boshlaydi. U o‘qigan va’zlar shuhrati keng tarqaladi.

Mavlono Rumiy umr bo‘yi diniy aqidalar istibdod (jabr-zulm)iga qarshi inson ruhi erkinligini himoya qilgan, irqi, tili va diniy mazhabidan qat’i nazar, insonlar tengligini tashviq etgan. U diniy aqidalarga, fikr va tuyg‘ularni zanjirband etuvchi urflarga qarshi kurashgan.

Jaloliddin ota yurtiga qaytmadi, o‘zini anatoliyalik hisoblab, Rumiy taxallusini oladi. Uning ilmiy va adabiy merosi g‘oyat katta. G‘azal, masnaviy va ruboiylardan ibo-rat «Devoni kabir» («Ulug‘ devon»)da uch mingdan ziyod she’r mavjud, «Masnaviy» asari o‘ttiz bir mingdan ortiq misradan iborat. Shoirning qo‘liga qalam olib yozgani atigi o‘n sakkiz misra bo‘lib, qolganlari «kotibi asror»lar tomonidan ko‘chada, uyda, majlisi samoda yozib olinaverilgan.

Rumiyning musulmon olamida mashhur asari «Masnaviy» oldindan o‘ylangan rejaga ega emas. Uning yagona nizomi – erkinlik. Fikr, ruh erkinligi, ifoda erkinligi, holat-kayfiyat erkinligi. Avlodlar «Forsiy Qur’on» deb atagan bu kitobni u oddiygina qilib «Masnaviy» deb atadi.

«Masnaviy» – olamni egallashga va o‘z-o‘zini anglashga intilgan inson ruhining taronasi. Asar yozilib, nihoyasiga yetishi bilan uni yodlashga kirishilgan, uni yod bilganlar «masnaviyxon» nomini olgan. «Masnaviy» asosida o‘nlab to‘plamlar, arab, fors, turk tillarida yuzlab jild tahlil va talqinlar bitilgan. Rumiy «Masnaviy» asaridagi murakkab falsafiy muhokama va mushohadalarni «Ichingdagi ichingdadir» asarida ravshan va sodda shaklda tushuntirib bergan. Gegel, Kant, Shopengauer, Freydlar falsafasi bilan tanish odam «Ichingdagi ichingdadir»ni o‘qisa, hammasi Sharqda allaqachon aytib qo‘yilgan ekanligiga ishonch hosil qilishi tabiiy.

Rumiyning g‘azal va ruboiylari ham o‘ta maroqli. Uning ruboiylari nafaqat falsafiy qarashlarni, balki samimiy his-tuyg‘ularni bayon etadi. O‘qigan kishi ko‘nglini go‘zallikka oshno qiladi. U insonni o‘ziga tanishtiradi.

Jaloliddin uchun muhabbat – butun borliqni harakatga keltiruvchi kuch edi. Uning fikricha, don ham, maysa ham, jonivor ham seva oladi. Lekin faqat tana va terisi bilan. Insongina ham jismi, ham aql-idroki, ham xayoli, ham xotirasi ila sevishga qodir.

Rumiy ayolga muhabbatni olqishlaydi. Zero, inson o‘ziga o‘xshagan insonga muhabbat qo‘yish bilan o‘z ruhiyatini, umuman, insonlik mohiyatini anglab yetadi:

Ayo g‘uncha, qizil qonlar aro sen o‘zni tark etding,
Ayon etgil, nadir sevgi, nadir ul o‘zni tark etmoq!

Rumiy tiyrak va hushyor ko‘z bilan dunyoga nazar soladi, insonni qanday bo‘lsa, shunday olib o‘rganadi. Inson qalbi to‘ridagi eng nozik, eng yashirin sirlarini oshkor etadi, ruhiyat qatlaridagi qonuniyat va zaruratlarni ko‘rsatib beradi. Uning asarlarini o‘z-o‘zini, o‘zlikni tanish kitobi deb aytish mumkin.

Rumiy asarlarining bu darajada maroq va hayrat bilan o‘qilishiga, jozibadorligiga yana bir sabab – iste’dodli shoir Jamol Kamolning tarjimonlik mahorati, ruboiylarni aruz vazniga solib o‘zbek tiliga o‘girganidadir.

?

1. Navoiy bergan ma’lumotlarga tayanib, Rumiyning shaxsi haqida mulohaza yuriting.

2. Oilaviy muhit, ota-onaning ma’naviyati darajasi farzandlar kamoloti yo‘lida nechog‘liq ahamiyatli ekaniga Rumiy oilasi, hayoti va o‘z hayotiy tajribalaringiz misolida munosabat bildiring.

3. ***«Jaloliddin uchun muhabbat – butun borliqni harakatga keltiruvchi kuch edi»*** jumlasining mag‘zini chaqing. Borliqning harakati bilan muhabbat o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

4. ***«...inson o‘ziga o‘xshagan insonga muhabbat qo‘yish bilan o‘z ruhiyatini, umuman, insonlik mohiyatini anglab yetadi»*** jumlasini tahlil qilishga urinib ko‘ring. O‘zgaga ko‘ngil berish bilan insonlik mohiyati orasida qanday bog‘lanish bor deb o‘ylaysiz?

5. ***«Ayo g‘uncha, qizil qonlar aro sen o‘zni tark etding, Ayon etgil, nadir sevgi, nadir ul o‘zni tark etmoq!»*** misralarini tahlil qiling. G‘unchaning ochilishi bilan sevgi orasida qanday bog‘lanish bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

RUBOIYLAR

Jonim berayin, ol uni, jondin kechma,
Dildan kechayin, ol, u jahondin kechma.
Sen o‘qsen-u men esam kamonmen hanuz,
Ey o‘q, sabr ayla, kamondin kechma.

Ey bosh, sabab senda, sabab senda, sabab,
Ey tan, ajab[1] senda, ajab senda, ajab.
Ey dil, talab senda, talab senda, talab,
Ey jon, tarab[2] senda, tarab senda, tarab.

Men o‘lsam agar, boshimda giryon bo‘lmang,
Jononima topshiring-u, nolon bo‘lmang.
Jonsiz u labimga lab qo‘yib jononim,
Jon menga ato aylasa, hayron bo‘lmang.

Sendanmu chu bezor bo‘layin? Yo‘q, yo‘q, yo‘q!
Bir boshqasiga yor bo‘layin? Yo‘q, yo‘q, yo‘q!
To bog‘i visolingda faqat gul ko‘rdim,
Guldin kechibon, xor bo‘layin? Yo‘q, yo‘q, yo‘q!

Ey oy, agar samoda porloq nursen,
Yorim yuzicha ravshan emas, benursen.
Ey nargis, agarchi toza-yu maxmursen[3],
Yorim ko‘zicha xumor emas, ma’zursen.

Oy ketdi balandlab, biz esa past bo‘ldik,
Yor hushiga keldi, biz esa mast bo‘ldik.
Ey jon-u jahon, so‘ngra nelar bo‘lganini
Sen so‘ylama, chun har neki bo‘lmas, bo‘ldik.

Boshimni hamisha ostonangga qo‘yay,
Ko‘nglimni sochingga – o‘ynagoningga qo‘yay.
Jon og‘zima keldi, hoy, o‘zing lab tutgil,
Jonimni qulay qilib dahoningga qo‘yay.

---

[1] A j a b — ajoyib, ajib.
[2] T a r a b — shodlik, xursandchilik.
[3] M a x m u r — xumorlik.

Vaslingni tilab xasta-yu zorman kun-u tun,
Ishqing mayi birla beqarorman kun-u tun.
Mastlarga xumor aslida bir kun bo‘lg‘ay,
Men mastni ko‘ringizki, xumorman kun-u tun.

Ey do‘sti azizlarim, judolik etmang,
Ko‘p hoyu havas birla xatolik etmang.
Bir jumlada so‘zlar kabi mardona turing,
Amr o‘ldi vafoki, bevafolik etmang.

?

1. ***«Sen o‘qsen-u, men esam kamonmen hanuz, Ey o‘q, sabr ayla, kamondin kechma»*** misralarida tasvirlangan holatni ko‘z oldingizga keltiring. Muallif nimani so‘rayapti-yu, qanday so‘rayapti?

2. Ikkinchi ruboiyni qayta o‘qing. Odamning oqibat emas, sabab ekani haqida o‘qigansiz. Eslangchi, odam nimalarga sabab bo‘lgan edi?

3. Odamning joni qachon ***«tarab»*** bo‘lishi mumkin? ***«Tarab»***larning sabab va oqibatlari haqida fikrlashing.

4. Uchinchi ruboiydagi ***«Jononima topshiring-u, nolon bo‘lmang»*** misrasida qanday ***«jonon»*** haqida gap ketayotgani to‘g‘risida o‘ylab ko‘ring. Jonni olish va uni berish qudratiga ega bo‘lgan ***«jonona»***ni kashf qilishga urinib ko‘ring.

5. Yoridan bezib, o‘zgaga yor bo‘lishga qat’iy e’tiroz bildirayotgan oshiq visol bog‘ida ko‘rgan gul haqida o‘ylab ko‘ring. Gul, sizningcha, nimaning ramzi bo‘lishi mumkin?

6. ***«Yo‘q»***larning uch marta takrorlanishi sababi haqida biror narsa ayta olasizmi? Rumiyga xos bo‘lgan bunday takrorlarning ruhiyatingizga ko‘rsatgan ta’siriga tayanib fikr ayting.

7. So‘nggi ruboiyda Rumiy odamlarni kimdan yoki nimadan judo bo‘lmaslikka chaqirayotir deb o‘ylaysiz? Hoyu havaslarga berilib qolib, xato qilib qo‘yishni qanday tasavvur qilasiz? Bu xatolarning oqibatlari haqida suhbatlashing.

8. ***«Bir jumlada so‘zlar kabi mardona turing, Amr o‘ldi vafoki bevafolik etmang»*** misralarini sharhlang. Odamni vafodorlikka undashga asos qilib olingan ifodaga diqqat qiling.

ALISHER NAVOIY

(1441–1501)

O‘zbek xalqining buyuk farzandi, yirik mutafakkir shoir, olim va davlat arbobi Alisher Navoiy hijriy yil hisobi bilan «o‘n yettinchi ramazon oyi sana 844-tovuq yili[1]» (milodiy 1441-yil 9-fevral) Xuroson davlatining yirik shahri Hirotning Bog‘i Davlatxona mavzeyida xizmatchi oilasida dunyoga keladi.

Alisher bolaligidanoq o‘zining o‘tkir zehni, ziyrakligi, xush xulqi va xushfahmliligi bilan tengdoshlari orasida alohida ajralib turgan.

Alisher uch-to‘rt yoshidayoq she’r eshitish, she’r o‘qish va yodlashga qiziqadi, she’riyatga mehr qo‘yadi.

Buyuk zotlar dunyoga kelishlaridan ilgariyoq ishq dardiga mubtalo bo‘lar ekanlar. Bu dunyoga kelgach, ularning amallari, xulqlari, deganlari va bitganlari ishq bilan yo‘g‘rilar, vafo va sadoqat bilan ziynatlanar ekan.

Alisher Navoiy ham shunday buyuklardan edi. Uning asarlarida yuqoridagi fikrning isbotini ko‘plab uchratish mumkin. Chunonchi, «Farhod va Shirin» dostonida shunday bayt bor:

Dedi: Qay vaqtdin o‘lding ishq aro mast,
Dedi: Jon ermas erdi tanga payvast.

Yoki to‘rt-besh yoshli go‘dakning tojik shoiri Qosim Anvor g‘azallarini yod aytishi, maktab yoshida Farididdun Attorning «Mantiq ut-tayr» falsafiy dostonini yodlashi, yetti-sakkiz yoshidan g‘azallar bitishi, o‘n ikki-o‘n uch yoshlarida mamlakat bo‘ylab shuhrat taratishi, hukmronlar e’tiborini qozonishi Alisher Navoiyning dunyoga buyuk bo‘lib kelganligi kafolatidir.

Davlatshoh Samarqandiy «Tazkirat ush-shuaro» asarida yozadi: «Sulton Abulqosim Bobur (1422–1457)

---

[1] X o n d a m i r. Makorim ul-axloq. T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1967. 27-bet.

so‘zamol va hunarparvar podshoh edi. U ba’zi paytlarda ulug‘ amir bitgan turkiycha, forsiycha she’rlarni mutolaa qilar, ta’bining qudrati va sharofatli so‘zlarining shirinligidan hayratlanar, taajjubga tushar, ziyrakligi, muloyimligi uchun ofarinlar o‘qir edi».

Nizomiy Aruziy Samarqandiy «Majma’ un-navodir» asarida yozishicha, u vaqtlarda shoir bo‘lishni istagan kishi o‘zidan oldin o‘tganlar ijodidan yigirma ming bayt, zamondosh shoirlar ijodidan o‘n ming bayt she’rni yod olishi kerak ekan. Navoiy Attorning «Mantiq ut-tayr» dostonidan tashqari (dostonni to‘liq yod bilgan) «Muhokamat ul-lug‘atayn»da o‘zi qayd etishicha, yigitlik yillarida o‘zi sevgan shoirlarning «shirin ash’ori va rangin ab’yotidin» ellik mingdan ortiq baytni yod bilgan ekan.

Alisher o‘n ikki yoshida (1455) otasidan yetim qoladi va Xuroson podshosi Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kiradi.

Abulqosim Bobur adabiyot va san’atni sevar, ijodkorlarni qadrlar, o‘zi ham o‘zbek va fors tillarida g‘azallar yozar edi. Ma’rifatparvar hukmdor Alisherni o‘z tarbiyasiga oladi. Uning iqtidorini, qobiliyatini e’zozlab, bilim olishi, ijod qilishi va shoirlik malakasini oshirishiga e’tibor qaratadi. 1456- yil Abulqosim Bobur o‘z poytaxtini Xurosondan Mashhadga ko‘chiradi va Alisherni ham o‘zi bilan olib ketadi. 1457- yil Abulqosim Bobur vafot etdi. Alisher Mashhadda qolib o‘qishni davom ettirdi. U mantiq, falsafa, riyozat (matematika) kabi fanlar bilan shug‘ullandi. Ayni vaqtda, o‘zbek va fors tillarida go‘zal g‘azallar bitib, el orasida zullisonayn shoir sifatida tanildi. Alisher o‘zbek tilidagi she’rlarida «Navoiy», fors tilidagi she’rla-rida «Foniy» taxallusini qo‘llaydi.

Navoiy Mashhadda Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammadlar bilan yaqin do‘st bo‘ladi va bu ma’rifatparvar kishilar haqida keyinchalik «Holati Sayid Hasan Ardasher», «Holati Pahlavon Muhammad» kabi adabiy-biografik asarlar yozadi.

Navoiy taxminan 18–19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Navoiyning bilim saviyasi, qobiliyati va she'riy iqtidoridan xursand bo'lgan Jomiy uni ham farzand, ham shogird sifatida qadrlaydi. Keyinchalik bu ikki ulug' shoir o'rtasidagi ustozlik va shogird munosabatlari yanada mustahkamlanib, hamkorlikka aylanadi.

Alisher 1466-yil Samarqandga keladi va u yerda dastlab moddiy qiyinchilikda yashaydi. Shunga qaramay, Samarqand madrasalarida tahsil oladi, ilm-fan, adabiyot va san'at ahli bilan tanishadi. O'zining iqtidori, qobiliyati bilan tez orada obro' va e'tibor qozonadi.

Bu davrda Samarqand Hirotdan keyin ikkinchi yirik ilmiy-madaniy markaz hisoblanar edi. U bu yerda mashhur olim Xoja Fazlulloh Abulaysdan saboq oladi va unga farzanddek bo'lib qoladi. Navoiy Vafoiy taxallusi bilan she'rlar bitgan Samarqandning ma'rifatparvar hokimi Ahmad Hojibekning diqqatini o'ziga tortadi. Hokim uni o'z homiyligiga olib, moddiy va ma'naviy yordam beradi. Samarqand Navoiyning hayoti va ijodida muhim ahamiyat kasb etadi.

1469-yili Husayn Boyqaro taxtni egallagach, Alisher Navoiyni Hirotga, o'z yoniga taklif etadi.

Navoiy Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi munosabati bilan «Hiloliya» qasidasini bitadi.

Husayn Boyqaro uni muhrdorlik vazifasiga tayinlaydi. Keyinchalik (1472) bosh vazir lavozimiga ko'taradi, unga «Amiri kabir» (Ulug' vazir) unvonini beradi. Navoiy o'zining olijanob va eng yuksak orzulari – xalqqa xizmat qilish, mamlakat osoyishtaligini saqlash, hokimiyatni mustahkamlash, fan va adabiyot, obodonchilik madaniyatini rivojlantirishdek ulkan ishlar qanchalik og'ir va mas'uliyatli bo'lmasin, ularni katta mehr-muhabbat va ulug'vorlik bilan amalga oshirdi. «Ixlosiya» madrasasi, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoiya» tabobatxonasi, Jome' masjidi, «Dorul-huffoz» (qiroatxona) va shunga o'xshash boshqa o'nlab binolar, rabotlar qurdiradi, kanallar qazdiradi. Har yili 2 mingga yaqin beva-bechoraga kiyim-

kechak, oziq-ovqat ulashadi. U o‘z atrofiga o‘sha zamondagi eng mashhur olimlar, san’atkorlar, quruvchilar, naqqoshlar, shoirlar va xattotlarni yig‘adi va ularga har tomonlama homiylik qiladi. Ular bilan doimo madaniyat taraqqiyoti va hatto davlat ishlari to‘g‘risida ham maslahatlashib turadi.

1476-yili ig‘volardan qattiq charchagan Alisher Navoiy vazirlikdan iste’foga chiqishga podshohdan izn so‘raydi. Uning birdan bir orzusi haj safariga borish va tamoman ijod bilan shug‘ullanish edi. Sulton noiloj uning iltimosini qondiradi.

Alisher Navoiy 1472–1476-yillar birinchi she’riy devoni «Badoye ul-bidoya», 1486-yilda ikkinchi devoni «Navodir un-nihoya»ni yaratdi.

1483–1485-yillar davomida «Xamsa» asari yaratildi. 1491–1492-yillarda u o‘zbek tilida yozgan hamma she’rlaridan yaxlit bir devon tuzishga kirishadi. Devon ustidagi ish 1498–1499-yillargacha davom etdi. U to‘rt qismdan iborat bo‘lib, har qaysisi tugal bir devon edi. Unga shoir «Xazoyin ul-maoniy» («Ma’nolar xazinasi») deb nom beradi. (Bu devon xalq orasida «Chor devon» nomi bilan ham ataladi.) Bu devon tuzish tarixida katta voqea edi.

Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anbiyo va hukamo», 1491-yilda «Majolis un-nafois» tazkirasini, 1492-yil adabiyot nazariyasiga oid «Mezon ul-avzon» risolasini, 1495–1496-yillarda «Nasoyim ul-muhabbat», 1498–1499-yillarda «Lison ut-tayr», 1499-yil «Muhokamat ul-lug‘atayn», 1500-yil «Mahbub ul-qulub» kabi bir qancha asarlar yaratdi.

Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda og‘ir betoblikdan so‘ng hayotdan ko‘z yumdi.

Hurmatli o‘quvchi! Siz Navoiy ijodi bilan maktabning 5-sinfidan boshlab tanishib kelyapsiz. «Hayrat ul-abror» dostonidagi «Sher bilan durroj» hikoyati bilan tanishgansiz, o‘ninchi maqolat haqida tasavvuringiz bor.

«Xamsa»ning birinchi dostoni – «Hayrat ul-abror»da Navoiy zulm va qabohat, jaholat to‘la jamiyatni, undagi turli tabaqa odamlarning xatti-harakatlarini haqqoniy

tasvirlaydi, tahlil qiladi, ularni o‘zgartirish, tarbiyalash, ma’naviyatni, jamiyatni yuksaltirish masalasini ko‘tarib chiqdi.

«Hayrat ul-abror» dostonining O‘ninchi maqolatidan («Rostliq ta’rifida») va «Layli va Majnun» dostonidan parchalar nasriy bayoni bilan taqdim etilmoqda. Asarlar matni ustida ishlaganingizda, avval har bir baytni o‘zingiz tushunishga harakat qilib ko‘ring. So‘ng tushunchangizni, kashfiyotingizni nasriy bayon bilan taqqoslang. Mehnat va mashaqqat bilan kashf qilingan haqiqat totli bo‘ladi. Ko‘nglingizda kashf qilish lazzatini tuyasiz. Mana shu lazzat sizni ulug‘ bobokaloningizni anglash sari yetaklaydi.

?

1. Siz Alisher Navoiy haqida ma’lum tasavvurga egasiz. O‘qiganlaringizga tayanib, u bilan yaqinlashishga harakat qiling.

2. Navoiyning she’riyatga bo‘lgan mehridan kelib chiqib, o‘z-o‘zingizga savol beringchi, nechta she’rni yod bilasiz?

3. So‘nggi xatboshilardagi murojaatning mag‘zini chaqing. Qat’iy ishonch bilan «Rostliq ta’rifida» hamda «Layli va Majnun»dan berilgan parchani o‘qishga kirishing.

«HAYRAT UL-ABROR» DOSTONIDAN

ROSTLIK TA’RIFIDA

Rostliq ta’rifidakim, vujud uyi bu tuz suti bila barpoy. Va ul uy shabistoni harimida bu sham’i anvar majlis oroy durur. Va egrilik nafyidakim, agar egri kishi zulfdek siymbarlar yuzida yer tutarkim, boshi kesgulukdurur. Va agar ajdahodek ganj ustida halqa urarkim, o‘lturgulik.

Har kishikim, tuzluk erur peshasi,
Kajrav esa charx ne andeshasi.

O‘qki, tuz o‘ldi tayaroni aning,
Bo‘lsa yer egri, ne ziyoni aning?

Yo‘l necha tuz, yo‘lchig‘a maqsad qariyb,
Hamlig‘idin tushsa yiroq yo‘q ajab.

Nay tuz uchun istar ani ahli hol,
Chun tuz emas, egri ko‘rar go‘shmol.

Nayza bo‘lub tuzulugidin sarbaland,
Chirmosh uchun bandg‘a qolib kamand.

Sham’ bo‘yi tuz kelib ayvon aro,
Shohidi bazm o‘ldi shabiston aro.

Egri uchush birla chu ko‘p aylanib,
Qaydaki parvona borib o‘rtanib.

Sarvkim, ul to‘g‘ri chekib qomatin,
Ko‘rmayin osibi xazon ofatin.

Chirmashibon sunbulin tar bog‘ aro,
Egrilik oning yuzin aylab qaro.

Har kishikim, istasa tuzlukka g‘avr,
Angladik onikim, erur ikki tavr:

Bir buki, tuz bo‘lsa kishining so‘zi,
Yo‘q so‘zikim, ham so‘zi-yu ham o‘zi;

Bir buki, yolg‘ong‘a taassuf bila,
To‘g‘ri degay so‘zni takalluf bila.

Yaxshidur avvalg‘isi xud begumon,
Lek ikkinchisi ham ermas yamon.

Har kishi yolg‘onni desa, lek kam,
Bo‘lg‘ay edi kosh bu davronda ham.

Turfa zamon ahlig‘a biz mubtalo,
Kim yo‘q alar ollida chindek balo.

Kimki qilur chinliq alardin havas,
Qoshlari ustida topar chinu bas.

Keldi yilon jismida pechu shikanj,
Muhradur og‘zidavu ostida ganj.

Egriligidin ko‘rinur yangi oy,
Andaki bo‘lmish qadami charxsoy.

Munchaki chirmosh bila dastordur,
Bosh uza chiqmoqqa sazovordur.

Yo‘q-yo‘q, emas bo‘ylaki qildim raqam,
Balki erur barchasi sahvul qalam.

Egriyu tuz vasfi muhaqqaq durur,
Botil erur egriyu tuz haqdurur.

Sham’ki, tuzluk bila masrurulur,
Garchi kuyar boshdin – ayoq nur o‘lur.

Barqki, egrilik o‘lubtur xo‘yi,
Garchi yorur lek borur yer quyi.

To reja chekmas yeriga bog‘bon,
Bog‘ hamon zebda jangal hamon.

Molasiz ul tuxmki, dehqon sochar,
Suvni teng ichmas necha yakson sochar.

Tuz ko‘rinur mehr chu turg‘on suvda,
Egri bo‘lur ushturak urg‘on suvda.

Sahv ila yolg‘on demak ermas hisob,
Bilgach ani chunki qilur ijtinob.

Ulki shior ayladi yolg‘on demak,
Bo‘lmas ani er-u musulmon demak.

Nechaki jahd aylasa kozib kishi,
Bir-ikki dast ilgari borg‘ay ishi.

G‘ofil esa xalq bu ahvoldin,
Voqif erur tengri xud ul holdin.

Elga necha maxfi esa bu sifat,
Zohir etar yolg‘on o‘zin oqibat.

Kimki o‘zi ayladi yolg‘on so‘zin,
Kizb, der el, chin desa, yolg‘on so‘zin.

Necha zarurat aro qolg‘on chog‘i,
Chin demas ersang, dema yolg‘on dog‘i.

Nasriy bayon:

Rostlik ta’rifidakim, borliq uyi shu to‘g‘ri ustun bilan tik, ul uyning shabistoni burchagida bu nur (rostlik) shami majlisni bezatadi; Egrilik rad etish haqidakim, agar egri odam kumush badan go‘zallar yuzidan joy olsa ham, (baribir oxirida) boshi kesiladi, egri odam xazina ustida ajdahodek halqa bo‘lib yotgan bo‘lsa ham, uni o‘ldirish zarur.

Kimki to‘g‘ri bo‘lsa, falakning egri yurishidan nima parvosi bor. O‘qning ketishi (uchishi) to‘g‘ri ekan, yerning egriligidan unga nima ziyon.

Yo‘l qancha to‘g‘ri bo‘lsa, maqsad shuncha yaqin, yo‘l egri bo‘lsa, maqsad uzoqlashganligidan ajablanmaslik kerak.

Nay to‘g‘ri bo‘lgani uchun yaxshilarga maqbul bo‘lgan, egri (chang) shaklan egri bo‘lgani uchun (Egri – fors tilida «chang» deb atalgan musiqa asbobi, bu asbob qayrilma shaklda bo‘lgani uchun «egri» atalgan) go‘shmol ko‘radi (sozlab qulog‘i buraladi), jazo tortadi.

Nayza to‘g‘riligidan bosh ustida o‘ynaydi, kamand (sirtmoq, arqon) chirmashmaligidan uni o‘rab band qiladilar.

Sham bo‘yi to‘g‘ri bo‘lganligi uchun qorong‘ida bazmning shohidiga aylanadi. Parvona egri uchish qilib aylangani uchun sham o‘tiga urilib kuyib ketdi.

Sarv to‘g‘ri qomatli bo‘lgani uchun doim ko‘m-ko‘k, kulfat ko‘rmaydi. Sunbula bog‘dagi har giyohga chirmashgani uchun egrilik uning yuzini qaro qildi.

To‘g‘rilikka talabgor bo‘lgan odam ikki sifatga ega bo‘lishi kerak. Ulardan birinchisi so‘zining to‘g‘ri bo‘lishi shartligi, so‘zinigina emas, o‘zi ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

Ikkinchi sifat yolg‘ondan yuz o‘girishi, to‘g‘ri so‘zni ham muloyim lutf bilan aytishi lozim.

Bu ikki sifatdan avvalgisi yaxshi, lekin keyingisi ham yomon emas.

Bu telba dunyoda to‘g‘ri bo‘lish oson emas. To‘g‘ri odamning to‘g‘riligi deyarli hamisha uning o‘ziga zarar keltiradi. (Egrilarning ishi baravj bo‘lganligini misollar bilan ko‘rsatadi).

Ilon egri-bugri yurish qilganligi uchun og‘zida muhra-naqsh, ostida xazina bo‘ladi.

Yulduz to‘g‘ri uchgani sababli yonib ketadi, yangi chiqqan oy egriligi sabab osmonning eng baland joyidan o‘rin oladi.

Salla egri bo‘lgani, buralib, eshilgani uchun odamning boshiga chiqib olgan.

Egrilikning martabasi balandligi qalamning xatosidir, misollar shuning uchun keltirildiki, to‘g‘ri bo‘lish oson emas.

To‘g‘riliik bilan egrilik hech qachon teng bo‘lolmaydi. Egrilik – buzuqlikdir, to‘g‘rilik – haqdir.

To‘g‘riligi uchun sham yonib bitadi, lekin boshdan oyoq nurga chulg‘angan bo‘ladi.

Yashin hamma yoqni yoritsa ham, egri harakat qilgani uchun yerga botib ketadi.

Bog‘bon ham tekislab, tartib bermas ekan, bog‘ bilan changalzorning farqi bo‘lmay qoladi.

Dehqon mola bosmasdan urug‘ sochsa, qancha hara-kat qilmasin, ekini suvni bir xil ichmaydi.

Quyosh aksi turg‘un (qimirlamay turgan) suvda to‘g‘-ri, tep-tekis ko‘rinadi, lapanglab-mavjlanib turgan suvda esa egri-bugri bo‘ladi.

Yolg‘on bilan xato gapirish hisob emas, yolg‘onligi bilingach, e’tibordan qoladi.

Kimki yolg‘onchilikni shior qilib olgan bo‘lsa, uni musulmon deb bo‘lmaydi.

Yolg‘onchi har qancha harakat qilmasin, uning bir-ikki yolg‘oniga ishonish mumkin.

Bu yolg‘onni xalq bilmasligi mumkin. Ammo tangri voqif.

Eldan qanchalik maxfiy tutmasin, yolg‘on bir kuni o‘zini oshkor etadi.

Kimki elda yolg‘onchi sifatida tanilgan bo‘lsa, uning chin so‘ziga ham hech kim ishonmaydi.

Har qancha noiloj ahvolda qolgan chog‘da ham, chin gapirishning iloji bo‘lmasa yolg‘on ham gapirma.

?

1. Inson tabiatiga zamonning ta’siri haqidagi Navoiy qarashlariga fikr bildiring, fikringizni hayotiy misollar bilan asoslang.

2. Egrilik va to‘g‘rilik haqidagi baytlarni taqqoslang, keltirilgan misollarni izohlang.

3. Egrilarning ishi nima uchun baravj bo‘lishi, uning natijasi nimaga olib kelishi haqida mulohaza yuriting.

4. To‘g‘rilikning yo‘li og‘ir, egrilikning yo‘li osonroq, natijasi pushaymonlik, siz qaysi yo‘l ma’qul deb o‘ylaysiz?

LAYLI VA MAJNUN

(D o s t o n d a n b o b l a r)

X

Qaysning adam majlisidin qutulub, vujud mahdig‘a tutulg‘oni va qon yutmoqdin xo‘rish va ishq doyasidin parvarish topqoni va ishq zoti choshnisidan el ko‘ziga shirin va dardi azaliy haroratidin xaloyiq nazarig‘a isig‘ ko‘rungoni.

Bu silsila halqasida dilgir,
Bu nav’ chekar sadoyi zanjir:
Kim bari Arabda kamroni,
Bor erdi Arabqa hukmroni.
Mahkumi aning necha qabila,
Iqbolig‘a istabon vasila.
Bechora ulusqa chorasoz ul,
Xongustar-u mehmonnavoz ul.
Osmoqdin aning qozoni tushmay,
Tun-kun o‘ti o‘chgali yovushmay,
Kim bodiya ichra yo‘l qilib gum,
Bu o‘t anga tiyra oqshom anjum.

Donish anga kasb-u, jud pesha,
Donish bila jud etib hamesha.
Ot-u tevasi hisob ila jo‘p,
Qo‘y-u qo‘zisi hisobdin ko‘p.
Aylab ani umri sur’atoyin
Bir yosh yo‘qidin asru g‘amgin.
Moli ko‘p-u, umri sust payvand,
Farzandg‘a erdi orzumand.
Kim eskiribon hayoti raxti,
Mayl etsa yiqilg‘ali daraxti,
Naxl bo‘lg‘ay yonida navbar,
Ra’noligi o‘ylakim sanavbar.
Itgach shajarai baland poya,
Solg‘ay boshig‘a bul naxl soya.
Ya’ni duri bo‘lsa gum sadafdin,
Xayli yorug‘ay duri xalafdin.
Bo‘trotqali molini havodis,
Qo‘ymagay agar bor bo‘lsa voris.
Umrig‘a uyoqsa mehri xovar,
Tuqqon esa yana mehri anvar,
Ul mehr chu irtifo’ tutqay,
Majmui qabilasin yorutqay.
G‘ofilki, qurudi chun guliston,
Gulbong etmas hazordaston.
Yo g‘am tuni o‘chsa sham’i anvar,
Parvonadin o‘lmas uy munavvar.
Komingni aningdek et taxayyul,
Kim topmasang etgasen tahammul.
Chun tengriga qildi ko‘p tazarru’.
Topdi nekim ayladi tavaqqu’.
Chu komi aning bor erdi farzand,
Berdi xalife anga xudovand.
Qaysi xalafi, xalifa zodi,
Ishq ahlig‘a qiblai murodi.
Nutfaki bo‘lub bu mazhari ishq,
Ma’ni sadafida gavhari ishq.
Tan maxzanining nuhufta siymi,
Jon gulshanining yorug‘ nasimi.
Mehr oyati olida huvaydo,
Manshuri vafo yuzida paydo.
Hukm ayladi mulk ishq shohi,
«Kim dahrni moh to bamohi.
Sur ichra yarog‘lasunlar oyin,

Ko‘k toqini bog‘lasunlar oyin.
Ul toq uza dardi jovidona,
Cholsun bu tarabda shodiyona.
G‘am xayli aro xuro‘sh tushti,
Savdo cherikiga jo‘sh tushti.
Ochti ko‘zini balo sunub qo‘l,
Kim, seli baloga aylagum yo‘l.
Boshin siladi firoqi avbosh,
Kim, yog‘durg‘um bu bosh uza tosh.
Yub og‘zini dard har yomondin,
Kim, oh o‘ti ko‘kka chekkum ondin.
Ko‘ngli sori ishq bo‘ldi moyil,
Kim, yo‘q manga bo‘yla pok manzil.
Alqissa, otosi topqach ul dur,
Ko‘p sochti guhar, qilib tafoxur.
Qays ayladi o‘g‘il otini bot,
Kim, o‘z atosig‘a bu edi ot.
Hifz ayladi oni necha doya,
Har nav ishidin toparg‘a voya.
Chirmab yana kishu os birla,
G‘uncha kibi yuz libos birla.
Yotquzdilar oni madh ichinda,
Gul yofrog‘i tushti shahd ichinda.
Doya kibi baxt ila saodat,
Alqissa nechukki bo‘lsa odat,
Mardum kibi ko‘zda asrab oni,
G‘ofil emas erdilar zamoni.
Ko‘z uyida hifzini qilib fosh,
Kim, ko‘z ichida ajab emas yosh.
Ko‘z mahdi aro tutub ul orom,
Zarfu mazruf, mag‘zu bodom.
Qo‘ymas edi tegrasidagi el,
Kim, esgay aning sori sovuq yel.
Sut bo‘g‘zidin o‘tgach-o‘q bo‘lub qon,
Bag‘ri bu bahonadin to‘lub qon.
Madh etmak ila tanini ranja,
Tifl erkanida ko‘rub shikanja.
Yerda yuruy olmasida beshak,
Varzish qilibon kichikdin emgak.
O‘t ko‘rsaki mayl etib nihoni,
Ishq o‘ti tasavvur aylabon oni.

Bo‘lmay g‘ofil dami
g‘amu dard,
Ulg‘aytibon oni dard
parvard.
Madh ichraki tortibon
fig‘onlar,
Afg‘onda darddin
nishonlar.
Bo‘lg‘och tili lafzdin
xabarliq,
Har lafzki deb bori asarliq.
Chun aylay boshladi
takallum,
El hushin etib takallumi
gum.
Ruxsorida lam’ai malohat,
Guftorida nash’ai fasohat.
Har nuktakim ul rivoyat
aylab,
El ko‘ngli aro siroyat
aylab.
Ne qilsa bayon xiradg‘a
ma’qul,
Boshdin-ayog‘i nazarda
maqbul.
Har sori xabar topib
qaboyil,
Ko‘rmakligiga tilab vasoyil.
Atrofdin el kelib talosha,
Ul nodirani qilib tamosha.
Ba’zi yuzidin topib
tahayyur,
Ba’zi so‘zidin qilib
tafakkur.
Jondin sevib oni benavolar,
Har kimki ko‘rub,
qilib duolar.

Bas tifli ajabki,
yuz kuhan sol,
Bo‘lg‘aylar vasfida aning
lol.
Sevmakda ato-ano
muvofiq,
Ma’shuq bir erdi, ikki
oshiq.
Behad eshitib chu bul
ajab so‘z,
Debkim, anga tushmasin
yomon ko‘z.
Jon pardasidin yopib
parandi,
Ko‘z mardumidin sochib
sipandi.
Yetgach yoshi to‘rt-u
besh arosi,
Ta’lim so‘zin solib atosi.
Istatti qaboyil ichra piri,
Ta’lim berurga benaziri.
Kim, maktab aro xujasta
farzand,
Bo‘lg‘ay bori ilmdin
barumand.
Chun ilm ila arjumand
bo‘lg‘ay,
Ofoq aro sarbaland
bo‘lg‘ay.
Ey piri muallim-u
muaddab,
Aql o‘ldi qoshingda tifli
maktab.
Bu tifl iligiga bir varaq
ber,
Lekin manga ishqdin
sabaq ber.

X

(B o b n i n g n a s r i y b a y o n i)

Qaysning yo‘qlik majlisidan qutulib, vujud beshigiga tutilgani; qon yutmoqdan yemish va ishq doyasidan parvarish topgani; ishq zoti bahrasidan el ko‘ziga shirin va azaliy dard haroratidan xaloyiq nazariga issiq ko‘ringani.

Bu bo‘g‘ovlar halqasidagi g‘amgin kishining zanjirlari shunday sado beradi: Arab yerida badavlat kishi bo‘lib, u Arabistonga hukmronlik qilardi. Necha-necha qabilalar uning hukmida edi, barcha qabilalar uning iqbolini ko‘zlab ish ko‘rishardi. U bechora xalqning mushkulini oson qiluvchi, hamisha dasturxoni yozig‘liq, mehmondo‘st kishi edi. Osig‘liq qozoni o‘choqdan tushmas, tunkun gulxanida o‘t pasaymas edi. Sahroda yo‘lini yo‘qotganlarga bu o‘t qorong‘i kechadagi yorug‘ yulduz bo‘lib ko‘rinardi. U bilimni kasb qilib, saxovatni hunar qilib olgandi. Bilim bilan saxovat ko‘rsatardi. Ot, tuya, qo‘y-qo‘zilari son-sanoqsiz.

U tez o‘tuvchi umridan kuygan, bolasi yo‘qligidan juda qayg‘urardi; moli ko‘p, o‘zi keksaygan, farzand orzusida edi. Insonning hayot libosi eskib, umr daraxti ham qulay deb qolganda, yonida go‘zalligi sanavbarga o‘xshagan yosh mevali nihol bo‘lsa edi. Shu azamat daraxt tubidan ko‘chib ketsa, bu nihol o‘sib soya solardi; ya’ni yo‘qolgan sadafdan bir dur qolsa, uning qabilasi shu durdan nur olardi. Agar bir merosxo‘r bo‘lsa, uning moli dunyoda sovurilishdan saqlanardi. Umr quyoshi botar ekan, uning o‘rniga yana yorug‘ quyosh – farzand kerak. U quyosh yuksalib, butun qabilalarni yoritar edi.

Bilgilki, guliston quriganda bulbul sayramaydi, doston aytmaydi. Ha, g‘am tunida nur taratuvchi sham o‘chib qolsa, parvona bilan uy yorishmaydi. Biror maqsadni ko‘zlaganda, shuni o‘yla, agar yetolmasang, sabr qil.

Qabila boshlig‘i tangriga ko‘p yolvorib, istagan umidiga yetdi, ya’ni uning maqsadi farzand edi, xudo unga voris berdi... U vorisgina emas, ishq ahlining murod qabilasidir. Ishqning tug‘ilishi bir bashariy qatradan ekan, o‘sha modda ma’no sadafining ishq gavharidur. Shu qatra tan xazinasining yashirin qimmatbaho kumushi, jon gulshanining yorug‘ shabadasidur.

Muhabbat oyati uning yanog‘ida tovlanib, vafo farmonlari esa yuzida ko‘rinardi. Ishq mulkining shohi ko‘kdan yergacha hukm qildikim, shodmonlik bilan osmon gumbazigacha ziynat berib bayram qilsinlar. Ko‘kdagi abadiy dard shodiyona nag‘masini chalsin. Dunyodagi g‘am lashkarlari talvasaga tushib, sevgi qo‘shini qo‘zg‘alib toshdi.

Balo sel ofatiga yo‘l ochaman, deb qo‘li bilan uning ko‘zini ochdi. Bebosh firoq uning boshini silab, «Bu bosh ustiga tosh yog‘diraman», – dedi. Dard ham uning og‘zini yuvib, «Bu yerdan oh o‘tlarini falakka o‘rlataman», – dedi. Ishq esa «Bundan boshqa pok manzil yo‘q», – deya uning ko‘ngliga moyil bo‘ldi.

Alqissa, otasi bu durni topganidan faxrlanib, ko‘p gavharlar sochib, tortiqlar berdi. O‘g‘lining nomini Qays qo‘ydi, bu – o‘z otasining nomi edi. Bir necha doyalar uni boqib asradilar, ulg‘aytirishga kirishdilar. Qimmatbaho matolar bilan yo‘rgaklab, g‘uncha kabi yuzlab qavat libos bilan o‘radilar. Gul yaprog‘i asalga tushgandek, uni beshikka bog‘ladilar. Uni baxt bilan saodat doya singari odat bo‘yicha tarbiyaladilar; bir lahza ham undan bexabar qolmay, ko‘z qorachig‘idek saqladilar. Uni ko‘z yoshini saqlagandek ko‘zda asradilar.

Bodomning ichida mag‘iz saqlanganidek, bu bola ham ko‘z beshigida farog‘atda yashardi. Uning atrofini o‘rab olgan el u tomonga sovuq shamolni esgani qo‘ymasdilar. Uning bo‘g‘zidan sut o‘tishi bilan qonga aylanar, bu vajdan bag‘ri ham qonga to‘lar edi. Beshikka tang‘ilish bilan uning tani qiynalib, azoblana boshladi. Yerda yurishga o‘rganmagan juda kichik chog‘idan boshlab emaklashga

harakat qilar, o‘tni ko‘rganda uni ishq o‘ti gumon qilib, unga yashirincha mayl qilar edi. Dard va g‘am bir lahza ham undan g‘ofil bo‘lmay, hamisha uni ulg‘aytib borar edi. Go‘dak beshikda fig‘onlar tortar, afg‘onida esa dardning nishonalari sezilar edi. Uning tili chiqib gapirar ekan, har bir gapi ta’sirli bo‘lib, gaplashganda uning so‘zlari elning hushini yo‘qotar edi. Yuzida malohat shu’lalari, nutqida fasohat nash’alari bor. Uning har bir ma’noli so‘zi el ko‘ngliga ta’sir qilardi. Uning fikrlari aqlga ma’qul, boshdan oyoq manzur edi.

Qabilalar har tomondan xabar topib, Qaysni ko‘rmoqqa oshiqar edilar. Atrofdan kelgan kishilar bu ajoyib bolani talashib tomosha qilishardi. Ba’zilar uning yuzidan hayratda qolsalar, ba’zilar so‘zidan o‘yga cho‘mib qolardilar. Benavolar uni jondan sevar, har kim ko‘rsa duo qilardi. U yuzlarcha qarilarni o‘z vasfida lol qilgan shunday ajoyib bola edi.

Ota-onasi uni birday sevar, go‘yo ma’shuq bitta-yu, oshiq ikkita edi. Undan behad ajoyib so‘zlar eshitganlar: «Yomon ko‘z tegmasin», – derdilar. Uni jon yo‘rgagiga o‘rab, ko‘z qorachiqlarini isiriq qilardilar. U to‘rt yarim yashar bo‘lganida, otasi uni o‘qitish niyatiga tushdi. Qabilalar ichida tengi yo‘q ta’lim beruvchi ustozni qidira boshladi. Toki o‘g‘li maktabda o‘qib, baxtli bo‘lsin, ilm-ma’rifatdan bahra olsin, ilmlar bilan aziz bo‘lib, jahonda nom chiqarsin. Ey odob o‘rgatuvchi ustoz, aql sening qoshingda talaba bo‘ldi. Bu bola qo‘liga bir varaq tutqiz, menga bo‘lsa ishqdin saboq bergin!

?

1. Qaysning otasi ta’riflangan misralarni ajratib oling va qayta o‘qing. Barcha qabilalar nima uchun ***«Iqbolig‘a istabon vasila»*** ekanini matnga tayanib asoslang.

2. ***«Ko‘ngli sori ishq bo‘ldi moyil, Kim, yo‘q manga bo‘yla pok manzil»*** misralarining mag‘zini chaqing. Nima uchun ishq odamning ko‘nglini o‘ziga manzil qilib tanlagani haqida mulohaza yuriting.

3. Go‘dakning beshikka yotqizilishini Navoiy nimaga mengzaganini matndan toping. O‘xshatmaga munosabat bildiring.

4. Baxt bilan saodat go‘dakni qanday va qayerda asragani haqidagi misralarni topib o‘qing. Navoiygagina xos bo‘lgan noyob o‘xshatishlarga e’tibor qiling.

5. ***«Qo‘ymas edi tegrasidagi el, Kim, esgay aning sori sovuq yel»*** misrasini nasriy bayonga qaramasdan sharhlashga urinib ko‘ring. Buning sabablari haqida mulohaza yuriting.

6. Matndan Qaysning go‘dakligi sifatlangan misralarni topib o‘qing. Undagi boshqa go‘daklarnikiga o‘xshamagan sifatlarni ajrating.

7. ***«Bo‘lmay g‘ofil dame g‘am-u dard, Ulg‘ayti-bon oni dardparvard»*** misralari qatiga shoir nimani yashirgan bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

8. Ota-onaning Qaysni maktabga berishdan maqsadi yoritilgan misralarni ajratib o‘qing. Maktabdan bugungi va o‘sha davrdagi maqsad uyg‘unligi haqida mulohaza yuriting.

9. Shoirning: ***«Lekin manga ishqdin sabaq ber»,*** degan iltijosini tahlil qilishga urinib ko‘ring. Qanday ishq haqida gap ketayotganini tushunishga harakat qiling.

XI

Qaysning xirad maktabida ulum avroqin evurgoni va ishq tundbodi yetib, ul avroqni sovurg‘oni, ya’ni Layli husni gulshanidin za’f xazoni kanora qilib, sihat bahori nasimidin latofat gullari ochilib, maktab azmi qilg‘oni va ul gullardin Qays ko‘ngli ayog‘ig‘a oshiqliq tikanlari sonchilg‘oni:

So‘z darsini ulki berdi ta’lim,
Bu nav’ etti fasona taqsim
Kim, Qaysg‘a ilm uchun murag‘g‘ib,
Har yon chu tilattilar muaddib.
Topildi hunarvar ustode,
Odam ichida malak nihode.
Lek asru hay ichra erdi pobast,

Dars ichra topib kalomi payvast.
Ul turfa qabilada sarafroz,
Har ishda hay ahlig‘a navosoz.
Shaxse edi bas azim shoni,
Rif’atda sipehrdin nishoni.
Qahr etsa dami samum yanglig‘,
Xoro iligida mum yanglig‘.
Xoni karamida mehri xovar
Bir qursi fatirdek muhaqqar.
Tun atlasig‘a chu yo‘q garona,
Xaylida bir eski xaylxona.
O‘t qahrig‘a bo‘lmayin hamovard,
El xaylidin elta olmayin gard.
Qo‘ymay g‘ami dardin tabohi,
Ul elga ihotayi panohi.
Ganjida ko‘p erdi gavhar-u dur,
Bir durdin etib, vale tafoxur.
Bo‘stonida yuz gul erdi xudro‘y,
Bir guldin aning dimog‘i xushbo‘y.
Bir mash’al ila ko‘zi munavvar,
Kim uchquni erdi mehri xovar.
Bir sham’ ila hujlasi muzayyan,
Kim charx uyi andin erdi ravshan.
Sham’iyu ne sham’, chashmai nur,
Nureki, yomon ko‘z olidin dur.
Naxli-yu ne naxl, sarvi ozod,
Sarvi-yu, ne sarv, rashki shamshod.
Oyi-yu ne oy, badri tole’,
Badri-yu, ne badr, mehri lomi’.
Shahd ikki labi, vale ratabno‘sh,
Badr ikki yuzi, vale qasabpo‘sh.
Zulfi tunida uzori xurshed,
Xurshed uza zulfi shomi ummed.
Ne shomki chun ochib savodin,
Qo‘ymay ko‘ngul ichra subh yodin.
Boshkim qo‘shub ikki egma qoshi,
Husn ichra ikisining taloshi.
Chun voqif o‘lub bu mojarog‘a,
Mushkin xutaba kirib arog‘a.
Chun vusma berib alarg‘a tazyin,
Minoyi o‘lub hiloli mushkin.
Yo‘qkim iki sarvi nav damida,

Har sori nasimidin xamida.
Ko‘zlari iki sho‘x kofiri mast,
Har qaysig‘a boqsa uyqu hamdast:
Ul sarvlar ostida uzolib,
Uyqu tamaig‘a soya solib.
Mujgon safining qaro balosi,
Ko‘zlar uza soyaning qarosi.
Yo‘q soyaki, to‘rt saf chekib zang,
Majmuyi libosi surmayi rang.
Ochquncha yumub ko‘z ul sipah tez,
Bir-birga tegib qilurg‘a xunrez.
Dema bu sipahni xayli hindu,
Chin dashti kiyiklariga mo‘ndu.
Mushk oncha sochib bu ohuyi Chin,
Kim aylabdi mo‘ndularni mushkin.
Yuz, ravzayi xulddin nishona,
Xol andin fireb etarga dona.
Ul donag‘a sayd o‘lub bir odam,
Bu donag‘a borcha ahli olam.

Shahdi labidinki komi shirin,
Andin kelibon kalomi shirin.
La’lida yig‘ib zaxirayi jon,
Og‘zi so‘yi anda shirayi jon.
Jon topibon ulki o‘psa oni,
Mundin debon obi zindagoniy.
Ham jon kelib ikki la’li maygun,
Ham tavqi zavqan kelib anga nun.
Bir toza niholi sarv qomat,
Kim jilvasidin solib qiyomat.
Ne ayb qiyomat etsa hardam,
Ko‘rganga yetar chu o‘zga olam.
Bel rishtayi joni zor yanglig‘,
Jon pardasi ichra tor yanglig‘.
Toriki yopib libosi oni,
Jon pardasida bo‘lub nihoni.
Ham gavhari rishta shug‘lidin pok,
Ham la’lig‘a yo‘q gazandi hakkok.
Pok erdi nechukki rost da’vi,
Bikr erdi nechukki xos ma’ni.
Yo‘q ikki sochi tuniga g‘oyat,

Ya’ni iki layli benihoyat.
Andin bo‘lib oti jilva oroy,
Andoqki barotu qadr aro oy.
Kimniki bo‘lub demakka mayli,
Malfuz o‘lmay bag‘ayri Layli.
Guldek yuz ila bu toza gulshan,
Aylab otaning ko‘zini ravshan.
Bir uy qilibon ota murattab,
Kim, bo‘lg‘ay ul uy bu oyg‘a maktab.
Lutf ichra nechukki xirgahi moh,
Sokin bo‘lub anda mohi xirgoh.
Uyni yorutub dabiri mazkur,
Ta’lim olibon farishtadin hur.
Atfol tutub ul uy ichin jum,
Ko‘k xirgahini nechukki anjum.
Ul xayl aro mohi majlis oroy,
Andoqki nujum arosida oy.
Chun Qays so‘zi deyilmish erdi,
Kim, volidi fikr qilmish erdi.
Ustodg‘a qilmoq oni taslim,
To qilg‘ay anga ulum ta’lim.
Yo‘q erdi qabilalarda maktab,
Bu maktabdin o‘qurg‘a ansab.
Andoqki bo‘lur arabda ma’hud,
Aylab neki rasm bo‘lsa mavjud.
Topshurdilar oni nuktadong‘a,
Gavharni muhiti begarong‘a.
Chun topti bu nav’ gavhari pok,
Bahr o‘ldi bu zavqdin tarabnok.
Soatni chu ixtiyor qildi,
Lavh uzra sabaq nigor qildi.
Aylab anga lavhi siym taslim,
Filhol etti sabaqni ta’lim.
Ta’limig‘a belni chust qildi,
Ne ul dedi, bu durust qildi.
Har necha sabaq debon fuzunroq,
Go‘yoki bilib endi burunroq.
Hamdarslari bu holatidin,
Ojiz edilar xijolatidin.
Bir kun edi ham sabaqqa ham tak,
Ikinchi kun o‘tmish erdi beshak.
Kun bor edikim besh-o‘n sabaqni,

Anglab evurur edi varaqni.
Oz vaqtda ayladi zamona,
Ani bori ilm aro yagona.
Ul vaqtki ul zamona fardi,
Maktabg‘a kelurni boshlab erdi.
Layli demay, ul buti parizod,
Bir oriza birla erdi noshod.
Tab’ida quyosh kibi harorat,
Ayshig‘a solib edi marorat.
Har tab’ki zoti o‘lsa mahrur,
Oz hirqat etar tanini ranjur.
Zoriki, o‘chuk yonar charog‘i,
Bot o‘rtanur ortiq o‘lsa yog‘i.
Kun qumni qilur necha qiziqroq,
O‘t yonsa bo‘lur yana isig‘roq.
Bor erdi quyosh mizoji nori,
Qumning ham esib nasiymi hori.
Marg‘ubi edi ratab bila shahd,
May ichgali ham qilur erdi jahd.
Shahd-u mayu tab’ ila havo to‘rt,
Chun mushtail o‘ldi soldilar o‘rt.
Jisminki, bor erdi yosimin gul,
Hummo qilur erdi otashin gul!
Terkim gulidin bo‘lib ravona,
Uyni qilibon gulobxona.
G‘uncha kibi hullalarda noyob,
Xurda kibi o‘t anga solib tob.
Kam bo‘lsa mizojig‘a harorat,
Titratma qilur erdi sharorat.
Shamshodig‘a titratmak padidor,
Tong yelidin o‘ylakim sapidor.
Chu zilzila bo‘ldi ersa xora,
Bo‘lur nafas ichra pora-pora.
Ul tang‘aki lutfdin edi gul,
El titraturiga ne tahammul.
Boshi uza jam’ o‘lub ahibbo,
Hozir qilur erdilar atibbo,
Bemorg‘a mushkil erdi parhez,
Andoqki ko‘zi qilurda xunrez.
Bu hol ila erdi sarvi gulxad,
Kim, bo‘ldi mizoji za’fi mumtad.
Har necha sipehr edi hasadgor,

Ham bo‘ldi tabiati
madadgor.
Za’f ichra tabiat o‘lsa
mushfiq,
Behroqki tuman tabibi
hoziq!
Yo‘q ersa mizojidin
muvoso,
Jon bersa ne sud elga Iso.
Kim bo‘lsa tabiati muolij,
Jismidin etar marazni xorij.
Chu qildi tabiati
muruvvat,
Za’f o‘ldi gumu yetishti
quvvat.
Yor o‘ldi hakimning iloji,
Sihhat sori qo‘ydi yuz
mizoji.
Mayl etti mizojig‘a
salomat,
Tab’ig‘a yuz urdi istiqomat.
La’li labi no‘shxand bo‘ldi,
Naxli qadi sarbaland bo‘ldi.
May tab’ig‘a bo‘ldi
ishratangez,
Qon to‘kmak uchun
ushatti parhez.
Bo‘ldi yana ul uzori
gulgun,
Husn ichra burung‘idin
ham afzun.
Bir kun erikib mahi
muaddab,
Tushti boshig‘a havoyi
maktab,
Mashshotayi husni olam
aro
Oroyishin etti oshkoro.
Ul husnki zebi olam erdi,
Zeb ustiga yona zeb berdi.
Zulfu yuzi xad yonidag‘i
dol,
Fam nuqtasi og‘zi ustida
xol.
Aylab yuz o‘tin yoqorg‘a
ta’jil,
Gugurd o‘ti yuzda har
taraf nil.
O‘tdin gul ochib chu
gulistong‘a,
Ul gul bila o‘t solib
jahong‘a.
Farqi uza zulfi anbar olud,
Gulfom o‘tig‘a anbarin
dud.
Oraz uza zarvaraq nigori,
Ul o‘tu, bu dudning
sharori.
Yuz uzraki, o‘t yoqib
jabini,
Axgar anga la’li otashini.
Jodulig‘i birla xoli hindu,
La’li o‘tida nihon qilib su.
Yo‘qkim labi obi
zindagoniy,
Suv ichra o‘t aylabon
nihoni.
Ul la’l o‘tidin jahong‘a
kuymak,
Yo‘q, yo‘q, ne jahonki,
jong‘a kuymak.
O‘tlug‘ iki ko‘zi
surmaolud,
Ul o‘tg‘a dag‘i bu
surmadin dud.
Bu o‘tlar aroki orazi g‘arq,

O‘rtarg‘a jahonni hosilan barq.
Ne barqki barqi ofat ul yuz,
Yo boriqayi latofat ul yuz.
Yuz girdida iqdi gavhar andoq,
Kim, oy ila bo‘lg‘ay axtar andoq.
Mi’jar sochi uzra tori noyob,
Ul nav’ki vasl shomi mah tob.
Husn ichra ayog‘idin boshi xub,
Boshdin ayog‘ig‘a tegru mahbub.
Ko‘rgach bu baloyi javidona,
Qo‘zg‘olmay naylasun zamona.
Bu shakl ila ul jahong‘a oshub,
Solib sekiz osmong‘a oshub.
Kenida necha kanizi hamqad,
Borcha gul ro‘yu arg‘uvon xad.
Maktab sori jilva ayladi soz,
Boshtin ayog‘ig‘a husn ila noz.
Kim, sayr ila ko‘ngli xurram o‘lg‘ay,
Hamdarslarig‘a hamdam o‘lg‘ay.
Xurram ko‘rib oni farrux ustod,
Qilg‘ay bori sarvlarni ozod.
Qizlar bila azmi gulshan etgay,
Gulshanni jamoli ravshan etgay.
Maktabni yorutg‘ach ul pari chehr,
Andoqki sipehr gunbadin mehr.
Borcha qilib ehtiromin oning,
Yuqori yasab maqomin oning.
Shod o‘ldi jamolidin dabiston
Andoqki bahordin guliston.
Lekin bu bahori zindagoni,
Bir nahlni ayladi xazoni.
Yo‘q, yo‘qki tutoshdi sarbasar o‘t,
Boshtin ayog‘ o‘ldi ul sha jar o‘t.
Yo shu’laki har biriga yetti,
El bargi xazon tasavvur etti.
Ya’ni ko‘rub oni Qaysi mahzun,
Ruxsorini qildi kahrabogun.
Ham chehrasi rangi kahrabodek,
Ham ko‘nglida qo‘zg‘alon sabodek.

Hardam yiqilurg‘a jismi moyil,
Hushi dog‘i lahza-lahza zoyil.
Topib anga jismi notavon za’f,
Ko‘nglida dog‘i zamon-zamon za’f.
Tag‘yirpazir ko‘zga holi,
Ko‘zga neki, har dam o‘zga holi.
Chun zo‘r keturdi ishqi bebok,
Avval qadah oldi hushini pok.
Bal may isi birla mast bo‘ldi,
G‘am xaylig‘a zeri dast bo‘ldi.
Ko‘p sa’y o‘ziga qildi hamdast,
To bo‘lmadi yerga soyadek past.
Ko‘rgach ham ani nigori zebo,
O‘z ko‘nglini topti noshikebo.
Nozuklik ila chu qildi mafhum,
Kim erkanin etti yaxshi ma’lum.
Qolmadi havosida qarori,
Shavq o‘tig‘a tushdi joni zori.
Oning dog‘i bildi iztirobin,
Ishqi o‘tida ichida tobin.
Bildiki, gar etmas ishga chora,
Ul hol o‘lur elga oshkora.
El solsalar iztirob arog‘a,
Bir nav’ tushar hijob arog‘a,
Kim yor o‘la olmay anda sokin,
Bo‘lmas diydor umedi mumkin.
Ta’jil ila qo‘pti lu’bati shang:
«Kim bog‘ sori qilurbiz ohang».
Atfol dog‘i bilib g‘animat,
Oning bila qildilar azimat.
Taklif etti buti shakarlab,
Kim, har kishi bo‘lsa ahli maktab:
«Bir kungina tarki dasht qilsun,
Gullar bila bog‘ gasht qilsun».
Chun kirdi arog‘a bo‘yla surat,
Azm ayladi Qays ham zarurat.
Chun Qays alarg‘a bo‘ldi yo‘ldosh,
Gulshan ichidin chiqordilar bosh.
Ey gulshani ishq bog‘boni,
Gulgun qadahe ketur zamoni.
To gulki bu gulshan ichra sochqung,
Ma’lum etayin ne gullar ochqung.

XI

(B o b n i n g n a s r i y b a y o n i)

Qaysning donolik maktabida ilmlar varaqlarini o‘girgani; ishq izg‘irini yetib, u varaqlarni sovurgani, ya’ni Layli husni gulshanidan xastalik xazoni chetlashib, salomatlik bahori yelidan latofat gullari ochilib, maktabga yo‘l olgani va u gullardan Qays ko‘ngli oyog‘iga oshiqlik tikanlari sanchilgani.

So‘z darsidan ta’lim beruvchi kishi afsonani shunday tahlil qildi: Qaysga odob va ta’lim beruvchi kishini har tarafdan izladilar. Odamzod ichida malaksimon yaratilgan bir hunarmand ustod topildi. Biroq u ustod qabiladan hech yerga jilmasdi, dars berishda yuksak kamolot sohibi edi. U ajoyib kishi qabilada izzat-hurmatli bo‘lib, har ishda hay ahliga yordamlashuvchi edi. Zo‘r sha’n-shavkatga ega, martabasining yuksakligi ko‘kka teng bir shaxs edi. Qahri kelganda nafasi garmseldek, metin toshlar qo‘lida yumshoq mumga aylanar edi. Uning karam dasturxoni oldida quyosh qora kulchadek qadrsiz; cheksiz bo‘lgan tun osmoni uning qabilasida eski bir otxona edi. O‘t uning qahriga teng kelolmas, yel bo‘lsa uning qabilasidan bitta gardni ham uchirib ketolmasdi. Eliga olam ofatlari tushmas, chunki u o‘z elining panoh qo‘rg‘oni edi. Xazinasida dur-u gavharlar ko‘p bo‘lib, lekin bu durdan alohida faxrlanar; bo‘stonida yuzlarcha chiroyli gullar bor bo‘lsa-da, ularning biridangina uning dimog‘i xushbo‘y edi. Bir mash’aldan uning ko‘zi yorug‘langan ediki, uning bir uchquni sharq quyoshi edi. Turar joyi bir sham bilan bezangan; jahon uyi ham o‘shandan ravshan bo‘lgan edi. Uni sham dema, balki nurlarning chashmasidir, uning nuri yomon ko‘zlar makridan yiroqdir. Uni nihol dema, balki sarv kabi xushqomatdir, sarv ham dema, balki shamshodga rashk soluvchidir.

Uni oy dema, balki to‘lgan oydir, to‘lin oy ham emas, balki porloq quyoshdir. Ikki labi asal, lekin xurmo maza-

lik; ikki yuzi to‘lgan oy-u, biroq niqobda. Qora zulflari tunida yuzi quyoshdek, gajaklari esa shu quyoshning ustidagi umid shomi edi. Yo‘q, shom emas, balki ko‘ngildan tongning yodini chiqaruvchi qorong‘ilikning yoyilishidir. Tutashgan ikki qoshi o‘zaro husn talashib mojaro boshlagan chog‘da, qora xoli voqif bo‘lib oraga kirgan. O‘sma ularga ziynat berganda, yangi oyga o‘xshagan qora qoshi ko‘kimtir bo‘lib tovlanar yoxud yangi o‘sib chiqqan ikki sarv niholi shabadadan ikki tarafga egilib turgandek tuyulardi. Sho‘x, rahmsiz ikki ko‘zi esa mast kofirlardek uyqusirab, haligi sarvlar ostida uyqu umidi bilan cho‘zilib yotgandek.

Kiprik saflari qora balodek, qora ko‘zlar ustidagi soyaning qorasi kabi. Soya ham emas, balki to‘rt qator saf tortgan surmarang kiyingan zangi qo‘shinlaridir. Ko‘z ochib yumguncha kipriklar ikki qo‘shindek qon to‘kmoq uchun bir-biriga tashlanadi. Bularni hind lashkari dema, balki chin dashtining kiyiklariga qo‘yilgan qator qopqonlardir. Chin kiyiklari shu qadar mushk sochdiki, u qopqonlarni ham muattar qilib yubordi. Yuzi jannat bog‘laridan nishona bo‘lib, undagi xol aldamoq uchun donadir. Jannat donasiga birgina Odam Ato ilingan bo‘lsa, bu yuzdagi xol donasiga butun jahon ahli ovlangandir. Labining bolidan og‘zi shirin bo‘lgani uchun so‘zlari ham shirin edi. Labiga jon zaxiralari yig‘ilgan, og‘zining suvi jon shiralaridir. Uni o‘pgan kishi undan jon topadi, shuning uchun uni obi hayot deyilgan.

Ikki qizil labi jon bo‘lsa, iyak ostidagi baqbaqalari «jon» so‘zining «nun» harfidir. U shunday sarv qomat, nozik niholki, jilvasi qiyomat qo‘poradi. Uni ko‘rgan kishi o‘zga bir olamga o‘tib qolar ekan, u har dam bir qiyomat qo‘porsa nima ayb? Belining nozikligi jon pardasidagi ingichka torlarsimon, libosidagi o‘rish-arqoqlar jon pardasidagi yashirin iplardandir. Uning pok gavhari hali ipga tizilmagan, la’li esa zargar qo‘lidan zarar ko‘rmagan; to‘g‘ri da’vo kabi toza, ochilmagan ma’nodek ohorli edi. Ikki qora sochining uzunligi intihosiz ikki

qorong‘i kecha. Shuning uchun uning ismi barot[1] va qadr[2] kechasidagi to‘lin oydek jilvalanardi. Kimki uning ismini aytishni istasa, Laylidan boshqa so‘zni tilga olmas edi. Bu toza gulshan – Layli guldek yuzi bilan otasining ko‘zini ravshan qilgan edi. Otasi Layliga maktab bo‘lsin deb bir uyni jihozlagan edi. U xona nafosatda oy doirasiga o‘xshar, Layli shu uyda oydek o‘tirardi. Boya aytilgan ustoz shu maktabning muallimi bo‘lib, farishtadan hur ta’lim olardi. Ko‘k yuzini yulduzlar qoplaganidek, u xona bolalar bilan liq to‘lgan edi. Yig‘in guli Layli esa talabalar orasida yulduzlar ichra oydek o‘tirardi.

Qaysga kelsak, otasi uni bir ustozga topshirsa-yu, ustoz unga ilm o‘rgatsa, degan fikrga kelgan edi. Qabilalarida Laylining maktabidan boshqa munosib maktab bo‘lmaganidan, arablarda bo‘lgan rasm-rusumlarga muvofiq, gavharni cheksiz dengizga tashlagandek, Qaysni ham bilimdonga topshirdilar. Bunday pok gavharni topgan dengiz juda zavqlandi. Shu soatda uning ta’lim taxtasiga sabog‘ini yozib berdi, ya’ni oldiga kumush lavh qo‘yib, darhol unga ta’lim berdi. O‘qituvchi ta’limga qattiq bel bog‘ladi, Qays uning aytganlarini yaxshilab bajardi. Unga qancha ko‘p saboq berilsa, go‘yo ilgari bilgandek o‘qirdi, hamdars bolalar o‘z holatlariga xijolat tortar edilar. Qays bir kun sheriklari bilan saboqdosh bo‘lsa, ikkinchi kuni, albatta, o‘zib ketardi. Shunday kunlar ham bo‘lardiki, besh-o‘n saboqni o‘qib, anglab, yangi varaqlar ochardi. Shu yo‘sinda zamona uni tez vaqt ichida hamma ilmlar bo‘yicha yagona qilib qo‘ydi.

Zamona yagonasi – Qays maktabga kela boshlagan vaqtda, Layli demayin, ul sanamdek parizod, bir kasalga chalingan edi. Tabiatiga tushgan quyosh kabi harorat uning osoyishini barbod qilgandi. Har ko‘ngilki, aslan kuygan bo‘lsa, ozgina harorat ham uning tanini azoblaydi.

---

[1] B a r o t — hijriy yil hisobida sakkizinchi oy bo‘lgan sha’bonning o‘rtasi, bayram kuni.

[2] Q a d r — ramazon oyining «Laylat ul-Qadr» (Qadr kechasi) deb ataladigan 27-qutlug‘ kuni.

Chirog‘i o‘chayozgan bechoraning chirog‘iga yog‘ quyilsa, yana yonaveradi. Quyosh qumni qancha qizitsa, unga o‘t yoqilsa, yana ham alangalanadi. Ul quyosh – Laylining mizoji issiq bo‘lib, qumlarning esa garmseli yurgan edi. U xurmo va asalni yaxshi ko‘rar, may ichishga ham oshiqardi. Asal, may va o‘zining issiq tabiati hamda havo-ning harorati – to‘rtalasi shu’lalanib unga o‘t soldilar. Uning oq gulga o‘xshagan jismini isitma qizil gulga o‘xshatib yuborgan edi.

Gul yuzidan oqqan terlar uyni gulobxona qilib yuborardi. U bo‘lsa, g‘uncha kabi harir pardalarga o‘ralgan, isitma unga gul zarralaridek o‘t solgan. Mizojida harorat kam bo‘lsa, uni isitma qaltiratardi. Tong yelidan teraklar titraganidek, uning shamshod qaddi bezgakdan titrardi. Zilzila bo‘lgan chog‘da qoya toshlar bir nafasda pora-pora bo‘lib ketsa, noziklikda gulday muloyim badan shamol titratishiga qanday dosh beradi? Uning boshida do‘stlari yig‘ilishib, tabiblar hozirlashar edilar. Qon to‘kuvchi ko‘zlariga chidash qanday qiyin bo‘lsa, uning uchun parhez qilish ham shunday mushkul edi. Shu ahvolda u gul yuzning kasali uzoqqa cho‘zildi. Falak qancha hasad qilmasin, uning tabiati ham shuncha yordam berar edi. Kasallikda tabiat mehribonligi o‘ta tajribali tabibdan yaxshiroqdir. Agar uning mizoji tuzalishga ko‘maklashmasa, Isoning elga jon bag‘ishlashidan nima foyda? Kishining tabiati kasalliklarni quvib chiqaradi. Layliga tabiat muruvvat qilgach, xastalik yo‘qolib, quvvatga kirdi. Hakimning ko‘rgan choralari kor qilib, uning mizoji tuzalishga yuz tutdi. Mizojiga salomatlik kirgach, tabiatida ham tinchlik tug‘ildi. La’li labi jilmayib, qomatining niholi yuksaldi. May ta’biga xursandchilik bag‘ishladi, badaniga qon yugurtirmoq uchun parhezni ushatdi. Yana o‘sha gul yuzli go‘zallikda burungidan ham ziyoda bo‘ldi.

U odobli oy bir kun zerikib, maktabga borish havasiga tushdi. Olamga zeb berguvchi go‘zallik pardozchisi uni bezantirdi. Olamning zeb-ziynati bo‘lgan husn yana zeb

Atoqli demokratik shoir Muqimiy XIX asrning 2-yarmi XX asrning boshlarida (1850–1903) yashab ijod etdi. Hunarmand oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Mirzaxo‘ja asli toshkentlik bo‘lib, Qo‘qonga borib turg‘un bo‘lib qoladi. Onasi Bibioysha zamonasining ziyrak, quvnoq, badiiy zavqi yuksak ayol edi. Bu ma’naviy xislat o‘g‘li Muqimiyga ham ta’sir etdi, she’riyatga bo‘lgan qi-ziqishini orttirdi. Yoshligida oilada onasidan xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganganligi va Sharq nazmining Hofiz, Alisher Navoiy, Fuzuliy kabi mashhur namoyandalari ijodi bilan tanishishi undagi badiiy zavqni rivojlantirdi. Yoshligidan boshlab she’rlar mashq qila boshladi. U Qo‘qon, Buxoro madrasalarida tahsil oldi.

Muqimiy mumtoz janrning g‘azal, muxammas, murabba’, masnaviy turlarida ijod qildi. U she’rlarida keng ma’nodagi muhabbatni, lirik qahramon kechinmalari, istaklari, armonlari, sevinch va alamlarini gavdalantirdi. Shuningdek, Muqimiy ijodida hayotni sevishga, undan zavqlanishga chaqirish, turmushning ozod va baxtiyor bo‘lishini orzu qilish yetakchi o‘rinda turadi. Lekin ikkiyoqlama zulm hukmronlik qilgan adolatsiz jamiyatda shoir niyatlarini amalga oshirish mumkin emas edi. Shu bois uning lirikasida «Tole zabunlik», «Zulm», «Jabr-u sitam», «Charxi kajraftor»dan shikoyat qilib, «bulbullar o‘rnini zog‘lar» olgani, «ahli tamiz» xor bo‘lib, «nodonlar»ning izzat-ikromda ekanligi tasvirlanadi. Ko‘rinadiki, hayotdagi qarama-qarshi yashash tarzi shoir ijodida o‘z aksini topgan.

Muqimiyning g‘azal, muxammas va murabba’lari mazmunning aniqligi, ravshanligi, uslubining ravon va yengilligi vaznining quvnoq va o‘ynoqiligi bilan jozibalidir.

Quyida uning murabba’ va g‘azallari bilan tanishasiz.

?

1. Muqimiyning yoshligidan she’riyatga qiziqishi sabab bo‘lgan omillar haqida gapiring.

2. Shoir lirikasining mazmun-mohiyati nimada edi?

3. Muqimiy she’rlarida lirik qahramoni kechinmalariga davrning ta’siri qanday ifodalangan?

G‘AZALLARDAN NAMUNALAR

Navbahor, ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar,
Suhbat aylaylik kelinglar, jo‘ralar, o‘rtoqlar.

Xush bu mahfilda tiriklik ulfat-u ahbob ila[1],
O‘ynashib, gohi tabiatni qilaylik chog‘lar.

Ruh ochib ko‘zdin nihon bo‘lsa paridek, naylayin,
Ayrilib hush-u aqldin telba bo‘lmay sog‘lar.

Hayfkim ahli tamiz[2] ushbu mahalda xor ekan,
Oldilar har yerda bulbul oshiyonin zog‘lar.

Malham istab kimsadin, zaxm izhor aylasang,
Chorai qilmoqdin o‘zga ustig‘a tirnog‘lar.

Tobakay mundog‘ malomat kunjida doim Muqim,
Bu zamon ko‘z tutgil emdi senga bo‘lsin tog‘lar.

?

1. Go‘zal bahor manzarasini chizar ekan, shoir nima sababdan «jo‘ralar» va «o‘rtog‘lar»ini ulfatchilikka da’vat etadi?

2. ***«Xush bu mahfilda tiriklik ulfatu ahbob ila»*** deyish orqali shoir nimani nazarda tutadi? Misraning maqsadini tushuntiring.

3. She’rning 4-baytini undan oldingi baytlar bilan solishtiring: ko‘klam tabiati qo‘ynida hordiq chiqarishga chorlayotgan shoirdagi keskin o‘zgarishni qanday izohlaysiz? Nima uchun u birdaniga g‘amga botadi?

4. ***«Oldilar har yerda bulbul oshiyonin zog‘lar»*** misrasining botiniy ma’nosini qanday tushundingiz?

5. G‘azalning oldingi 3 ta va keyingi 3 ta bayti orasidagi ziddiyatni sharhlashga harakat qiling.

6. Muqimiy she’rning so‘nggi baytida qanday xulosaga keladi va nima uchun? Ushbu misralarni shoir maqsadidan kelib chiqib muhokama qiling.

---

[1] Misra mazmuni: «Do‘stlar, ulfatlar bilan bu yerda tiriklik qilish qanday yaxshi».

[2] A h l i t a m i z – fakmlilar, fahm egalari.

* * *

Zulm ila qahr-u g‘azab izhor qilmoq shunchalar,
Oshiqi bechoraga ozor bermoq shunchalar.

Gul debon sevgan kishining ko‘kragiga nish urub,
Xasta-yu ma’yus etib, afgor qilmoq shunchalar.

To‘tiyi shirin suxan ag‘yorlarning bazmida,
Bizga kelganda gapirmay zor qilmoq shunchalar.

Sizga kim aydi: muhabbat ahlini qil ihtisob[1]
Qo‘rqutib o‘z aybiga iqror qilmoq shunchalar.

Kelsa oldingizga boysurat, yoqosi tugmalik,
Izzat ila shod-u minnatdor qilmoq shunchalar.

Garchi kelsa eski to‘n, bizdek duogo‘yi faqir,
Kambag‘alning xirqa[2] sidin or qilmoq shunchalar.

Har baloyu jabr kelsa yonmagay hargiz Muqim,
Oshiq ahlini urubon xor qilmoq shunchalar.

?

1. G‘azalning ***«Zulm ila qahr-u g‘azab»*** ifodasi bilan boshlanish sababini tushuntiring. Bu o‘rinda shoirning shaxsiy hayoti bilan bog‘liqlik bormi?

2. Muqimiy ***«oshiqi bechora»*** sifatida kimni nazarda tutadi? Unga ***«ozor bermoq»***likni qanday tushundingiz? Lirik qahramonning bu qadar jabr ko‘rishiga sabab nima?

3. She’r badiiyati, mazmun-mohiyati to‘g‘risida bahs yuriting. Shaxsiy mulohazalaringizdan kelib chiqib, shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrga munosabat bildiring.

[1] I h t i s o b – so‘roqqa tutish, tergash.
[2] X i r q a – janda kiyim.

MURABBA’

Emdi sendek, jono, janon qaydadur,
Ko‘rib gul yuzingni bog‘da bandadur,
Saqlay ishqing toki jonlar tandadur,
O‘zim har joydaman, ko‘nglim sandadur.

Mehring o‘ti tushdi nogoh jonlarga,
Parvoyim yo‘q zarra xonu monlarga,
Lola yanglig‘ to‘lib bag‘rim qonlarga,
O‘zim har joydaman, ko‘nglim sandadur.

Erta-yu kech fikr-u zikrim xayoling,
Bir so‘rmading nalar kechdi ahvoling,
Eslarimga tushib shirin maqoling,
O‘zim har joydaman, ko‘nglim sandadur.

Yo‘q sen kabi malohatlik,
Ko‘rganmukin misolingni zamona,
Bo‘lib xalq ichida mundog‘ afsona,
O‘zim har joydaman, ko‘nglim sandadur.

Yuzlaringdin xijil mohi tobonlar,
Raftoringga shaydo jumla yoronlar,
Qolib har dam o‘z ishimga hayronlar,
O‘zim har joydaman, ko‘nglim sandadur.

Sultonisan, barcha xo‘blar nadiming[1],
Doyim erdim duogo‘yi qadiming,
Bovujudi so‘rmay o‘tting Muqimiying,
O‘zim har joydaman, ko‘nglim sandadur.

?

1. Murabba’ning birinchi, ikkinchi baytidagi oshiq holatini qanday tushundingiz?
2. 3-bandda shoirning o‘z ahvoli va mahbubadan gina qilishi qanday ifodalangan?
3. 4–6-bandlarda mahbubaning sifatlari qanday tasvirlangan?
4. She’r qaysi kuy bilan qo‘shiq qilib aytiladi? Uni ifodali o‘qing va yod oling.

[1] N a d i m – sultonlarning mahrami, suhbatdoshi.

HAMID OLIMJON

(1909–1944)

O‘zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri Hamid Olimjon jo‘shqin lirik shoir, yozuvchi, mohir dramaturg, otashin publitsist, tarjimon, atoqli jamoat arbobi edi. U o‘zining nasriy, lirik, dramatik asarlari, adabiyotshunoslikka doir hamda publitsistik maqolalari va tarjimalari bilan o‘zbek adabiyoti tarixida katta o‘rin tutadi. Ayniqsa, uning bahor va baxtni kuylab yozgan asarlari – «O‘rik gullaganda», «Baxtlar vodiysi», «Bahorni sog‘inganda», «Daryo kechasi», «Ishim bordir o‘sha ohuda», «G‘uncha yanglig‘ burkanib», «G‘azal» va boshqalar musiqaga boy, sehrli, ohangdor she’rlardir.

«Hamid Olimjon tug‘ma va nodir talant edi, – deb yozgan edi Mirtemir. – Uning qonida, o‘zligida, ko‘z qorachig‘ida, to‘qson ikki tomirida tug‘ma bir zukkolik, shoirona bir sajiya, bilgichlik, burrolik, nurbaxshlik, yorqin qalb, odob ayon, peshanasida va yirik ko‘zlarida ulug‘lik ochiq-oydin edi. Uning bilmagani oz, o‘qimagani kam edi. Hammadan, har narsadan xabardor, qisqaroq aytganda, chin ma’nosi bilan o‘qimishli qalamkash edi».

Hamid Olimjon 1909-yilda Jizzaxda dunyoga kelgan bo‘lib, u yoshligida xalqi hayotidagi juda ko‘p ayanchli kunlar, voqealarning guvohi bo‘lgan. Mardikor olish, zolimlarga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari, buning natijasida vayron bo‘lgan shahar-qishloqlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan.

Hamidning alamli, nursiz hayotini bezagan birdan bir ovunchoq onasi Komila opaning uzun tunlarda so‘zlab bergan ertaklari va bobosining rus tilini o‘rgatish bo‘yicha o‘tkazadigan mashg‘ulotlari edi. Onasi Komila opa o‘z davrining ilg‘or ayollaridan edi. U o‘g‘li Hamidning mard, dadil, kuchli, mehnatkash, irodali yigit bo‘lib yetishishi uchun bor kuchini sarfladi. Uni ertak va dostonlardagi qahramonlar, xalq bahodirlari, ularning orzu-umidlari, kurash va intilishlari bilan tanishtirdi.

Hamid yoshligida bu kabi asarlarni faqat onasining og‘zidangina emas, balki xalq shoirlarining doston aytish kechalarida ham tinglagan. Uning bobosi Mulla Azim bilan oshnachiligi bo‘lgan xalq baxshisi Fozil shoir bu haqida shunday deydi: «Gezi-gezi bilan Jizzaxga borib, ularga qo‘nardim, bir hafta, ikki hafta turib, qadrdonlarimga qo‘shiq aytib kelardim. Ular bilan dardlashib, o‘zimning ham ko‘nglimni yozib qaytardim». Mulla Azim o‘zbek klassik adabiyotini ham yaxshi bilgan, ba’zan o‘zi ham she’rlar yozgan. U mardikorlikka safarbar etilgan bo‘lib, u yerda rus tilini puxta o‘rgangan.

Hamid Olimjon bolalik chog‘laridanoq bobosi orqali rus tilini, rus adabiyoti namunalarini o‘rganadi. «Sakkiz-to‘qqiz yoshlarimda, – deb yozgan edi Hamid Olimjon tarjimayi holida, – men Pushkinning ko‘p she’rlarini yoddan bilardim va ularni o‘z o‘rtoqlarimga o‘qib berardim». O‘sha davrda rus tilidagi she’rlarni yoddan bilish hammaning ham qo‘lidan kelavermas edi.

Hamid Olimjon maktabda eng ilg‘or o‘quvchilaridan bo‘lib, tinmay o‘rganar, bilimga chanqoq edi.

Bola edik,
Tanlar olov,
Qalb qaynoq,
Ko‘zlar o‘tkir,
Dillar sof,
Erkin-erkin o‘ynardik...
Hayot bilan
Qaynar edi
Kuy qishloq.

Bir yonda tog‘,
Bir yonda bog‘...
Suv oqardi
Qo‘ynida.
Ko‘krak kerib,
Baliq kabi
Sho‘ng‘ib yotardik...
Qizlar o‘tsa
Orqasidan
Olma otardik...

«Bolalik» she’ridan keltirilgan parchadan ham ko‘rinib turibdiki, u yoshligidan sho‘x, ziyrak va nihoyatda harakatchan bola bo‘lgan. Hamid darslarini puxta o‘zlashtirar, maktab hayotiga zavq bilan qatnashar edi. Ayniqsa, maktabning kichkinagina kutubxonasi uning eng sevimli joyi bo‘lgan. Shu qiziqish, shu jo‘shqinlik shoir

hayoti davomida uni tark etmadi. U qisqa, lekin beqiyos sermazmun umr ko‘rdi va butun hayotini xalq, Vatan ishiga fidoyilik namunasini ko‘rsatdi.

Quyida shoirning «O‘rik gullaganda» va «G‘azal» she’rlarini o‘rganasiz.

?

1. Hamid Olimjonning bolaligi haqida, uni she’riyatga oshno etgan omillar haqida gapiring.

2. Mirtemirning shoirga bergan bahosidan kelib chiqib, uning insoniy sifatlari haqida gapiring.

3. Shoirning «Bolalik» she’ri mazmuniga munosabat bildiring, u sizning ham yoshligingiz, shunday emasmi?!

O‘RIK GULLAGANDA

Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

Novdalarni bezab g‘unchalar
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo‘lar takror,
Har bahor ham shunday o‘tadi.
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli deyman va qilmayman g‘ash,
Xayolimni gulga o‘rayman;
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi deya so‘rayman.

Yuzlarimni silab-siypalab,
Baxting bor, deb esadi yellar.
Etgan kabi go‘yo bir talab,
Baxting bor, deb qushlar chiyillar.

Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so‘ylar roz.
Men yurganda bog‘larga to‘lar
Faqat baxtni kuylagan ovoz:

«Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha ol.
Bunda tole har narsadan mo‘l,
To o‘lguncha shu o‘lkada qol.

Umrida hech gul ko‘rmay yig‘lab
O‘tganlarning haqqi ham senda.
Har bahorni yig‘lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda...»

Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

?

1. «O‘rik gullaganda» she’rida ifodalangan shoir kechinmalarining tabiat go‘zalliklariga hamohangligi haqida gapiring.
2. Shoir bahor faslida gullagan o‘rik daraxtini tasvirlashda qanday badiiy vositalardan foydalangan?
3. Shoir inson baxtini nimada deb biladi?
4. She’rda ifodalangan bahor tarovati, unga oshufta shoir holati va uning baxt haqidagi kechinmalarini qanday tushundingiz, fikringizni she’r mazmun-mohiyati bilan bog‘lab gapiring.

G‘AZAL

Na bo‘lg‘ay bir nafas men ham yanog‘ing uzra xol
bo‘lsam,
Labing yaprog‘idin tomgan, ki go‘yo qatra bol bo‘lsam,

Butog‘ingga qo‘nib bulbul kabi xonish qilib tunlar,
O‘pib g‘unchangni ochmoqlikka tong chog‘i shamol
bo‘lsam.

Bo‘yingni[1] tarqatib qilsam olamni mastu mustag‘riq[2],
O‘zimning san’atimga so‘ng o‘zim hayratda lol bo‘lsam.

Sening birla qolib bu mast-u lol olamda men yolg‘iz,
O‘zimni ham topolmay, mayliga oxir xayol bo‘lsam.

Agar bog‘ingda gul bo‘lmoq mening chun noravo bo‘lsa,
Ki ming bor roziman qasringga hattokim duvol bo‘lsam.

Boshim hech chiqmasa mayli malomat birla bo‘htondin,
Raqiblar rashkiga ko‘krak keray, mayli, qamal bo‘lsam.

Kezib sahro-yu vodiylar yetishsam bir visolingga,
Fido jonimni qildim yo‘lingga, mayli uvol bo‘lsam.

?

1. G‘azalda ifodalangan lirik qahramon kechinmalari, beg‘ubor xayollari va armoni haqida fikr bildiring.
2. ***«Bo‘yingni tarqatib qilsam olamni mastu mustag‘riq»*** misrasi orqali shoir nima demoqchi?
3. Yorga bo‘lgan his-tuyg‘u ifodasidagi badiiylikni qanday sharhlash mumkin?
4. G‘azalning oxirgi baytlarida oshiq ishqi qanday tasvirlangan, uning darajasiga qarab lirik qahramon ichki dunyosini tavsiflang.

SAIDA ZUNNUNOVA
(1926–1977)

Taniqli shoira Saida Zunnunova 1926-yil 15-fevralda Andijonda tug‘ildi. 1947–1952-yillarda Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetida o‘qidi. Talabalik yillaridayoq birin-ketin bir qator to‘plamlarini kitobxonlar hukmiga havola qildi. «Qizingiz yozdi» (1948), «Yangi she’rlar» (1950) to‘plamlari shular jumlasidandir. Shundan so‘ng S. Zunnunovaning bir qator she’riy va nasriy

[1] B o ‘ y i n g n i — hidingni, isingni.
[2] M u s t a g ‘ r i q — g‘arq qilish.

asarlari maydonga keldi. Mazkur asarlarida shoira ayolning ma'naviy dunyosi, nazokati, imon-e'tiqodi, iztirob-alamlari, yutuq va quvonchlarini yurakdan kuyladi. Shoira ijodi va insoniy fazilatlari haqida uning umr yo'ldoshi, yozuvchi S. Ahmad shunday yozadi: «Saidaxon ellik bir yil umr ko'rib, birovga bosh egmadi. Imonini mahkam ushladi. O'ziga gard yuqtirmadi. Olamdan halol, pokiza yashab o'tdi. Laganbardorlik, birovga mutelik, hasadgo'ylik unga begona edi.

Kurashsiz, mehnatsiz shodlik, kulgini
O'g'irlik mol deyman, qilaman hazar.
Qalbimning parchasi singmasa agar,
Rozimasman, birov hadya etsa zar.

Bu satrlar Saidaxonning she'rda chizilgan suratiga o'xshaydi...»

Saida Zunnunova ayni ijodiy kamolot yoshida – 1977-yil vafot etdi. Quyida uning 1963–1966-yillar orasida yozilgan «Ruh bilan suhbat» asari bilan tanishasiz. Unda shoira urushning insonlar boshiga solgan adoqsiz kulfat-alamlari va bu anduhlarning bardoshiga, irodasiga zarracha daxl qilolmagan ayolning insoniy fazilatlarini ko'rsatib berolgan.

Bu asar imon-e'tiqodi mustahkam ayollarga bitilgan madhiyadir. Doston urush tufayli ota mehrini ko'rmagan, katta mashaqqatlar bilan o'stirgan o'g'lining nikoh kechasidan keyingi iztirobli xotiralari bilan boshlanadi. Unda ikki kechinma – farzandi kamoli, uning to'yini ko'rganlikdan quvonch va shu kunga yetolmaganlar haqidagi alamli xotiralar kurashadi.

?

1. Shoira ijodining mavzu doirasi haqida gapiring.
2. ***«Kurashsiz, mehnatsiz shodlik, kulgini O'g'irlik mol deyman, qilaman hazar»*** misralari orqali shoiraning tabiatining qaysi jihatlari namoyon bo'ladi?
3. «Ruh bilan suhbat» asarining mazmun-mohiyati nima haqida?

RUH BILAN SUHBAT

(Doston)

Odamlar tarqagan allaqachonlar,
To‘yxonaga ham hukmin o‘tkazgandi tun.
O‘choqda kul bosgan cho‘g‘lar miltillar,
Samovardan hamon o‘rmalar tutun.
Mashshoqlar o‘tirgan so‘ri ham bo‘m-bo‘sh,
Tuproqda eng so‘nggi raqqosa izi.
Birov karavatda uxlaydi pish-pish,
Birov muzdek suvga chayadi yuzin.
Faqat uyqu kelmas ona ko‘ziga,
Shodlig-u xotira qalbini qamrab,
Behush ergashtirib uni izidan
O‘tqizmay, yotqizmay yurardi sudrab...
Guldasta qo‘lida, ma’yus va sokin
Asta kirib keldi jimjit uyiga.
To‘rdagi suratning yoniga sekin
Qo‘ydi-yu, sho‘ng‘idi yana o‘yiga.
– Sarupo kiymading qaynata bo‘lib,
Hech yo‘qsa gullardan bo‘lgin bahramand,
Odam keldi bugun hovlingga to‘lib,
Farzanding yoniga qo‘shildi farzand...
Shodlik, o‘kinchdanmi, ko‘z yoshlar oqdi,
Ona qalbi so‘zsiz chekardi fig‘on.
Xira ko‘zlar bilan yana suratga boqdi,
U hamon o‘shanday, sukutda hamon.
– Suratda hali ham o‘sha-o‘shasan,
Hamon ko‘zlaringda yoshlik, kulgi, nur,
Hali ham o‘shanday chiroyli, yoshsan,
Hali ham o‘shanday zabardast, mag‘rur.
Boqishing hali ham o‘shanday iliq,
Dilingda nelar bor – aytmaysan faqat.
Qatra ko‘z yoshimga turolmasding tek,
Nega indamaysan, oh surat, surat!
Bir nafas tilga kir, mayli bir sekund,
Daryo bo‘lib oqqan yoshlarim haqqi.
Kuyingda ming toshga urilsa hamki,
Ming toshdan qattiqroq boshlarim haqqi,

Bir nafas tilga kir, mayli bir sekund,
Hayotni yaratgan tabiat nahot
Bir damni ayasa, nomardlik qilsa,
Tan olmayman unda oy, quyoshini,
Nimalar deyapman, bilmayman hayhot!
Seni izlayverib, holdan toydim men,
Seni izlayverib qarib qoldim men.
Poyezdlardan o‘tib, yellardan o‘zdim,
Ammo visolingga yetolmadim men.
Xayolim izlashdan, ko‘nglim bo‘zlashdan,
Seni axtarishdan sira tolmadim.
Daryolarni kechib, tog‘lardan oshdim,
Kuygan bug‘doyzorlar, bog‘lar qolmadi.
Oxiri oq qayin ostida tanho
Turgan qabr uzra asta cho‘kdim tiz.
Bu sen bo‘lmasang ham taqdiring bir, o,
Balki bu yoshgina yigitdir, essiz!
Muzdek tuprog‘ingni ming marta quchdim,
Muzdek yonog‘ingni o‘pdim necha bor.
Daryo bo‘lib oqdim, qush bo‘lib uchdim,
Huzuringga chopdim takror va takror.
Qishda kuragani bordim qorlarni,
Yozda suv sepgani oshiqdim har vaqt.
Bahor oftobiga chirmashib doim
Gohi gul o‘tqazdim, gohida baland.
Bir nafas qo‘ymadim men seni yolg‘iz,
Bir dam tanholikka tashlaganim yo‘q.
Seni yiqitgan o‘q mening tanamda
Butun jarohati bilan turibdi shundoq.
Joningga jonimni ulab ming o‘ldim,
Azizim, oqargan sochlarimga boq.
Gapir, gapirsang-chi, bir so‘z loaqal,
Yuzimni kuydirgan yoshlarim haqqi.
Ko‘yingda ming toshga urilsa hamki,
Toshlardan qattiqroq boshlarim haqqi.
Gapir, gapirsang-chi bir so‘z loaqal...
Siyrak kipriklar jipslashdi bir dam,
Entikib, xo‘rsinib ko‘z yoshin yutdi.

Unsiz tilga kirdi surat ham birdan,
Ona quloq bo‘lib o‘zin unutdi.
Surat:
Yig‘lama, azizim, yig‘lama faqat,
Ko‘z yoshingni ko‘rsam dilim kuyadi.
Yig‘lasang hali ham qilmasman toqat,
O‘tmas pichoq bilan kimdir so‘yadi.
To‘lg‘anaman, ammo yeta olmayman,
Ko‘zyoshingni, erkam, arta olmayman.
Tabiatdan sira-sira nolima,
Uning o‘zi kutar insondan ehson...
Ona:
Qo‘y, buni eslatma, eslatma sira,
O‘g‘limning baxtiday yuray xotirjam.
Ko‘nglim oynasini aylama xira,
Biroq tinch emasman, notinchman, ajab...
Sen boshqa damlarni eslat, azizim,
Birga yurganimiz xushvaqt onlarni,
Esingdami bahor, bog‘imiz bizning,
To‘yimizga kelgan qadrdonlar-chi?
Shuncha yil o‘tibdi nafasday, suvday.
Surat:
Bir zarbda yozilgan dostonday shirin.
Ona:
Yigit eding o‘shanda xuddi suqsurday.
Surat:
Sen ham go‘zal eding misoli Shirin,
Ko‘nglimni yashnatgan bir chechak eding.
Ona:
Na uyquga to‘ygan va na kulguga,
Ko‘rsa ko‘z kuygudek kelinchak edim.
Birovning qayg‘usi yig‘latar edi,
Agar qo‘shiq aytsa birga kuylar edim.
Hayotga ba’zida o‘lmaslik uchun
Kelganday bo‘lardim, shunday o‘ylardim.
Baxtimning poyoni, cheki yo‘q edi,
Bu shaydo yuragim har narsadan lol.
Ishqingdan shunchalar ko‘nglim to‘q edi,
Undan ayrilishni qilmabman xayol...

?

1. O‘g‘lining to‘yi munosabati bilan qalbida kechgan armon va kechinmalar haqida fikr bildiring.

2. Shoira dostonda urush tufayli ona qalbida kechgan iztiroblarni qanday tasvirlaydi?

3. Urush yillari kechirgan mashaqqatlari va ularni qanday yengganligiga qarab ona timsoliga tavsif bering.

4. Farzandining baxti tufayli ona qalbida kechgan shukronalik va bu kunga yetmaganlar xotirasi sababli yuragiga cho‘kkan g‘am-anduh, armon haqida gapiring.

* * *

Esimda, kuz edi, meva g‘arq pishgan...
O‘g‘ling yotar edi belanchagida.
Eslasam yuragim eziladi, uh,
Hammasi ko‘zimda, ha, kechagidek.
Uylar huvilladi, ko‘nglimiz vayron,
Qaynana-kelin jim, sukutda qoldik.
To‘rt o‘g‘il o‘stirgan onang ham hayron,
Soatlab bechora o‘tirardi tek.
Akang ketgan edi, ukang ham ketdi,
Behassa bukridek qoldi egilib.
Bu kunni ko‘rguncha ming rozi edim,
Kimdir badanimga tuz sepsa tilib.
Tug‘ib tug‘magandek firoqda g‘amda
Olamdan ko‘z yumdi onajoning.
Sira chidolmadim bu ayriliqqa,
Dod dedim, zirqirab turardi uylar.
Qarg‘adim taqdirni yuzma-yuz tikka,
Sho‘rlik qilsam derdi nabira to‘ylar.
Urf-odatni ham o‘sha kun buzdim,
Xotinlikni yig‘ib otdim bir yoqqa.
Tobutin bir boshin ko‘tardim o‘zim,
Odamlar goh koyib, goh tutdi yoqa.
O‘g‘lim yo‘q deb yana o‘ksima, ona,
Sen ham armon qilma bag‘rim, azizim,
So‘nggi yo‘lga uni kuzatmadim deb.
Tashlab ketgan eding menga o‘z izming,

Men ham bitta joning, bir parchang edim.
Tunlari koyidim taqdirni bedor,
Nechun bizda shuncha achchiq o‘chi bor!
Surat:
Qismatda ne gunoh, o‘ylabsan xato,
Bu – ojiz va mute odamlar so‘zi.
Taqdirning o‘zi ham alamda hatto,
Qora qilganlar bor taqdirning yuzin.
Ona:
Ha, buni bilardim, qismatdan o‘zga
Kimni ham bo‘g‘ardim o‘sha damlarda...
Oh, bizning odamlar, dilkash odamlar...
Kulgim, yig‘imni ham birga bo‘lishdi.
Ular ko‘magida joylandim ishga,
Ular ko‘magida aqlim to‘lishdi,
Olisdan o‘t ochdim yovga, urushga...
O‘g‘ling o‘sar edi «dada», «dada», deb
Talpinib qolganda suratingga goh,
Men esa o‘kinchdan ich-etimni yeb,
Xo‘rsinib ko‘ksimga bosardim, evoh!
Entikib o‘pardim sochi, yuzidan,
Bag‘rin to‘latmoqni qilardim xayol.
Baribir qolardi go‘dak ko‘zida
Bir ko‘ngli yarimlik, bir mungli savol.
Yo‘q, sen bilmaysan, bu murg‘ak, ojiz
Dilga javob izlab bo‘lmagansan lol.
Jigarim otashga tegardi jiz-jiz,
Sochlarim oqargan shunda, ehtimol.
Surat:
Bu ko‘zlar hasratin, oh, mendan so‘ra,
Suyagimdan hamon chiqib ketar dud.
Jazavaga tushib ruhim yugurar,
Qotgan tillarim ham qilolmas sukut.
Yetimlik nima gap, shu murg‘ak jonlar
Ko‘ksiga beayov otishgan-ku o‘q.
(Joningdan aylanay, oh, bolajonlar,
Unutib bo‘larmi u kunlarni? Yo‘q!)
O‘ziga niqtalgan to‘pponchani ham
O‘yinchoq deb bilgan mitti qo‘lchalar
Shalpayib turganda qandayin alam.

Ayt-chi, bu alamlar qanday o‘lchanar?
Murda ko‘kragini beparvo so‘rib,
Ingragan go‘dakni ko‘rganmisan hech?!
Ona:
Bas, bo‘ldi, rahm qil holimni ko‘rib,
Hatto tinglashga ham yetmaydi kuchim.
Surat:
O‘zing gap boshlading, endi quloq sol,
Hali tug‘ilmagan nabirang uchun
U kunni unutma, doim esga ol,
Haqqing yo‘q beparvo bo‘lishga bir dam.
Hech kimning haqqi yo‘q. Tingla, quloq ber,
Ovoz kelyaptimi olisdan, yerdan?
Ona:
Sezyapman, nahotki tilga kirdi yer?!
Surat:
Bu bizmiz, azizim, qo‘l ushlashib bot
Chirmashib yotibmiz ona tuproqqa.
Ona:
Voy-bu, shuncha ko‘pmisiz nahot,
Shovqin eshityapman yaqin-yiroqdan.
Surat:
Tiriklardan ko‘ra balki ko‘proqmiz,
Tiriklardan ko‘ra ham inoqroqmiz.
Erining izidan quvg‘inda yurib
Hormagan ajoyib ayollar shunda.
Partizan yashirgan ona-yu o‘g‘il
Hatto o‘zimizning mard Ostonaqul,
Fashistni titratgan Rahimovgacha,
To‘ychi Eryigitov, Hakimovgacha –
Hammamiz shu yerda o‘q tomir bo‘lib
Yerni yelkamizda tutib yotibmiz...
Ona:
Sizlar bosh qo‘ygan bu ulug‘ tuproqni
Xo‘rlasak va yoki bersak birovga
Bo‘lganimiz yaxshi o‘zimiz ham xok.
O‘liklar quchoqlab yotsa-yu mahkam,
Nahotki tiriklar turadi loqayd?
Unaqa tiriklik nimaga malham,

Unaqa tiriklik kimga kerak, ayt!
Onalar nomidan so‘zlayapman men,
Ayol qudratiga kim keltirar shak...
Hayot yaratmoqqa yaralganmiz biz,
Yaratish toptashdan mushkul hamisha.
Shundan bilsa bo‘lur qudratimizni –
Mas’ulmiz olamning hamma ishiga.
Farzand nafasidek shirin narsani
Yaralgandan beri bilmaydi odam.
Mana, dimog‘imda hamon nafasi,
Hatto kuyov bo‘lib qolsa ham bolam.
Surat:
Qaynona bo‘ldim de?
Ona:
Shundoq, dadasi.
Kelinimni ko‘rsang qilguday ko‘z-ko‘z.
Surat:
Sochlari uzunmi, qanaqa esi?
Ona:
Hammasi joyida – kamsuxan, kamso‘z.
Surat:
O‘g‘lim-chi? Qadriga yetadimi u?
Ona:
Albatta. Bo‘y-basti quyganday o‘zing.
Surat:
Qara, tong otyapti, bermadim uyqu,
Charchading chamamda, qizargan ko‘zing.
Ona:
Sira unday dema, tirik bo‘lsang ham,
Baribir shu kecha uxlolmas edik.
Surat:
Yorug‘ tushib qoldi, hovliga qara,
Hali ham kech emas, mizg‘ib ol jindek.

Nurga o‘ralganday yashnab, yarqirab,
Kelini jilmayib turar ko‘zida.
Oyi, deb ilk marta chaqirar uni,
Choyga taklif etar e’zozlab balki,
Lekin ona qalbin, shu bedor tunni,
Shu kungi suhbatni u bilarmikin?..

?

1. Asarda to‘rt o‘g‘il o‘stirib, rohat ko‘rmay ulardan ayrilgan ona holati qanday tasvirlangan?

2. Asarda onasidan ayrilgan go‘daklar holati tasviriga tayanib, urushning dahshatlari xususida fikr bildiring.

3. Onaning ruh bilan suhbatiga asoslanib, Ona va uning umr yo‘ldoshi timsoliga tavsif bering.

4. ***«Hammamiz shu yerda o‘q tomir bo‘lib, Yerni yelkamizda tutib yotibmiz...»*** misralarining ma’nosini izohlang.

5. Siz nima deb o‘ylaysiz, dunyodan ko‘z yumganlar bilan ruhan suhbatlashish mumkinmi? Shu mavzuda asarga asoslanib, bahs-munozara yuriting.

6. Sabr-toqat, matonat timsoli bo‘lgan Ona haqida ijodiy matn tuzing.

ERKIN VOHIDOV

(1936-yilda tug‘ilgan)

Erkin Vohidov 1936-yili Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanida o‘qituvchi oilasida tug‘ilgan. Uning otasi Oltiariqning o‘qimishli, obro‘li odamlaridan bo‘lib, dilkash, so‘zga chechan kishi bo‘lgan. Erkin Vohidov urush tufayli otasidan barvaqt judo bo‘lgach, 1945-yilda onasi bilan Toshkentga keladi. Shoir o‘sha davr qiyinchiliklarini shunday eslaydi: «Otam frontda ekanida onam qishloq kengashida kotiba bo‘lib ishlar, qiyinchilik bilan kun kechirar edik. Jo‘xori poyasini shimib tilimni qonatganim, bolalarga qo‘shilib kunjara yeganim uchun onam yuzimga shapaloq urgani va o‘zi kechgacha yig‘laganini unutmayman».

E. Vohidovning dastlabki she’ri «Mushtum» jurnalida, u 7-sinfda o‘qiyotgan davrida chop etilgan. Lirik shoir mumtoz adabiyot janrida go‘zal, betakror g‘azallar bitdi. Shunga qaramay kitobxonlaridan «Kulmangiz ne bor deb senga, Mir Alisher yonida» deya kamtarona o‘tinch qildi. G‘azallarini «Yoshlik devoni»ga jamladi. Bu haqda xalq shoiri A. Oripov shunday yozadi: «Yoshlik devoni»ni o‘qir ekansiz, shoir qalbidan sizib chiqayotgan ma’sum

tuyg‘ular go‘yo sirli, sehrli so‘zlarga aylanadi. Shoir ukparday mayin bu so‘zlarni to‘zg‘itib o‘ynaydi-yu, ulardan go‘zal, o‘ynoqi ohanglar yaratadi, so‘ngra esa ular asta o‘rni-o‘rniga tushadi, xuddi dastgohdan chiqayotganday, quyma, betakror satrlar paydo bo‘layotganday taassurot qoldiradi kishida:

Tun bilan yig‘labdi bulbul,
G‘uncha hajri dog‘ida.
Ko‘z yoshi shabnam bo‘lib
Qolmish uning yaprog‘ida.

Ona tilimizdagi ipakdek mayin, kamalakdek rangbarang, g‘oyat nozik lutf, beozor qochirimlar, goh hazin, goh samimiy tabassum uyg‘otuvchi tashbehlar, o‘tkir xulosalar – bular bari ulkan shoirimiz qalamiga mansub betakror fazilatlardir».

Erkin Vohidovning hassos shoir bo‘lib kamolga yetishuvida G‘ayratiy rahbarligidagi adabiyot to‘garagi hamda tog‘asi xonadonida bo‘lib turadigan adabiy suhbatlar katta ahamiyat kasb etdi. Bu haqda shoir shunday eslaydi: «Tog‘am kasbi yurist bo‘lsa ham adabiyot va san’atga qiziqqan, she’riyatni nozik tushunadigan kishi edi.

Uyimizga tez-tez kelib turadigan shoir Chustiy, xonandalar – aka-uka Shojalilovlar, Ma’rufxo‘ja Bahodirov, buyuk olim va tarjimon Alixon Sog‘uniy, oddiy pochta xizmatchisi Mulla Shukurjon, savdo xodimi Akmalxon akalarning zukko bahslariga mahliyo bo‘lib o‘tirardim. Ular Hofiz, Navoiy, Bedil, Fuzuliy baytlarini tahlil qilib, har birlari o‘zlaricha talqin qilishardi. Bu suhbatlar ichkiliksiz, faqat she’r va qo‘shiq kayfi bilan, askiya zavqi bilan muzayyan bo‘lardi».

Erkin Vohidov qizg‘in ijod bilan birga «Yosh gvardiya», G‘afur G‘ulom nomli nashriyotlarda muharrir, «Yoshlik» jurnalida bosh muharrir lavozimlarida ishladi. I. Gyote, S. Yesenin, L. Ukrainka, M. Svetlov asarlaridan

qilgan tarjimalari, sahna uchun yaratgan asarlari, ayniqsa, «Oltin devor» komediyasi adibga katta obro‘ va shuhrat keltirdi.

2000-yilda E. Vohidov ellik yillik ijod mahsulini saralab, to‘rt kitob tartib etdi: «Ishq savdosi» (o‘smirlik va yoshlik asarlari), «She’r dunyosi» (o‘rta yoshda bitilgan asarlar), «Umr daryosi» (ellik yoshdan keyingi bitiklar), «Ko‘ngil nidosi» (turli yillarda yozilgan risola, badiiy lavha va tahlillar).

E. Vohidov samarali mehnatlari uchun hukumatning bir qator mukofotlariga sazovor bo‘lgan. U O‘zbekiston Xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramonidir.

Uning sizga taqdim etilayotgan «Ruhlar isyoni» dostoni XX asr adabiyotining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. «Doston o‘zining isyonkor she’rlari bilan butun Hindistonni erk uchun, ozodlik uchun kurashga ruhlantirgan otashin bengal shoirining orzu-armonlari, jasorati, fojiaviy qismati haqida. «Ruhlar isyoni» garchi Nazrul Islom haqida bo‘lsa-da, unda men shoir hayoti bahonasida o‘zimning umuman shoirlik, insonlik, fidoyilik, erkka tashna ijod ahlining zamonasi, xalqi bilan murakkab munosabati, qolaversa, inson hayotining ma’nosi, hayotning ham shafqatsiz, ham adolatli haqiqati haqidagi o‘y-mulohazalarimni kitobxon bilan baham ko‘rishga intildim», – deydi E. Vohidov dostonning yaratilishi to‘g‘risida.

?

1. E. Vohidov she’rlarining o‘ziga xos jihatlarini yod olgan she’rlaringiz misolida izohlab bering.

2. Odamning shakllanishida uning hayotidagi voqea-hodisalarning, oilaviy muhit va sharoitning ahamiyati haqida mulohaza yuriting.

3. Shoirning doston haqidagi fikrlarini tahlil qiling. Mag‘zini chaqing. Shunga asoslanib uning shaxsiga munosabat bildiring.

RUHLAR ISYONI

(Dostondan parcha)

M u q a d d i m a

Tug‘ilgansan ozod, mudom
Ozod bo‘lib qol!

Nazrul Islom

Bu dunyoning
Quvonchi kam,
Dard-u g‘ami —
ziyoda...
G‘alayon.
Kalkutta, 1926-yil.

Kalkuttani
Quchdi g‘ulu,
Bosh ko‘tardi
olomon.
Qutlug‘ jang,
deb turdi hindu,
G‘azot,
dedi
musulmon.
Barahmanlar
dovul qoqdi,
Fatvo berdi
Imomlar.
Ko‘cha to‘lib
qonlar oqdi
To‘qnashganda imonlar.
Farzandidan ona ayru,
Otasidan –
qiz, o‘g‘lon,
Budda haqqi,
Bos,
der hindu,
Alqasos, der
musulmon.
Hindu ishi tahqir bo‘ldi,
Muslim ishi —
tahdidlar.
Butxonalar vayron bo‘ldi,
Yakson bo‘ldi
Masjidlar.
Rikshami bu,
sohibmi bu,
Gadomi yo zodagon —
Farqsiz.
Faqat —
Bir yon hindu,
Bir yon esa —
musulmon.
Sirtga chiqdi
Asrlik kin
Va ming yillik
kudurat.
Ikki jondosh el aro din
Yana soldi adovat.
Aslida-ku
Hayot og‘u,
Turmush o‘zi —
zimiston.
Aybdor emas
bunga hindu,
Gunohkormas musulmon.

Aslida-ku...
Beiztirob
Ho‘plab qora qahvoni,
Derazadan
oq tan janob
Kuzatar mojaroni.
U ko‘p xursand,
Labda kulgu,
Ko‘zi chaqnar
komiron.
Musulmonni so‘kar hindu,
Hindni esa
musulmon.
Janob shodon,
Ushalmoqda
Niyatining eng ulug‘i.
Hosil bo‘ldi shu tuproqda
Ekkan nifoq urug‘i.
Bo‘lmasin, deb qilar orzu,
Bu nizoga hech poyon.
Mayli,
Ko‘proq o‘lsin hindu,
Ko‘p qirilsin
musulmon.
Nazrul
Johil olomonga
Qaradi-yu
oh chekib —
O‘zni otdi tik maydonga
Yoqasini chok etib.
Faryod qildi:
«Ne vahshat bu,
Bas, xaloyiq!
Al omon!
Qotillikni to‘xtat,
hindu,
G‘azotni qo‘y,
musulmon!
Hind, musulmon —
Birodarmiz,
Farzand Odam Atoga!
Haq oldida
barobarmiz,
Ayting,
Ne bor nizoga!
Xunrezlik qil demagan-ku
Na Veda-yu
Na Qur’on!
Tig‘ uradi
nega hindu,
Bosh kesadi musulmon?
Farq —
kim mehrob,
kimsa butga
Sig‘inib bosh qo‘yadir.
Shu farq uchun
Yoqib o‘tga
El bir-birin so‘yadir.
Bas, endikim,
Jangni qo‘ying,
odamlar!
Sizning asli yovingiz
kim —
Bilib qo‘ying,
Odamlar!
Ular
Uzoq yurtdan kelib,
Yerga bukib shonimiz,
Bizni bizga
dushman qilib,
So‘rmoqdalar qonimiz.
Bosqinchining
Qadimdanoq
Falsafasi ayondir.
El ichida
bo‘lsa nifoq,

Demak,
zolim omondir.
Ular
Mazlum vatanida
Bo‘lmasin der
sobitlar.
Jaholatning gulxanida
Isinadi zobitlar.
Eldan omad ketsa
Dastlab
Hamjihatlik yo‘qolgay.
Bunda elni
Sirtmoq tashlab,
Har bosqinchi yo‘qolgay.
Bu adovat
Nahot mangu?
Nahot bitmas
bu qiron?
Do‘st bo‘lolmas
Nahot,
hindu —
Jigariga
musulmon?
Sen hindmisan,
Muslimmi yo
Birlik chog‘i
bu choqdir.
Bosqinchini,
eng avvalo,
Hind bahriga uloqtir.
So‘ng ushalgay
Barcha orzu,
Yashar ozod, tinch, omon.
Vataniga ega hindu,
Yurtida bek —
musulmon...»

* * *

Alangali
bu nolaga
Quloq tutdi
Hindiston.
Keksa Thokur
shukr aytdi shod,
Oq soqolin siladi.
Yosh shoirga
Nurli ijod,
Bezavollik tiladi.
Bu dunyoga
Nazrul ammo
Olov bo‘lib kelgandi.
O‘z o‘tida yonib ado —
Bo‘lishini bilgandi.
Asroldi
na xalq, na Thokur,
U sig‘madi zamonga.
Isyonkorlik
Uni oxir
Olib keldi
zindonga.

* * *

Nazrul Islom bo‘ldi
mahbus,
Tunda uydan oldilar.
El ko‘zidan uzoq, maxsus
Bir xonaga soldilar.
Ishi qiziq bu jahonning,
Hakamlar hukm etdilar:
Shoirni ul g‘alayonning

Sababkori, dedilar.
Aybnomani tinglang,
hatto —
Faryod qilar toshlar ham,
«Hindu bilan muslim aro
Qutqu solgan – shul
odam!»
Olis yurtdan kelgan birov
Ayb qo‘ydi beandisha!
«Nazrul Islom —
Xalqiga yov,
Nifoq istar hamisha».
Bu dunyoda
bor qabohat,
Bu dunyoda
bor yolg‘on.
Ammo bunday
oshkor tuhmat
Bo‘lmagandi hech qachon.
Nazrul Islom
nomi oxir
Ming baloga taqaldi.
El uchun
Jon tikkan shoir
El dushmani
ataldi.

Hukm o‘qildi:
Bosh egib u
Asta borar hibs tomon.
Ajab!
Soqchi – bir yon hindu,
Bir yon esa musulmon.
Uni turtar
musulmon ham,
Siltaydi hind havodor.
– Qirpichoqda o‘ldi
akam,
Senda ekan ayb,
murdor!
– Ko‘p azoblar chekdi
hindu,
Ko‘p qon to‘kdi
musulmon.
Sen kabilar yo‘qolsa-ku,
Yashar edik
Tinch, omon...
Asta qadam tashlar
Nazrul,
O‘ylaridan ogoh yo‘q.
Soqchilardan
ranjimas ul,
Jaholatda gunoh yo‘q.

Jaholat to‘g‘risida rivoyat

Alqissakim,
Juda qadim
Jaholatlik zamonda,
Bir donishmand
ulug‘ hakim
O‘tgan ekan jahonda.
U kun bo‘yi
Giyoh terib
Kezib tog‘-u biyobon,
Odamlarga shifo berib
Yashar ekan
Shodumon.
Unga
Ming bir mushkul
dardning
Ayon bo‘lib davosi,
Bora-bora
Odamlarning
Ortaverdi ixlosi.
Tabobatga

Qalban, ruhan
Fido qilib o‘zini,
Hatto bir kun
Nashtar bilan
Ochmish ko‘rning ko‘zini.
Rivoj topmish
Sohib hikmat,
Donish,
mehnat madadkor,
Ammo
Qayda bo‘lsa shuhrat,
Yonboshida
Hasad bor.
Duoxonlar, parixonlar,
O‘quvchilar chilyosin...
Xullas,
Yurtda bor nodonlar
Boshladilar ig‘vosin.
Tinmay
Kecha-yu kunduzi
Topib Nabi so‘zidan.
Dedilar:
«Dard bergan —
O‘zi!
Davosi ham
O‘zidan!
Bandasiga bermak doru
Yaratganga isyondur.
Demak,
Hakim ishi makr-u,
Uning o‘zi
Shaytondir».
Bu so‘zlarni
chin deb bildi
Nodon, johil olomon.
Donishmandni sazo qildi,
Kaltakladi
beomon.
Cho‘g‘ temirda
Ko‘ksin dog‘lab,
Dorga osmoq bo‘ldilar.
So‘ng bo‘yniga xarsang
bog‘lab
Suvga bosmoq bo‘ldilar.
Keyin
Suvni, arqonni ham
Hayf bildilar
«shayton»ga.
«Yoqing, – dedi
Eng bosh hakam, —
Olib chiqib maydonga!»
Keng maydonga
Ko‘mib ustun,
Bog‘ladilar hakimni,
So‘ng temirni o‘tga qo‘yib,
Dog‘ladilar hakimni.
Buyurdilar:
«Yoqing shitob,
Azozilning oshnasin.
Kerak bo‘lsa
Kimga savob,
Cho‘p keltirib tashlasin».
Savob uchun
Birov o‘tin.
Birov tashlar dona xas.
Hakim
Boshin baland tutib
Johil elga qaramas.
Bir payt
Gulxan sari bir chol
Asta kela boshladi.
Quchog‘ida bir
bog‘ poxol,
G‘aram uzra tashladi.
Dedi:
«Asli tug‘ilgandan

Basir edim men o‘zim.
Sen
joduning tig‘i bilan
Ochib qo‘yding
ko‘r ko‘zim.
Yaratgan ko‘r,
Davo qilding ne uchun?
So‘roqda men —
manglayi sho‘r —
Nima deyman
Mahshar kun?
Haq yo‘lidan ozgan odam,
Ko‘zim ochib
ne berding?
Meni bir yo‘l
U dunyo
ham –
Bu dunyodan ayirding.
Ko‘rligimda
Bu olamni
Tasavvurda ko‘rardim.
Dunyodagi bor odamni
Mushfiq bilib yurardim.
Shafqat ila
Kim non-u kim
Chaqa tashlab ketardi.
Men ham
shunga ko‘ngan edim,
Menga shu ham yetardi.
Qornim to‘ysa —
saodatim,
Yo‘q tuman xil tilaklar.
Hamsuhbatim,
Ham ulfatim
Jajji shirin go‘daklar...
O‘ylar edim:
Dunyoda bor
Musaffolik, soddalik.
Ko‘zim ochib
Ko‘rdim ilk bor
Berahmlik,
Soxtalik.
O‘g‘rilig-u fahshni ko‘rib,
Jim yurarkan odamlar.
O‘z do‘stiga
Kulib turib,
Tig‘ urarkan odamlar.
Bir yonda aysh
Ko‘kka chirmash,
Bir yonda boq
oh-u voh...
Bukun mening
ko‘nglimda g‘ash,
Imonimda — ishtiboh.
Derdim:
Yurtni bir bor ko‘rsam.
Ko‘rdim,
Orzum to‘q endi.
Yo‘lda yotgan
ko‘rchalik ham
E’tiborim yo‘q endi.
Bu dunyodan to‘ydim oxir,
Ado bo‘lsam mayliga.
Yo qaytadan
O‘sha basir
Gado bo‘lsam mayliga!»
Bu so‘zlarni
Eshitdi-yu
Faryod qildi donishmand.
«Yoqing, —
deya so‘radi u, —
Olov bo‘lsin sarbaland.
Tezroq ketay
Bu dunyodan,
Hech toqatim qolmadi.

Mendan
shifo oldi
odam,
Olam —
shifo olmadi.
Xurofotning zahri tekkan
Nodon,
johil,
gumrohlar —
Davosiga ojiz ekan
Men kashf etgan
giyohlar.
Ko‘r ko‘zlarga
Mehrigiyodek
Nur baxsh etdi
nashtarim.
Qalblar ko‘zin
ochmoqqa lek
Kamlik qildi
Hunarim.
Odamlarga men
Yaxshilik —
Qilmoq bo‘ldim,
Netayin,
Manglayda
shu ekan
bitik,
Yoqing,
Kuyib ketayin!»
O‘t qo‘ydilar.
Yondi gulxan.
Qaro bo‘ldi samovot.
Jaholatning hukmi bilan
Qurbon bo‘ldi
Buyuk zot.
Gulxan yondi
Ko‘kka o‘rlab.
Cho‘g‘i har yon sochildi.
Shu olovdan
Elning, ajab,
Aql ko‘zi ochildi.
O‘kindilar.
Aza tutib
Yig‘ladilar, kuydilar.
Donishmandga
Yillar o‘tib
Oltin haykal qo‘ydilar.
E voh,
Olim ko‘zi bilan
Ko‘rsaydi bu
hurmatni,
Ammo
Hakim o‘zi bilan
Olib ketdi hikmatni.

Shohi Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat

Podsho odil bo‘lmas,
degan
Haqiqat bor –
O‘ylaylik.
Keling,
shohlar zolim ekan
Bizlar odil bo‘laylik...
Tarix ko‘p yil tahqir bitar
Chingiz kabi jobirga.
Ammo
mangu ta’zim etar
Ulug‘bekka, Boburga.
Xullas...
Taxmin Mirzo Bedil
Tirikligi vaqtida
Shohi Jahon o‘ttiz bir yil

O‘ltirdi Hind taxtida.
Neki qildi –
Haq deb bildi,
Bildi shuni adolat.
Kimlargadir zulm qildi,
Kimlargadir –
saxovat.
O‘z davrida
davron surdi,
Yodlasin deb asrlar –
Necha-necha shahar qurdi,
Shahar ichra qasrlar...
Shohi Jahon
jasur, dono,
Ko‘p hikmatga yor edi.
Shohning ammo
Bir bedavo
Og‘ir dardi bor edi.
Shoh ko‘ngliga
Goh cho‘kib g‘am,
Qaro edi olami.
Bu g‘am na mulk,
na dardi shon,
Na farzand,
na ishq dog‘i.
Nomsiz g‘amki,
kelar oson,
Qiyin edi ketmog‘i.
Bunday chog‘lar orom
berur
Na sayr-u, na sayohat.
Ko‘zlaridan qochardi nur,
Yuragidan halovat.
Ulug‘ podshoh
go‘shasidan
Chiqmas edi haftalab.
Ko‘z yosh yuvar yuzlarini,
Ko‘ngli to‘la tahlika...
Shunda
uning so‘zlarini
Tinglar edi malika.
Aytar edi shoh o‘z dardin
Mumtoz Mahal xonimga:
«To‘ydim toj-taxt,
Mulk – baridan,
Bari tegdi jonimga.
Bu davlat,
Bu shon-u shavkat
Omonatga o‘xshaydi...
Bo‘lmay turib
Bir falokat
Yo bir fitna qurboni,
Tark etsaydim
Bexosiyat,
Bevafo bu dunyoni».
Shunda
Go‘zal Mumtoz Mahal
Tinglab shohning zorini,
O‘qib har gal
Bitta g‘azal
Ovutardi yorini...
O‘qir edi:
Odamki bor,
O‘tmog‘i bor jahondan.
Faqat ezgu ishlar yodgor
Qolg‘usidir insondan.
Yuragiga shohning
qanot –
Berar edi g‘azallar.
Qanot nadir –
Qayta hayot
Berar edi g‘azallar.
Lekin shohning
Qay gunohi,
Qay zulmiga intiqom –

Bir tong
ko‘kka chiqdi ohi,
Qo‘ldan tushib sindi jom.
Voh,
hech kimga
yo‘qdir omon,
Yo‘qdir omon ajaldan.
Judo bo‘ldi Shohi Jahon –
Qalbi Mumtoz Mahaldan.
Devonaga aylandi shoh,
Dardin elga so‘zladi.
Majruh qushdek
To‘lg‘andi goh,
Goh bo‘tadek bo‘zladi...
Kunlar o‘tib
Shohi Jahon,
Tengsiz hajr azobida
Qurmoq uchun berdi
farmon
Malikaga obida,
Dedi:
«Tiklang shunday saroy,
Zarni qilmang hech hisob.
Havas qilsin kechalar oy,
Kunduzlari – oftob.
Yer yuzida uning aslo
Barobari bo‘lmasin.
Mumtoz Mahal nomi dunyo
Turgunicha o‘lmasin».

Ishga tushdi
Sonsiz asir, me’mor,
naqqosh,
sangtarosh,
Zanji qullar og‘och tashir,
Fillar tashir xarsangtosh.
Yigirma yil
Yigirma ming
Jon jabridan bir amal –
Mo‘jizasi bu olamning
Bino bo‘ldi
Toj Mahal.
Yigirma yil ...
Vaqt – beshafqat.
Ko‘pni ko‘rib dunyoda
Shoh qaridi,
Lek alpqomat
Yigit bo‘ldi shahzoda.
Tilak qildi
Shohi Jahon:
«O‘g‘lim faqat shod
bo‘lsin.
Mendagi bul dardi hijron,
Hasratlarga yot bo‘lsin».
Oshno qildi
o‘yin, kulgu
Ovga, cholg‘u, san’atga.
Xayolotni qildi mamnun,
O‘rgatdi shavq, g‘ayratga.
Yovqur,
jasur,
har bir ishga
Qodir qilib o‘stirdi...
Lek, rahmat, deb
Darslar uchun,
Mana harbiy nayrang deb,
Otasiga qarshi bir kun
Isyon qildi Avrangzeb.
Shoh qo‘lida qilich sindi,
Nihoya yo‘q armonga.
Ota o‘g‘il taxtga mindi,
Ota tushdi zindonga.
Demang,
Bular rivoyatdir –
Xayolotda yetilgan.
Bu shafqatsiz haqiqatdir,

Tarixlarda bitilgan...
Vaqt yetib
Ming oltmish to‘qqiz
Yilning sha’bon oyiga,
Cho‘ktirdilar otani tiz
O‘z farzandi poyiga.

Avrangzeb:

Taqdir ekan,
Ne dey o‘zga.
Falak hukmi adolat.

Shohi Jahon:

Bas,
Hojat yo‘q ortiq so‘zga,
Sodir bo‘ldi xiyonat.
Ters aylandi garduni dun,
So‘zla,
nedir muroding?
Hukm – sening hukming
bu kun,
Vojib – sening irodang.

Avrangzeb:

Alamingga nihoya yo‘q,
Ne taxtparast odamsan.
Sen shoh,
Senga himoya yo‘q,
Ammo netay,
otamsan!
O‘yla o‘zing,
Gunoh kimda?
Kimdan oldim tarbiyat?
Sen uyg‘otding
yuragimda
Toj-u taxtga muhabbat.
Bu tuyg‘uni berib, nega
Qaro qilding baxtingni?
So‘ng qarib ham
Nechun menga
Bo‘shatmading
taxtingni?..

Shohi Jahon:

Kelar bir kun senga
ham gal,
Yoshsan,
vaqt bor sinovga.
O‘zingga ur tig‘ni avval,
Og‘rimasa –
birovga.
Shuhrat mayi g‘oyat shirin,
Sarxush qilar odamni.
Sen bu baxtga yetding,
lekin
Zabun qilib otangni.
Unutmaki,
Doxil bo‘lding
Tojdorlikning shoniga
E voh,
bo‘yab ikki qo‘ling
Ikki og‘ang qoniga.
Bobir nasli
tarixida
Bu eng qaro bir varaq.
Bilki,
inson taqdirida
«Al-qasos ul-minal haq!»

Avrangzeb:

«Haqdan qasos!»
Ayo Xarram!
Sen ham mendek
bo‘lgansan.

O‘z otangga qarshi sen
ham
Bir vaqt isyon qilgansan.

Shohi Jahon:

Ko‘targanman isyon
rostdan,
Makr emasdi u biroq.
Saltanatni inqirozdan
Lozim edi qutqarmoq.
Ayon etdi vaqt –
kim haqli,
Ko‘rdi, bildi jahon ham.
Inson bilan inson farqli,
Isyon bilan isyon ham.

Avrangzeb:

O‘z qilmishin
Har bir tojdor
Adolat deb aytadir.
Bilur yolg‘iz
parvardigor
Chin haqiqat qaydadir.
Endi seni ne qilayin,
Padarimsan,
O‘zing ayt.

Shohi Jahon:

Ajab,
meni padar deysan,
Lek mehr yo‘q ko‘zingda.
Ne qilay deb so‘rma
mendan,
Ixtiyoring o‘zingda.
Lozim ko‘rsang qay
ajalni,
Buyur –
Xoh kes,
xohi os.
Iltimosim –
Toj Mahalni
Vayron qilma,
shu xolos.
O‘sha mendan yodgor
tanho,
Uyg‘oq ruhim,
Yuragim.
Jonimni ol,
ruhim ammo
Xarob qilma.
So‘ragum...

Avrangzeb:

Vahshiylikka bormas
qo‘lim,
Toj Mahalni buzmasman.
So‘ramagil mendan o‘lim,
Ota boshin uzmasman.
Padarkushlik shonin aslo
Ravo ko‘rmam o‘zimga.
Sen yasharsan
Mendan rizo,
Rizo bo‘lsang so‘zimga.
Erta meni podsho qilib
Ko‘tarurlar,
kelarsan,
Xalq oldida,
Rizoman deb,
Meni duo qilarsan.
Qarib qolding,
Taxt g‘amin qo‘y,
Orom gashtin surib yot.
Huzurimda maslahatgo‘y
Bo‘lib qolgin umrbod.

Shohi Jahon:

«Maslahatgo‘y bo‘lib
qolgin
Huzurimda umrbod...»
Sen dunyoga tug‘ilgan
kun
Men naqadar edim shod.
Yurganingda
atak-chechak,
Minganingda ilk bor ot,
Kelin ko‘rib,
So‘ngra go‘dak...
Men naqadar edim shod.
O‘sha shodon damlar
nechun
Men dunyodan o‘tmadim.
Yo bolangga to‘y qilgan
kun
Senga aza tutmadim.
Ko‘zlarimga butun dunyo
Hech oqarmas tun bu
kun.
Sulolangdan,
Bobir mirzo,
Omad ketgan kun bu kun.
E voh,
Ota-farzand aro
Ko‘tarildi oqibat.
Bu – intiho!
Chin intiho –
Yetib keldi oqibat!
Tarix –
bir ming oltmish to‘qqiz
Yilning sha’bon oyida,
Toj sohibin
Qildilar hibs
O‘zi suygan joyida.

Ozodlik

Bayroq qilib,
El qo‘zg‘aldi –
Nazrul Islom ismini.
Tor zindondan uni oldi,
Ammo faqat
Jismini.
Nazrul Islom
Ozod,
Ammo
El qanoti qayrildi,
Yosh, navqiron
tirik siymo –
Shoiridan ayrildi.
Nazrul Islom
She’ri butun
Hindistonda yangrardi.
Ammo shoir
uni bugun
Na tinglar,
Na anglardi.
Shoirini qo‘ymay –
Qo‘lda
El ko‘tarib eltardi.
Na quvonar
Nazrul bundan
Va na parvo etardi.
Bir yonidan quchar
hindu,
Bir yonidan musulmon.
Ammo
Hushdan ayrilgan u,
Unga yotdir bu jahon.
Tabriklaydi
Uni Thokur:
«Ozodliging muborak!»

Ro‘znomalar qutlov
yozur,
Bular unga ne kerak?
U na uyg‘oq
Va na uxlar,
Hissiz boqib turardi.
Ruhi uning
Oliy ruhlar
Dargohida yurardi.
Shoir topti
Erk chinakam,
Ozod bo‘ldi tamoman.
Bir yo‘l unga dardi olam
Barbod bo‘ldi tamoman.
U bir yo‘la
Sho‘rishlardan,
Savdolardan qutuldi.
Jabr-u jafo
ko‘rishlardan,
Nizolardan qutuldi.
Qutuldi
U sig‘olmagan,
Sig‘dirmagan jahondan,
Xolis bo‘ldi
Ham zindondan,
Ham zindondek
zamondan.
Ham tark etdi
Bir yo‘l uni
El dardidek og‘ir yuk.
Bu dunyoda
qoldi tani,
Behush, beruh
va buyuk.
Qirq yil o‘tdi,
Uzoq qirq yil.
Bu dunyodan begona –
Nazrul Islom
Yashar bedil,
Yashar darvish,
Devona.
Qirq yil ichra
Nelar ko‘rib,
Nelar chekdi
Hindiston,
Ammo ko‘zi ochiq turib,
G‘ofil o‘tdi
yoniq jon.
Bosqinchilar
Yurtdan ketdi –
El g‘azabi
Quvoldi.
Shoir
Buni
Na his etdi,
Na ko‘rdi,
Na quvondi.
Nazrul Islom
Bu dunyoda
Yetmish besh yil
Yashadi.
Ammo
O‘ttiz ikki yoshda
Bu dunyoni
Tashladi.
Shoir umri
Qoldi she’rda,
Qoldi
Yoniq dostonda.
Bitganlari
Uning – yerda,
Ruhi esa osmonda.

?

1. Nazrul Islomning dostonga epigraf qilib olingan ***«Tug‘ilgansan ozod, mudom Ozod bolib qol!»*** misralari doston mazmuniga nechog‘liq aloqadorligi haqida mulohaza yuriting.

2. Hindlar bilan musulmonlar orasida bunday mojaroni keltirib chiqarish kimga, nima uchun kerak bo‘lishi mumkin deb o‘ylaysiz?

3. ***«Bizni bizga dushman qilib»*** satridagi «biz»larni aniqlang. Nega ikkalasi ham **«biz»**?

4. ***«Eldan omad ketsa, Dastlab hamjihatlik yo‘qolgay»*** misralarining mag‘zini chaqing. Fikrga munosabat bildiring.

5. ***«El uchun jon tikkan shoir El dushmani ataldi»*** misralari tashigan ma’no haqida mulohaza yuriting. O‘zbekning shunday farzandlarini bilasizmi? Ularni taqqoslang.

6. Nazrul va soqchilar misolida oqil va johil kishilar xatti-harakatini tahlil qiling.

7. Rivoyatdagi ko‘zi ochilgan cholning deganlarini matndan ajratib oling. Uning so‘zlaridagi achchiq haqiqatlarni, johillig-u noshukrlikni tahlil qiling.

8. Hakim o‘zi bilan olib ketgan hikmat haqida mulohaza yuriting.

9. Rivoyatdagi hakim bilan Narzul Islom shaxsida qanday umumiylik bor? Bu rivoyatning dostonga kiritilishi sabablari haqida mulohaza yuriting.

10. «Shohi Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat»dagi ota va o‘g‘il munosabatlari haqida fikr bildiring

11. ***«O‘g‘lim faqat shod bo‘lsin. Mendagi bul dardi hijron Hasratlarga yot bo‘lsin»*** tarzida tarbiyalagan farzandi o‘z otasiga qanday «karomat» ko‘rsatdi.

12. Nima deb o‘ylaysiz, shahzodaning shunday yo‘l tutishiga yana nimalar sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin?

13. Insonning o‘z hayotida qilgan yaxshi-yomon amallarining ajr-mukofotlari muqarrar ekanligi haqida nima deya olasiz?

14. Doston misolida Odam, Olam, Hayot va yashashdan maqsad kabi tushunchalar haqida o‘ylab ko‘ring.

O‘TKIR HOSHIMOV

(1941–2013)

MASHAQQATLI SAFAR

(Tarjimayi holim)

Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko‘z oldimga keladi...

«Dunyoning ishlari» qissasining bir bobi shu so‘zlar bilan boshlanadi. Chindan ham bu asar deyarli avtobiografik qissa. Faqat ba’zi odamlarning ismi o‘zgargan. Aslida har qanday asarda ham ma’lum ma’noda qalamkash biografiyasining bir bo‘lagi aks etadi (hatto tarixiy romanlarda ham). Bir qarashda bu g‘alati tuyulishi mumkin. Lekin aslida baribir shunday. Yozuvchi o‘zi yozayotgan asarga qalbini bag‘ishlaydi.

Menga qolsa, ijod jarayonida qandaydir ilohiyot bor, degan bo‘lur edim. Haqiqiy ijodkor Xudo ko‘ngliga solganda qo‘liga qalam oladi. Chinakam badiiy asar yozilmaydi, tug‘iladi! «Dunyoning ishlari» kitobi ham allanechuk iztirob bo‘lib, dard bo‘lib tug‘ilgan. «Bahor qaytmaydi» va «Ikki eshik orasi»da ham, «Tushda kechgan umrlar» va «Inson sadoqati»da ham shunday holat ro‘y bergan...

Mening bobolarim o‘z davrining mashhur kishilari bo‘lishgan ekan. Jumladan, bobokalonlarim – bobomning otalari Abulqosimxon eshon Turkiston tarixida chuqur iz qoldirgan ulug‘ shaxslardan bo‘lgan ekanlar.

Toshkentda, Xalqlar do‘stligi saroyi bilan Oliy Majlisning muhtasham binosi o‘rtasida qadimiy obida – madrasa bor. Bu dargohda elimizning atoqli adibi Abdulla Qodiriy tahsil olgan. Mana shu obidani 1832-yili Abulqosimxon eshon bunyod etgan ekanlar. Bu zukko inson o‘zbek tilidan tashqari arab, fors, rus va boshqa tillarni mukammal bilgan, Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga qarshi kurashning g‘oyaviy rahnamolaridan biri bo‘lgan ekanlar. 1899-yili Sankt-Pe-

terburgda nashr etilgan «Musulmonlikka oid materiallar to‘plami» kitobida bunday deb yozilgan: «1892-yili vafot etgan Abulqosimxon eshonning Toshkent va boshqa shaharlarda o‘n minglab muridlari bo‘lib, ulardan kelgan mablag‘lar va vaqf yerlaridan tushgan daromadlar hisobidan eshon 30 ming oltin so‘mga madrasa qurdirgan. Bu madrasada 100–150 talaba tahsil olgan... Uning aholi orasidagi nufuzi nihoyatda baland bo‘lgan...» Madrasada faqat diniy emas, dunyoviy ilmlar ham o‘rgatilgan.

...1892- yili Toshkentda vabo kasali tarqaldi. Ustiga-ustak kelgindilar zulmidan tinkasi qurigan xalq qo‘zg‘olon ko‘taradi. Tarixga «Vabo qo‘zg‘oloni» nomi bilan kirgan milliy ozodlik harakati boshlanadi. Chor hukumati askarlari eski shaharga bostirib kirib, qirg‘in solgan chog‘ida Abulqosimxon eshon muqarrar o‘limni bo‘yniga olib, o‘sha paytdagi Turkiston general-gubernatori Vrevskiy nomiga rus tilida ariza yozib, uning oldiga boradi. Bosqinchi askarlar Toshkentning mahalliy aholi yashaydigan qismidan (Eski shahardan) olib chiqilmasa, oqibati ikkala tomon uchun ham fojiali bo‘lishini tushuntiradi. Gubernator buyrug‘i bilan «sallotlar» shahardan olib chiqiladi.

Keyin esa undan ham g‘aroyib hodisa ro‘y beradi...

1892-yil 30-iyun kuni Abulqosimxon eshon Xo‘ja Ahror jome masjidida ming-ming odamlar orasida va’z aytib, Toshkent ahli bir balodan qutulgani – bosqinchi askarlar shahardan olib chiqilgani bilan xaloyiqni qutlaydi va tag‘in bir ofatni – vaboni o‘zi bilan olib ketish niyatida ekanini aytib, Ollohga iltijo qiladi. «Turkiston viloyatining gazeti» muharriri N. Ostroumov «Fon Kaufman – Turkiston o‘lkasining tashkilotchisi» degan maqolasida bu hayratomuz hodisa haqida shunday deb yozadi: «Munkillagan yoshida so‘nggi kunlardagi voqealardan («Vabo qo‘zg‘oloni»dan demoqchi) qattiq larzaga tushgan muhtaram Abulqosimxon shundan so‘ng tezda – 4-iyulda vafot etdi. Qiziqarlisi shundaki, vabo barham topdi, toshkentlik sartlar buni uning vafotiga nisbat berdilar...»

Ajdodlarim to‘g‘risida bu qadar batafsil to‘xtalganimning sababi shundaki, ellik yoshga chiqqunimcha bobolarimning kim bo‘lganini bilmaganman. 1991- yil taniqli olim va jurnalist Sirojiddin Ahmedov shajaramiz to‘g‘risida ma’lumotni qo‘limga topshirdi. Keksa yoshdagi qarindoshlarimdan bu dalillarni nega menga aytishmaganini so‘raganimda, juda asosli javob eshitdim. Gap shundaki, agar bu gaplarni bilganimda, qayerdadir aytishim yoki yozishim muqarrar edi. Sho‘ro siyosati esa «xalq dushmanlari»ga aloqador bo‘lgan odamni ko‘kartirmasligi aniq edi...

Otam Atoulloxon Hoshimov tazyiqlardan bezor bo‘lib Do‘mbirobodga ko‘chib kelgan, xarobagina kulbada tirikchilik qila boshlaganlar... Faqat ro‘za kunlari sahar pallasi chiroyli qiroat bilan Qur’on tilovat qilganlari yodimda. Otam eski kitoblarni ham, zamonaviy adabiyot va gazetalarni ham muntazam o‘qib borar, o‘ta haqparast, nohaqlikni ko‘rsa yonib ketar edilar.

...Onam – Hoshimova Hakima esa otamning aksincha, nihoyatda yuvosh, juda mehribon edilar. Oyim qancha sodda bo‘lsalar, shuncha donishmand ham edilar! Iloji boricha hammaga yaxshilik qilishni xohlar, o‘ta oqko‘ngil, gina-kuduratni bilmaydigan ayol edilar. («Dunyoning ishlari»da qanday tasvirlangan bo‘lsa, onam xuddi shunday edilar.)

Men 1941-yil 5-avgustda Toshkent biqinidagi Do‘mbirobod qishlog‘ida tug‘ilgan ekanman. Qishloqda, tag‘in poytaxt biqinidagi qishloqda tug‘ilganim taqdirning hadyasi bo‘lsa ajab emas. Negaki, ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli bo‘lishi kerak.

Oilamizda bir qiz, to‘rt o‘g‘il bor edik. Men uchinchi o‘g‘il edim...

Otamdan qattiq hayiqar edik. Otam biron marta ham birontamizni bir tarsaki urgan emaslar. Otamni qattiq izzat qilishni onam o‘rgatganlar: «Hozir adang keladilar, uyni supurib qo‘y», «Adangni jahllari yomon, tinch o‘ti-

ringlar», «Adangni ketmoniga tegma», «Adangni soatiga qo‘l tegizma...»

Bilmadim, balki hozirgi – zamonaviy oilalarga bizning holat «feodallik» bo‘lib tuyular. Ammo bizning oilamizda ota shaxsiga sig‘inish farzandlarga ziyon keltirganini eslay olmayman...

Yetti yoshga to‘lar-to‘lmas, akalarimga ergashib, Do‘mbiroboddagi maktabga bordim...

Qissaga atoqli adib Abdulla Qahhor nihoyatda xayrixohlik bilan xat yozganidan keyingina o‘zimga ishonch paydo bo‘ldi. Mendan yozuvchi chiqishi mumkin ekan, degan xayolga bordim.

1966-yildan 1982-yilgacha «Toshkent oqshomi» gazetasida bo‘lim mudiri, 1982-yildan 1985-yilgacha G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida bosh muharrir o‘rinbosari bo‘lib ishladim. Bu davr men uchun eng hayajonli, eng sermahsul damlar bo‘ldi. «Bahor qaytmaydi», «Qalbingga quloq sol», «Kvazarlar» qissalari, «Nur borki, soya bor» romani, «Inson sadoqati», «Vijdon dorisi», «To‘ylar muborak» sahna asarlari, ko‘plab hikoya va hajviyalar, publitsistik asarlar shu yillar yozilgan... Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini Onamga taqdim etardim, «Birinchi ustozim Oyimga», – deb yozib berardim.

1985-yildan 1995-yilgacha «Sharq yulduzi» jurnalida bosh muharrir bo‘lib ishladim. «Ikki eshik orasi», «Bahor qaytmaydi», «Tushda kechgan umrlar» romani, «Ikki karra ikki – besh» kabi asarlar shu yillari yaratildi. Jurnal sahifalarida muqaddas Qur’oni karimning ma’no tarjimasi tarixda birinchi marta o‘zbek tilida bosildi...

1995-yildan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Matbuot va axborot qo‘mitasi raisi bo‘lib ishladim... Bu yillarda «Nurli dunyo», «Umr savdosi», «Daftar hoshiyasidagi bitiklar», «Osmondan tushgan pul», «To‘ylar muborak» kitoblarim nashr qilindi.

Xudoga shukr, shu paytgacha 50 dan ortiq kitobim turli tillarda 2 milliondan ko‘proq nusxada chop etildi.

Yozuvchi sifatida bir narsani allaqachon anglab yetganman va bu qoidaga qat'iy amal qilaman. Qalamkash, avvalo, Inson bolasining quvonch va iztiroblarini, muhabbati va nafratini, buyukligi va tubanligini haqqoniy tasvirlamog'i lozim. Shundagina uni kitobxon tan oladi, kitobini bag'riga bosib o'qiydi.

... Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o'qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asarni o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to'lg'onib chiqsa. Oradan yillar o'tib asarni qaytadan qo'liga olganida tag'in hayajonlansa...

?

1. Yozuvchining tarjimayi holidagi ***«Aslida har qanday asarda ham ma'lum ma'noda qalamkash biografiyasining bir bo'lagi aks etadi (hatto tarixiy romanlarda ham)... Yozuvchi o'zi yozayotgan asarga qalbini bag'ishlaydi»*** degan fikrga qanday qaraysiz? Munosabatingizni asoslashga urining.

2. Yozuvchining otasi va bobosi haqidagi xotiralariga munosabat bildiring.

3. ***«Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini Onamga taqdim etardim...»*** Shu jumlaga tayanib yozuvchiga baho bering.

4. Adibning eng katta orzusiga o'z munosabatingizni bildiring. Yozuvchi shaxsi bilan o'zingizning ichki «Men»ingizni solishtirib ko'ring.

BAHOR QAYTMAYDI

(Qissadan boblar)

Bo'ston qishlog'iga og'ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tumanlik qo'ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og'ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi. Havoga yelpig'ichday qat-qat bulutlar chiqdi. Quyoshning iliq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo'lib qoldi. Havoda ananas isi aralash yong'oq xazonlarining o'tkir hidi gurkiradi. Yoz bo'yi meva tugish dardida

yashnagan bog‘lar, shodon shovillagan terakzorlar hayotning mangu, beshafqat haqiqati oldida o‘ychan, g‘amgin bosh egdi. Chor atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to‘ldi.

Sumbula tug‘di. Qishloqni halqaday o‘rab oqayotgan anhor birdan tiniqlashdi. Telba to‘lqinlar endi jilovlanib, yuvosh bo‘lib qoldi.

Odamlar qilichini ko‘tarib kelayotgan qishdan cho‘chiganday shosha-pisha harakatga tushdilar. Kimdir chorbog‘idan o‘tin arraladi, kimdir qo‘shnisining tom suvog‘iga hasharga chiqa boshladi.

Hamma yagona bir tashvish bilan – kuz tashvishi bilan turib, kuz tashvishi bilan yotadigan bo‘ldi.

Faqat bitta hovlida – qishloq chekkasida, shundoqqina anhor yoqasida joylashgan hovlida sukunat hukm surar, faqat bir kishi yolg‘iz o‘z tashvishi bilan band edi.

U past-baland qoyalar orasidan ot choptirib borayotganmish. Ot yeldek ucharmish, tog‘-u toshlar chirpirak bo‘lib orqada qolib ketarmish. Birdan hammayoqni zulmat qoplabdi. Ot allanimaga qattiq qoqilibdi-da, qopqorong‘i jarlikka munkib ketibdi. U otni bo‘ynidan mahkam quchoqlab olgancha shuvillab pastga tushib ketayotganmish-u, yerga hech yetmasmish. Nafasi bo‘g‘ziga tiqilib, dahshatdan oyoq-qo‘llari toshday qotib qolganmish.

– A-a-a!

Alimardon o‘z ovozidan o‘zi cho‘chib uyg‘onib ketdi. Anchagacha qayerda yotganini bilolmay, ko‘zlarini katta-katta ochgancha shiftga tikilib qoldi. A’zoyi badani o‘t bo‘lib yonar, peshanasini muzday ter bosgan, bir tutam sochi ter aralash qoshlariga yopishib qolgan edi.

U anchagacha behush tikilib yotdi-da, vassajuftlari sarg‘ayib ketgan shiftni, tokchadagi lagan-tovoqlarni, burchakdagi shkaf ustida turgan, chaqa solinadigan ganch mushukchani ko‘rib sekin uf tortdi. Xayriyat, uyda ekan!

Bir lahzadan keyin ko‘z o‘ngidagi narsalar tag‘in siyrak tumanlik ichida yo‘qoldi-yu, yana alahlay boshladi. Zum o‘tmay tag‘in ko‘zini ochdi. Bora-bora fikri tiniqlashib, shiftga tikilib qoldi.

Alimardon shu yozda onasi o‘lganidan keyin hovlidan fayz ketganini hozir, ayniqsa, chuqur his qildi. Onasi necha yildirki, uni uylantirishni orzu qilar, ammo Alimardon unamas edi. Rost, u ko‘p qizlarni ko‘rgan, lekin hech biri bilan birga bo‘lishni xayoliga ham keltirmagan edi. «Avval konservatoriyani bitirib olay, u yog‘i o‘zi topilib ketadi», – deb o‘ylardi. Alimardon diplom yoqlashidan bir hafta oldin onasi qazo qildi. U orzusiga yetolmadi: kelinining qo‘lidan bir piyola choy icha olmadi.

Alimardon yuragining bir burchida uyg‘ongan chidab bo‘lmas hasratdan entikib qoldi.

– Anvar ham kelmabdi, nomard! – pichirladi u g‘ijinib.

Alimardon betob bo‘lib qolganidan beri goh Anvar, goh onasi har kuni kelib, uning holidan xabar olib turishardi. Bugun kelmabdi. «Birovning go‘riga birov tusharmidi! Anvarning men bilan nima ishi bor!» U jahl bilan ko‘zlarini chirt yumib, ko‘rpani boshiga tortdi.

Yana ko‘zi ilinayotgan edi, gurs-gurs qadam tovushi eshitildi. Alimardon ko‘rpani ko‘tarib qaraguncha, allakim deraza yonidan lip etib eshik tomonga o‘tib ketdi.

Anvar! Alimardon eshikning ochilishini kutib, burilib qarab yotdi.

Anvar pastak eshikdan boshini egib kirdi-yu, qo‘lidagi qog‘oz xaltani bir chekkaga qo‘yib, shimining pochasini qoqa boshladi.

Engashib turgancha boshini ko‘tarib qaradi-da, jilmaydi.

– Tuzukmisan?

Alimardon indamadi, qoshini chimirgancha tikilib yotaverdi.

Anvar har kelganida shunday jilmayib qarar, xuddi shunday past, mehribon ovozda undan hol so‘rar edi.

Hozir Alimardon uning tez yurganini, ko‘ylagining tugmalarini yechib yuborganini, ichidagi maykasi terlab, badaniga yopishib qolganini ko‘rdi.

Anvar tuflisining bog‘ichini shosha-pisha yechdi-yu, tez-tez yurib uning tepasiga keldi. Karavot yoniga cho‘kkalab, peshanasiga muzday kaftini qo‘ydi.

– Isitmang yo‘q-ku, – dedi yana jilmayib.

Alimardon uning qo‘lini peshanasidan olib tashladi. «Yolg‘on aytyapti!»

– Yo‘lda o‘lib qoldingmi degandim.

Anvar do‘stining bo‘g‘iq ovozidan uning xafa bo‘lganini tushundi, ko‘z milklarining cheti tirishib, qizarib ketdi. Uning sal narsaga qizarishi ham, qizlardek tortinchoqligi ham, chiroyli chehrasi ham ko‘pincha Alimardonning jig‘iga tegardi.

– Kech qoldim-a? To‘g‘rimi? – dedi Anvar uzr so‘ragan ohangda.

Keyin begunoh ko‘zlarini Alimardondan uzmay yana o‘sha past, o‘ychan ohangda gapirdi:

– Ishga bordim. Hech ilojini qilolmadim. Birinchi kun...

Alimardon uning o‘ziga emas, shiftning bir chekkasiga qarab so‘radi:

– O‘sha telestudiyagami?

Anvar do‘stining gap boshlaganidan quvonib ketdi.

– Ha. Bilasanmi, muzika redaksiyasiga! – U sevinchdan chehrasi yorishib, o‘rnidan turdi. – Sen sog‘ayishing bilan studiyaga borasan. Hozir u yerdagilar yosh artistlarga juda muhtoj ekan. – U do‘stiga sinchiklab qarab qo‘ydi.

Alimardon miyig‘ida kuldi-yu, indamadi. Ko‘nglida g‘ijinishmi, adovatmi, allaqanday xira bir tuyg‘u uyg‘ondi. O‘zidan oldin Anvar ish boshlagani, quvonch bilan gapirishi unga yoqmadi.

Uning o‘zini ham shahardagi musiqa maktabiga o‘qituvchi qilib tayinlashgan, ammo hali ish boshlamagan edi.

Anvar do‘stini ranjitib qo‘yganini payqadi, shekilli, indamasdan borib qog‘oz xaltani ochdi.

– Uzum yeysanmi? – dedi turgan yeridan burilib qarab. Alimardonning javobini ham kutmay hovliga chiqib ketdi. Zum o‘tmay to‘rtburchak patnisda ikki bosh uzum ko‘tarib kirdi. Yana karavot oldida cho‘kkaladi.

– Ol, juda shirin ekan...

Alimardon ko‘z qiri bilan qarab qo‘ydi. Sap-sariq husaynilar tovlanib turar, shudringday suv tomchilari tarang, tekis uzum donalari ustida jilolanar edi.

Anvar ikki dona uzumni uzib oldi.

– Og‘zingni och!

Alimardon uzumni karsillatib yer ekan, beixtiyor jilmaydi.

– Shaharda nima gaplar?

– Tinchlik... – Anvar qizlarnikiga o‘xshagan tim qora ko‘zlarini suzib qo‘ydi.

Alimardon uning qiziq bir yangilik aytishga og‘iz juftlab turganini sezdi.

– Gapiraver! – dedi jilmayib.

Anvar yalt etib unga qaradi.

– Muqaddam shu yerga – Bo‘ston guzaridagi doktorxonaga hamshira bo‘lib kelibdi...

«Ha, shuning uchun og‘zi qulog‘ida ekan-da!» Alimardonning ko‘nglida yana o‘sha chalkash tuyg‘u uyg‘ondi. Anvar bu qizni yaxshi ko‘rishini ko‘p gapirar edi. «Buyog‘i ham besh bo‘libdi... Qiziq, bir xil odamlarning ishi o‘z-o‘zidan yurishib ketaveradi. Meniki-chi?» – Alimardon ichida xo‘rsinib qo‘ydi.

– Yaxshi! – dedi xushchaqchaq gapirishga urinib. – Bizni kelinning o‘zi davolar ekan-da?

– Aytdim unga... – Anvar bir shingil uzumni unga tutqazdi. – Bugundan boshlab har kuni kelib turadi. – U to‘satdan esiga tushganday so‘radi: – Mastava qilib beraymi? Aftingni burishtirma, yaxshilab pishiraman...

Saldan keyin Anvarning oshxonada gursillab o‘tin yorgani eshitildi. Zum o‘tmay deraza orqasida Anvarning o‘zi ko‘rindi. U maykachan bo‘lib olgan edi...

Alimardon uyg‘ondi-yu, o‘zidan bir necha qadam narida turgan qizni ko‘rdi. Qiz bosh yalang, sochlari turmaklangan, oppoq xalat kiygan edi. U katak-katak dasturxon yopilgan stol ustida biqirlab qaynayotgan yaltiroq sterilizatordan pinset bilan ignalarni avaylab olar, sovitish uchun bo‘lsa kerak, bir chekkaga qo‘yar edi. Qiz yonlamasi bilan turgani uchun Alimardon uning chehrasini yaxshi ko‘rolmas, ammo derazadan yog‘ilayotgan tong nurida qirra burni, silliq, xushbichim yuzining bir tomoni, mayin tukli lablari aniq ko‘rinardi.

«Muqaddam, – deb o‘yladi u qizdan ko‘z uzmay. – Anvarning kuyib yurganicha bor ekan».

U ko‘p qizlarni ko‘rgan, ammo bunaqa jozibador qizni uchratmagan edi. Yuragi gupillab ura boshlaganini sezib, boshini ko‘tardi.

Qiz karavot g‘irchillaganini eshitib, burildi.

– Uyg‘ondingizmi? – qiz jilmayganida uzun, qayrilma kipriklari tutashib, yana ham chiroyli bo‘lib ketdi.

«Farishtaday ekan...» Alimardon ham beixtiyor jilmaydi.

– Siz Muqaddamxonsiz-a? – U yana nimadir deyish kerakligini o‘ylab, so‘radi: – Anvar ketdimi?

– Men kelsam, ketgan ekanlar, – dedi Muqaddam yana shprislarni olib. – Ishga ketgan bo‘lsalar kerak...

«Kelganiga ancha bo‘lgan ekan-da...» Alimardon nima uchun quvonayotganini o‘zi bilmasa ham qizdan ko‘z uzolmay qoldi.

Muqaddam flakondagi dorini shprisga tortib oldi-da, ignasini yuqoriga ko‘tardi. Igna uchidan tizillab dori otildi.

– Bilagingizni chiqaring... – dedi u Alimardonga qaramay.

Alimardon uning uyalayotganini sezib turardi.

– Qo‘rqaman-da... – u ataylab ko‘rpaga burkanib oldi. Ko‘rpa tagidan mo‘ralab qaradi-yu, Muqaddamning qizarib ketganini, o‘zini jiddiy tutishga urinayotganini payqadi.

– Bo‘ling! – Muqaddam hamon igna uchidan otilayotgan doridan ko‘z uzmay, quruqqina ohista buyurdi. – Chang qo‘nsa, shprislarni boshqatdan qaynatishga to‘g‘ri keladi.

Alimardon hamon undan ko‘z uzmay, ko‘ylagining yengini shimardi.

– O‘lib qolsam, o‘zingiz javob berasiz!

U ukolning og‘rig‘ini sezmadi ham. Tepasida engashib turgan Muqaddamga tikilib yotaverdi.

Muqaddam shpris porshenini avaylab bosar, qo‘llari bilinar-bilinmas titrar, Alimardonning emas, o‘zining joni og‘riyotganday labining bir burchini qimtib turardi. Alimardon uning oppoq yuzidan ko‘z uzolmas, xalatining ochiq yoqasidan ko‘rinayotgan bo‘ynidagi xoli ham, qunduzday qoshlari ham yuragini o‘rtar edi.

– Mana, bo‘ldi. – Muqaddam igna o‘rnini spirtli paxta bilan artib jilmaydi. – Shunga qo‘rqib o‘tiribsiz...

U sekin-sekin stol oldiga yurib bordi-da, ignani chiqarib sterilizator qopqog‘iga tashladi.

Alimardon uning har bir harakatini diqqat bilan kuzatar, miyasi g‘uvillab ketgan, tuyg‘ular ichida to‘lqinlanar edi.

Muqaddam anjomlarini yig‘ishtirib bo‘lgunicha u bir qarorga keldi-yu, chaqirdi:

– Nima qilib qo‘ydingiz... – dedi hayajondan ovozi titrab. – Hammayog‘im olov bo‘lib yonib ketyapti-ku!

– Nima! – Muqaddam cho‘chib o‘girildi. Uning chehrasida qo‘rquv bor edi.

– Ishonmasangiz peshanamni ushlab ko‘ring!

Muqaddam shoshilib kelib, uning peshanasiga kaftini bosdi. U endi gapirishga og‘iz juftlagan edi, Alimardon bo‘ynidan mahkam quchdi-yu, siltab pastga tortdi, lablaridan, yuzidan o‘pa boshladi.

Muqaddam bir lahza gangib qoldi. U o‘zini yo‘qotib qo‘ygan, Alimardonning og‘ushida talpinar, ammo chiqib ketolmas edi. Qiziq, shuncha oylardan beri Anvardan kutib yurgan keskin harakatlarni Alimardon qilar, bu

ayyor yigitni urib yuborishni ham, indamasligini ham bilmasdi. Ammo Anvarni eslashi bilan siltanib qaddini rostladi, Alimardonning yuziga tarsaki tushirdi.

– Uyatsiz! – U ko‘z o‘ngini to‘sgan yosh pardasidan hech nimani ko‘rolmay, tusmollab stol yoniga bordi.

Shosha-pisha sterilizatorni yig‘ishtirayotganida orqa tomondan Alimardonning bo‘g‘iq ovozi keldi:

– Kechiring...

Muqaddam yoshli ko‘zlari bilan unga qaradi. Alimardon karavotda ma’yus bosh egib o‘tirardi.

– Kechiring, Muqaddam, – dedi u bo‘g‘iq ohangda. Keyin unga tik qarab turib ta’kidladi: – Meni ifloslik qilyapti, demang. Siz baribir meniki bo‘lasiz!

Muqaddam ko‘ksini toshirib yuborayotgan yig‘idan bo‘g‘ilib, tashqariga otildi.

Ko‘cha eshik g‘iyqillab ochilib-yopilganidan keyin Alimardon o‘zini yostiqqa tashladi. Vijdonining tubtubida yengil bir azob uyg‘ondi.

«Yaxshi bo‘lmadi... – U shiftga bir lahza tikilib yotdida, o‘ziga tasalli berdi: – Nima bo‘pti?! Qizlar ham mard yigitlarni yaxshi ko‘radi. O‘sha lattadan kam joyim bormi?!»

...Shu kuni tushda Iqbol xola osh olib kelganda Alimardon u bilan sovuqqina salomlashdi. Anvarni so‘ramadi ham...

* * *

– Men keldim, opa... – dedi.

Doktor yozayotgan anketasidan bosh ko‘tarib jilmaydi.

– Bugun yana xonadonlarga qatnaysiz, – dedi doktor hamon jilmayib.

«Yana Alimardonning uyiga boramanmi?» – deb o‘yladi Muqaddam. O‘sha kungi voqeani, kecha Anvar akasi bilan sovuq xayrlashganini esladi-yu, choyshab to‘shalgan divanning bir chekkasiga bo‘shashibgina o‘tirdi.

– Boshqa odam borsa bo‘lmaydimi? – dedi u choyshabni g‘ijimlab. Huri opa o‘ziga sinchiklab qarab turganini sezsa ham boshini ko‘tarmay o‘tiraverdi.

– Kim boradi?

Muqaddam ko‘z qiri bilan qaradi-yu, doktorning ko‘zlaridan ajablanayotganini payqadi.

– Xadicha opangiz borolmaydi-da, – dedi doktor xotirjam ohangda.

Muqaddam o‘zining lov etib, qizarib ketganini sezdi. U ishga kirgan kunidanoq Xadicha ta’tilga chiqishi kerak edi. Ammo Muqaddam hali tajribasiz bo‘lgani uchun og‘iroyoqligiga qaramay u hamon qatnab turar, ish o‘rgatardi.

Muqaddam stol ustidagi shisha bankaga, tashqarida derazaga ohista urilayotgan yomg‘ir tomchilariga jur’atsizgina qarab qo‘ydi-da, shivirladi:

– Uyalaman...

Doktor shu qadar beg‘araz qah-qah urib yubordiki, Muqaddam beixtiyor boshini ko‘tarib qaradi.

Doktor kula-kula xalatining yengi bilan ko‘zlarini artdi.

– Texnikumda Ibn Sinoning gapini aytishmaganmidi? Bemordan seskangan tabib – tabib emas. Siz birovga ona, birovga opa, birovga singil bo‘lishingiz kerak.

Muqaddam o‘sha tanish, pastak eshik tagiga yetganidan keyingina tez yurganini, yuragi allaqanday qarama-qarshi tuyg‘ularga to‘lib-toshganini payqab qoldi. Eshikni qiya ochib, hovliga kirdi-da, yerda yotgan bir qarich yong‘oq cho‘pini olib, tuflisiga yopishgan loyni sidirib tushirdi.

U devor tagidagi quruq yo‘lkadan uch-to‘rt qadam yurib, to‘xtab qoldi. Ichkaridan rubob ovozi eshitildi. Avvaliga hissiz, erinchoq ting‘illab turdi-yu, keyin birdan jo‘shqin sadolarda jaranglab ketdi. Muqaddam bir nafas quloq solib, bu kuyni avval hech qayerda eshitmaganini sezdi. Ha, bu yangi kuy edi. Unda endigina yerdan bosh ko‘targan boychechaklarning nozik shivirlashi ham, tan-

tanavor bahor shalolalari ham, quyoshdek tiniq tuyg‘ular ham bor edi.

Muqaddam beixtiyor jilmaydi. «O‘zi chalyapti». U kuy og‘ushida erkalanib yana uch-to‘rt qadam yurdi. Endi deraza yoniga yetganida kuyga xuddi torlarning o‘ziday tiniq bir ovoz qo‘shildi. U qo‘shiqning birinchi satrlarini yaxshi anglab ololmadi-yu, keyin aniq eshita boshladi:

...Yaxshi qol, ey dilbarim, dilda kadar, ketmoqdaman,
Ishq aro endi holim zer-u zabar, ketmoqdaman.
Na ishonch-u, na quvonch-u, na ko‘ngildan ochma gap,
Barchasidan ushbu kun yo‘qdir samar, ketmoqdaman...

Ovoz shu qadar tiniq, dilrabo ediki, Muqaddam hayajondan entikib ketganini sezdi, qo‘shiq uni allalar, shirin tuyg‘ularga g‘arq etardi. U yoqasidan muzday suv quyilib kirayotganini anchadan keyin sezdi. Bo‘g‘otdan bir qulochcha chiqarib qo‘yilgan tarnov tagida to‘xtab qolganini bilib, deraza oldiga yaqinroq bordi. Ichkari qorong‘iroq bo‘lgani uchun Alimardonning yuzini aniq ko‘rolmasa ham, uning karavot yonida tik turganicha rubob chalayotganini ko‘rdi. U o‘z kuyidan o‘zi mast edi, deraza tomonga qayrilib ham qaramasdi.

Men quyosh yuzlimga deb tun kechalar berdim yurak,
Oqibat otganda tong qondir jigar, ketmoqdaman.
Shuncha kunlar o‘tdi, ammo so‘rmading holimni bir,
Oxirida hol so‘rab kelsang magar, ketmoqdaman.

Muqaddam to‘xtab qololmadi. Tez-tez yurdi-da, yo‘lakdan o‘tib, eshikni ochdi. Alimardon uni ko‘rib, bir lahza to‘xtadi. Lekin zum o‘tmay, yana rubob jarangladi. U qo‘shiqning oxirgi baytini Muqaddamdan ko‘z uzmay aytdi:

Kelganingda dedilarki, bu yigit koni zarar,
Ketmagimdan oxir, ayt, bormi zarar, ketmoqdaman.

U negadir yengilgina xo‘rsinib jilmaydi:
– Muqaddam...

Muqaddam uning quvonch to‘la ko‘zlari parpirab ket-

– Oynatoqqa chiqqandim. – Keyin u Alimardonga qaradi-da, tag‘in qaytardi: – Marhamat!

– Bo‘lmasa men to‘yxonaga qaytaveraymi?

Alimardon Shodivoy o‘zidan ruxsat so‘rayotganini anchadan keyin tushundi.

– Boravering! – dedi qayrilib qaramay.

Ular pastak eshikdan egilib, hovliga kirishdi. Tag‘in chaqmoq chaqdi. Hovlidagi besh-olti tup olmalarning yomg‘irdan qizargan shoxlari, etakdagi qorong‘i otxona bir zum yorishib ketdi.

Uning yuragi gupillab ura boshladi. Tubsiz alam, nafrat, allanechuk o‘kinch tuyg‘ulari aralashib uning vujudini larzaga solar, hech nimani ko‘rmas, tusmollab qadam tashlab borardi. Kabir otni qo‘yib yubordi-da, o‘zi oldinga o‘tib yo‘l boshladi. Derazadan tushib turgan qizg‘ish nurni kesib o‘tib, eshik oldiga borishdi.

– Qani, – Kabir eshikni ochdi. – Bemalol kiravering.

Alimardon endi engashib, tuflisining bog‘ichini yechayotgan edi, ichkari tomondagi eshik g‘iyqillab ochildi-da, do‘mboqqina bola yugurib chiqdi.

– Ada! Ada! – dedi u yangroq, ingichka ovoz bilan.

Alimardon ko‘pdan buyon izlab yurgan narsasini birdaniga topganday beixtiyor qaddini rostladi. Bu ovoz, o‘zi hali hech qachon eshitmagan, ammo o‘ziga shu qadar qadrdon bo‘lgan yangroq ovoz uning quloqlariga o‘qday kirdi.

Bola maykachan bo‘lib olgan, qop-qora ko‘zlari shodlikdan porlar, peshanasidagi bir tutam sochi o‘ziga quyib qo‘yganday yarashib tushgan edi.

– Ada! – dedi bola tag‘in o‘sha yangroq ohangda. Keyin qo‘lchalarini keng yozgancha chopib kela boshladi. Shu topda u onasining og‘zidan don olayotganida qanotlarini pirpiratib turgan qushchaga o‘xshardi.

Kabir kavshandozga cho‘nqayib olgancha qulochini keng yozdi.

– Qani! Qani! Otosh bolam, bobosh bolam! Achom! Achom!

– Ato-om! – dedi bolakay ham shirin til bilan.

O‘g‘li quchog‘iga kelib urilishi bilan Kabir dast ko‘tarib oldi-da, yuz-ko‘zlaridan o‘pa boshladi. Bolakay dadasining mo‘ylovi tekkanidan qitig‘i kelgan bo‘lsa kerak, hadeb qiqirlar, boshini orqasiga tashlagancha qotib-qotib kulardi.

Alimardon suratday jonsiz bo‘lib qolgan, ko‘zlari o‘tday yonib, ularga tikilib turardi.

– Qani, amaqingga salom ber-chi, – Kabir bolani yerga qo‘yib, maqtanganday Alimardonga qarab qo‘ydi. – Katta yigit-da bu! Har kuni dadasining ishdan kelishini poylab, uxlamay o‘tiradi.

Ammo bolakay Alimardonga yotsirab qarab qo‘ydi-da, kattalarday qoshini chimirib, hurpayib oldi.

– Voy tentagey, salom berishni esingdan chiqarib qo‘ydingmi? – Kabir kuldi. – Yovvoyi-da, amakisi, yovvoyi bu. – Keyin Alimardonga qarab iltifot qildi: – Qani, yechining, chiqing. Men otni arqonlab qo‘yay. Hammayoqni payhon qilib tashlaydi. – U ichkaridagi eshikka qarab qichqirdi: – Hoy onasi, mehmon keldi!

Kabir chiqib ketishi bilanoq Alimardon beixtiyor bolaga talpindi.

– Shavkat! – dedi pichirlab. U butun borlig‘i bilan bolaga talpinar, shuncha yildan beri yuragining tubida ojiz titrab turgan nozikkina bir tor bor ovozi bilan jaranglay boshlagan, eng baland avjiga chiqib vujudini larzaga solar, turgan yerida yaproqday qaltirar edi.

Alimardon bir qarashdayoq otalik mehri bilan shu bola Shavkat ekanini, o‘zining o‘g‘li, yagona ovunchog‘i ekanini aniq bilib olgandi.

U tuflisini ham yechmay, namatga oyoq qo‘ydi. Ikki qo‘lini olg‘a cho‘zib chaqirdi:

– Beri kel-chi, – dedi ovozi titrab. – Menga o‘g‘il bo‘lasanmi?

Bola undan hurkkanday yonlamasi tisarilib-tisarilib tokcha oldiga borib qoldi.

Alimardonning ko‘ksini to‘ldirgan bir nido bo‘g‘zidan otilib chiqdi:

– Shavkat!

Bola allanarsani sezgandek shartta burilib qaradi. Alimardon uning ko‘zlarida o‘zining ko‘zlarini aniq ko‘rdi, qichqirib yubordi:

– O‘g‘lim!

Lekin shu ondayoq vahimaga to‘la yana bir qichqiriq burilib qarashga majbur qildi uni. Bu oh chekishmidi, qo‘rqinch to‘la nidomi, harholda yurakni o‘rtab yuboruvchi bir un edi. Alimardon qotib qoldi. Ostonada oddiygina ko‘ylak kiyib olgan, boshyalang Muqaddam turardi. Uning ko‘zlari katta-katta ochilib, rangi devor bo‘lib ketgan edi. Ha, bu Muqaddam edi. Bir vaqtlar uning o‘ziniki bo‘lgan, hozir esa bir olam nariga ketib qolgan begona Muqaddam edi.

Alimardon boshi aylanib ketayotganini, ko‘z o‘ngida xira halqachalar pirpirayotganini sezib turar, hozir bir ofat bo‘lishini, allaqanday dahshat ro‘y berishini bilar, ammo tili kalimaga kelmas edi.

– O‘g‘lim! – dedi u nihoyat pichirlab. Tomog‘i xippa bo‘g‘ilib, gapirolmay qoldi. Telbalarday siltanib Shavkatga talpindi.

– Shavkat, – dedi titroq qo‘llarini cho‘zib. – Kel, bolam, – u Shavkatning qarshisida cho‘kkalab quchog‘ini ochdi. – Kel, o‘g‘lim... – dedi pichirlab. – Bitta bag‘rimga bosay.

Bola labini burib tisarildi. Muqaddamning etagidan ushlab orqasiga yashirindi.

Bu qandoq bedodlik! Bu qanday jazo! O‘g‘il o‘z otasidan tonsa! Shu ondayoq dahshatli bir haqiqat uning yuragini qiymalab tashladi. Nega tonmasin? O‘zi ham qachondir bolasidan tongan emasmidi?

Alimardonning shuncha yillardan beri tosh bo‘lib ketgan diydasi birdan erib oqdi. Ha, u ko‘pdan beri – Muqaddam ketib qolgandan beri bitta dard bilan yashar edi. Bu dard kunduzlari xayolini, kechalari uyqusini olib

qochar edi! Endi bilsa – bu otalik dardi ekan. Insonlikning qo‘l yetmas baland cho‘qqisi ekan! Mana, o‘sha dardining malhami! Mana o‘g‘li! Mana! Shundoqqina oldida turibdi!

U Shavkatni mahkam bag‘riga bosib oldi. Uning yuzko‘zidan allanechuk tanish bir bo‘y – o‘z hidi anqib turgan sochlaridan o‘pa boshladi. Baxtiyor bir tuyg‘udan to‘lg‘anib negadir jilmaydi.

– Tentagim... Men sening otangman, bildingmi, otangman!

Shavkat birdan lablari burilib yig‘lab yubordi.

U chirqillab yig‘lar, onasiga talpinar, ammo Alimardonning quchog‘idan chiqib ketolmas edi.

– Yig‘lama, Shavkat... – dedi u pichirlab. Bolaning yuzlaridan o‘pa boshladi.

Shavkat battar yulqinib, oyoq-qo‘llarini silkitardi.

To‘satdan Alimardon o‘g‘liga ozor berayotganini tushunib qoldi. Ichki bir kuch majbur qildimi, qo‘yib yubordi.

Shavkat yig‘lagancha yana onasining etagiga yopishdi. Muqaddam hamon toshday qotib turar, esi og‘ib qolganga o‘xshar edi.

Shavkat onasini qo‘yib yubordi-da, chopqillab narigi uyga kirib ketdi. Alimardon uning silkinib borayotgan do‘mboq qo‘lchalarini ko‘rdi. U bolaning ketidan uch-to‘rt qadam yurdi-da, to‘xtab qoldi. Shundagina u bu bolaning hech qachon o‘ziniki bo‘lmasligini his etdi.

– Shavkat! – U ochiq qolgan eshikka qarab oxirgi marta so‘nik, umidsiz ovozda pichirladi-da, hammasi tamom bo‘lganini tushundi.

Shartta burildi-yu, telbalarcha ikki hatlab ostonaga tushib qoldi. Uning ko‘zlari olayib ketgan, ammo hech nimani ko‘rmas edi.

Eshikni taraqlatib ochdi-da, hovliga otildi. Zimiston qo‘ynida Kabirga urilib ketganini ham, yugurib borib mashinaga o‘tirganini ham sezmadi.

Mashinani keskin burdi-da, daryo-daryo suv oqayotgan tor ko‘chadan yeldirib ketdi.

Mashina shiddat bilan qaltis tog‘ yo‘lidan uchib ketdi. Bir zumda qishloqning tosh devorlari orqada qoldi.

Alimardon hamon gazni bosar, barbod bo‘lgan umidlari haqqi, xazonga aylangan umri haqqi, barcha alamlari haqqi ko‘zlariga yosh quyulib kelardi. Nimasi qoldi uning? Nimasi qoldi, axir?! Sahnami? Shon-shuhratmi? Nima qoldi o‘zi! Nima? Oxirgi, eng oxirgi umidi, tanho suyanchig‘i yuz o‘girdi-ku undan. Tag‘in nima kerak endi?

U hamon shiddat bilan yelib borarkan, ko‘z yoshidan tomog‘i xirillab, oxirgi marta pichirladi:

– O‘g‘li-i-i-m!

To‘satdan u ko‘nglida xushnud bir yengillik sezdi. Qalbi sokin tuyg‘ularga to‘lib-toshganday bo‘ldi-yu, rul chambaragini chirpirak qilib chapga burib yubordi.

Mashina bir yonboshiga og‘a boshladi. Shundagina u xato qilayotganini, yomon ish qilayotganini tushunib qoldi. Ko‘zlari dahshatdan olayib tormozga yopishdi. Ammo mashina allaqachon jahannam labiga borib yetgan edi.

Zum o‘tmay dahshatli suron tog‘-toshlarni larzaga soldi. G‘amgin qoyalar qilib qo‘ygan gunohidan o‘zi qo‘rqib ketganday ingrab yubordi.

... Bir nafas hammayoq jim bo‘lib qoldi.

Tosh bag‘riga qanchadan qancha sirlarni yashirishga o‘rganib qolgan oqsoqol cho‘qqilar ko‘klami bekor o‘tib xazon bo‘lgan bolasining qismatiga achinib boshini quyi soldi.

Qop-qorong‘i dara ustida shashqator bulutlar uzoq aza tutdi.

?

1. Bo‘ston qishlog‘iga ***«kuzning og‘ir-vazmin qadamlar bilan kirib kelishi»***ni tasavvur qilishga urinib ko‘ring. Sizningcha, kuzning shunday kirib kelishi hayotiy haqiqatga yaqinmi? Fikringizni asoslang.

2. Anvarning hamisha jilmayib qarashi, mehribonligi, xijolatdan qizarib ketishi, ishi tufayli kechikkani uchun uzr so‘ragan ohangda gapirishi, umuman, Alimardonga munosabatiga diqqat qiling. Nima deb o‘ylaysiz, Anvar o‘z fe’li bilan shunday qismatga mahkummidi?

3. Alimardon ***«vijdonining tub-tubida yengil bir azob»*** uyg‘onishi, uning Iqbol xola bilan sovuqqina so‘rashishi-yu, Anvarni so‘ramaganining sabablarini kashf etishga harakat qiling.

4. Tun yarmida uyga qaytgan Muqaddamning to‘qnashgan vaziyatidagi holatini tasavvur qilish sizga biroz qiyinroqdir. Lekin Alimardonning ***«o‘zi qilib yurgan ishlari uchun qachondir javob berishga»*** mahkumligi, inson har bir xatti-harakati uchun qachondir yo rag‘bat, yo jazo olishi haqida mulohaza yuriting.

5. Muqaddamning ***«hiqillab-hiqillab»*** borishi bilan yulduzlarning ***«sovuq ko‘zyoshi to‘kib yum-yum yig‘lashi»*** tasviriga tayanib odam va tabiatning bir-biriga nechog‘liq yaqin ekani haqida mulohaza qilib ko‘ring.

6. Alimardon bilan Mutalning odamlar haqidagi fikrlarini ajratib oling. Har ikkisining haq va nohaq o‘rinlariga alohida to‘xtaling, tahlil qiling.

7. Nima deb o‘ylaysiz, Mutal aytmoqchi ***«Odamlarni yaxshi ko‘rish»*** sizningcha ham eng katta baxtmi? Qalbingizga quloq soling-chi, siz odamlarni yaxshi ko‘rarmikansiz? Fikrlaringizni asoslang.

8. Mutalning ***«Odam bolasi tug‘ilgan paytda pokiza bo‘ladi-ku. Uning umrbod shunaqa pokiza bo‘lib qolishi sizga, menga, hammaga bog‘liq emasmi?»*** – degan gaplarini o‘zingizga tegishli deb tasavvur qiling.

9. Alimardonning o‘g‘li Shavkat bilan to‘qnashuvi, Muqaddamning Alimardon bilan yuzlashishi sahnasini ko‘z oldingizga keltiring. Insonga taqdim etilgan hayot atalmish ne’matni qanday o‘tkazish uning o‘ziga ham bog‘liq ekani haqida mulohaza yuriting.

10. O‘ylab ko‘ring-chi, nega muallif Alimardonning fojiasini tabiat holati bilan bog‘lashga uringan?

ABDULLA ORIPOV

(1941-yilda tug‘ilgan)

KO‘RGAN-BILGANLARIM

Mening tug‘ilib o‘sgan, bolaligim o‘tgan joylar Qarshi (Qadimgi Nasaf) shahridan besh-o‘n chaqirim shimolroq tomondagi Qo‘ng‘irtov etaklaridadir. Qishlog‘imning nomini Neko‘z deydilar...

Qishlog‘imizda suv nihoyatda taqchil edi... Quduqlarning suvi batamom sho‘r, ichishga yaroqsiz. Lekin uni negadir mol-hol ichib yuraverardi. Ayniqsa, bahor oylarida bu yerga yog‘in ko‘p tushar, Qo‘ng‘irtov etaklari ming xil o‘t-o‘lan, chuchmoma-yu qizg‘aldoq, quyonto‘pig‘-u ismaloq, qo‘zigullar bilan qoplanar, atrof-tevarak jannatiy bir manzara kasb etardi. Bu yerlarga bahorda turna tushardi. Turnalar o‘t-giyohlarni terib yeb, qo‘y-qo‘zilarning orasida bemalol, behadik yuraverishardi. Shuningdek, Qo‘ng‘irtovda u paytlari kiyik ko‘p edi. Keyinchalik, atrof-tevarakni odamlar ishg‘ol qilib olishgach, yovvoyi hayvonlar o‘z-o‘zidan yo‘qoldilar. Turnalar, laylaklar kelmay qo‘ydi. Kiyikni esa hazrati Insonning o‘zi yeb bitirganiga o‘zim guvohman...

Endi gapni beriroqdan boshlasak, bu dunyoning voqea va hodisalari xotiramda to‘rt-besh yoshlarimdan boshlab qolgan. Urushdan qaytmaganlarning azalari-yu qaytgan mayib-majruh qishloqdoshlarimning qo‘ltiqtayoqni to‘qillatib yurganlari esimda. Ocharchilik, odamlarning kunjara yeganlarini ko‘p ko‘rganman. Balki vaqti-soati yetib men bu kechinmalarimni batafsil yozarman. Chunki hozir shu sahifalarga sig‘maydigan rang-barang xotiralarim ko‘p...

Negadir bolaligimda xotiram juda kuchli edi. Bir o‘qiganim esimda qolaverar edi. Radio, televideniye yoxud boshqa tomoshalar bo‘lmaganidan keyin ermagim kitob edi-da. Duch kelgan narsani o‘qib, duch kelgan narsani yodlab olardim. Bu kitoblar orasida xalq doston-

lari ham, Navoiy bobomiz-u Pushkindan tarjimalar ham, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon she’riyati va yana boshqa ko‘p roman-u qissalar bo‘lardi. Darvoqe, qish kunlarida to‘ylarga qo‘shni tumanlardan nomdor baxshilar kelib, tong otguncha doston aytishardi. Biz bolalar baxshini tinglay-tinglay bir-birimizga biqinishib uxlab ham qolar edik. Yanglishmasam, o‘shanda Umur shoir degan baxshining dostonlarini ko‘p eshitganman.

Bir qo‘shnimiz, g‘oyat pokdomon Kamolxon eshon degan kishi bo‘lardi. Rahmatlikning onasini Bibi momo der edilar. Bibi momo o‘ta darajada savodxon buvi edilar. Onam rahmatlikka ergashib, ularning suhbatiga qatnashib qolardim. Bibi momoning kattaligi sandaldek keladigan kitobi bor edi. Kitobni «Navoiy kitob» derdilar. Bibi momo Farhod-u Shirin, Layli-yu Majnunlarni chunonam qiroat bilan o‘qirdiki, ma’nosini ko‘pam tushunmasam ham qiroatdan maza qilardim...

Maktabni oltin medal bilan bitirdim. Akalarim turli shaharlarga o‘qishga ketib qolgani uchun otam meni qo‘yib yuborgisi kelmasdi... 1958-yil Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo‘limiga kelib qoldim.

She’rlarim avval tuman, viloyat gazetalarida bosilib turgan bo‘lsa-da, birinchi marta respublika bolalar gazetasida «Qushcha» degan she’rim bosilib chiqqan...

She’rlarim matbuotda tez-tez bosila boshladi. Ozod akaning «Oq yo‘li» bilan «Sharq yulduzi»da she’rlarim chiqdi. Yozuvchilar uyushmasidagi mushoiralardan birida «Munojotni tinglab», «Burgut» degan she’rlarimni o‘qidim. O‘sha kuni Abdulla Qahhor nazariga tushdim. Mirtemir domla atrofida ko‘p shogirdlari qatori saboq oldim. Shayxzodadek donishmand ustozga ergashib, u kishi she’r o‘qigan minbardan men ham she’r o‘qidim. Esimda, Eski shahardagi hozirgi «Turon» kutubxonasida o‘qigan she’rlarimni tinglovchilar juda iliq kutib oldilar. Uchrashuvdan qaytayotganimda Shayxzoda domla bilagimdan tutib: «Shoir, sizga bitta gapim bor. Ehtiyot

bo‘lgaysiz, ishqilib, qarsaklardan taltayib ketmasangiz bo‘lgani», – degan. Bu gaplar ham mening qulog‘imga qo‘rg‘oshinday quyilib qoldi.

Mening inson va ijodkor sifatida baxtim – O‘zbekistonning mustaqilligini ko‘rdim va ne baxtkim, ozod Vatanimga baholi qudrat xizmat qilib yuribman...

?

1. Shoirning tarjimayi holiga tayanib uning shaxsini o‘rganishga harakat qiling. Asarlarini o‘qiganingizdan keyin paydo bo‘lgan taassurotlaringizni solishtiring.

2. Shoirning ***«Turnalar, laylaklar kelmay qo‘ydi. Kiyikni esa hazrati Insonning o‘zi yeb bitirganiga o‘zim guvohman...»*** tarzidagi iqrori ko‘nglingizda qanday tuyg‘u qo‘zg‘adi? Shunday hodisa bilan qaysi asarda to‘qnashganingizni eslab ko‘ring.

3. Shoirning: ***«...ma’nosini ko‘pam tushunmasam ham qiroatdan maza qilardim»,*** – degan iqrori haqida mulohaza yuriting. ***«Qiroatdan maza qilish»*** sizda ham bo‘lganmi?

4. Shoirning Shayxzodadan eshitgan gaplarini qayta o‘qing. Shoir va shaxs shakllanishida ularning ahamiyatiga o‘z munosabatingizni bildiring.

SEN BAHORNI SOG‘INMADINGMI?

Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yonog‘ingdan rang olgan dedim —
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o‘zingni,
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

Uzoqlardan zalvorli tog‘lar
Xayolimni keldilar bosib.
Kechdi qancha intizor chog‘lar,
Vasling menga bo‘lmadi nasib,
Sensiz men ham, bahor ham g‘arib,
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

Ungurlarda sakraydi ohu,
Na’matakda sa’va mittijon.
G‘orliklardan sipqorilgan suv
Dalalarda uradi javlon.
Nigohimdan faqat sen pinhon,
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

Mana, bugun navro‘zi olam,
Do‘stlarimga gullar tutarman,
Qaylardasan, sevgili erkam...
Qo‘limda gul, seni kutarman,
Umrim bo‘yi chorlab o‘tarman:
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

?

1. ***«Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim, Topay dedim qirdan izingni»*** misralaridagi bog‘larning uyg‘onishi bilan oshiqni o‘rtagan sog‘inch o‘rtasida qanday aloqa borligi haqida fikr aytishga urinib ko‘ring.

2. Lolazorning ma’shuqa yonog‘idan rang olishi tasviri haqida biror narsa deya olasizmi?

3. Oshiq bilan bahor o‘rtasida qanday bog‘lanish bo‘lishi mumkin? Nega oshiq ham, bahor ham g‘arib? Balki biror fikr aytarsiz.

4. Sizningcha nima uchun oshiq shuncha go‘zalliklar orasidan faqat ma’shuqani qidiradi, kutadi? Buning sabablari, mohiyati haqida ko‘nglingizdagi gaplarni ayting-chi!

5. Nima deb o‘ylaysiz, nega har bir bandning so‘ngida ***«Sen bahorni sog‘inmadingmi?»*** deyilyapti?

6. Agar ma’shuqa ham bahorni sog‘ingan bo‘lsa shunday she’r tug‘ilarmidi? Shunday iztiroblar qog‘ozga tusharmidi?

7. Oshiqlik va ma’shuqlik haqida o‘zingizcha mulohaza yuriting. Bu timsollarga g‘ubor yuqtirmagan holda fikrlaringizni pinhoniy qog‘ozga tushiring. Uni birovga ko‘rsatish yoki o‘qib berish shart emas.

8. Bu she’rni kim qo‘shiq qilib aytgani va uning ta’sirchanlik darajasi haqida biror narsa ayta olasizmi?

9. Bizning ta’kidimizsiz ham she’rni yodlab olsangiz kerak, deb o‘ylaymiz.

BIRINCHI MUHABBATIM

Kecha oqshom falakda oy bo‘zarib botganda,
Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda,
Ruhimda bir ma’yuslik, sokinlik uyg‘otganda,
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.

O‘tdi yoshlik zavq bilan, gohi to‘polon bilan,
Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan,
Ayri ham tushdim ba’zan qalb bilan, iymon bilan...
Lekin seni yo‘qotdim, birinchi muhabbatim,
Mangu g‘aflatda qotdim, birinchi muhabbatim.

Dunyo degan shundayin anglab bo‘lmas sir ekan,
Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan,
Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan...
Nechun bilmovdim avval, birinchi muhabbatim,
Parvo qilmovdim avval, birinchi muhabbatim.

Holbuki orzulardan judo ham bo‘lganim yo‘q,
Yulduzday kulganim yo‘q, oy kabi to‘lganim yo‘q,
Erta xazon gul kabi sarg‘ayib so‘lganim yo‘q,
Seni eslab yig‘layman, birinchi muhabbatim,
Eslab bag‘rim tig‘layman, birinchi muhabbatim.

Yo‘lin yo‘qotsa odam – muhabbatga suyangay,
G‘ussaga botsa odam – muhabbatga suyangay,
Chorasiz qotsa odam – muhabbatga suyangay,
Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim,
Faqat eslab yig‘layman, birinchi muhabbatim.

Nido bergil, qaydasan, sharpangga quloq tutdim,
Sirli tushlar ko‘rib men bor dunyoni unutdim.
Tongda turib nomingga ushbu she’rimni bitdim,
Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yolg‘iz ollohim mening, birinchi muhabbatim.

?

1. Tabiatning holati: falakdan oyning bo‘zarib botishi, Zuhro yulduzning miltirab xira nur sochishi nega oshiqning ruhida ma’yuslik, sokinlik paydo qiladi? Ular orasida qanday aloqa borligi, buning sabablari haqida o‘ylab ko‘ring.

2. Yoshlikning zavq-to‘polon, yaxshi-yomonlarla o‘tib ketishi bilan birinchi muhabbat o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin? Sizningcha Oshiq nega buni endi eslayapti?

3. Nima deb o‘ylaysiz, faqat yoshlikdagi ilk muhabbat shunchalar ilohiy bo‘ladimi? Yoki, qachon kelishidan qat’i nazar, muhabbatning o‘zi ilohiymikin?

4. ***«Ayri ham tushdim ba’zan, qalb bilan, iymon bilan»*** misrasiga o‘z munosabatingizni bildiring.

5. ***«Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan»*** misrasidagi haqiqatni tuyishga urinib ko‘ring.

6. ***«Holbuki orzulardan judo ham bo‘lganim yo‘q, Yulduzday kulganim yo‘q, oy kabi to‘lganim yo‘q, Erta xazon gul kabi sarg‘ayib so‘lganim yo‘q»*** misralaridagi qarama-qarshilikni payqayapsizmi? Oshiqlik, Odamlik va Hayot haqida mulohaza yuriting.

7. Shunday olovli muhabbat sohibining uni eslab yig‘lamaslikka, eslab bag‘rini tig‘lamaslikka kuchi yetishiga ishonasizmi? Oshiqning o‘zini o‘zi shunday azoblarga tutib berishini qanday tushunish mumkin?

8. Oshiqning: ***«Yolg‘iz ollohim mening»*** deganida shakkoklikni ko‘rish mumkinmi? Ollohga sig‘inish bilan muhabbatga sig‘inish o‘rtasida bog‘liqlik topa olasizmi? Urinib ko‘ring-chi!

9. «Menga yoqqan band» mavzusida insho yozing. Bandning sizga yoqishi sabablari haqidagi fikrlaringizni qog‘ozga tushiring.

10. Bu she’rni yodlamaslikka kuchingiz yetmasa kerak-a?!

11. O‘zingiz she’r yozishga urinib ko‘ring.

TOHIR MALIK

(1946-yilda tug‘ilgan)

O‘zbek adabiyotida Tohir Malik o‘zining «Somon yo‘li elchilari», «Zaharli g‘ubor», «Chorrahada qolgan odamlar», «Falak» va boshqa fantastik, «Charxpalak», «Bir ko‘cha, bir kecha», «So‘nggi o‘q», «Shaytanat» singari detektiv asarlari bilan tanilgan va kitobxonlarning sevimli yozuvchisiga aylangan ijodkordir.

Bir qator hukumat nishonlari va mukofotlari bilan taqdirlangan, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik 1946-yil dekabrda Toshkentda ziyoli oilada dunyoga keldi. Barcha tengdoshlari singari u ham urushdan keyingi turmush qiyinchiliklarini boshidan kechirdi. Oiladagi besh farzandning kenjasi bo‘lgan Tohir maktabga bormay turiboq savodini chiqardi. Uning kitobga ixlosini sezgan akasi birinchi sinfga borgan ukasiga hozirga qadar e’zozlab saqlayotgani — «Mard yigit» ertaklar to‘plamini sovg‘a qildi.

Taniqli o‘zbek adibi va tarjimoni Mirzakalon Ismoiliy Tohir Malikning tog‘asi bo‘lib, uni 1949-yilda «xalq dushmani» sifatida qamoqqa olishadi.

«Kechasi uyg‘onib ketib, qarasam, ayam rahmatli qora chiroq nurida do‘ppi tikib o‘tiribdilar. Qo‘llari ishda-yu, ko‘zlarida yosh. «Nega yig‘layapsiz?» – deb so‘radim, javob bermadilar. Sababini oradan yillar o‘tib bildim. Tog‘amning «xalq dushmani» emasligi ma’lum bo‘lib, «oqlanib» chiqqanida ikkinchi sinfda o‘qirdim. Dastlabki mashqlarim o‘shanda boshlangan. Ammo yozganlarimni talabchan tog‘amga ko‘rsatishdan cho‘chir edim», – deb eslaydi adib.

Dastlabki hikoyasi 1960-yilda «Gulxan» jurnalida chop etiladi. 1963-yilda Tohir Malik Toshkent davlat universitetining kechki jurnalistika bo‘limiga o‘qishga kirib, kunduzi qurilishda duradgor, g‘isht tashuvchi bo‘lib ishlay boshlaydi. U ijodga doir mashqlarni davom ettirar

ekan, ustoz-tog‘aning ikki o‘giti — «O‘zing bilmagan narsani yozma», «Boshqalar yurgan yo‘ldan yurma, o‘z yo‘lingni top»ga hamisha amal qildi. Shu bois Tohir Malik o‘zbek adabiyotida kam e’tibor berilgan fantastika janriga qo‘l urdi va bir qator asarlari bilan kitobxonlar e’tiborini qozondi. Uning «Falak» qissasi rus tiliga tarjima qilinib, Moskvada va boshqa respublikalarda chop etildi.

Tohir Malik «Tong yulduzi» gazetasi, O‘zteleradio, «Guliston» jurnali, «G‘afur G‘ulom», «Cho‘lpon» nashriyotlari, Yozuvchilar uyushmasi, «Yoshlik», «Sharq yulduzi» jurnallarida faoliyatini davom ettirdi. U qayerda ishlamasin hayotni, insonlarni, ularning tabiatini yaqindan o‘rgandi. Yozuvchi asarlarini o‘qir ekansiz, ularda tasvirlangan eng yomon odamlardan ham ba’zan nafratlanmaysiz, ularga achinasiz. Nega shunday? Chunki yozuvchi insonlarni, ularning ichki kechinmalarini, ru-hiyatlarini sinchiklab o‘rganadi va kitobxonni ham mana shu ruhiyat olamiga olib kiradi, uni shu holga solgan sabablarni tahlil qilishga va xulosa chiqarishga yo‘naltiradi.

«Alvido, bolalik» asari Tohir Malik ijodida alohida o‘rin tutadi. Asardagi asosiy mavzu – hech kim jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi, bolani atrof-muhit, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantiradi. Bu haqda adibning o‘zi shunday deydi: «Men o‘smirlar va yoshlarning jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotganligiga befarq qarab turolmayman. Bolalar axloq tuzatish koloniyalariga har borga-nimda yuragim eziladi. Ozod, erkin yashab, o‘qib, hunar o‘rganadigan bolalar bu yerga qanday tushib qoldilar?! Nahot jinoyat olami ularga jozibali ko‘rinsa?! Men jinoyat olamini «Shaytanat», ya’ni shaytonlar yetovidagi zulmkorlar mamlakati deb atab, «Ehtiyot bo‘ling, jigarlarim, bu ko‘chaga yaqin yo‘lamang. Boshi berk bu ko‘chaning adog‘ida faqatgina azobli, xorli o‘lim topasiz», – demoq niyatida yozdim. Yozganlarimni ogohlantirish deb qabul qilishlarini istardim», – deydi.

?

1. Tohir Malikning yozuvchi sifatida shakllanishidagi o‘ziga xoslikka e’tibor qiling. Hayotda kattalarning o‘rni haqida mulohaza yuriting.

2. Yozuvchining yoshlarga munosabatdagi kuyunchakligini izohlang.

3. Uning «Alvido, bolalik...» asaridan olingan parchalarni o‘qing. Asar uslubini aniqlashga urining.

ALVIDO, BOLALIK...

(Qissadan parcha)

KECHA QAYERDA EDIK

yoxud har ehtimolga qarshi topilgan bahonalar haqida hikoya

Adabiyot o‘qituvchisi jurnalni stol ustiga qo‘ydi-da, dumaloq ko‘zoynagini burni uchiga qo‘ndirib, sinfga razm soldi.

– Demak, gap bunday: o‘ttizinchi yillar adabiyotini o‘rganishni kechiktiramiz. RayONO[1]dan topshiriq bo‘ldi, bugun siz bizga «Baxtli bolalik» degan mavzuda erkin insho yozib berasiz.

– Hamma yozadimi?

– Bu nima deganlari bo‘ldi? Zoirali bo‘tam, sizga alohida taklif lozimmi yo?

– Inshoni erkin deyapsiz-ku?

– Nomi shunaqa, bo‘tam. Qani, qog‘oz olib, ish boshlanglar. Vaqt ketmasin.

– Samad aka, biz bolalikdan o‘tdik-ku, nimasini yozamiz?

– Hali o‘tib bo‘lganingizcha yo‘q. Zoirali bo‘tam, endi o‘tyapsiz. Qilayotgan ishingizga o‘zingiz to‘g‘ri baho bera olgan oningizdan boshlab bolaligingiz bilan vidolashasiz. Ha, ha, aynan vidolashasiz. Bolalik qaytmas bo‘lib ketadi. Bolalik sizning xotirangizga ko‘chadi. Vaqti

[1] R a y O N O — tuman xalq maorifi bo‘limi.

kelib, bu xotira vijdon azobiga soladi, vaqti kelib nimalarnidir qo‘msashga majbur qiladi. Xullas, sizni har ko‘yga soladi. U bilan vidolashishga oshiqmang. Bolalik – hayotning asl pallasi, undan ko‘proq bahramand bo‘lishga intiling. Asaldan keyin turli achchiqliklarga duch kelasiz.

– Samad aka, shularni yozsak-chi? «Baxtli bolalik» emas, «Alvido, bolalik» desak-chi?

– Bo‘tam, ko‘p aqlli bolasiz-ku, biroq ayrim vaqtlarda kaltafahmlik qilib qo‘yasiz. Tushuning, «Baxtli bolalik» menga emas, RayONO ga kerak. Shu bois men bilan tortishmang. Ishni boshlang.

Bolalarni sizlab, yumshoq gapiruvchi bu odam ko‘pincha o‘z ishini o‘zi qiyinlashtirardi. Bolalar uni bo‘shang deb bilib, baravar tortishishdan tap tortishmasdi. Ba’zan butun dars tortishuv bilan o‘tardi. Kitob o‘qishni jonidan ham yaxshi ko‘radigan Zoir ko‘pincha bahs boshlab qolardi.

Samad aka bugungi bahsga barham berish uchun deraza oldiga bordi-da, qo‘lini orqasiga qilib, hovliga tikilib oldi.

Sinfda shivir-shivir, qog‘ozlar shitiri boshlandi. Asror daftar orasidan ikki varaq yirtib olib «Baxtli bolalik» deb yozdi-da, o‘yga toldi:

«Zoir to‘g‘ri aytdi. Insho erkin bo‘lganidan keyin hammani majbur qilishning nima keragi bor? Hamma o‘zini baxtli deb hisoblaydimi? Ana, Turob, akasining jasadini Afg‘onistondan olib kelishdi. Onasi bunga chidamay jinni bo‘lib qoldi. Hozir jinnixonada. Yetti bola otasining o‘ziga qolgan. «Men baxtliman...» deb boshlaydimi inshosini. Manzura-chi? Otasi ketib qolgan. Onasi ikkovi turadi. U nima deb yozadi? Otaullaga ham qiyin. «Men baxtliman, chunki otamning puli ko‘p», deya olmaydi. Aslida-ku ular pulning ko‘pligini baxt deb bilishadi. Lekin ochiq ayta olishmaydi. Pul dengiz bo‘lib mavjlanadi ularning uyida. Biroq o‘zlari xohlagancha ishlata olishmaydi. Bu baxtmi yo baxtsizlik? Harholda nima

deb yozarkan u boyvachcha? Bunaqa gaplarga Zoir usta, qotirib tashlaydi. Umuman, baxtli bola u. Ota-onasi injener, uyida o‘zi-yu singlisi. Gazetaga xabar yozadi. Nima istasa shunga eri-shadi. Ergash-chi? Otasi aravakash. Dars tugashi bilan somonbozorga yuguradi. Shuni yozadimi? Agar Dilfuzalarga ham shu mavzu berilsa u nimani yozadi? Ikki oyog‘i qirqib tashlangan otasining injiqliklari, onasiz qo-lishning naqadar baxtsizlik ekanini bayon qiladimi? Xo‘sh, o‘zim-chi? O‘zim nimani yozay, kechagi voqeanimi yo otam bilan to‘yma-to‘y yurishimnimi? Otamning o‘yinchi xotinga suykalishinimi? Ming la’nat!» Asror xayoliga kelgan fikrdan titrab, o‘zini tutolmay qoldi. Ruchkani stol ustiga taq etib urdi. O‘ziga tikilgan nigohlarni tuyib, boshini egdi. Ich-ichida nimadir qizib, ko‘kragini yondirdi. U sinfda o‘tira olmasligini sezib, shart o‘rnidan turdi-da chiqib ketdi.

Eshikni yopa turib «Boss kasal bo‘pqopti», degan ovozni eshitdi.

Asror hech narsaga qaramay, ko‘chaga chiqdi. Kinoteatr qarshisidan o‘ta turib yana o‘sha joylariga qaradi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, Qamariddin sigaret tutatib o‘tirardi. Yonida ikki yugurdagi. Qamariddin Asrorni ko‘rib imladi.

– Kecha qayerda eding? – dedi u Asror yetib kelgach.

– Kinodaydim.

– Vo, professor bu, ko‘rdilaringmi? Bashkasi ishlaydi. Sen kecha meni ko‘rganing yo‘q, demak. Qayoqdan ham ko‘rarding? Kecha men yo‘lda edim. Andijondan keldim bugun ertalab. Poyezddan endi tushib turibman. Mana biletim, – u shunday deb ko‘krak cho‘ntagidan poyezd biletini olib ko‘rsatdi. «Demak, ertalab vokzalga borgan, biletni o‘sha yerda kimdandir so‘rab olgan yo o‘margan. Ishi pishiq buning», – deb o‘yladi Asror.

– Demak, gap bunday, bratishka, hamma qayerdaligini yaxshi biladi. Kecha hech qanday voqea yuz bermadi. Bugun sabanto‘y.

– Mening vaqtim yo‘q.

– O‘zing bilasan. Bilib qo‘y: bashkangni yo‘qotma. O‘zingga qiyin. Meni hech qanday qarmoq ilintira olmaydi. Sen maktabda professor bo‘lsang, men u yoqda... – Qamariddin panjalarini panjara qilib ko‘rsatdi, – akademik bo‘lib kelganman. Omon qolaman, desang, mendan uzoqlashma.

– Salimning yarasini bog‘ladingmi?

– Salimning ishi besh, undan xavotir olma. Sen faqat qo‘rqmasang, bas, bu yog‘i «okey» bo‘ladi.

Qamariddinning gapidan keyin Asror o‘ylanib qoldi. «Hozir bu yerdan ketib qayoqqa ham borardim. Uyga qaytsam hisob berishim kerak. Bir o‘zim shaharda sanqib yuramanmi?» Shu fikrga kelib, Qamariddinning yonidan joy oldi.

Asror o‘tirishi bilan Qamariddin yonidagi ikki bolani «Sigaret olib kelinglar», – deb turg‘izib yubordi.

– Darsdan qochdingmi? – dedi Qamariddin Asrorga diqqat bilan tikilib.

– Qochmadim, chiqib ketdim. – Asror maktabdagi voqeani aytgisi kelmadi.

– Professor, basharangda rang qolmabdi. Shunchalik qo‘rqyapsanmi? Sen qo‘rqma. O‘zim o‘tirsam ham seni tortmayman. Bolalarga ham tayinlayman. Sen yo‘qsan oramizda. Men baribir qamalib ketaman. Bugun bo‘lmasa, ertaga. Senga o‘n besh yil vaqt beraman. Agar o‘n besh yilda professor bo‘lolmasang, o‘g‘rilarga qo‘shib yuboraman.

Qamariddin shunday deb uning yelkasiga sekin mushtladi. Asror uni hazillashyapti, deb o‘yladi. Yo‘q, Qamariddinning ko‘zida quvlik yo‘q edi. Qarashlari jiddiy, hatto o‘ychan edi.

– O‘ninchini bitirib, uyingdan chiqib ket. Gapimga xafa bo‘lma. Otang seni o‘qitgisi kelmayapti. Seni men o‘qitaman. Pulim bor. O‘ninchini bitirgan kuning beraman. Ungacha qamalib ketsam, xat bilan ma’lum qilaman. Kitobni falon joydan, falon odamdan olib yubor, desam, pulni tushunaver. O‘zing olib ishlatasan. O‘qimay yurib pulni yeb yuborsang... o‘ldiraman.

Qamariddin keyingi gapni sovuqqina qilib aytdi. Asrorning eti seskandi. Qamariddin gapni qanday sovuqqonlik bilan aytsa, shunday sovuqqonlik bilan amalga oshirishi mumkin edi. Asror bunga kecha guvoh bo‘ldi. Qamariddin talato‘pda shoshib ham qolmadi, hayajonlanmadi ham. O‘lgan odamning cho‘ntagini kavlab pulini oldi-da, suv bo‘yiga sudrab keldi. Keyin to‘rt kishi ko‘tarib anhorga otishdi. Qamariddin shunchaki tosh irg‘itgandek otdi. Keyin: «Jo‘nanglar, bugun biz ko‘rishmadik», – dedi. Ovozida zarracha hayajon, qo‘rquv sezilmadi. U kunda, kunora mol so‘yib yuradigan qassoblardek xotirjam edi.

Asror uchun Qamariddinning bu himmati yangilik emas. Qamariddin ko‘pdan beri: «Seni o‘qitaman, professor bo‘lasan», – deb yurardi. Lekin Asror buni hazil deb tushunardi. Asror Qamariddinni avvaliga shunchaki mayda yo‘lto‘sar, kissavur deb o‘ylagan edi. Ayniqsa, uni dastlab chaqirib pul talab qilganida shu fikrda edi. Keyin qo‘rquv tufayli unga yaqinlashib qolgach, fikri o‘zgara boshladi. Qamariddin yo‘lto‘sarlik qilmas edi. Ayniqsa, yosh bolalarga tegmas edi. Yonidagi bolalar Qamariddin yo‘q paytdagina bu ishga qo‘l urishga jur’at etishardi. Qizig‘i shuki, Qamariddin yosh bolalarga tegishga yo‘l qo‘ymasdi, ammo biron-bir bolaning bu ishga qo‘l urganini bilgach, uni jazolamasdi ham. Asror uning mana shu jumboqli fe’lidan ajablanardi.

Qamariddinning yonidan sira pul arimasdi. Bolalarni hamisha mehmon qilib yurardi. Uning vujudida ham mehr, ham vahshiylik yashiringan edi. Asror qachon mehr, qachon vahshiylik bosh ko‘tarishini bilmas edi. Mana, hozir Qamariddin mehr hukmiga bo‘ysunib o‘tiribdi. U bekordan bekorga gapirmaydi. Aytganini qiladi. Pul beraman deydimi, beradi. Uraman, desa – uradi. O‘ldiraman, desa – o‘ldiradi, tamom!

Asror ham, boshqa bolalar ham Qamariddinning armonini bilishmaydi. Qamariddinning dardi ichida. Faqat bir marta, kayf qilib o‘tirib, Asrorning bo‘ynidan ushlab, peshanasini peshanasiga bosib xo‘rsingan: «Mening ham

o‘qigim kelardi, student bo‘lib yurgim kelardi. Olim bo‘lib oq «Volga»larda kerilib yurgim kelardi», – degan edi. Ana shunda Asror uning qalbida katta dard, alam borligini sezgan edi.

Hozir Qamariddinning o‘sha xo‘rsinib aytgan gaplarini esladi. «Demak, o‘zi erisholmagan darajani menga in’om etmoqchi», – degan to‘xtamga keldi.

– Senga bir maslahat aytay: anavi marjaga uylan, yaxshi ko‘rmasang ham uylan. Uning yuragi yarimta. Uylangin-u, ammo burningdan ip o‘tkazib olishiga yo‘l qo‘yma.

Qamariddin «marja» deb Dilfuzani nazarda tutgan edi.

– Uni... yaxshi ko‘rmayman, bilasan-ku...

Ha, Qamariddin biladi. Sochi kalta qirqilgan, durkun bu qiz bolalar uyidan qaytib, shu maktabga qatnay boshlagach, uning atrofida o‘ralashadiganlar ko‘payib qoldi. Otasi u ahvolda, onasi yo‘q, deb unga tinchlik bermay qo‘yishdi. Bir kuni ikkitasi qizning yo‘lini to‘sib xiralik qilayotganida Asror kelib o‘rtaga tushdi. Ikki bola uradigan bo‘lsa, Asror bas kelolmas edi. Lekin bolalar Asrorning Qamariddin degan homiysi borligini bilishardi. Shu-shu Asror Dilfuza bilan maktabga birga kelib-ketib yurib, qizni bu balolardan qutqardi.

Dilfuzaning ko‘ngli chinakam yarimta edi. Uyda dardini eshitadigan dardkashi yo‘q edi. Maktabda ham, ko‘chada ham yo‘q edi bunday dardkash. Shundanmi, bora-bora Asror uning ko‘ziga avliyo bo‘lib ko‘rina boshladi. Dardini ham, hasratini ham unga aytadigan bo‘ldi. Dilfuza yaxshi kiyinib yuradigan sinfdoshlariga havas qilardi. Ammo otasining nafaqasi tirikchilikka arang yetardi. Amakilarining topish-tutishlari yaxshi bo‘lgani bilan qarashmas edi. Asror bundan xabar topib, to‘yda otasidan yashirib qolgan pullarni Dilfuzaga sarf eta boshladi. Avval chiroyli sumka olib berdi. Keyin tufli... Dilfuza Asrorni mana shu mehribonliklari evaziga yaxshi ko‘rib qoldi. U Asrorning rahmdilligi tufayligina shunday qilayotganini tushunib yetmagan edi. Buni Qamariddingi-

na bilardi. Bolalar uyida o‘sgani uchun qiz uning ham himoyasida edi. Bir kuni Shomil Asror yo‘g‘ida Dilfuzaga tegajog‘lik qilganida Qamariddindan ko‘radiganini ko‘rgan edi. «O‘z og‘ayningga nomardlik qilishni o‘rgansalaring kallala-ringni olaman», – deb do‘q urgach, Dilfuza guruhda erka singilga aylandi.

– Ma, marjangga ber! – Qamariddin cho‘ntagidan bitta yuztalikni olib, Asrorga uzatdi.

– Olmaydi, kechagi odamnikimi?

– Ishing bo‘lmasin, beraver, o‘zimniki de. Otasiga yangi arava olish kerak, deyayotuvding-ku?

– Sen xuddi bir yoqqa ketadigan odamga o‘xshab gapiryapsan, – dedi Asror pulni olib cho‘ntagiga solar ekan.

– Ba’zi gaplarni vaqtida aytib qo‘yish kerak. Ketishga hech qayoqqa ketmayman. O‘zi safardan bugun keldim-ku? – Qamariddin shunday deb ishshaydi. Endi u tamom boshqa odamga aylandi. Undagi mehr qayoqqadir yashirindi. Asrorning ko‘z oldiga uning kechagi holati – o‘likning cho‘ntaklarini kavlashi keldi.

– Qamar, sen nimaga o‘likning pulini olding? – Asror shunday deb uning g‘ilay ko‘zlariga tikildi. Bu ko‘zlardan biror ma’no uqmoqchi bo‘ldi. Qamariddin esa unga javoban yana xunuk ishshaydi:

– Pul – xalq mulki, u suvda chirimasligi kerak.

Shu javob kifoya edi. Asror nafasini yutdi.

Bu orada ikki yugurdak sigaret keltirdi. Asror Qamariddinning maqsadini shunda bildi: Asror bilan guvohlarsiz gaplashmoqchi ekan.

Qamariddin «baribir qamalib ketaman» deb to‘g‘ri aytgan edi. Garchi kechagi voqeadan qutulib qolish chorasini ko‘rib qo‘ygan bo‘lsa ham ertaga yo keyingi oydami yuz berajak voqeada qo‘lga tushishiga amin edi. Qadimgi yunonlar odamni hayot ummonidagi qayiqqa, taqdirni esa shu qayiq yelkanlariga urilib suruvchi shamolga qiyos etgan ekanlar. Qamariddinning kemasi adog‘i ufqqa tutash bepoyon dengizda emas, balki atrofi

qoyalar bilan o‘ralgan ko‘rfazda ekanini biladi. U o‘zi istagan kengliklarga chiqib ketolmaydi. Yo‘q, agar astoydil istasa, chiqib ketishi ham mumkin. Lekin bunga o‘zida ishonch yo‘q. O‘zini o‘zi shu ko‘rfazga moslagan, taqdir shamoli turib qoyalarga urilishi tayin ekaniga ishontirgan. Ayni chog‘da, atrofidagi odamlarga ishonmay qo‘ygan. Ayniqsa, kayf qilganida odamlar uning ko‘ziga yomon bo‘lib ko‘rinaveradi. «Eh siz, to‘yganlar!..» – deb g‘ijinaveradi.

Nima uchun bunday deyayotganini bolalar bilishmaydi, tushunishmaydi. Bilish uchun Qamariddin bo‘lib tug‘ilish, Qamariddin bo‘lib yashash, u totgan zahar-zaqqumlardan totish kerak.

Qamariddin otasi kimligini haligacha bilmaydi. Onasini uchinchi sinfga borayotganida ilk bor ko‘rgan. Bor gapni keyinroq buvisi aytgan. «Tug‘ilganingni bilib xursand bo‘ldim. Onang chiqadigan kuni guldasta ko‘tarib borsam, bir o‘zi kelyapti. Maqsadini tushundim. U yosh edi. Umrini badnom qilgisi kelmagan. Turmush qurib yaxshi bo‘lib ketar devdim. Seni menga berishmadi. Haqqim yo‘q ekan. Lekin ismingni men qo‘yganman: oydek yuzi yorug‘ bo‘lib yursin, deb Qamariddin qo‘yganman, bolam...» Qamariddin buvisining nima uchun haqqi yo‘qligini ancha keyin, uning o‘limidan keyin bildi. Avvalo, u buvi emas, mutlaqo begona – Qamariddinning onasi unikida ijarada turib ona-bola tutinishgan ekan. Ikkinchidan, bu ayol hali uncha qari bo‘lmasa ham, sihati yomonligi uchun pensiyaga chiqqan ekan. Qamariddin tug‘ruqxonada ko‘z ochib, bolalar uyida tetapoya bo‘ldi, bolalar uyida esini tanidi. Ota-ona mehri, kindik qoni to‘kilgan joy degan tushunchalar unga begona edi.

Qamariddin notanish odamlar kelib bolalarni olib ketishlarini bilgach, qandaydir umid bilan kimningdir kelishini, boshini silashini, mahkam quchoqlab o‘pishini intiq kutardi. Odamlar kelishardi, ammo uni olib ketishmas edi. G‘ilay bo‘lgani, ayiqpolvonday xunuk yurishini yoqtirmaymi, uni hech kim chaqirmas, boshini silamas,

mahkam quchoqlamas, o‘pmas edi. U faqat buvisidan umid qilardi. Ammo buvisi nima uchundir uni olib ketmas edi.

Ota-onasi kelishidan umidlari uzilganda bolalar to‘planib olib afsonalar to‘qishardi.

– Mening dadam bilan oyim kosmonavt bo‘lishgan. Quyoshgacha uchib borib, qaytib kelishayotganida benzinlari tamom bo‘lib qolib portlab ketishgan, uyda rasmlari bor, – deydi uyi bor-yo‘qligini aniq bilmaydigan do‘mboq qizcha. Qamariddin u bilan o‘ynashni yaxshi ko‘rardi. Hozir, yillar o‘tgach, uning ismini unutgan. Hamisha ota-onam kosmonavt edi, deyavergach, kattaroq bolalar uni Tereshkova deb chaqiradigan bo‘lishgan edi.

Bu afsonalarning yolg‘on ekanini hamma bilardi. Lekin hech kim yolg‘on deb masxaralamasdi. Shundanmi, ayrim bolalar o‘zlari to‘qigan afsonaga o‘zlari ishonib qolishardi. Qamariddin ham otasining uchuvchi, onasining harbiy shifokor ekaniga, ular urushning oxirgi kuni Berlinda halok bo‘lishganiga ishonib qolayozgan edi. Sanashni o‘rganganidan keyingina o‘zining urushdan yigirma yil o‘tgach tug‘ilganini bilib qoldi. Boshqa afsona to‘qishga to‘g‘ri keldi: ota-onasi Toshkentda yer qimirlaganda odamlarni qutqarayotib halok bo‘lishgan. Uchinchi sinfda o‘qiyotganida bu afsona ham barham topdi. Aniq eslaydi: bahor edi. Osmonda pag‘a-pag‘a oppoq bulutlar suzib yurardi. Hovlidagi daraxtlar gullagan palla edi. Uni direktor xonasiga chaqirdilar. Sochi kalta qirqilgan, lablariga qizil, ko‘zlariga surma tortilgan, oq shim, oq kurtka kiygan chiroyli ayolni ko‘rib «Kim ekan bu?» degan xayolda unga tikilib qoldi.

– Qamariddin degan azamatimiz shu, – dedi direktor.

Ayol o‘rnidan turib, quchoq ochdi.

– O‘g‘lim, jonim o‘g‘lim, – deb Qamariddin tomon yurdi.

Qamariddin avvaliga anqayib turdi. Bolalik ongi onasini avval Berlinga, keyinroq Toshkentga dafn etgan

edi. Uning tasavvuridagi onasi dastlab fashistlardan ham qo‘rqmaydigan qahramon, keyinroq odamlarga kuyunuvchi, mehribon ayol edi. Tasavvurdagi ikki ona ham tasavvuridagi qabrda yotibdi. Bu olifta kim bo‘ldi? Rostdan onasimi? Bundan olti-yetti yil avval shu voqea sodir bo‘lsa, balki Qamariddin o‘zini uning bag‘riga otardi. Hozir uni nima ushlab turibdi? «Qani, Qamariddin, chop uning bag‘riga, quvon, shodlan, onang keldi!» – deydi bir ovoz. «Qamariddin, qochib qol, bu ona emas, yalmog‘iz, sendan o‘n yil xabar olmagan xotin ona bo‘larkanmi?» – deydi ikkinchi ovoz.

Ayol Qamariddinni go‘dak fahmlab xato qilgan edi. ***Ota-onasiz o‘sayotgan bolalarning hayot falsafasi, hayot haqidagi, beimon otalar, bevafo onalar haqidagi tushunchalari ancha barvaqt shakllanadi. Ularning mitti yuraklarida bu beimonlarga, bu bevafolarga nisbatan nafrat ancha ilgari ko‘z ochgan edi.*** Qamariddinni qochishga undagan ikkinchi ovoz ana shu nafrat ovozi edi. U shu ovozga quloq tutdi. Onasi ikkinchi, uchinchi kelganda ham yaqinlashmadi. Buvisi yo‘qlab kelganda: «Ayting, endi ko‘rinmasin, o‘ldiraman», – dedi. Buvisi o‘n yashar boladan bunday gap kutmagan edi, qo‘rqib ketdi. Ancha nasihat qildi, onasini maqtadi. U o‘sha onda bolaning ahdi qat’iy ekanini fahmladi. Shundan so‘ng o‘zini «ona» deb tanitgan ayol ikki yilgacha kelmay qo‘ydi. Faqat bir marta – buvisi olamdan o‘tganda kelib olib ketdi. U mehribon kampirning o‘limi Qamariddinda mehr-shafqat uyg‘otar, deb o‘ylagan edi. Yo‘q, Qamariddin ikki kundan so‘ng bolalar uyiga qaytdi.

Qamariddin oltinchi sinfda o‘qir edi. O‘qishning ikkinchi haftasi edi. Maktab yo‘li ikki qavatli kottejlar yonidan o‘tardi. Qamariddin bu yerdan o‘tayotganda: «Ana, detdom bolalari», – degan haqoratomuz so‘zlarni ko‘p eshitgan. Bu safar havorang «Volga» atrofida uch bola turgan ekan.

– E haromi tashlandiqlar, bu ko‘chadan yurmanglar, – dedi ulardan biri. Qamariddin uni tanirdi. Otasi shu

«Volga»ning, shu uyning egasi. O‘zi sakkizinchida o‘qiydi, umrida ovqat yemaganday ozg‘in, rangpar bola. Nimasiga oliftagarchilik qiladi, Qamariddin tushunmaydi. Agar Qamariddin yolg‘iz bo‘lganida bu gapga balki indamasdi. Yonida uchinchi sinfda o‘qiydigan to‘rt qizaloq bor. Ular balki haromi, tashlandiq degan so‘zlarning ma’nosiga tushunib yetishmas. Ammo Qamariddin yaxshi biladi bu so‘zlarni. U ana shu qizaloqlar oldida haqorat uchun o‘ch olishga o‘zini majbur deb his etdi. Papkasini yerga qo‘yib, bolaga yaqinlashdi-da, jag‘iga musht tushirdi. Bu bolaga shuning o‘ziyoq kifoya qildi. Ikkinchi bola hamla qilgan edi Qamariddin yelkasidan oshirib otdi. Uchinchi bola unga yaqinlashishga jur’at etolmay, qochib qoldi. Bu orada «Volga»ning egasi chiqdi.

– O‘zlari boshlashdi, – dedi Qamariddin undan najot kutib. U esa ko‘zlari mo‘ltillab turgan bolaga tarsaki tortib yubordi.

– Haromi, beadab, turqingni ko‘rsatma bu yerda, – dedi so‘kinib.

Qamariddin yig‘lab yubordi. Qo‘rquv bilan qarab turgan qizchalar yoniga qaytib, papkasini qo‘liga oldi. U ilojsiz edi, bu odamga kuchi yetmasdi, ammo alamini ham ichiga sig‘dirolmasdi.

– O‘zing haromisan! – dedi u bor ovozda baqirib. Shundan keyingina biroz yengil tortganday, alamlari unutilganday bo‘ldi.

Ertasiga Qamariddinning axloqi maktabda ham, bolalar uyida ham muhokama etildi. Qamariddin uch-to‘rt kungacha azobda yurdi.

«Nima uchun gunohkor emas, begunoh odam jazolanadi? Aybim ota-onam yo‘qligimi, yetimligimmi? Endi hamisha shunday bo‘laveradimi? Nima qilishim kerak? Himoyachim kim mening?» Qamariddin ko‘p o‘yladi. U hayotda bundan battar nohaqliklar ham borligini hali bilmasdi. Uning uchun eng katta nohaqlik – tirik yetimlik. Boshqa nohaqliklar shundan kelib chiqaveradi. Sening himoyaching yo‘q, hech kim senga qayishmaydi,

nohaqlikka qarshi o‘zing kurashishing kerak. O‘zingni o‘zing himoya qil, kurash, yengib chiq. Kimligingni ko‘rsat ularga! Agar yengib chiqolmasang, o‘zingni ko‘rsatib qo‘ya olmasang, o‘lib ketganing ming marta yaxshi! Qamariddin shu qarorga keldi. Aql nuqtayi nazaridan qaralganda bu noto‘g‘ri qaror, biroq yaxshilar mehriga muhtoj, qalbi zada bola uchun esa birdan bir to‘g‘ri yo‘l shu edi.

Bir kuni kechki ovqatdan keyin haqoratga guvoh bo‘lgan qizlarni, hamisha kalaka ostida yuradigan zaifroq bolalarni to‘pladi-da, kottejlar tomon boshladi. O‘sha kottej, o‘sha «Volga», o‘sha bolalar... Faqat uchta emas, beshta. Hammasi qiltiriq. Qamariddin g‘azabga minsa beshoviga bas kela oladi.

– Men senga nima deganman? – dedi tunov kuni musht yegan bola. U sheriklariga orqa qilib gapirgan bo‘lsa ham, ovozida hadik bor edi.

– Sendan kechirim so‘ragani keldim, – dedi Qamariddin.

– O, detdomda odam tarbiyalaydigan bo‘lishibdi,– dedi bola xaxolab kulib.

Qamariddin unga yaqinlashib qo‘l uzatdi:

– Kechir.

– Nazimchik, bechorani kechira qol. O‘zi shundog‘am xudo urib qo‘yibdi, – dedi bolalardan biri.

Nozim deganlari «Ha, mayli», – deb qo‘l berdi. Qamariddin bu nozik panjalarni mahkam qisgan edi, bola ingrab, o‘tirib qolayozdi.

– Men sendan, haromi, o‘sha kuni yaxshilab urmaganim uchun kechirim so‘ramoqchiman!

Qamariddin shunday deb uni o‘ziga siltab tortib, chalib yubordi. Nozim voy-voylashga ham ulgurmay o‘zini Qamariddinning yelkasida ko‘rdi. Nafas o‘tmay esa o‘rtoqlari ustiga uchib tushdi. Qamariddin duch kelgan bolani ushlab uraverdi. Bu orada Nozimning otasi pijama kiygan ahvolda yugurib chiqdi. Endi Qamariddin undan najot kutib turmadi. Katta toshni olib shaylandi.

U odamning vajohati yomon edi. Ayni chog‘da, Qamariddinning ko‘ziga ham hech nima ko‘rinmasdi – u toshni mo‘ljallab, zarb bilan otdi. U odam o‘zini himoya qilishga ulgurmay boshini changallaganicha o‘tirib qoldi. Shunda Qamariddin yugurib kelib uni tepdi. Kap-katta odam kichkina bolaning tepkisidan cho‘zildi. Qamariddin bunga ham qanoat qilmay qo‘liga haligi toshni olib mashinaga otdi. Mashina oynasi chil-chil sindi. Qamariddin ana shundan keyingina qochdi. Bolalar uyiga emas, o‘zini duch kelgan ko‘chalarga urdi. Tunda vokzalga bordi. Yurib ketayotgan poyezdga osilib chiqdi. Xullas, uni besh kundan keyin Qizil O‘rdada tutib, iziga qaytardilar. Endi u o‘zi uchun qadrdon bo‘lib qolgan bolalar uyiga emas, balki tarbiyasi og‘ir bolalarning maxsus maktabiga jo‘natildi. Qamariddin atrofi baland devor, simto‘siq bilan o‘ralgan maxsus maktabga shu zaylda tushdi. Dastlabki qasos uni dastlabki jazo, dastlabki qamoq bilan mukofotladi.

Maxsus maktabda yaxshilik haqida ko‘p gaplar eshitdi. Tinglagan nasihatlari to‘plansa, katta bir kitob bo‘lar. Biroq u nasihatlarni quloqqa ilmadi.

Nafrat o‘qiga, eng avvalo, bevafo onasi, so‘ng beimon otasi duch bo‘lishgan edi. Endi ular haqidagi afsona tumanday tarqalib ketgan, ularning asl basharalari quyosh yorug‘ida manaman deb turardi. Maxsus maktabning katta, og‘ir, jigarrang darvozasi bo‘lardi. Uning ro‘parasidagi o‘rindiqqa o‘tirib Qamariddin xayol surardi: «Hozir qo‘limga miltiq berib qo‘yishsa-yu, darvozadan otam bilan onam kirib kelsa, shartta otardim. Ana undan keyin o‘zimni ham otib yuborishsa mayli. Yo‘q, avval sud bo‘lishi kerak. Sudda gapirishim kerak. Bolasini tashlab ketgan ota-onaning jazosi shu, deyman. Tirik yetimlar, hammangiz ablah ota-onangizni topib otib yuboring. Yolg‘on gaplar to‘qib, ularni yaxshi odam qilib ko‘rsatmang bir-biringizga, ayamay otib tashlang, deyman. Tirik yetimlarga miltiq beringlar, deyman! Ana shundan keyin meni otishsa ham mayli».

Qamariddin shunday o‘ylagani bilan onasining yoniga qaytishga majbur bo‘ldi.

Ularnikiga bir odam serqatnov edi. Dastlab ko‘ringanda onasi: «Dadangning do‘sti, bizdan xabar olib turadi», – deb izoh berdi. Qamariddin: «Dadamning o‘zi qayerda, nima uchun o‘zi xabar olmaydi?» – deb so‘ramadi. U go‘dak emaski, bu odamning maqsadini bilmasa. Avvaliga Qamariddin qo‘qqisdan kirib qolsa, ichib o‘tirganlarini yashirishga harakat qildilar. U go‘l emaski, aroqning hidini bilmasa. Keyinroq borib yashirmay ichaverdilar. Bir kuni Qamariddin kelib u kishining ro‘parasiga o‘tirdi. Ko‘chada bolalar bilan musallas ichgan, shirakayf edi. Piyolada onasiga quyilgan aroq turgan ekan, shartta olib ichib yubordi-da, yana quying, deb «otasining do‘sti»ga uzatdi.

– Yoshlik qilasan, – dedi u odam piyolani chetga olib qo‘yib.

Shu paytgacha Qamariddin u bilan deyarli gaplashmagan edi. Salom berardi-yu, ko‘chaga chiqib ketardi. Bugun kayf ta’sirida, qitmirlik qilgisi keldi.

– Sening bolang bormi? – dedi u dabdurustdan sensirab.

– Bor, – dedi «otasining do‘sti» g‘azabini ichiga yutib.

– Detdomdami?

– Nimaga detdomda, uyda.

– Tashlab ketmaysanmi?

– Jinni bo‘lganmisan?

– Bolalaringni tashlab, onamga uylan. Meni o‘g‘il qilib ol.

Shu paytda oshxonadagi onasi kirib, ularning suhbatidan lol bo‘lib, tosh qotdi. «Otasining do‘sti» ham bu taklifdan tamom gangidi.

– Qamarjon, bunaqa masalada hazil qilma.

– Uylansang uylan, bo‘lmasa o‘ldiraman.

– Qamar! – dedi onasi, uni yelkasidan ushlab. Qamariddin qitmirlik bilan ularni masxaralamoqchi edi. Ammo o‘zi kutmagan holda nafrati uyg‘onib, g‘azabi qo‘ziy boshladi.

– Sen ablahsan, odammassan, – dedi u onasining silabsiypashiga e'tibor bermay.

U odam o'rnidan turib, eshik tomon yurdi. Qamariddin irg'ib turdi-da, yo'lini to'sdi.

– Sen hayvonsan! Sen... san! – deb haqoratlashda davom etdi.

Bu mishiqidan shunday so'zlarni eshitishga ori keldi u odamning: Qamariddinning yuziga shapati qo'yib yubordi. Xuddi o'sha kottej, o'sha «Volga» egasiday urdi. Unda Qamariddin yig'lab yuborgan edi. Bu safar yig'lamadi, kuldi. Bu kulgisida zahar zohir edi. Bu kulgisi yomon bir narsaning darakchisi edi. Qamariddin kulib turganicha uning qorniga kalla qilib, bukchaytirib qo'ydi. Tepmoqchi edi, o'rtaga onasi tushdi. Qamariddin: «Ha, mayli», – dedi-da, oshxonaga kirib katta pichoqni oldi. Xonaga kirganida onasi stulda, u odam esa yerda onasining tizzasiga bosh qo'yib o'tirgan edi. Onasi pichoq ushlagan Qamariddinni ko'rdi. Baqirib yubordi. Ammo u odam boshini ko'tarishga ulgurmadi. Qamariddin otilib kelib uning bo'yniga pichoq sanchdi. Oshxonada, pichoq olayotgan chog'da, onasini ham o'ldirishni fikr qilgan edi. Ammo onasiga qo'l ko'tara olmadi. Nimaga shunday bo'lganini keyinroq ham ko'p o'yladi. Biroq ming o'ylagani bilan sababini bilolmadi. U bir narsani aniq bilardi: uni o'zi ham sezmagan qandaydir kuch ushlab qolgan edi.

U maxsus maktabda yurganida beimon otasini, bevafo, bemehr onasini o'ldirishni xayol qilardi. Onasini o'ldirolmadi, biroq begonani o'ldirdi. «To'g'ri qildim, – deb o'ylardi u qamoqda yurgan kezlarida, – bolalari beimon otadan qutulishdi. Bolalarini aldab yurgan odam odammidi?»

Sud bo'ldi. Sudda yillab o'ylab yurgan gaplarini aytdi. Gaplar e'tiborga olinmadi. U o'zini endi bolalar axloq tuzatish mehnat koloniyasida ko'rdi. Uch yil shu yerda bo'ldi, keyin kattalarning koloniyasiga o'tdi. Qimor ham, aroq ham, nasha ham, bir-birini bo'g'ishlar... hammasi bor edi bu yerda. Yetti yilda o'zi Asrorga aytganday

«akademik» darajasiga yetdi. Onasi qamoqdan qutulib chiqqan o‘g‘lini kutib olmadi. Uyga o‘zi bostirib bordi. Unga boshpana kerak edi. Uni kutib turgan birodarlari bor edi. O‘shalar bilan ish boshladi.

?

1. ***«Baxtli bolalik»*** mavzusida insho yozish masalasining asarga kiritilishiga o‘z munosabatingizni bildiring. Sizningcha, bu lavhaning vazifasi nimadan iborat?

2. Qamariddinning ota-onasi, umuman, odamlar haqidagi fikrlariga qanday qaraysiz?

3. Yetimxonadagi bolalarning bir-birlarini tushunishi, to‘qigan afsonalaridan kulmasliklariga-chi?

4. Asarda: ***«Ota-onasiz o‘sayotgan bolalarning hayot falsafasi... ancha barvaqt shakllanadi»***, – degan qat’iy fikr bor. Buning sabablari haqida mulohaza yuriting.

5. Qamariddinni qoralashdan oldin unga xos ijobiy va salbiy xususiyatlarni ikki ustunga yozib chiqing. Uning orzulari, tuyg‘ularini ham unutmang.

6. Qamariddinning fe’l-atvori, holati boshqacha bo‘lish mumkinmidi? Qayerda keskin burilish yasashi, boshqa yo‘ldan borishi mumkin edi deb o‘ylaysiz?

MUHAMMAD YUSUF

(1954—2001)

Yuraklarda yurmagini,
Oh, oldindan bilgan qush.
Har o‘zbekning yuragini,
O‘ziniki qilgan qush.

Halima Xudoyberdiyeva

O‘zbek xalqining sevimli farzandi, otashqalb shoir Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumani Qovunchi qishlog‘ida tug‘ilgan. 1971-yili o‘rta maktabni tugatgach, Respublika rus tili va adabiyoti institutida tahsil oladi.

Ijodiy faoliyati 1980-yildan boshlangan. Muhammad Yusuf turli nashriyot va tahririyatlarda, turli lavozimlarda faoliyat yuritgan. 1997-yildan umrining so‘nggi kunlariga qadar esa O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari lavozimida ishlagan.

Muhammad Yusufning dastlabki she’rlari «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasida 1976-yilda e’lon qilingan. Shundan so‘ng «Tanish teraklar», «Bulbulga bir gapim bor», «Iltijo», «Uyqudagi qiz», «Halima enam allalari», «Erka kiyik», «Saylanma» kabi juda ko‘plab she’riy to‘plamlari nashr etildi. 1989-yilda «Uyqudagi qiz» she’riy to‘plami uchun unga Respublika Yoshlar mukofoti berildi.

U rostgo‘y shoir, halol va pokiza qalb egasi. U muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo‘shiq to‘qiydimi yoki tariximiz va taqdirimiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she’rlari ravon va soddaligi bilan xalq og‘zaki ijodiga hamohangdir.

Muhammad Yusuf adabiyotimiz va xalqimizga qilgan fidoyi xizmatlari uchun «Do‘stlik» ordeniga, «O‘zbekiston xalq shoiri» faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan.

Muhammad Yusuf 2001-yil 30-iyulda vafot etgan.

JAYRON

Qon yig‘latdi qaysi bag‘ritosh,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?
Oyog‘ingga qo‘yib yotay bosh,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?

Yurak qoning to‘kilgan so‘qmoq —
Bag‘ri alvon lolaqizg‘aldoq.
Senga toshlar otdi qay gumroh,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?

Zor yig‘lading buncha ham hayhot,
Menda ham bor sendagi sayyod,
Ey beozor, ey mo‘min jonzot,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?

Bu dunyoning nokaslari bor,
Ezgulikni ko‘rolmaydilar.
Meni ham qon qildilar ular,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?

Labim bilan yarang silayman,
Senga dardi shifo tilayman,
Kel, tug‘ishgan og‘ang bo‘lay man,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?

?

1. She’rni o‘qing, Odam, Tabiat, Olam o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishga harakat qiling.

2. ***«Yurak qoning to‘kilgan so‘qmoq, Bag‘ri alvon lolaqizg‘aldoq»*** misralari mazmunini qanday tushunasiz?

3. Shoir ***«Menda ham bor sendagi sayyod»*** deganda nimani nazarda tutgan bo‘lishi mumkin?

4. Shoirning jayronga mehri jo‘shqin ifodalangan o‘rinlarni qayta o‘qing, she’rni hayot bilan bog‘lab bahs o‘tkazing.

MUHABBAT

Muhabbat, ey go‘zal iztirob,
Ey ko‘hna dard, ey ko‘hna tuyg‘u.
Ko‘kragimga qo‘lingni tirab,
Yuragimni to‘kib qo‘yding-ku.

Qancha ko‘zlar menga zor edi,
Na g‘am, na anduhim bor edi.
Qushday yengil ruhim bor edi,
Chok-chokidan so‘kib qo‘yding-ku.

Ne qilarding menga tegib sen,
Yengilmagan edim – yengib sen,
Boshlarimni yerga egib sen,
Qomatimni bukib qo‘yding-ku.

Sen men uchun bir xayol eding,
Yaxshi bor yo yaxshi qol eding.
Jon kerakmi – mana ol endi,
Qiynar bo‘lsang qiynab to‘yding-ku.

Bilmam, nima edi maqsading,
Menga bir juft guling asrading.
Birin otin Kumush atading,
Birin otin Zaynab qo‘yding-ku.

Muhabbat, ey go‘zal iztirob,
Ko‘chang kezdim sarson, dovdirab,
Yuzlarimga yuzlaring tirab,
Ko‘zlarimni boylab qo‘yding-ku.

?

1. Muhabbat atalmish qadim tuyg‘uning shoir qalbiga kirib kelish tasvirini o‘z so‘zingiz bilan ifodalang.
2. ***«Yengilmagan edim – yengib sen, Qomatimni bukib qo‘yding-ku»*** misralari tashiyotgan ifodani tushuntiring.
3. Shoirning qahramon tuyg‘ularini ifodalashdagi mahoratiga baho bering.

YANGI YIL KECHASI

Ko‘nglim ma’yus tortdi yilning so‘ngida,
Bilmam, nimang bilan sehrlading, qor.
Bugun kuppa-kunduz ko‘zim o‘ngida,
Yana bir yoshimni o‘g‘irlading, qor.
Sendan-da kumushroq sochimdagi oq,
Yilim kelmay turib, yilim ketmoqda,
Ko‘zda tabassum-u kiprikda titroq.

Men ham sal shoshdim-da, qaytaymi endi,
Kechagi yoshligim ertakmi endi?

Yangi yil,
Kelaver qanday kelsang ham,
Kimlar yetdi senga, kimlar yetmadi.
Sen yangi yo‘ldoshsan, sen yangi hamdam,
Yo‘qlab kelganingni o‘zi bir bayram.
Qulog‘ingga bir gap aytaymi, endi,
Qirqinchi qasrimga o‘taymi endi,
Kechagi yoshligim ertakmi endi?

Bahorim yetgudek qo‘lim uzatsam,
Yetolmay dilimni ne deb yupatsam.
Laylakqor, azizim, g‘alat bayram bu —
Kulib kuzatsammi, yig‘lab kuzatsam...
Dardim jim ichimga yutaymi endi,
Kechagi yoshligim ertakmi endi?

So‘rsang, sevinchimdan o‘kinchim ko‘proq,
Kechagi yoshligim ertakmi endi?..

?

1. She’rni o‘qing, shoir hayoti, turmush tarzi tasvirini sharhlang.
2. Shoir: ***«Sendan-da kumushroq sochimdagi oq»***, – deya kimga murojaat qilmoqda?
3. ***«Ko‘zda tabassum-u kiprikda titroq»*** misrasini qanday tushunish mumkin?
4. She’r mazmunidan kelib chiqib, shoir shaxsiga baho bering.

SA'DIY SHEROZIY

(1189–1292)

Fors adabiyotining buyuk namoyandasi Muslihiddin Sa'diy Sherozda tug'ilgan. Uning nomi Sharq-u G'arbda keng tanilgan va mashhur bo'lgan. Boisi u avlodlarga xilma-xil janrlarda yozilgan juda ko'p asarlarni qoldirgan. Sa'diy kulliyoti, ya'ni asarlar to'plamiga shoirning she'riy va nasriy yo'l bilan yozilgan asarlari jamlangan. Uning «Bo'ston» va «Guliston» asarlari eski maktablarda qo'llanma sifatida o'qitilgan, muallif nomini ellarga mashhur qilgan. Ularda ta'lim-tarbiyaga oid mazmundor hikoyalar va she'riy hikmatlar mavjud bo'lib, adib bu asarlarda jahon kezib, juda ko'p mamlakatlarda bo'lib, ko'rgan-kechirganlaridan chiqargan xulosalarini bayon etgan.

Sa'diy 1226-yili Bag'dodda tahsil oladi. So'ngra Janubiy Yevropa, Kichik va O'rta Osiyo mamlakatlari bo'ylab safarga chiqadi, Xitoy va Hindistonda bo'ldi. Bu safari 30 yil davom etdi. Turli-tuman mamlakatlar va xalqlar hayoti bilan tanishdi. Dunyo ko'rgan shoir tom ma'noda faylasuf olim, donishmand inson bo'lib yetishdi. Uning asarlari Sharq adabiyotida didaktik yo'nalishni boshlab berdi. Ularda inson hayoti uchun zarur bo'lgan umumlashmalar, pand-nasihatlarni bayon etdi. Sa'diy asarlari yengil o'qiladi, esda qoladi, inson xulq-atvori, axloq-odobi takomillashuviga ijobiy ta'sir qiladi. Shoir inson va jamiyat, insonlararo munosabat, ma'naviy-axloqiy fazilatlar haqida, vatanparvarlikni, odamgarchilikni, mehnatsevarlik va ilm-ma'rifatni ulug'laydi.

Sa'diy sehr-jozibaga, hikmatli fikrlarga boy g'azallari bilan ham shuhrat qozongan. Uning g'azallari ohangdor, samimiy, maftunkor, badiiyatga boy. Ajoyib o'xshatishlar,

ichki qofiya, o‘ynoqi satrlar shoir g‘azallarini bezagan asosiy vositalardir.

Quyida shoir g‘azallaridan namunalar bilan tanishasiz.

?

1. Sa’diy Sheroziyning dastlabki ijodi haqida gapiring. U, asosan, qaysi janrlarda ijod qilgan?
2. Shoirni donishmand, faylasuf darajasiga ko‘targan sabablar haqida mulohaza yuriting.
3. Shoir g‘azallaridagi samimiyatni qanday tushunasiz?

G‘AZALLARDAN NAMUNALAR

Senmusan, yo bog‘ima sarvi ravonim keldimu,
Yo malak odam sifat bo‘lgan zamonim keldimu?!

Ud tutatmoq bo‘ldimu bo‘ston aro do‘stlar ishi,
Yoki yorim keldi, yo mushk korvonim keldimu?!

Sorbon solgil nazar zebo nigorim husniga,
Gar xaridor bo‘lsa tutdim qo‘lda jonim, keldimu?!

Endi hech dard-u alam birla o‘tirmam uyda men,
Keldimu bozorga gul, javlonli onim keldimu?!

Garchi sen oning sanam tarzini inkor aylasang,
Men hamon ko‘zim nigoron jonajonim keldimu?!

Ko‘zlarim gar qayta ko‘rmoqda nigorim chehrasin,
Vah magarkim, murda tanga qayta jonim keldimu?!

Harnakim mendan ketishga hozir erdi, bog‘ladi,
Barcha hayrat etdi yo oromijonim keldimu?!

Nay agar ozodalar majlisi ichra nolavash,
Zahmidindur nolasi, ul jon fig‘oning keldimu?!

Uyqudek xummor ko‘zingdan ajragach bir lahza, ayt,
Uyqusiz ko‘zlarga xobi nogahonim keldimu?!

Nola qilma, Sa’diyo, jabr etsa yoring, himmat et,
Yor jabri yorga o‘tgay, soyabonim keldimu?!

?

1. G‘azal baytlaridagi sevikli mahbuba tashrifi tufayli lirik qahramon qalbida kechgan beg‘ubor tuyg‘ular haqida gapiring.
2. Shoir nima uchun o‘z hissiyotlarini ritorik so‘roq tarzida ifodalaydi deb o‘ylaysiz? Shoir kechinmalariga munosabat bildiring.
3. ***«Ko‘zlarim gar qayta ko‘rmoqda nigorim chehrasin, Vah magarkim, murda tanga qayta jonim keldimu»*** bayti mazmunini tushuntiring.
4. G‘azalning har bir baytini sharhlang.
5. G‘azal jozibasini ta’minlagan badiiy vositalarni aniqlang.

* * *

Do‘stlarimning suhbati xuddi olam jannati,
Yo jahannamning o‘ti nomunosib suhbati.

Gar azizlar suhbati birla o‘tsa bir nafas,
Shul nafasni bil hayot hosili ham sharbati.

Ko‘z, quloq, til bo‘lsa ham, barcha odam bo‘lmag‘ay,
Qancha ko‘rdim dev-u jin misli odam surati.

Xush chiroydan ham bashar husni ortarku faqat –
Odam o‘lg‘ay shul kishi bo‘lsa go‘zal siyrati.

Kim bahorni ko‘rmasa, ko‘kalamzorga chiqib,
Robea oyida ham bor muharram qiymati.

Ko‘zi doimo go‘zal chehrada dil bo‘lsa tosh,
Nasihatga ko‘nmagay, dil to‘liq jaholati.

Ahli dillar tomridan toza xun oqsa agar,
Do‘st ansoli malhami, dori topgay illati.

Mol-u dunyo yaxshidur, tan sharif-u jon aziz,
Barchasidan ham baland yor vafodor hurmati.

Mumsik odam kulfati – mol-u dunyo tashvishi,
Do‘st-la shodon o‘tadi Sa’diyning har soati.

?

1. ***«Do‘stlarimning suhbati xuddi olam jannati, Yo jahannamning o‘ti nomunosib suhbati»*** baytida ifodalangan ma’noni izohlang.

2. G‘azalning ikkinchi baytidagi hayotiy hikmatni sharhlang.

3. G‘azalda ifodalangan insoniy sifatlar ulug‘langan baytlarning har biriga mustaqil fikr bildiring.

4. She’rning badiiyati haqida gapiring.

HIKMATLAR

Ikki kishi orasiga o‘t tashlar kezi
Bu o‘rtada aqlsizning kuyadi o‘zi.

* * *

Dono kishi vujudi misoli zar-u tillo,
Har qayerga borsa ham qimmati tushmas aslo.

* * *

Chumoli yoz bo‘yi yig‘ar yemak-don,
Toki qishda uyi bo‘lsin farovon.

* * *

Mashaqqat chekmagan topmas xazina,
Tun ortidan kunduz kelar hamisha.

* * *

Harchand o‘qibsan – bilimdonsan,
Gar amal qilmading, nodonsan.
Ustiga kitob ortilgan eshak,
Na olim va na donodir beshak.

* * *

Hamma insonlar ham odamga farzand,
Biri yaxshi, biri yomonlikka band.
Birisidan topmas chumoli ozor,
Birisida itdan kamroq nomus-or.

* * *

Tinch bitar ishga ham qilaversa jang,
Demak, ul odamning aqlin bosmish zang.

* * *

Mol-dunyo qo‘lga kirgizmoq hunarmas,
Qo‘lingdan kelsa gar bir dilni ovla.

* * *

Karam dasturxonin kim yozdi, ey dil,
Saxovat olamida nomdor, bilgil.

* * *

Yaxshiga yaxshi bo‘l, yomonga yomon,
Gullarga gul bo‘lgin, tikonga tikon.

* * *

Jahonda to‘g‘rilikdan yaxshi ish yo‘q,
To‘g‘rilik gulida tikan-u nish yo‘q.

* * *

Nodonlardek yuzlab so‘zni qilma qator,
Donolardek bir so‘z degil, lek ma’nodor.

* * *

Och ichakni to‘yg‘izar bitta nonning ovqati,
Och ko‘zni to‘ydirolmas butun olam ne’mati.

* * *

O‘tirgil och-u bechora, yalang‘och,
Vale nokasga aslo bo‘lma muhtoj.

* * *

Tani tuproqda-yu, dil bo‘lsa uyg‘oq,
Tirik murda dildan o‘sha yaxshiroq.

?

1. Sa'diy hikmatlaridagi mavzular to'g'risida bahslashing. Ularda aks etgan umuminsoniy axloqiy me'yorlar haqida fikr bildiring.

2. Hikmatlarning har birini o'qib, o'z mulohazalaringizni bayon eting.

JEK LONDON

(1876—1916)

Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, asarlarida xalq ommasining o'z huquqlari uchun kurashini aks ettirgan atoqli yozuvchi Jek London Kaliforniya shtatining San-Fransisko shahrida fermer oilasida tug'ildi. ***U yoshligidayoq hayotning bor mashaqqatlarini boshidan kechirgan.*** Iqtisodiy ahvoli sabab universitetni tashlagan. Yozuvchining adabiy faoliyati 1898-yilda boshlangan. U o'z umrida 150 dan ortiq hikoya yozgan bo'lib, hikoyalarida, asosan, mamlakat shimoli va Okeaniya orollaridagi hayotni zo'r badiiy mahorat bilan tasvirlagan. Bu hikoyalari unga katta shuhrat keltirdi. «Oq sukunat», «Qirq mil narida», «Otalar xudosi», «Sovuq bolalari» kabi hikoyalarining qahramonlari har xil toifadagi, har xil fe'l-atvorli kishilar. Ular erkka intiladilar, o'z burch va majburiyatlarini har xil sharoitlarda sinab ko'radilar, hayot mashaqqatlarida toblanadilar. Jek Londonning qahramonlari har qanday holatda ham Odamlikka xiyonat qilmaydilar.

U 1903-yilda Angliyaga qilgan sayohatidan keyin «Tubanlik kishilari» degan ocherklar to'plamini nashr ettirdi. Bu kitobda yozuvchi londonlik ishchilarning qashshoq hayotini tasvirlaydi.

Yozuvchi «Temir tovon» (1907) romanida, eng yaxshi romanlaridan yana biri «Martin Iden»da (1909) burjua jamiyatini qattiq tanqid ostiga oladi.

Jek London o'zining hikoyalarida tabiatning asov kuchlariga qarshi mardona kurashuvchi kishilar hayotini

zo‘r badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Uning «Hayotga muhabbat» hikoyasi fikrimizga yorqin misol bo‘la oladi. Bu hikoyada hayotga bo‘lgan muhabbatning o‘lim ustidan g‘alabasi tasvirlangan.

?

1. Jek Londonning birorta asarini o‘qiganmisiz? O‘qigan bo‘lsangiz, asarga munosabat bildiring.

2. Uning «Hayotga muhabbat» hikoyasini diqqat bilan o‘qing. Asarga tayanib muallif shaxsi haqida mulohaza yuriting.

HAYOTGA MUHABBAT

Ular oqsoqlanib soyga tomon tushib borardilar. Hamrohlardan biri, oldinda borayotgani toshloq yerda qoqilib gandiraklab ketdi. Ikkalasi ham charchab holdan toygan va tishlaini tishlariga qo‘yib taqdirga tan berganliklari yuzlaridan ko‘rinib turardi – bu uzoq vaqt chekkan qiyinchiliklari oqibati edi. Orqalaridagi qayish bilan tortib bog‘langan og‘ir yuklari yelkalarini ezardi. Ikkalasida ham bittadan miltiq. Ikkalasi ham bukchayib, ko‘zlarini yerdan uzmay borardilar.

– Qani endi yashirib qo‘ygan joyimizdagi o‘qlardan hozir ikkitaginasi bo‘lsa, – deb qo‘ydi ulardan biri.

Azbaroyi madorsizlikdan ovozi zaif chiqdi. U juda behafsalalik bilan gapirardi. Toshlarga urilib, ko‘piklanib oqayotgan sutdek oppoq suvga endi oyoq bosgan sherigi esa unga hech narsa deb javob bermadi.

Ikkinchisi ham sherigi orqasidan suvga tushdi. Suv muzdek sovuq bo‘lishiga qaramay ular oyoq kiyimlarini yechmadilar. Suv shu qadar sovuq ediki, oyoqlari barmoqlarigacha uvishib qoldi. Ba’zi joylarda suv tizzadan kelardi. Shunda suv shitob bilan urganda, ular o‘zlarini tutolmay, gandiraklab ketardilar.

Orqada kelayotgan yo‘lovchi silliq toshga tiyg‘anib ketib, yiqilishiga oz qoldi, og‘riqdan qattiq ixrab yubordi, ammo yiqilmadi. Boshi aylandi, shekilli, munkib ketib,

xuddi havodan madad so‘raganday, bo‘sh qo‘lini oldinga cho‘zdi. O‘zini o‘nglab oldi-da, oldinga qadam bosdi, lekin yana toyib ketib, yiqilishiga sal qoldi. Shundan keyin to‘xtab, o‘z sherigiga qarab qo‘ydi: sherigi esa orqasiga ham qaramay, hamon oldinga qarab ketmoqda edi.

Orqada qolgan bir narsani o‘ylagandek birpas qimirlamay turdi, keyin:

– Menga qara, Bill, oyog‘imni chiqarib oldim, shekilli! – deb qichqirdi.

Bill oyoqlarini sudrab, sutdek oppoq suvdan kechib borardi. U orqasiga biror marta ham qayrilib qaramadi. Sherigi uning orqasidan qarab turardi. Uning yuzi avvalgidek hech narsani ifoda qilmasa-da, ko‘zlarida yaralangan bug‘uniki singari chuqur qayg‘u ifodasi aks etdi.

Mana, Bill qarshi qirg‘oqqa o‘tib oldi-da, kalovlanib yurib ketdi. Suvning o‘rtasida turgan hamrohi undan ko‘zini olmay qarab turdi. Uning lablari shu qadar titrar ediki, o‘siq sariq mo‘ylovi uchib-uchib ketardi. U tilining uchi bilan qovjiragan lablarini bir yalab oldi-da:

– Bill! – deb qichqirdi.

Bu falokatga yo‘liqqan odamning jon achchig‘idagi qichqirig‘i edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi. Ketib qolgan sherigining orqasidan uzoq vaqt qarab turdi: sherigi lapanglab, oqsoqlanib, qoqilib-suqilib, tepalikda ko‘ringan egri-bugri chiziqlar tomon asta-sekin ko‘tarilib borardi. Bill to tepalikdan oshib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha sherigi orqasidan qarab turdi. Shundan keyin u tarafdan ko‘zini uzdi-da, Bill ketgandan keyin yolg‘iz o‘zi qolgan yerni bir-bir ko‘zdan kechirib chiqdi.

U butun og‘irligini bir oyog‘iga solib turib, soatini oldi, soat to‘rt edi. So‘nggi ikki hafta ichida u hisobni yo‘qotib qo‘ydi: iyulning oxiri yoki avgustning boshlari bo‘lganligi sababli quyosh shimoli g‘arbda bo‘lishi kerak edi. U janub tomonga qaradi. Mana shu ko‘rimsiz tepalik orqasida, allaqayerdadir Katta Ayiq ko‘li bor, xuddi o‘sha

tomonda Kanada sahrosidan mudhish Shimoliy Qutb doirasi o‘tadi, deb o‘ylab qo‘ydi. U turgan soy Kappermayn daryosining irmog‘i, Kappermayn esa shimol tomonga oqib, Koronatsiya ko‘rfaziga, Shimoliy Muz dengiziga quyiladi. Uning o‘zi u yerlarga hech qachon bormagan, lekin buning hammasini Gudzon ko‘rfazi kompaniyasining xaritasida ko‘rgan edi.

U o‘zi yolg‘iz qolgan joyini yana bir marta ko‘zdan kechirdi. Tevarak-atrof jimjit, ko‘rimsiz edi. Na daraxt, na buta, na o‘t-o‘lan ko‘rinadi – poyonsiz va dahshatli sahrodan boshqa hech narsa yo‘q. Uning ko‘zlarida qo‘rquv ifodalari ko‘rindi.

– Bill! – deb pichirladi. – Bill! – deb takrorladi u yana ketidan. Poyonsiz sahro go‘yo qudratli kuchi bilan bosayotganday, o‘zining mudhish sokinligi bilan ezayotganday bo‘ldi: u loyqalanib oqayotgan soy o‘rtasida cho‘qqayib o‘tirib qoldi. U xuddi bezgak tutayotgandek qaltirab ketdi, shu payt miltig‘i shalp etib suvga tushdi. Bu uni o‘ziga keltirdi. U qo‘rquvni yengib, es-hushini yig‘di, keyin qo‘lini suvga tiqib, paypasladi-da, miltig‘ini topdi. So‘ng mayib oyog‘iga og‘irlik kamroq tushsin deb, yukni chap yelkasiga oldi-da, og‘riqdan basharasini burishtirib, juda ehtiyotlik bilan asta-sekin qirg‘oqqa tomon yurdi.

U yolg‘iz qolgan bo‘lsa ham yo‘ldan adashmadi. Yana biroz yurgandan keyin atrofini pastakkina, nimjon, quruq pixta va archalar o‘rab olgan kichkina Titchi-nichili ko‘liga yetib borishini bilardi. Bu ko‘lning nomi mahalliy tilda «Kichik og‘ochlar o‘lkasi» degan ma’noni anglatardi. Shu ko‘lga bir ariq kelib quyiladi, suvi ham loyqa emas. Ariq bo‘ylarida qamish o‘sadi. Buni u yaxshi eslaydi, lekin u yerda daraxt yo‘q. Shu yerdan g‘arbga tomon boshqa bir ariq oqadi, shu ariq yoqalab u Diz daryosiga qadar boradi. Xuddi o‘sha yerda to‘nkarib, ustiga tosh bostirib qo‘yilgan qayiqni topadi. U qayiqning ostida miltiq o‘qi, qarmoq, qarmoq iplari, kichik bir to‘r, umuman, ovqat topish uchun zarur bo‘lgan narsalarning

hammasi yashirib qo‘yilgan. Bundan tashqari o‘sha yerda oz bo‘lsa ham un, bir parcha go‘sht, loviya ham bor.

Bill uni o‘sha yerda kutib turadi, keyin ikkisi Diz daryosi bilan Katta Ayiq ko‘liga boradilar, undan keyin ko‘ldan o‘tib janubga, to Makkenzi daryosiga yetib olguncha janubga qarab boraveradilar. Janubga, hamma vaqt janubga qarab boraveradilar, qish esa ularni quvib boradi. Tezoqar soy va jilg‘alar muz bilan qoplanadi, sovuq tushadi, ular esa janubga, Gudzon ko‘rfazidagi faktoriyalardan biriga yetib oladilar. U tomonlarda baland-baland azamat daraxtlar o‘sadi va oziq-ovqat ham istagancha topiladi.

U tez-tez egilib, rangsiz botqoq mevalarini uzib og‘ziga solar va chaynab yutib borardi. Mevalar juda sersuv, suvi ichiga ketib, og‘zida faqat taxir va qattiq urug‘largina qolardi. Bu mevalar qorin to‘yg‘izmasligini u bilardi, shunday bo‘lsa ham ularni sabr bilan chaynar, chunki ***umid achchiq haqiqat bilan hisoblashishini istamas edi.***

U qopini ochib hammadan burun gugurtlarni sanab ko‘rdi. Hammasi bo‘lib oltmish yetti dona gugurt cho‘pi bor edi. U yanglishgan bo‘lmay, deb gugurt cho‘pini uch marta sanab chiqdi. Gugurtni uch bo‘lakka ajratib, har bir bo‘lagini bir qog‘ozga o‘radi. Bir bo‘lagini bo‘sh hamyonga solib qo‘ydi, ikkinchisini ohori to‘kilgan shapkasining astariga tiqdi, uchinchisini esa ko‘kragiga yashirib qo‘ydi. Shundan keyin uni birdan qo‘rquv bosdi: uch bo‘lak gugurtni yana qaytadan ochib sanab ko‘rdi. Gugurt cho‘plari avvalgidek oltmish yetti dona edi.

Oyoq kiyimini o‘tga tutib quritdi, moka[1]sining julduri chiqib ketgan, odeyaldan tikilgan paypoqlari teshik, oyoqlari bo‘lsa qontalash bo‘lib ketgandi. To‘pig‘i shishib, xuddi tizzasidek yo‘g‘on bo‘lib ketgandi. U odeyallardan bittasining chetidan uzun qilib yirtib oldida, to‘pig‘ini mahkam siqib bog‘ladi. Keyin yana bir necha parcha yirtib, mokasini va paypoq o‘rnini bosar

[1] M o k a — qalin matodan tikilgan oyoq kiyim.

deb, oyog‘iga aylantirib o‘radi-da, qaynagan suvdan ichib oldi, soatni buradi, so‘ng odeyalga o‘ranib yotdi.

U dong qotib uxladi. Yarim tunga borib qorong‘i tushdi, lekin bu uzoqqa cho‘zilmadi.

Choshgohda u bir botqoqqa yetib keldi, bu yerda ov ko‘proq edi. Xuddi unga o‘chakishganday, oldidan yigirmatacha bug‘u o‘tib ketdi, ular shunday yaqindan o‘tdiki, miltiq bilan bemalol otib olsa bo‘lardi. Bug‘ularni quvlagisi keldi, quvlasa ushlab olishiga juda ishonardi. Uning oldidan kaklik tishlagan bir qora tulki ham o‘tib ketdi. U qichqirib yubordi. Shunday qattiq qichqirdiki, cho‘chib ketgan tulki o‘zini bir chetga urdi, ammo kaklikni og‘zidan tushirmadi.

Kechqurun u qamishlar orasidan oppoq ohakdek loyqalanib oqayotgan ariqcha yoqalab borardi. Bir qamishning ostidan mahkam ushlab, xuddi piyozga o‘xshagan bir narsani sug‘urib oldi. Qamishning tomiri yumshoq bo‘lib, chaynaganda qars-qars ovoz chiqarar edi. Lekin mazasi taxir, xuddi chalchiqzor mevasiga o‘xshagan sersuv bo‘lib, och qorinni to‘yg‘izmasdi. U yukini yerga tashladi-da, xuddi kavsh qaytarayotgan molga o‘xshab kavshana-kavshana qamishlar orasidan o‘rmalab ketdi.

U juda charchagan, biroz orom olgisi, yotib uxlagisi kelardi, lekin Kichik og‘ochlar o‘lkasiga yetib olish orzusi, undan ham zo‘rroq bo‘lgan ochlik azobi unga tinchlik bermasdi. U bunday uzoq shimolda qurt va qurbaqa bo‘lmasligini bilsa ham, chuqurchalardan qurbaqa axtarar, oyoqlari bilan yerni titkilab, qurt qidirar edi.

U har bir ko‘lmakni sinchiklab qaradi. Nihoyat qosh qorayganda bir chuqurda bittagina baliq suzib yurganini ko‘rib qoldi. U qo‘lini yelkasigacha suvga tiqdi. Lekin baliqcha qo‘lidan sirg‘alib chiqib ketdi. U baliqni ikki qo‘llab tutmoqchi bo‘lib suvni loyqalatib yubordi. Esidardi baliq bilan bo‘lib, hayajondan suvga tushib ketdi, beligacha suvga botdi. Suvni shunday loyqalatib yubordiki, baliqni ko‘rib bo‘lmay qoldi. Shundan keyin u suvning tinishini kutib turdi.

U yana baliqni tutish bilan ovora bo‘ldi, suvni yana loyqalatib yubordi. Ortiq kutishga toqati qolmadi. Yukka qo‘shib bog‘langan paqirchani oldi-da, chuqurdagi suvni chetga olib to‘ka boshladi. Avvaliga u zo‘r berib ishladi, usti-boshi shalabbo bo‘lib ketdi, shoshganidan suvni chuqurga shunday yaqin to‘kar ediki, suv yana qaytib chuqurga oqib tushardi. So‘ngra u qo‘lining titrashi va yuragining qattiq urishiga qaramay, xotirjam ishlashga qaror berdi. Yarim soatdan keyin chuqurchada bir hovuch ham suv qolmadi. Biroq baliq yo‘q bo‘lib qolgandi. Uning ko‘zi toshlar orasidagi bir yoriqqa tushdi. Baliq shu yoriqdan katta bir chuqurga o‘tib ketibdi, u chuqurda suv shu qadar ko‘p ediki, uning suvini bir kecha-yu bir kunduzda ham tamom qilib bo‘lmasdi. Yoriq borligini ilgari bilganida, hammadan burun uni tosh bilan berkitib qo‘ygan bo‘lardi, shunda baliq uning qo‘lidan qochib qutulolmasdi.

Odam chalchiq yerga o‘tdi-da, alamiga chidayolmay yig‘lab yubordi. Boshda sekin-sekin yig‘ladi. Keyin atrofni o‘rab olgan shafqatsiz cho‘lni uyg‘otmoqchi bo‘lganday ovozining boricha ho‘ngrab yig‘layverdi. A’zoyi badani titrab, uzoq yig‘ladi.

U o‘t yoqdi. Qaynagan suvdan ancha ichib, biroz isidi, yotish uchun tosh ustiga kechagidek joy qildi. Yotishdan avval gugurtning ho‘l-quruqligini tekshirib ko‘rdi va soatini burab qo‘ydi. Odeyal ho‘l va muzdek edi. Og‘riqdan oyoqlari o‘tday yonar, lekin u faqat ochlik azobini sezar edi, xolos. Kechasi har xil ziyofatlar, mehmondorchiliklar va dasturxonga tortilgan turli noz-ne’matlarni tushida ko‘rib chiqdi.

U sovqotib uyg‘ondi, tobi qochgandi. Quyosh ko‘rinmasdi.

U yirtiq odeyaldan qolgan qismini yana uzunasiga yirtib, shilinib qontalash bo‘lib ketgan oyog‘ini bog‘ladi, chiqqan to‘pig‘ining lattasini yangiladi-da, yana yo‘lga tushishga hozirlandi. Yukni ko‘tarib olishdan oldin bug‘u terisidan tikilgan xaltaga uzoq tikilib turdi-yu, yana xaltani o‘zi bilan olib ketdi.

Yomg‘ir qorni eritib yuborgandi, tepachalarning cho‘qqilarigina oqarib turardi. Quyosh ko‘rinib qoldi, bundan foydalanib yo‘lovchi dunyoning to‘rt tomonini belgilab oldi, yo‘ldan adashganligi aniq bo‘ldi. So‘nggi kunlarda chap tomonga ko‘proq ketib qolgan bo‘lsa kerak, endi u to‘g‘ri yo‘lga tushib olish uchun o‘ng tomonga qarab yura boshladi.

Ochlik azobi unga kor qilmay qolgan edi-yu, lekin u o‘zining holdan ketganini sezdi. Dam olgani tez-tez to‘xtar, yerdan meva terar va qamishlarni tomiri bilan sug‘urib olardi. Uning tili qaqrab, shishib ketdi. Og‘zida ham achchiq va bemaza ta’m bor edi. Hammadan ko‘proq uni yuragi bezovta qilardi. U bir necha qadam bosmasdan yuragi duk-duk urib ketar, qinidan chiqib ketay deb dukkillab ura boshlardi-da, nafasi bo‘g‘ilib, boshi aylanar, o‘zidan ketib qolay derdi.

Tush paytida u katta bir chuqurda ikkita tanga baliq suzib yurganini ko‘rib qoldi. Chuqurning suvini quritib bo‘lmasdi. Lekin u o‘zini ancha bosib olgandi, paqirchasi bilan baliqlarni tutib oldi. Baliqlar jimjiloqdek-jimjiloqdek kichkina edi. Lekin uning uncha ovqat yegisi yo‘q edi. Qorin og‘rig‘i ancha pasaygandi. U, baliqlarni xomligicha og‘ziga solib, hafsala bilan chaynay boshladi. Ishtahasi bo‘lmasa ham, ovqat yeyishga o‘zini majbur qildi, chunki yashamoq uchun ovqat yeyish zarurligini yaxshi bilardi.

Yana tun kirdi. Tongda u biroz o‘ziga kelib, xaltaning qayishini yechdi-da, ichidagi oltinni yerga to‘kdi. Oltinni bab-baravar ikki qismga bo‘ldi. Bir bo‘lagini lattaga o‘rab, uzoqdan yaxshi ko‘rinib turadigan bir tepalikka, toshlar orasiga yashirib qo‘ydi. Ikkinchi qismini yana xaltaga solib, og‘zini bog‘ladi. Keyin u bitta-yu bitta odeyalini yirtib, oyoqlarini o‘radi. Lekin u hamon miltig‘ini tashlamasdi, chunki Diz daryosi bo‘yida yashirib qo‘yilgan narsalar orasida patronlar bor, axir.

Yarim soat o‘tdi. Keyin miyasiga yana o‘sha fikr keldi, u bu fikrni miyasidan chiqarib tashlayolmadi-da, o‘zini biroz ovutish uchun miltig‘ini yana tekshirib chiqdi.

Ahyon-ahyonda miyasi ishlamay qolar, o‘zi esa jonsiz narsadek beixtiyor kalovlanib borar edi; g‘alati xayollar va bema’ni tasavvurlar uning miyasini qurtday kemirar edi. Lekin u tez o‘ziga kelardi, chunki ochlik uni hamma vaqt haqiqatga qaytishga majbur qilardi. Bir marta uning ko‘z oldida shunday bir ajib manzara paydo bo‘ldiki, hushidan ketib qolishiga sal qoldi. Uning oldida bir ot turardi. Ot! U ko‘zlariga ishonmadi. Ko‘z oldi jimirlashib, atrofni tuman bosganday bo‘ldi. U zo‘r berib ko‘zini ishqaladi, ko‘z oldi ravshanlanganda qarasa, qarshisida ot emas, kattakon bir targ‘il ayiq turibdi. Ayiq unga o‘qrayib-o‘qrayib qarardi. U miltig‘ini yelkasidan oldi-yu, shu ondayoq esini yig‘di. Miltiqni qo‘yib, munchoq qadalib tikilgan qinidan pichog‘ini sug‘urdi. Uning oldida go‘sht va hayot turardi. Bosh barmog‘i bilan pichoqning tig‘ini tekshirib ko‘rdi. Pichoqning tig‘i ham, uchi ham o‘tkir edi. U hozir ayiqqa tashlanib, uni o‘ldiradi. Lekin uning yuragi xuddi xavfdan ogohlantirayotgandek duk-duk ura boshladi. Keyin birdan yuragi qinidan chiqar darajada sakrab ketdi; miyasi xuddi iskanjaga olgandek qattiq og‘ridi, ko‘z oldi qorong‘ilashdi.

Hozirgina jo‘sh urib turgan botirlik o‘rnini qo‘rquv egalladi: u shu qadar zaif tortib ketdiki, ayiq hujum qilsa, nima bo‘ladi? U mumkin qadar haybatliroq bo‘lib ko‘rinish uchun qaddini rostladi, pichoqni qo‘liga olib, to‘g‘ri ayiqning ko‘zlariga tikildi. Yirtqich lapanglab oldinga bir qadam bosdi, ikki oyog‘ini ko‘tarib o‘kirib yubordi. Odam qochganda, ayiq uning orqasidan quvgan bo‘lardi. Lekin odam qo‘rquvni bosib, o‘rnidan qimirlamadi; u ham yirtqich hayvonday dahshat bilan o‘kirib yubordi, bu o‘kirik qo‘rquv ifodasi edi, chunki qo‘rquv yashash uchun kurash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ayiq undan qo‘rqmay tik turgan mana shu sirli maxluqdan hayiqib, o‘kirgancha bir tomonga chekindi. Lekin odam o‘rnidan qimirlamadi. U xavf o‘tib ketguncha qaqqayib turaverdi, keyin xuddi bezgak tutgandek titrab-qaqshab ho‘l chimlikka yiqildi.

U biroz o‘ziga kelib, qo‘rquv ichida yana yo‘lga tushdi. U endi ochlikdan o‘lishdan emas, balki hayot uchun kurashning so‘nggi intilishlari so‘nguncha yirtqich hayvonlar panjasida o‘lib ketishdan qo‘rqardi. Atrofida bo‘rilar izg‘ib yuribdi.

Qor va yomg‘irli kunlar yetib keldi. U endi qachon yotib, qachon yo‘lga tushganini eslay olmasdi. Vaqtni surishtirmay, kechasi ham, kunduzi ham yo‘l bosdi, yiqilgan yerida dam oldi, undagi so‘nayotgan hayot uchquni alangalandi deguncha yana oldinga qarab o‘rmaladi. Odam endi hayot uchun kurashmay qo‘ydi. Undagi hayotning o‘zi o‘lishni istamas, shuning uchun ham uni ilgariga haydardi. U ortiq azob chekmasdi. Uning asablari uyushib qolgan, miyasi esa g‘alati xayollar, shirin tushlar bilan to‘la edi.

Bir kuni u yassi tosh ustida yotganida hushi o‘ziga keldi. U uzoq vaqtgacha qimirlamay yotdi. Quyosh saxiylik bilan nur sochib, uning ayanchli badanini isitar edi. U ming azob-uqubat bilan bir yonboshiga ag‘darildi. Pastda katta sokin bir daryo oqib yotardi. Bu daryo odamga notanish edi: bu uni ajablantirdi. U notanish daryoning oqimini shoshmasdan, sovuqqonlik bilan to ufqqa qadar kuzatdi-da, daryoning uzoqda yarqirab turgan dengizga quyilayotganini ko‘rdi. Shunday bo‘lsa ham bu narsa uni sira hayajonlantirmadi. «Qiziq, – deb o‘yladi u, – ko‘zimga shunday ko‘rinyaptimi yoki miyam aynib qoldimikin?» Dengiz o‘rtasida langar tashlab turgan kemani ko‘rganda bu fikrning to‘g‘ri ekanligiga yana bir bor ishondi. U bir zumga ko‘zlarini yumib, yana ochdi. Qiziq, o‘sha narsalar yana ko‘rindi. Bunga ajablanmasa ham bo‘lardi. Miltig‘ida patron bo‘lmaganidek, mana shu sahroning qoq o‘rtasida dengizning ham, kemaning ham bo‘lishi mumkin emasligini bilardi u.

Orqadan xirillagan bir tovush eshitildi, bu xo‘rsinishmi, yo‘talmi – bilib bo‘lmas edi. G‘oyat zaiflik va karaxtlikni juda sekinlik bilan yengib, u ikkinchi yonboshiga ag‘darildi. Yaqinida hech narsa ko‘rinmadi. U

sabr bilan kuta boshladi. Yana xirillagan va yo‘tal tovushi eshitildi. Yigirma qadamcha narida o‘tkir qirrali ikki toshning orqasidan bir bo‘rining kulrang boshi ko‘rindi. Uning quloqlari boshqa bo‘rilarniki singari tik emas, ko‘zlari xira va qon quyilgan, boshi solingan. Bo‘ri kasal bo‘lsa kerak: u tinmay aksa urar va yo‘talar edi.

«Hech bo‘lmaganda bunisi haqiqatdir», – deb o‘yladi u va sarob pardasi bilan qoplanmagan, haqiqiy dunyoni ko‘rish uchun boshqa yonboshiga ag‘darildi. Lekin dengiz hali ham ilgarigidek uzoqda yaltirab turar, kema ham aniq ko‘zga chalinardi. Ehtimol, bu rostdan ham haqiqatdir. U ko‘zlarini yumib o‘ylay boshladi. Pirovardida hamma narsa ayon bo‘ldi. U sharqi shimolga qarab yurgan va Diz daryosidan uzoqlashib, Kappirmayn daryosi vodiysiga kelib qolgan. Sokin oqayotgan shu daryo Kappirmayn daryosining xuddi o‘zginasi. Yaltirab turgan dengiz Shimoliy Muz dengizi. Bu kema kit ovchilarining kemasi bo‘lib, Makkenzi daryosi dengizga quyiladigan joydan sharq tomonga ancha ketib qolgan. Bu kema Koronatsiya ko‘rfazida turibdi. U bir vaqtlar ko‘rgan Gudzon ko‘rfazi kompaniyasining xaritasini esladi-yu, shunda bor gap ravshan va tushunarli bo‘lib qoldi.

U juda sekin qimirlar, shol odamdek qaltirar edi. Quruq xashak yig‘moqchi bo‘ldi-yu, lekin o‘rnidan turolmadi. Bir necha marta o‘rnidan turishga urinib ko‘rdi, bo‘lmagach, emaklab ketdi. Bir gal hatto kasal bo‘rining oldiga juda yaqin borib qoldi. Bo‘ri istar-istamas o‘zini chetga oldi va zo‘rg‘a tilini qimirlatib, tumshug‘ini yaladi. Uning tili sog‘lom bo‘rinikidek qizil emas, kulrang-sarg‘ish bo‘lib, yelim singari quyuq shilliq bilan qoplangan. Odam qaynagan suvdan ichdi-da, deyarli kuch-quvvatdan qolgan bo‘lsa ham, o‘rnidan turishga, hatto yurishga ham madori yetishini his qildi. Minut sayin to‘xtab dam olardi, bazo‘r qadam tashlar, bo‘ri ham uning orqasida xuddi shu yo‘sinda sudralib borardi.

Ufqdan yorqin quyosh ko‘tarildi. Odam choshgohga qadar yiqilib-surilib yaltiroq dengizda turgan kemaga

qarab yurdi. Tushdan keyin u bir izga duch keldi. Bu boshqa bir odamning izi bo‘lib, u odamning emaklab yurgani bilinib turardi. «Ehtimol, bu Billning izidir», – deb o‘yladi u xotirjam. Unga baribir edi. To‘g‘risi, u hech narsani sezmay, hech narsadan hayajonlanmay qo‘ygan edi. U hatto og‘riqni ham sezmasdi. Qorin bilan asablari go‘yo mudrab qolgandek. Lekin hali so‘nmagan hayot uchquni uni olg‘a boshlardi. U juda charchagan, lekin sira o‘lgisi kelmas edi. Shuning uchun ham u chalchiqzordan meva terib yer, tanga baliq ovlar, suv qaynatib ichar va olazarak bo‘lib kasal bo‘rini kuzatar edi.

U o‘rmalab o‘tgan boshqa odamning izidan borardi. Ko‘p o‘tmay o‘zidan oldingi odamning manziliga yetib keldi. Ho‘l chimliq ustida kemirib tashlangan suyaklar va bo‘rining iziga ko‘zi tushdi. Yerda xuddi o‘zinikiga o‘xshash, o‘tkir tishlar tortqilab yirtgan bug‘u terisidan tikilgan xalta yotardi. Bunday og‘ir yukni ko‘tarishga madori kelmasa ham kuchsiz barmoqlari bilan qopni yerdan ko‘tarib oldi. Bill oltinlarini so‘nggi minutlarga qadar tashlamagan. Ha-ha-ha! U hali Billning ustidan masxara qilib kuladi, tirik qoladi va xaltani yarqirab turgan dengizdagi kemaga olib ketadi. U xuddi qarg‘aning qag‘illashiga o‘xshagan bo‘g‘iq ovozda dahshatli qilib kulardi. Kasal bo‘ri ham unga jo‘r bo‘lib xirillagan tovush bilan uvilladi. Odam darhol jim bo‘ldi. Agar mana shu suyaklar Billniki bo‘lsa, shu toza kemirilgan, qizg‘ish suyaklar Billniki bo‘lsa, qanday qilib uning ustidan kulyapti-ya?!

U yuzini o‘girib oldi. Nima qilsin, Bill uni tashlab ketdi, lekin u Billning oltinlarini olmaydi, uning suyaklarini kemirmaydi. Agar mening o‘rnimda Bill bo‘lganda shunday qilgan bo‘lardi, deb o‘ylab qo‘ydi va kalovlanib yo‘lga tushdi.

O‘sha kuni u kemagacha bo‘lgan masofani uch milga qisqartdi. Ertasiga esa ikki mil yo‘l bosdi. Endi u xuddi Billga o‘xshab o‘rmalab borardi. Beshinchi kun kechqurun kemaga yetish uchun yana yetti mil yo‘l qolgan edi; endi bir kunda bir mil yo‘l bosishga ham madori qolmadi.

U bir marta orqasiga qayrilib qarab, bo‘rining ochko‘zlik bilan qonli izlarni yalayotganini ko‘rib qoldi. Agar bo‘rini bir yoqliq qilmasa, holi nima kechishini juda yaxshi bilardi. Shundan keyin hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan kurashlarning eng shiddatlisi boshlandi: emaklab borayotgan kasal odam, uning orqasidan sudralayotgan kasal bo‘ri ikkisi ham chala o‘lik holda bir-birini poylashib, sahrodan sudralib bordilar.

U yana alahlay boshladi, yana ko‘ziga allanimalar ko‘rina boshladi, bu safar uning o‘ziga kelishi ancha qiyin bo‘ldi.

Bir marta xuddi qulog‘i ostida kimdir tez-tez nafas olayotganini eshitib, hushiga keldi. Tepasida turgan bo‘ri o‘zini orqaga tashladi va qoqilib ketdi-da, nimjonligidan yiqilib tushdi. Bu juda kulgili edi, lekin odam kulmadi. U hatto qo‘rqmadi ham. U endi qo‘rqish nimaligini ham sezmay qolgan edi. Uning ongi bir minutga ravshanlashdi, u o‘ylab ketdi. Kemaga qadar endi ko‘pi bilan to‘rt mil yo‘l qolgandi. U tuman bosgan ko‘zlarini ishqalab, kemani juda ravshan ko‘rdi, yarqirab turgan dengizni kesib o‘tayotgan oq yelkanli qayiqchani ham ko‘rdi. Yarim mil ham yo‘l bosa olmasligiga aqli yetardi. Shunday bo‘lsa ham yashashni istardi. Shuncha azob-uqubatlardan keyin o‘lib ketish bema’nilik bo‘lardi. Taqdir undan juda ko‘p narsa talab qilardi. Joni halqumiga tiqilganda ham u o‘limga bo‘ysunishni istamasdi. Ehtimol, bu aqlsizlik edi, lekin u o‘lim changaliga tushib qolgan bo‘lsa ham, uning changalidan qutulib chiqish uchun jon-jahdi bilan kurashaverdi.

Qo‘llari yuqoriga cho‘zildi, barmoqlari xuddi changak singari bukildi, lekin mehnati zoye ketdi. Tez va ishonch bilan harakat qilish uchun kuch kerak, unda esa kuch yo‘q.

Bo‘ri sabrli edi, lekin odam undan ham sabrliroq edi. U hushdan ketib qolmaslik uchun urinib va bo‘rini poylab, yarim kun qimirlamasdan yotdi. Bo‘ri uni yemoqchi edi, qo‘lidan kelsa, odam ham bo‘rini yemoqchi edi.

Vaqti-vaqti bilan u hushidan ketib qolar, shunda u uzoq-uzoq tushlar ko‘rar edi; lekin tushida ham, o‘ngida ham mana hozir bo‘ri tili bilan meni yalaydi, deb kutib yotardi.

Nafas tovushini eshitmadi, lekin bo‘ri uning qo‘lini yalayotganligini sezib o‘ziga keldi. Odam kutib yotdi. Bo‘ri uning qo‘lini tishlari orasiga olib kuchining boricha qisdi, keyin u shuncha vaqt kutgan o‘ljasiga tishlarini qattiqroq botiraverdi. Lekin odam ham shu paytni sabrsizlik bilan kutgandi, uning tishlangan qo‘llari bo‘rining jag‘ini qisdi. Bo‘ri bazo‘r o‘zini himoya qilardi, odam bir qo‘li bilan uning jag‘ini qisardi, ikkinchi qo‘lini ham uzatib bo‘rining tomog‘idan bo‘g‘a boshladi. Besh minutdan keyin odam o‘zining butun og‘irligi bilan bo‘rini bosib tushdi. Bo‘rini bo‘g‘ib o‘ldirish uchun uning kuchi yetmas, shunda odam tishi bilan bo‘rining tomog‘iga yopishdi, uning og‘zi yungga to‘ldi. Yarim soat o‘tdi, odam o‘z tomog‘iga issiq qon quyilayotganini sezdi. Xuddi uning og‘ziga eritilgan qo‘rg‘oshin quyilayotgandek, uni yutish bir azob edi. Lekin u o‘zini chidashga majbur qildi. Keyin odam chalqanchasiga ag‘darildi-da, uyquga ketdi.

Kit ovlovchi «Bedford» kemasida ilmiy ekspeditsiya a’zolari bor edi. Ular kema palubasida turib, qirg‘oqda g‘alati bir maxluqni ko‘rib qolishdi. Bu maxluq qum ustida zo‘rg‘a o‘rmalab dengiz tomonga kelardi. Olimlar buning nima ekanligini bilolmadilar, tabiatshunos bo‘lganliklari uchun qayiqchaga o‘tirib qirg‘oqqa suzib ketdilar. Ular tirik bir maxluqni ko‘rdilar, lekin uni odam deb bo‘ladimi?! U hech narsani eshitmas, hech narsani tushunmas, qum ustida ulkan qurt singari buralar edi. U oldinga deyarli siljimas, lekin orqasiga ham qaytmasdi, buralib-buralib oldinga qarab harakat qilar va soatiga yigirma qadamdan yo‘l bosardi.

Uch hafta o‘tgandan keyin u «Bedford» kemasida karavotda yotgan holda ko‘z yoshlarini oqizib, o‘zining kimligi va qanday mashaqqatlarni boshidan kechirganini hikoya qilib berdi. U onasi, serquyosh janubiy Kaliforniya

apelsin daraxtlari va gullar orasiga ko‘milgan uyi haqida poyma-poy gapirib berdi.

Bir necha kun o‘tgandan keyin u olimlar va kapitan bilan birga kayut-kampaniyada o‘tirar edi. U ovqatning mo‘lligidan quvonar, boshqalarning og‘ziga tushib yo‘q bo‘lib ketayotgan har bir luqma uni zo‘r tashvishga solardi. Uning aqli joyida, lekin stol atrofida o‘tirgan odamlarga nafrat bilan boqardi. Ovqatning tamom bo‘lib qolishidan qo‘rqib, bezovta bo‘lardi. U hadeb oshpazdan, xizmatchi boladan, kapitandan ovqat zaxirasini surishtirardi. Ular yuz martalab tasalli bersalar ham ishonmas, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani ovqat omboriga tez-tez tushib turardi.

Olimlar indamay uni o‘z holiga qo‘yib qo‘ydilar. Ular o‘ziga bildirmay uning karavotini tekshirdilar. Karavotning osti suxari bilan to‘la edi. To‘shakning ichiga ham suxari to‘ldirgan ekan. Har bir burchakka suxari yashirilgan. Lekin uning miyasi joyida edi. U faqat yana och qolguday bo‘lsam deb shuning chorasini ko‘rardi, xolos. Olimlar bu kasallik tez o‘tib ketadi, degan fikrda edilar. Haqiqatan ham «Bedford» kemasi San-Fransisko gavaniga langar tashlamasdanoq bu kasallik o‘tib ketdi.

?

1. Ikki hamrohning holatini tasavvur qilishga urinib ko‘ring. Orqada qolgan odamning gapiga Billning javob bermagani bu vaziyatda oddiy holmi yoki Bill uni eshitmadimi?

2. Falokatga yo‘liqqan, kimsasiz sahroda yolg‘iz qolgan odamning holatini tasavvur qilishga urinib ko‘ring.

3. Yo‘lovchining geografik bilimdonligiga e’tibor qiling. Balki uning yolg‘izlikdan o‘zini yo‘qotib qo‘ymaganiga, tushkunlikka tushib qolmaganiga mana shu bilimdonligi sabab bo‘lgandir, nima deb o‘ylaysiz?

4. Orqada qolgan yo‘lovchining Bill uni tashlab ketmasligiga qattiq ishonishi, oziq-ovqat, o‘qdori yashirib qo‘yilgan joyga yetib borish xohishi unga qanday ta’sir qildi?

5. Uning harakatdan to‘xtamagani, xas-cho‘p yig‘ib olov yoqishi, suv qaynatib ichishi, gugurt donalarini qayta-qayta sanashiga o‘z munosabatingizni bildiring.

6. ***Odam ko‘lmakdagi kichkina baliqchani tutish uchun qilgan mehnati zoye ketganda ilk bor yig‘lab yubordi.*** Uning holatiga munosabat bildiring.

7. Muallifning: ***«... qo‘rquv yashash uchun kurash bilan chambarchas bog‘liqdir»,*** – degan xulosasi haqida mulohaza yuriting. Munosabatingizni bildiring.

8. ***«Odam endi hayot uchun kurashmay qo‘ydi. Undagi hayotning o‘zi o‘lishini istamas, shuning uchun ham uni ilgariga haydardi»*** kabi xulosa haqida o‘ylab ko‘ring. Muallifning xulosasiga qo‘shilasizmi?

9. ***«Joni halqumiga tiqilganda ham u o‘limga bo‘ysunishni istamasdi»*** jumlasi zamiridagi haqiqatni nimada ko‘rish mumkin?

10. Kasal bo‘ri bilan kasal odam qiyofalari talqiniga e’tibor qiling. Ulardagi o‘xshashlik va farqli jihatlarni ajrating.

11. Yo‘lovchi ***«...hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan kurashlarning eng shiddatlisi»***ni yengib o‘tdi. Yo‘lovchi kechmishlari asosida inson irodasining qudratiga munosabatingizni bildiring.

12. Asarning nima uchun ***«Hayotga muhabbat»*** deya nomlangani haqida o‘ylab ko‘ring. Siz uni qanday nomlagan bo‘lardingiz?

CHINGIZ AYTMATOV

(1928—2008)

«Bizning ovulimizda yetti pushtini bilish aqidasiga qat’iy rioya qilinardi. Shu sababdan o‘zimizdan oldin o‘tgan yetti ajdodimizni bilish muqaddas burch ekanligi bolalikdanoq ongimizga singdirilardi. Odatda, ovul qariyalari bu borada o‘g‘il bolalarni: «Qani ayt-chi, botir, kimlarning avlodidansan? Otang kim? Otangning otabobolari kimlar? Nima ish bilan shug‘ullanishgan? Odamlar ular haqida nima deydi?» kabi savollar bilan

sinashardi. Agar bola bu savollarga javob berolmasa, uning ota-onasi qattiq izza qilinardi.

Aytmat bobomni men ko‘rmaganman. U 1918—1920-yillarda vafot etgan. Men esa 1928-yil 12-dekabrda tug‘ilganman.

Bizning Sheker ovulimiz (bu Talas vodiysida) chekkasidagi Qurqureu daryosining qirg‘og‘ida eski, yerga botib borayotgan tegirmon toshi bor. Yillar o‘tgan sayin u ko‘proq yemirilib, yerga chuqurroq singib bormoqda. Ana shu yerda bobomning tegirmoni bo‘lgan. Bu tegirmon bir yilcha ishlagan, xolos, keyin yonib ketgan. Shundan keyin inqirozga uchragan bobom 12 yoshli o‘g‘li To‘raqul – mening otam bilan bu yerdan ketib, Mayman stansiyasi yaqinidagi temiryo‘l tunnellari qurilishida ishlagan. Shu yerdan mening otam rus bojxona ma’muriyati yordamida Avliyoota shahridagi (hozirgi Jambul) rustuzem maktabiga o‘qishga kirdi. Keyin u ikki marotaba Moskvada o‘qidi. Qirg‘izistonda rahbarlik lavozimlarida ishladi. Onam – Nagima Hamzayevna Aytmatova o‘qimishli, o‘z davrining ilg‘or xotin-qizlaridan bo‘lgan. Bu narsa ota-onamga meni rus madaniyati, tili va adabiyotiga oshno qilish imkonini bergan.

Buvim esa har yozda meni toqqa olib ketardi. U ovuldagi eng aqlli va hurmatga sazovor ayollardan edi. U men uchun ertak, doston, qadimiy qo‘shiq va ajdodlarning bitmas-tuganmas xazinasi edi. Ehtimol, o‘shanda buvim o‘zi sezmagan holda o‘z tilimni sevishga, hurmat qilishga o‘rgatgandir. Bunga hech qanday shubham yo‘q. Ona tili! U haqda nihoyatda ko‘p gapirilgan. Lekin uning sirli mo‘jizasini tasvirlab bo‘lmaydi. Bolalikda shuurga singdirilgan ona tiligina qalbni she’riyat bilan sug‘orishi, insonda milliy g‘ururning ilk kurtaklarini uyg‘otishi va ajdodlar tilining naqadar serqirra va sermazmun ekanligini anglatishi mumkin. Bolalik nafaqat quvnoq davr, bolalik – inson shaxsi shakllanishining ilk davri hamdir.

Buvim mening bolaligimni turli ertak, qo‘shiq, dostonlar bilan bezagan. U meni turli davralarga, to‘y-

hashamlarga o‘zi bilan birga olib borardi. Menga tez-tez o‘zining tushlari haqida gapirib berardi. Bu tushlar shunchalik qiziq ediki, u mudrab uxlab qolgan vaqtida ham men uni uyg‘otib, tushning davomini aytib berishini so‘rardim. Qisqa tushlar meni qoniqtirmasdi. Shunda buvim qo‘shnilarnikiga chiqib, «qarzga» tush so‘rar va menga so‘zlab berardi. Keyinchalik tushundimki, buvim bu tushlarni men uchun to‘qib berarkan.

Buvim ko‘p o‘tmay vafot etdi. Endi men shaharda, o‘z uyimda yashay boshladim. Keyin maktabga bordim. Ikki yil o‘tgach sevimli ovulimga qaytib bordim. Bu safargi kelishim uzoq va qiyinchilik bilan kechdi. 1937-yil mening otam – partiya xizmatchisi, Moskvadagi qizil professura institutining tinglovchisi – qatag‘on qilindi. Bizning oila ovulga ko‘chib keldi. Aynan shu vaqtdan men uchun qi-yinchiliklarga to‘la asl hayot maktabi boshlandi.

Men juda erta ishlay boshladim: 10 yoshimda dehqon mehnatining barcha zahmatini tatidim. Bir yildan so‘ng biz rayon markaziga – Kirov nomli rus qishlog‘iga ko‘chib o‘tdik. Onam hisobchi bo‘lib ishga kirdi. Men yana rus maktabiga qatnay boshladim. Turmushimiz endi izga tushayotgan kezda urush boshlanib qoldi.

1942-yilda o‘qishni tashlashga to‘g‘ri keldi. Chunki urush vaqti, onamning esa hammamizni o‘qitishga imkoni yo‘q edi. Men yana Shekerga qaytib keldim. Ovul urush mashaqqatlari iskanjasida edi. Boshqa odam topilmagach, o‘z tengqurlarim ichida savodli bo‘lganim uchun meni qishloq kengashiga kotib etib tayinlashdi. O‘shanda 14 yoshda edim.

Aytishlaricha, qiyinchilik ko‘rmaguncha yaxshi kunlarning qadriga yetmaysan. Bolalikda men hayotni yorqin, go‘zal tasavvur etgan bo‘lsam, endi u ko‘z o‘ngimda o‘ta achchiq, og‘ir, beshafqat tarzda namoyon bo‘ldi. Men xalqimning boshqa bir sharoitdagi, Vatan taqdiri xavf ostida turgan paytdagi, ruhiy va jismoniy jihatdan nihoyatda zo‘riqqan davrlardagi ahvol-ruhiyatini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim.

Urush yillari RayFO[1]da soliq agenti, keyin bug‘doy yig‘imida traktorchilar brigadasi hisobchisi bo‘lib ishladim. Urush davom etar, hayot esa ko‘z oldimda xalq kundalik turmushining yangidan yangi sahifalarini ochib berardi.

Bu taassurotlarimning hammasi «Jamila», «Qizil durrali sarvqomatim», «Momo yer», «Yuzma-yuz»da aks etgan.

1946-yil 8-sinfni bitirgach, Jambul Zoovettexnikum[2]iga o‘qishga kirdim. U yerni bitirgach, a’lochi o‘quvchi sifatida Qirg‘iziston qishloq xo‘jaligi institutiga o‘qishga qabul qilindim va bu yerni ham a’lo baholar bilan bitirdim.

Yoshligimda badiiy adabiyotga oshno bo‘lgan edim, shu boismi maktabda erkin mavzulardagi insholarni bajonidil yozardim. Institutda o‘qish davomida shuni aniq sezdimki, badiiy adabiyot meni o‘ziga tamoman band etgan edi. Shu sabab 1956-yili Moskvadagi Oliy adabiyot kursiga o‘qishga kirdim. Faqat ikki yilgina davom etgan mazkur kurs menga favqulodda ko‘p bilimlar berdi. Moskvaning jo‘shqin hayoti, madaniyati hamda badiiy adabiyoti va teatrining hamma yaxshi tomonlari bilan chuqurroq tanishishga harakat qildim».

Chingiz Aytmatovning «Jamila», «Qizil durrali sarvqomatim», «Bo‘tako‘z», «Birinchi muallim», «Erta qaytgan turnalar», «Momo yer», «Alvido, Gulsari», «Oq kema» qissalari, «Asrga tatigulik kun», «Qiyomat» romanlari XX asr jahon adabiyotining noyob durdonalari hisoblanadi. Bu asarlar jahonning yetmishdan ziyod tiliga tarjima qilingan.

Buyuk adib Chingiz Aytmatov 2008-yil 10-iyunda og‘ir kasallikdan vafot etdi.

Chingiz Aytmatov nomini jahonga mashhur qilgan asar «Jamila» qissasi bo‘ldi. 1958-yilda yozilgan bu asar

---

[1] R a y F O — tuman moliya bo‘limi.

[2] Z o o v e t t e x n i k u m — zooveterinariya (hayvonlar shifokori) kolleji.

hozirgacha qirqdan ortiq tillarga tarjima qilingan. Qissani fransuz tiliga tarjima qilgan Lui Aragon uni «Muhabbat haqida yozilgan jahondagi eng ajoyib qissa» deb baholaydi. Bu kichik qissadan keltirilgan parchani o‘qib, o‘zingiz xulosa chiqararsiz.

?

1. Chingiz og‘aning o‘zi aytganlari asosida tabiatidagi ustuvor insoniy sifatlar haqida fikr aytishga urinib ko‘ring.

2. Siz adib shaxsi ko‘magida o‘zingizdagi biror sifatni kashf etishga yoki tabiatingizda biror fazilatni shakllantirishga urinib ko‘ring.

JAMILA

(Qissadan parcha)

Har gal safarga chiqishim oldidan kichkina yog‘och ramkaga solingan surat oldida turish menga odat bo‘lib qolgandi. Ertaga ovulga jo‘nashim kerak. Mana, hozir ham o‘sha suratga tikilib, go‘yo undan oq yo‘l tilayotgandek ko‘zimni uzolmay, uzoq termilib qoldim.

Suratni hali biron marta ham ko‘rgazmaga qo‘yganim yo‘q. Ovuldan qavm-qarindoshlarim kelishganida ko‘rib qolishmasin, deb yashirib qo‘yaman. Demak, suratda biror nojo‘ya narsa tasvirlangan ekan, deb o‘ylamang tag‘in, uning iymanadigan, shuningdek, bu bir nodir asar, «ko‘z tegadi» deydigan hech joyi ham yo‘q, shunchaki o‘rgamchikka chizilgan bir surat. Unda oddiy dala manzarasining aynan tasviri berilgan, xolos.

Suratning orqa planida so‘lg‘in kuz osmonining chekkalari oqarib ko‘rinardi. Shamol parqu bulutlarni uzoq-uzoqlarga, qorayib ko‘ringan tog‘ cho‘qqilari sari haydab boradi. Suratning old qismida sarg‘ish libos kiygan bepoyon dala, keng daryo tasvirlangan. Yog‘in-sochindan keyin po‘rsillab yotgan, chekkalaridagi qamishlar birbiriga ayqashib ketgan yo‘lda ikki yo‘lovchining oyoq izlari ko‘zga tashlanadi. Yo‘lovchilar uzoqlashgan sayin, oyoq izlari xiralasha boradi, go‘yo yana bir-ikki qadam

yurishsa ramkadan chiqib ketadigandek tuyulardi. Ha, aytmoqchi, yo‘lovchilardan biri... Keling, bir boshdan gapirib bera qolay.

Bu voqea bolaligimda yuz bergan edi. Ulug‘ Vatan urushi uchinchi yilga qadam qo‘ygan, ayniqsa, Kursk bilan Oryol ostonalarida dahshatli janglar borardi. O‘shanda biz bir gala o‘spirin bolalar kolxozda ekin sug‘orib, arava haydab, o‘t o‘rib yurar edik, xullas, urushga ketgan erkaklarning og‘ir mehnati bizning zimmamizga tushgan edi.

Ayniqsa, hosil yig‘im-terimida haftalab uy betini ko‘rmasdik, kecha-yu kunduz xirmonda bo‘lardik yoki stansiyaga g‘alla tashirdik.

Stansiyaga qatnab yurib, ko‘pdan beri uydagilarni ko‘rmaganim uchun o‘roqning ayni qizigan, saraton kunlarining birida yo‘l-yo‘lakay uyga kirib o‘tay, deb bo‘sh aravamni yo‘ldan burdim.

Biz azaldan ko‘chaning boshidagi yonma-yon tushgan ikki uyda turardik. Ularning balandligi uch metrcha keladigan, devorlari juda pishiq qurilgan bo‘lib, daryo tomoni daraxtlar bilan o‘ralgan hovli bizniki edi. Men katta uyning o‘g‘li edim. Akalarim urushga ketgan, ulardan xat-xabar yo‘q edi. Ikkalasi ham balog‘atga yetib, ayni uylanadigan vaqtda ketishgan. Keksa otam – duradgor-usta. Tong saharda namozini o‘qirdi-da, ustaxonaga jo‘nardi, shu ketganicha qosh qorayganda kelardi. Kolxozdagi barcha aravalar uning qo‘lidan o‘tardi. Uyda onam bilan singilcham qolardi, xolos.

Berigi kichik uyda esa yaqin qarindoshlarimiz turishardi. Qarindoshimiz deyishimning boisi oradan ikki-uch avlod o‘tib ketgan bo‘lsa ham ular bilan azaldan mol-jonimiz bir edi. Ota-bobolarimiz birga ko‘chib, birga qo‘nib, juda ahil yashagan ekan, bu ***odatni muqaddas bilib***, biz ham oraga sovuqlik tushirmay, apoq-chapoq bo‘lib kelardik. Kolxoz tuzilganda otalarimiz bir joyda o‘troqlashganlar. Bugina emas, ikki suv o‘rtasidagi Orolko‘chada turuvchilarning hammasi bir otaning farzandlari edi.

Keyinchalik berigi uyning egasi dunyodan o‘tib, xotini ikki go‘dak bolasi bilan qoldi. Eski odat bo‘yicha qarindosh-urug‘lar yesirning boshini bog‘lab qo‘yaylik, deb arvoh va xudoni pesh qilib, uni otamga nikohlab qo‘yganlar. Garchi u uyning qozon-tovog‘i, mol-joni, chorbog‘i bo‘lak bo‘lgani bilan aslida biz bir xonadon edik. Ularning ham ikki o‘g‘li askarga ketgan edi. Sodiq degan katta o‘g‘li uylanishi bilan ketgandi. Ular biz frontdamiz, deb onda-sonda xat yozib turishardi. Kichik uyda kichik oyim bilan kelini qolgan edi. Men uni doim «kichik oyi» deb chaqirardim. Ikkalasi ham ertadan qora kechgacha kolxozda ishlashardi. Kichik oyim (uni ovuldagilar ishchan ayol, baraka topsin, bunaqasi topilmaydi, deb maqtashardi) brigadir bilan adi-badi aytishib o‘tirmas, buyurgan ishini qilaverar, yur deganiga yuraverar, anovi yosh kelinchaklar qatori ariq chopishga ham, ekin sug‘orishga ham yo‘q demasdi, qo‘lidan sira ketmon tushmasdi. Xudo bilib berganmi, deyman, uning kelini Jamila ham serg‘ayrat, baquvvat bo‘lib, biroq fe’l-atvori ***sal boshqacharoq*** edi.

Jamila yangamni chin qalbimdan yaxshi ko‘rardim. Bir tomoni yangam, ikkinchi tomoni mendan biroz katta, lekin biz xuddi tengqur do‘stlardek edik. Meni «kichkina bola», deb ukasidek erkalatganini aytmaysizmi...

Men aravamni chorbog‘ning chetiga, ko‘lankaga haydab kelsam, qamchisini qanjig‘asiga qistirib olgan brigadir O‘razmat og‘a bilan oyim eshik oldida negadir aytishib turgan ekan. Ularga yaqinlashganimda oyimning ovozi eshitildi:

– Bormaydi! Axir, bu insofdan emas-ku. Xudodan qo‘rqishsin! Xotin kishining arava haydagani nimasi. Xudo xayringni bersin, shusiz ham yolg‘izlik azobini tortib, ikkala xonadonning tirikchiligidan bosh qashirga ham qo‘li tegmaydi!..

O‘rozmatning chayqala-chayqala tinkasi quridi.

– Obbo siz-ey, – dedi u, – agar to‘rt muchalim sog‘ bo‘lib, qo‘limdan kelsa, o‘zimoq ilgarigidek qoplarni aravaga irg‘itib-irg‘itib, otlarni choptirib ketmasmidim!

Iloji yo‘q-da, yosh kelinlarga arava haydatib bo‘ladimi, desak, plan to‘larmidi: boshliqlar frontga yuboriladigan g‘allani nega to‘xtatdinglar, deb stolni mushtlab bizga do‘q ursa, axir, nima qilaylik, siz ham tushuning-da!

Brigadir mening qamchini sudratib kelayotganimni ko‘rib, go‘yo miyasiga bir yaxshi fikr kelgandek xursand bo‘lib ketdi.

– Agar kelinimga yo‘l-po‘lda tentak aravakashlar tegajog‘lik qiladi, deb qo‘rqsangiz, mana, qayin inisi borku, – dedi meni ko‘rsatib. – Bu inim yangasiga birovni yaqin yo‘latish u yoqda tursin, qaragani ham qo‘ymas. Seit ham chakana emas, azamat yigit-ku. Sadag‘asi ketay, jonimizga oro kirayotgan mana shu bolalar-da… Seitjon, uka, bugun uyda qolib, otlaringga biroz dam ber. Ertaga Jamilaga arava beramiz, yangangni birga olib, unga o‘zing bosh bo‘l. Siz esa, onasi, Seit bor ekan, ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, kamlik qilsa, yangi kelgan Doniyorni ham qo‘shib beray: o‘zingiz bilasizki, u birovga ziyoni tegmaydigan xokisor odam… O‘zlaricha uch arava bir brigada bo‘lib, stansiyaga qatnayverishsin. Mayli, bularning yoniga boshqalarni qo‘shmay… Xo‘sh, Seit, sen nima deysan?..

– Haydasa haydayversin, nima, bo‘ri yeb ketarmidi! – deb xuddi katta aravakashlardek chirt etkizib tupurdim-da, qamchini sudraganimcha salmoq bilan qadam tashladim.

– E, jin ursin seni, bo‘ri yeb ketarmidi, deydi-ya! Hoy bolam, sen nimani bilarding! – dedi oyim achchiqlanib.

– Iye, nega bilmas ekan, ikki uyning azamat yigiti bo‘ladi-yu, bilmaydimi? – deb yubordi O‘rozmat.

Oyim bo‘lsa og‘ir bir uh tortib qo‘ydi…

O‘shanda bu ishning oqibati nima bilan tugashini oyim ham, men ham bilmagan edik.

...Jamilaning ikki ot qo‘shilgan aravani bemalol haydab ketishiga hech ham shubha qilganim yo‘q. Chunki u yoshligidan yilqichilar orasida o‘sib katta bo‘lgan, tog‘ etagiga joylashgan Baqaylar ovulidagi yilqichining qizi

edi. Sodiq akam ham chavandoz bo‘lgan ekan; u bir kuni yaylovdagi chorvadorlar to‘yi munosabati bilan o‘tkazilgan poygada Jamilaga yetolmay qolgan ekan. Shundan keyin izza bo‘lib, uni olib qochib ketganligini bilardim. Ovsin-ajinlar bo‘lsa, hecham-da, ular bir-birlarini yaxshi ko‘rib topishgan, deyishardi. Har qalay, nima bo‘lsa ham ular uch-to‘rt oy birga turishgan, keyin Sodiq akamni armiyaga olib ketishgan edi. Bilmadim, yoshligidan otasi bilan birga dala-dashtlarda yilqi haydashib, ot chopishib erka o‘sganidanmi yoki bitta-yu bitta qiz bo‘lganligi uchunmi, ishqilib, ***Jamilaning xatti-harakatlarida allaqanday jo‘shqinlik, erkaklarga xos fazilat bor edi.*** Har bir ishga astoydil kirishar, boshqa kelinlardek boshim, belim og‘riyapti deb sira zorlanmasdi. Biroq o‘zi ham birovga haqini ketkazmaydigan, aytishgan bilan aytishib, so‘kishgan bilan so‘kishadigan o‘jar ayollardan edi. Uning ovuldagi kelinlar bilan yumdalashgan vaqtlari ham bo‘lgandi.

Yon-atrofdagi odamlar:

– E, bu qanday shaddod kelin o‘zi! Tushganiga hech qancha vaqt bo‘lmay, tilidan zahar sochadi-ya! – deganlarida, oyim:

– Mayli, shunisi yaxshi! Kelinimiz ochiq-yoriq, sira bo‘sh kelmaydi... Ana shunday ko‘nglida kini yo‘q odam yaxshi, indamay yurgan pismiqlardan qo‘rqish kerak, hamma fisq-fasod o‘shalardan chiqadi, – deb javob qaytarardi.

Otam bilan haligi «ishchan» degan oyim boshqa qaynota, qaynonalardek Jamilani turtmay, so‘kmay, aksincha, o‘z farzandlaridek erkalatishib: «Xudo ishqilib o‘ziga insof bersin, to‘g‘ri yurib, to‘g‘ri tursa bo‘lgani!» – deyishardi. Ular voyaga yetgan to‘rt o‘g‘illarini armiyaga jo‘natishib, ikki xonadondagi yakka-yu yagona kelinini ranjitishadimi? Biroq men oyimning ba’zi ishlariga hayron qolardim. Boshqalarni qo‘yib turaylik, oyim birovlarning qo‘liga qaraydigan ayollardan emas edi. Har yili kuz kelishi bilan odati bo‘yicha otam tayyorlagan olti qanotli qora o‘tovni tikib, archa tutatardi. Bizlarni chizgan

chizig‘idan chiqmaydigan qilib tarbiyalab, hargiz ikki oilaning boshini qovushtirib kelardi. Oyimning aytgani aytgan, degani degan edi. Ammo Jamila oramizda ajralib turardi. To‘g‘ri, u kampirlardan biroz tortinar, ularning hurmatini joyiga qo‘yar, biroq ovuldagi ko‘pchilik kelinlardek indamay boshini quyi solib o‘tirmas yoki teskari qarab po‘ng‘illamas, ko‘nglida borini yashirib o‘tirmay, shartta gapirib qo‘ya qolar edi.

– Xudoga shukr, tagli-joyli yerga tushding, bolam. Bu ham bo‘lsa sening baxting, buni sira ham yodingdan chiqarma. Xotin degan tangrining berganiga shukur qilib, ro‘zg‘orida birini ikki qilib yursa, shuning o‘zi katta davlat. Biz chol-kampir topgan-tutganimizni o‘zimiz bilan birga go‘rga olib ketarmidik... O‘z qadr-qimmatingni bilsang, sira kam bo‘lmaysan, doim martabang baland bo‘ladi, bolam,— deb eslatib turardi oyim.

To‘g‘ri, chol-kampirlarning cho‘chiganicha bor edi: Jamila juda sho‘x, yosh bolaga o‘xshardi. Bir qarasangiz, o‘zidan o‘zi kampirlarga suykalib erkalanar, yo bo‘lmasa birdan qah-qah urib kular yoki ko‘chadan kirib kelayotganida xuddi yosh qizchalardek ariqdan lorsillab sakrab o‘tar yoxud o‘zicha xirgoyi qilib yurardi. Kampirlar Jamilaning bu qiliqlarini o‘zlaricha gap qilib: «Hali bola-da, bora-bora quyulib qoladi», – deb qo‘yishardi.

Menga bo‘lsa yangamning shunaqaligi yoqardi. Ba’zida ikkovimiz olishib, kurashib, quvlashib ham ketaverardik.

Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi. Ikki o‘rim qora sochini boshiga chambarak qilib o‘rib, ustidan tang‘ib olgan oppoq durrasi uning bug‘doyrang kulcha yuziga shunday yarashib tushar ediki, asti qo‘yaverasiz! Jamila kulganda uning shahlo ko‘zlarida navqiron yoshlik barq urar, shunda u beixtiyor qaddini rostlab, ovulning sho‘x laparlarini kuylab yuborardi. Ovuldagi yigitlar, ayniqsa, frontdan qaytib kelgan yigitlarning Jamilani ko‘z ostiga olishib, tegishib yurganlarini necha bor payqardim. Hangomatalab yangam ular bilan bemalol hazil-huzul qilishardi-yu, biroq haddidan oshganlarning ta’zirini berib

qo‘yardi. Baribir bu mening izzat-nafsimga qattiq tegar, yangamni rashk qilardim. Shuning uchun ham haligi «bezorilarga» o‘zimni ko‘rsatib qo‘yay deb: «Hoy, bilib qo‘yinglar, bu mening yangam bo‘ladi-ya, ko‘p pash-shaxo‘rda bo‘lavermanglar», – degandek, ularning so‘zini shartta bo‘lib, viqor bilan xo‘mrayib qarardim. «Endi nima qildik, buning yangasi ekan-ku!» – deb yigitlar masxara qilib kulishganda, qizarib-bo‘zarib, azbaroyi xo‘rligim kelganidan yig‘lab yuboray derdim. Buni sezgan yangam xursand bo‘lib, kulgidan o‘zini tiyolmay jilmayib: «Ishlaring bo‘lmasin, nima, yanga degan yerda qolibdimi? Yur, ketdik, qaynim!» – deb ularning battar qitig‘iga tegar, so‘ngra boshini mag‘rur ko‘targancha dadil qadam tashlab ketardi. U yigitlarning ta’zirini berganidan ham xursand bo‘lib, ham o‘ziga xo‘rligi kelib, menga qarab bir kulimsirab qo‘yardi. Balki u: «E tentak, yangamga ko‘z-quloq bo‘laman deysanmi? Agar buzilaman desam ming ko‘z-quloq bo‘lsang ham buzilaman. Axir, men chumchuq emasman-ku», – degan xayolga borganmikin? Men ham o‘shanday vaqtlarda aybdor kishidek g‘ing demasdim. Ammo birozdan so‘ng yangam xiyol yozilib: «Obbo kich-kina bola-yey, juda g‘alatisan-da!»– deb meni yana bag‘riga bosib, peshonamdan o‘pardi.

Nega shundayligini o‘zim ham bilmasdim. O‘sha kezlarda ovulda erkaklar juda oz edi. Shu sababli ba’zan yigitlar ko‘krak kerib, balandparvoz gapirib, ovulda «mendan boshqa yigit yo‘q» degandek, ayollarni hecham nazar-pisand qilishmasdi. Bir kuni pichan o‘rimida, yur, desam, bo‘ldi, orqamdan ergashib kelaveradi, deb o‘ziga ishonganlarning biri – uzoq qarindoshimizning o‘g‘li Usmon yangamga tegajog‘lik qilavergan edi, u Usmonning qo‘lini siltab yubordi-da, g‘aram soyasida o‘tirgan joyidan turarkan:

– Tur yo‘qol! – deb o‘shqirdi va teskari qarab oldi. – Qo‘llaringdan modabozlik qilishdan boshqa ish kelarmidi.

G‘aram ustida taltayib yotgan Usmon qalin lablarini nafrat bilan burishtirib, to‘ng‘illadi:

– Ol-a, mushukning bo‘yi shiftga osig‘liq turgan

go‘shtga yetmay, puf, sassiq, degan ekan... Shunga o‘xshab, ko‘p noz qilaverma. Ichingda jon-jon deb turibsan-u, yana...

Jamila unga yalt etib qaradi-da:

– Jon-jon deb tursam turgandirman. Lekin peshanamga yozilgani shu ekan, nima qilay? Ey ahmoq, buning kuladigan joyi bormi? Jon-jon deyish u yoqda tursin, ming yil toq o‘tsam ham senga o‘xshagan shumshuklarga nazarimni solmayman. Ahmoqsan. Ilgaridek tinch zamon bo‘lganda shunday deb bo‘psan edi! – dedi.

– Shuni aytyapman-da! Urushning kasofati bilan qamchi yemay quturib yuribsan-da, – dedi istehzo bilan Usmon ko‘zlarini o‘ynatib tamshanarkan. – Mening xotinim bo‘lganingdami, nima qilishimni o‘zim bilardim!

Jamila lablari dir-dir titrab, Usmonga yeb qo‘ygudek bo‘lib qaradi, unga bir narsa demoqchi bo‘lib og‘iz juftladi-yu, lekin «Shu ahmoq bilan aytishib nima obro‘ topdim», – deb o‘yladi, shekilli, jirkanch bilan «tuf», dedi-da, yerda yotgan panshaxasini yelkasiga tashlab, indamay nari ketdi. Men berigi tomonda aravaning ustidan xashak tushirayotgan edim. Jamila meni ko‘rishi bilan boshqa tomonga burilib ketdi. Yangam mening qay ahvolda ekanimni sezgan edi. Nazarimda, yangamni emas, meni haqorat qilishgandek izza bo‘lib, g‘azabim qaynab ketdi. «Nega ularga yondashasan, nega ular bilan gaplashasan?» – deb yangamga jonim achidi-yu, ichimda uni koyidim.

Jamila o‘sha kuni kechgacha noxush yurdi, kulmadi ham, gapirmadi ham. Men shoti aravani haydab g‘aram oldiga borganimda, Jamila meni gapirmasin deb ataylab ishga alahsitib, dilini o‘rtayotgan o‘y-fikrlarini yashirishga harakat qildi, u panshaxasini kattakon pichan g‘aramga sanchdi-da, go‘yo tog‘ni ag‘darayotgandek uni yerdan shartta ko‘tarib, yuzini yashirganicha g‘ayrat bilan pichanni aravaga otaverdi. Undan uzoqlashar ekanman, qayta-qayta orqamga qayrilib qarardim: yangam panshaxa dastasiga suyanib biroz xomush turar, o‘ylanib qolar, keyin yana ishga tushib ketardi.

Men aravaga oxirgi marta pichan bosar ekanman, Jamilaning botib borayotgan quyoshga uzoq tikilib turganini payqadim. Quyosh daryoning narigi yog‘ida, qozoq dashtlarining allaqayerida o‘t yoqilgan tandirning og‘zidek alangalanib, holdan toyib, osmonda suzib yurgan pag‘a-pag‘a bulut parchalarini qizg‘ish rangga bo‘yab, binafsharang dashtlikka so‘nggi shu’lalarini sochib, asta-sekin ufq orqasiga o‘tib borardi. Jamila qo‘li bilan quyoshni to‘sib, o‘sha tomonda ajib bir manzara bordek, ko‘zlarini uzmay, kulimsirab qarab turardi. Endi uning chehrasi ochilib, ko‘ngli ancha ko‘tarilgan edi.

O‘shanda Jamila mening aytmagan, lekin yuragimda tugilib, tilim uchida turgan: «Nega ularga yondashasan, nega ular bilan gaplashasan!» – degan ta’namga javob berayotgandek:

– Haligi gaplarimni ko‘nglingga olma, kichkina bola, – deb qo‘ydi, eng yaqin sirdoshi bilan dardlashayotgandek. – Usmon ham odammi? It ham bir, u ham bir.

Jamila botib borayotgan quyoshdan ko‘zini uzmay, indamay qoldi, keyin go‘yo menga emas, o‘ziga gapirayotgandek yana shunday dedi:

– Bunday kishilar ko‘nglingdagini bilarmidi... Buni hech kim bilmaydi. Xudo bilsin, bunday erkaklar dunyoda yo‘qdir ham!

* * *

Ertasiga har kungidek stansiyaga kelib, qosh qorayganda yana ovulga yo‘l oldik. Doniyor oldinda ketib borar edi. Uning ko‘nglidagi xijili yozildimi-yo‘qmi, bila olmadik, zotan, buni bilish oson emasdi. Xuddi o‘rtamizda hech gap o‘tmagandek, Doniyor indamay ishini qilaverdi. Shunisi borki, yarador oyog‘i ko‘proq lat yegan bo‘lsa kerak, u qattiqroq oqsab, ayniqsa, qop ko‘targanda qiynalib yurdi. Garchi u hech narsa demasa ham uning yurish-turishi gunohkor ekanligimizni eslatib, ko‘nglimizni og‘ritar edi. Loaqal Doniyor sal-pal hazillashib, kulib qarasa ham mayli edi, ko‘nglimiz ravshan tortardi.

Jamila otdan tushsa ham egardan tushmay, go‘yo

ko‘nglida hech gap yo‘qday hazil-huzul qilib yuraverdi. Lekin ich-ichidan ezilib, xafa bo‘lib yurganini aniq sezardim.

Mana, ovulga ketib boryapmiz. Latofatli ajoyib tun.

Bunday so‘lim tunda yo‘l yurishning o‘ziga yarasha gashti bor. Jamila oldinda ketib borardi. U tizginni bo‘sh qo‘yib, atrofiga suqlanib qarar, o‘zicha allaqanday ashulani xirgoyi qilardi. Bizning og‘zimizga talqon solgandek jim kelayotganimizdan Jamila toqati toq bo‘layotganini sezib turardim. Shunday kechada jim yurib bo‘ladimi? ***Yuragida o‘ti bor odam shunday go‘zal tabiat manzarasini ko‘rib jim tura oladimi?!***

Yo‘q, Jamila jim turolmadi, u ovozini baralla qo‘yib kuylab yubordi. Menimcha, uning yana bir boshqa niyati – Doniyorning ko‘nglini ochib, xafachiligini yozmoq-chi bo‘lsa kerak. Zotan, odamlar bir-birlarining gunohlarini kechirmasmikin, deb ikkilanib turgan paytda qandaydir bir turtki kerak bo‘ladi-ku. Ehtimol, Jamila shu fikrga borgandir, xullas, u bir silkinib qo‘ydi-da, qalbidan qaynab chiqayotgan yangroq ovoz bilan kuylab yubordi:

Shohi ro‘moling bog‘lab,
Yonimda yursang yayrab...

Jamila bunday sho‘x-sho‘x laparlarni juda ko‘p bilardi. Uning ashulasi kishiga orom bag‘ishlardi. Jamila ashulasini bir zum bo‘lib, oldinda borayotgan Doniyorga qichqirdi:

– Hoy bo‘shang yigit, ovozingni bir chiqarsang-chi! Yigitmisan o‘zi!

Doniyor aravasini to‘xtatdi-da, orqasiga qayrilib:

– Kuylayver, Jamila, qulog‘im senda, – deb qo‘ydi tortinib.

– Nima, boshqalarning qo‘shiq eshitgisi kelmaydi, deb o‘ylaysanmi? – dedi Jamila. – Aytmasang aytma, tarang qilishini qara-yu!

Shundan so‘ng u «sen aytmasang men aytaman», degandek, Doniyorga o‘chakishib yana ashulani oldi. Uning nima uchun Doniyorni ashula ayt, deb qistaganini bilol-

madim. Gapga solmoqchi bo‘ldimikin? Shunday bo‘lsa kerak, chunki birozdan keyin Jamila yana iltimos qila boshladi:

– Hoy Doniyor, umringda birovni sevganmisan? – dedi-yu, nima uchundir kulib yubordi.

Doniyor javob qaytarmadi. Jamila ham churq etmay qoldi. Dara ichiga bir nafas jimlik cho‘kdi. Faqat g‘ildiraklarning dukur-dukur ovozi, otlarning pishqirgani eshitilardi, xolos.

«Juda odamini topib so‘rading-da», – deb kulib qo‘ydim men.

Yo‘lni kesib o‘tib, sharqirab oqayotgan soyga yetganimizda Doniyor aravani sekinroq haydab, ot taqalarining kechuvdagi kumushdek yaraqlagan toshlarga tegib shaqillashiga diqqat bilan quloq sola boshladi. So‘ngra «chuh» deb otlarga bir qamchi urdi-da, birdan titroq ovoz bilan:

Ey Olatog‘, Olatog‘,
Ota-bobom o‘sgan yer! –

deb kuylab yubordi. Biroq u yana to‘xtab, yo‘talib qo‘ydi, lekin keyingi ikki misrani yurakdan chiqarib zavq bilan aytdi:

Ey Olatog‘, Olatog‘,
Oq bulut qalqib ko‘chgan yer!

Lekin Doniyorning shu bir og‘iz kuylashida ham qandaydir bir joziba, nafosat borligi aniq sezilib turardi. Ha, ovozi ham yaxshi edi.

«Qoyilman!» – deb qo‘ydim ichimda hayratlanib. Jamila ham qichqirib yubordi:

– Iye, durustsan-ku, ilgari qayerda yurgan eding? Qani ayt, yaxshilab ayt!

Doniyor miq etmay ketaverdi. Oldimizda daradan vodiyga chiqadigan joy oqarib ko‘rinardi, o‘sha tomondan shabada esardi. Doniyorning hali boshlagan kuyini yana davom ettirishini sabrsizlik bilan kutardim. Doniyor yana kuylay boshladi, men o‘zimda yo‘q quvonib ketdim.

Doniyor avvaliga tortinib-tortinib sekin kuylay boshladi. Ammo bora-bora ovozini baralla qo‘yib, erkin ayta

boshladi, uning ashulasi darada qo‘ng‘iroqdek yangrab, uzoq-uzoqlardagi qoyalarda aks sado berdi. Doniyorning qo‘ng‘iroqdek ovozigina emas, balki ***kuyning ohanraboligi, jo‘shqin his-tuyg‘ularga boyligi*** ham kishini maftun etardi. Buning nimaligini aqlim sig‘dira olmay lol bo‘lib qoldim: bu ashulachining ovozimi yo bo‘lmasa yurakdan qaynab chiqayotgan boshqa bir narsami? ***Kishi qalbining eng nozik torlarini chertib, unda ezgu niyatlar uyg‘otayotgan*** bu nima o‘zi? Rostini aytsam, bu savolga hozir ham javob bera olmayman.

Qani endi, qo‘limdan kelsa-yu, bularning hammasini qog‘ozga bitib o‘tirmay, iloji bo‘lsa o‘sha ajoyib kuyning o‘zginasini kuylab bersam.

Unda deyarli so‘z yo‘q, lekin ***bu kuy so‘zsiz ham samimiy sof niyatli qalb egasining butun quvonchi, umid-orzulari va tilaklarini ifodalab berardi.*** Men umrim bino bo‘lib bunday kuyni eshitgan emasman. U qirg‘izchaga ham, qozoqchaga ham o‘xshamasdi, biroq bu kuyga azaldan bir-biriga qondosh-jondosh bo‘lgan qirg‘iz bilan qozoq xalqining kuylaridagi eng nafis, eng dilrabo ohanglar singdirilgandek bo‘lib tuyulardi. Bu kuy goh qirg‘iz tog‘laridek baland-balandlarga parvoz qilsa, goh poyoni yo‘q qozoq dalalaridek uzoq-uzoqlarga taralardi. «Yo tavba, Doniyorni shunchalik ashulachi deb kim o‘ylagan edi?!» – dedim men o‘zimga o‘zim.

Darani bosib o‘tib keng dalaga chiqqanimizdan keyin Doniyorning ashulasi qanot yozib, yana ham kuchliroq yangradi. Bu dilrabo kuy bir-biriga ulanib, bir-biri bilan almashinib borardi. Bugun Doniyorga nima bo‘ldi, tinchlikmi o‘zi, hech narsani tushuna olmasdim. Go‘yo u o‘sha kunni, shu damni ko‘pdan beri orziqib kutgandek, qalbidagi butun sir-asrorini to‘kib soldi. Doniyorning nima uchun merov odamday elga kulgi bo‘lib yurganini, nima uchun kechqurunlari Qorovultepaga chiqib olib yolg‘iz o‘yga cho‘mib o‘tirganini, nima uchun kishi ilg‘amas tovushlarga quloq osganida, qoshlari chimirilib, ko‘zlari quvonchga to‘lganini endi bir qadar tushuna boshlagan

edim. U qalbida yuksak insoniy muhabbat tug‘yon urgan bir inson edi! Menimcha, uning sevgisi biror kishiga ishqi tushib, o‘sha odamga ato qilingan sevgi emas, balki ***insonni yaratib, uni kamolga yetkazgan keng olamga, yorug‘ dunyoga bo‘lgan cheksiz, jo‘shqin sevgi edi! Ha, u bu sevgini o‘z qalbida ardoqlab saqlagan, ana shu sevgi bilan yashagan edi.*** Agar u shunday yuksak qalb egasi bo‘lmay, didi past, yuragi muz bir kishi bo‘lganda edi, tabiat uni qanchalik iste’dodli qilib yaratgan bo‘lmasin, baribir u bunchalik kuylay olmas edi.

Doniyorning kuyi tungi dasht ustida yana jo‘sh urib, mudroq dalani uyg‘otayotgandek bo‘lardi. Keng, bepoyon dala o‘zi yaratib, o‘zi ardoqlab o‘stirgan qadrdon kuychisining ashulasiga jim quloq solardi.

Doniyor yana ancha vaqtgacha kuylab keldi. Avgust tuni uning ashulasiga mahliyo bo‘lgandek jim quloq solardi. Hatto ***otlar ham go‘yo maroqli kuyni buzishdan qo‘rqqandek yurishini sekinlashtirgandi.*** Kishiga cheksiz orom baxsh etib, zavq-shavq bilan kuylab kelayotgan Doniyor ayni avjiga chiqqanda, birdan jim bo‘lib, otlarni choptirib ketdi. O‘zimcha, Jamila yana uning orqasidan ergashsa kerak, deb o‘ylab, men ham hozirlanib turdimu, biroq Jamila boshini quyi solgancha chuqur xayolga cho‘mib, qimir etmay o‘tirardi. U havoda uchib yurgan ashula sadolariga hamon quloq solayotgandek edi.

Doniyor shu bo‘yi to‘xtamay, birozdan so‘ng ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. ***Biz to ovulga yetguncha og‘iz ochmadik. Ba’zida kishi o‘z dardini so‘z bilan ifodalashga ojiz bo‘lib qoladi.***

Shu kundan boshlab hayotimizda qandaydir bir o‘zgarish yuz bergandek bo‘ldi. Endi ko‘nglim allaqanday yaxshi narsalarni qo‘msab, yuragim g‘alati his-hayajonlarga to‘lib, o‘zimdan o‘zim xursand bo‘lib yurdim. Ertalab xirmondan jo‘nab, stansiyaga kelib, g‘allani topshirib bo‘lgach, Doniyorning sehrli ashulasini qachon eshitar-kinmiz, deb ketishga shoshilar, o‘sha damni sabrsizlik bilan kutar edik.

Uning ashulasi yurak-yuragimga singib, qayerga bormay, qayerda turmay, qulog‘im tagida jaranglayotgandek bo‘lardi.

Tong saharda turib, yalangoyoq, yalangbosh shabnam tushgan bedazor orqali o‘tloqdagi tushovlangan otlarning oldiga borayotganimda ham kuy menga hamroh bo‘lardi. Tog‘ orqasidan mo‘ralab ko‘tarilgan quyosh xuddi mening quvonchimga sherik bo‘lgandek jilmayib nur sochardi.

Oltin donalari kabi keksa xirmonchilarning panshaxalaridan sachrab tushayotgan bug‘doy donalarining mayin shildirashida ham, ko‘kda parvoz qilib yurgan yolg‘iz kalxatning qanot qoqishida ham, xullas, ko‘rib, uqib, sezib yurgan narsalarimning hammasidan Doniyorning kuyi eshitilayotgandek bo‘lardi.

Kechqurun darada arava haydab borayotganimizda men o‘zimni xuddi boshqa bir olamga kirib borayotgandek his qilardim. Ko‘zlarimni yumib Doniyorning ashulasiga quloq solar ekanman, ona suti bilan qonimga singib, bir qarichligimdan tanish bo‘lgan manzaralar ko‘z o‘ngimdan birma-bir o‘ta boshlardi: goh ovulning zumrad osmonidan pag‘a-pag‘a bulutlar suzib o‘tishar, goh o‘tlab yurgan yilqilar uyuri dukurlashib, kishnashib, yaylovda chopib qolishar, qulunlar kokillarini o‘ynatib qop-qora ko‘zlarini javdiratganlaricha onalarini qidirishib qolar, goh suruv-suruv qo‘ylar tepaliklarda o‘tlab yurishar, goh qoyalardan oqib tushayotgan shalola oynadek yarqirab ko‘zlarni qamashtirar, dengizdek mavjlanib yotgan qamishzorlar orasiga cho‘kib borayotgan quyoshni lolarang ufq sari yo‘rtib borayotgan yolg‘iz otliq mana hozir qo‘li bilan ushlab oladigandek bo‘lib tuyulardi, keyin o‘zi ham quyosh bilan birga butalar orasiga kirib g‘oyib bo‘lardi.

Mana shularning barisini Doniyor kuyga solib, ko‘z o‘ngimda yorqin gavdalantirib, sermazmun keng olamning butun zeb-ziynatini, ko‘rkini ochib ko‘rsatdi. «Yopiray, bularning barini u qayerdan o‘rgandi ekan?» – deb hayron bo‘laman. O‘zimcha, ***chet yerlarda ko‘p yillar sarson-sargardon bo‘lib, o‘z el-yurtini ko‘rish ishtiyoqi***

bilan yashagan, shu quvonchli damni intizorlik bilan kutgan odamgina o‘z ona tuprog‘iga shunchalik mehr qo‘yishi, uni shu qadar seva olishi mumkin, degan fikrga keldim. Doniyorning bu kuylarini tinglar ekanman, uning boshpana izlab o‘tkazgan mashaqqatli yetimlik yillarini ham, qonli jang maydonlarida bosib o‘tgan yo‘llarini ham ko‘z oldimga keltirar edim. Ehtimol, uning ona-Vatan haqidagi jo‘shqin kuylari o‘shanda tug‘ilgandir. Doniyorning ashulalarini tinglab o‘tirib, ***inson bolasi o‘z ona tuprog‘ini shunchalik seva olganligi uchun ham tiz cho‘kib, o‘sha tuproqni xuddi o‘z onangdek quchoqlab o‘pging keladi. Ana shunda, birinchi marta yuragimda qandaydir yangi bir his uyg‘onib, qalbimni o‘rtab, qani endi o‘sha yerning muqaddasligini, uning ko‘rkini Doniyorchalik seza bilsam, seva bilsam, uning madhiyasini Doniyorchalik tarannum qilolsam,*** degan bir havas uyg‘onganligini sezdim. Nimanidir orziqib kutardim, lekin nimaligini o‘zim ham bilmasdim. Bunga ham xursand, ham xunob bo‘lardim. ***O‘shanda menda rassomlik san’atining ilk kurtaklari paydo bo‘lganini, kelajakda hayotni bo‘yoqlar, suratlar orqali tasvirlashga havas uyg‘onayotganini bilmagan ekanman.***

Men bolaligimdan surat solishni yaxshi ko‘rardim, bolalar o‘qish kitoblaridan ko‘chirib solgan rasmlarimni ko‘rishib: «Voy, xuddi o‘zi-ya!» – deyishardi. Muallimlarimiz ham maktab devoriy gazetasini menga topshirishar edi. Lekin keyinchalik surat solishni bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘yishga to‘g‘ri keldi. Urush boshlanib, akalarim armiyaga ketgach, men o‘qishni tashlab, o‘z tengqurlarim qatori kolxozda ishlay boshladim, o‘sha vaqtlarda surat solmoq kimning esiga kelardi, deysiz. Kelajakda rassom bo‘laman, degan o‘yim yo‘q edi, ammo Doniyorning kuylari meni hayajonlantirib, hayotning butun go‘zalligini sezishga ilhomlantirdi...

Jamilaning o‘zgarib ketganini aytmaysizmi! Oldingi sho‘x, hazilkash, gapga chechan kelindan go‘yo asar ham qolmagandek edi. Uning o‘ynoqi o‘tkir ko‘zlari endi go‘yo bulutli kundagi quyosh singari negadir g‘amgin bo-

qardi. Yo‘lda ketib borayotganimizda Jamila doimo chuqur o‘yga tolar, lablarida bilinar-bilinmas tabassum o‘ynab, ***u faqat o‘zigagina ma’lum bo‘lgan allaqanday latif bir narsadan huzur qilayotgandek, undan suyunayotgandek tuyulardi.*** Ba’zan esa, aksincha, xayolini bir narsa buzgandek, qopni aravadan yelkasiga silkib olib, shu turganicha qotib qolardi. U shu turishida, go‘yo quturib oqayotgan suvga duch kelib, o‘tishini ham, o‘tmasligini ham bilmay lol bo‘lib turgan odamga o‘xshardi Doniyorga esa u nima uchundir yaqin yo‘lamay, uning ko‘ziga tushishdan qochib, chetlab yurdi. Jamila o‘zini uni avvalgidek nazarga ilmayotgandek qilib ko‘rsatishga qanchalik urinmasin, oxiri bir kuni sabri chidamay xirmonda Doniyorga gap otdi:

– Ustingdagi ko‘ylagingni yechsang bo‘lardi. Yuvib berardim.

Ko‘ylakni soyga olib borib yuvdi-da, quritish uchun yozib qo‘yib, burishgan joylarini tekislagan bo‘lib, ***uni ancha vaqtgacha mehr bilan siladi***. Ko‘ylakning to‘zigan joylarini quyoshga tutib ma’yus tikilar, nimadandir koyingandek boshini chayqab qo‘yardi...

Jamila ish bilan alahsirab, unga sir boy bermaslikka harakat qilardi. Lekin xirmonda qolib, qo‘li ishdan bo‘shadi deguncha, Jamila o‘tirgani joy topolmay kalovlanib qolardi. Bekorchilikdan nima qilarini bilmagan odamdek shu o‘rtada aylanib yurar, so‘ngra xirmon sovurayotganlarning yoniga borar, ularga yordamlashmoqchi bo‘lib, uch-to‘rt kurak g‘alla tashlardi-da, keyin birdan kurakni chetga irg‘itib, somon g‘arami oldiga ketardi. U dam olmoqchi bo‘lgandek g‘aram soyasiga o‘tirardi-yu, go‘yo yakka-yolg‘iz o‘tirishdan qo‘rqqandek meni chaqiradi:

– Bu yoqqa kel, kichkina bola!

Men, yangam hozir menga butun sir-asrorini ochib, yuragidagi dardini aytsa kerak, deb kutardim. Lekin u hech narsa aytmas, erkalatib boshimni o‘z tizzasiga qo‘yardi-da, o‘zi olis-olislarga uzoq tikilgancha qaltiragan issiq kaftlari bilan sochimni, yuzimni sekin-sekin silardi. Men yangamning tashvishli, g‘amgin chehrasiga qarar

ekanman, negadir ***o‘zimni unga o‘xshatardim.*** Chunki uning ham qalbini allaqanday bir hissiyot o‘rtayotganini, uning ham yuragida yangi umid-orzular uyg‘ona boshlaganini sezib qolgandim. Nazarimda, ***Jamila bu otashin hisni qalbidan chiqarib tashlashga urinayotgandek bo‘lardi.*** Biroq o‘z sevgisini tark etolmay, uning barcha zahmatlariga chidashga majbur bo‘lardi. Men ham unga o‘xshab, ***bir ko‘nglim Jamila Doniyorni sevsa yaxshi bo‘lardi,*** desa, bir ko‘nglim, sevmagani yaxshi, derdi. Axir, ming qilsa ham kelinimiz-ku, akamning xotini-ku! Uni birovga qanday ravo ko‘ray! Biroq bu xil fikrlarni darrov xayolimdan chiqarib tashlashga harakat qilardim. Jamilaning tizzasiga bosh qo‘yib yotib, uning sal ochilgan g‘uncha lablariga, yosh to‘la shahlo ko‘zlariga termilib qarash menga dunyo-dunyo rohat bag‘ishlar edi. Jamila o‘shanda naqadar go‘zal, naqadar latofatli edi. Qalbining naqadar pok, beg‘uborligi, o‘y-xayollarining naqadar teran, yorqin ekanligi uning nur yog‘ilib turgan chehrasidan ko‘rinib turardi. O‘sha kezlarda men shularning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rib yurgan bo‘lsam ham, ammo tub mohiyatiga uncha tushunib yetmagan edim. Lekin hozir oradan qancha vaqtlar o‘tib ketganidan keyin o‘sha voqealarni eslab, ko‘pincha o‘zimga o‘zim savol beraman: ***balki sevgi degan narsa inson har tomonlama kamolotga yetib, aql-idroki to‘lgandan keyin paydo bo‘ladigan bir tuyg‘umikin?*** Bu ham shoir yoki rassom ilhomiga o‘xshab ***insonga kuch-qudrat bag‘ishlab, yangi orzu-umidlar, istiqbol sari yetaklovchi bir kuch emasmikin?*** Ehtimol, oshiqlikning butun siri ham shundadir. Jamilaning yuziga qarab, ba’zi paytlarda o‘zim ham hishayajonlariga sherik bo‘lgandek, qandaydir sirli bir narsa yuragimga quvonch bag‘ishlagandek bo‘lar edi. O‘rnimdan sapchib turib, yugurgim kelar, ovul chetidagi keng dalaga chiqib yuragimga g‘ulg‘ula solayotgan tashvish bilan quvonchning siri nimadaligini yer va samodan qichqirib so‘ragim kelardi. Bir kun men bu savolimga javob topgandek bo‘ldim.

Kunlardan birida biz stansiyadan ovulga qaytib kela-

yotgan edik. Qosh qorayib qolgandi. Ko‘kni uning vodiy bo‘ylab yangragan ashulasigina buzardi. Jamila ikkovimiz uning orqasidan borardik. Doniyorning ashulasi bu safar negadir yolg‘izlik dard-alamlarini ifoda qilgandek juda mungli eshitilib, kishi qalbini poralar edi. Ko‘zimga qaynoq yosh kelib, tomog‘imga bir narsa tiqilgandek bo‘ldi. Jamila bu safar qo‘llarini Doniyor tomon uzatib, unga yaqin bordi-da, aravaga suyanib, boshini quyi solganicha indamay ketaverdi. Doniyorning ovozi tobora kuchayib, tungi dashtda yangidan to‘lqinlana boshlaganda Jamila qaddini rostlagancha aravaga sakrab chiqib oldi. U Doniyor bilan yonma-yon o‘tirdi-da, qimirlashdan qo‘rqqandek, qo‘lini ko‘ksiga qovushtirgancha qotib qoldi. Qani, bu yog‘i nima bo‘larkin, degandek, men ham ulardan ko‘zimni uzganim yo‘q. Jamilaning chiqib o‘tirganini Doniyor payqamadi, shekilli, unga qaramay kuylayverdi. Birozdan so‘ng Jamila qo‘llarini asta-sekin Doniyorning yelkasiga tashladi-da, unga suyanib, boshini yelkasiga qo‘ydi. Shunda Doniyorning tovushi bir zum titradi-yu, keyin yana ham kuchayib, qo‘ng‘iroqdek yangradi. U sevgi haqida kuylardi.

Tong otib, gullagan vodiy yuzidan qora parda ko‘tarilganda, men o‘sha keng dala o‘rtasida sevishgan ikki yoshni ko‘rdim.

Ular menga hech nazar solmasalar ham ko‘z ostida qarab, sehrlangandek ergashib borardim. Sevishganlar men bilan ishi bo‘lmay, faqat menigina emas, balki butun borliqni ham unutib yuborgandek, jonga orom beruvchi kuy oqimida chayqalib, bir-biriga termilishib sekin borishardi. Nazarimda, Doniyor bilan Jamila butunlay boshqacha bo‘lib qolgandek edi.

Bular menga ilgari ko‘rmagan-bilmagan qandaydir yangi, baxti kulib boqqan kishilar edi.

Ha, ularning biri ko‘zi qorong‘ida o‘tdek yonib, eski ko‘ylagining yoqasini ochib yuborib, dala-dashtga yangroq kuy taratib borayotgan Doniyor edi.

Ha, ikkinchisi Doniyorga erkalanib jimgina o‘tirgan mening yangam Jamila edi! Uning kipriklarida sevinch yoshlari miltirar, yuzida baxt nuri porlar edi.

Chinakam baxt shu emasmi? Doniyor o‘zidagi ona-Vatanga, yorug‘ dunyoga bo‘lgan otashin, yuksak mehr-muhabbatini ham, ana shu ulug‘ sevgi tug‘dirgan dilrabo kuyni ham Jamilaga tortiq etdi. U Jamila uchun, Jamila haqida kuylardi. Axir, baxt degani shu emasmi?! Ularga yuragimdan baxt-saodat tiladim. Doniyorning kuylari meni yana hayajonga soldi-da, birdan, kutilmaganda miyamga g‘alati bir fikr keldi: «Men ularning suratini chizaman!» – dedim o‘zimcha va go‘yo nodir bir narsa topib olganday o‘zimda yo‘q suyunib ketdim. Lekin shu zahoti o‘z fikrimdan cho‘chib ketdim: «Bu ish mening qo‘limdan kelarmikin, eplay olarmikanman?» Lekin orzu-istak qo‘rquvdan kuchli keldi. «Ha, men ularning suratini albatta chizaman, men ularni xuddi hozirgidek baxtiyor qilib tasvirlayman!» – derdim...

Doniyorning ashulasi birdan nima uchundir uzilib qoldi. Bunday qarasam, Jamila Doniyorni mahkam quchoqlab, uni bag‘riga bosib olgan ekan. Biroq shu zahotiyoq nimadandir cho‘chigandek tisarilib, aravadan sakrab tushdi. Doniyor shoshib qolganidan tizginni tortib aravani to‘xtatdi. Jamila teskari qaragancha yo‘lning qoq o‘rtasida serrayib turib qoldi, so‘ng boshini shartta burdi-da, yig‘i aralash:

– Nega qaraysan? Menda nimang bor? Qarama men-ga, aravangi hayda, jo‘na! – dedi-da, orqada qolgan aravasi tomon ketdi. Men lol bo‘lib, og‘zimni ochib qolgan ekanman, yangam meni ham koyib berdi:

– Xo‘sh, sen-chi, sen nega angrayib turibsan, aravangga min! Boshimga bitgan balo bo‘ldilaring-da!

Albatta, chuqurroq o‘ylagan odam Jamilaning rostdan ham iztirob chekayotganini izohsiz ham tushunar edi: ko‘z ochib ko‘rgan eri Saratov gospitalida yotsa, yaqinda qaytib boraman desa, axir, bu oson gapmi? Men hech narsa to‘g‘risida o‘ylagim kelmasdi. Men o‘zimdan ham, Jamiladan ham xafa bo‘ldim. Agar Doniyorning bundan keyin ashula aytmasligini, uning ovozini boshqa eshitmasligimni aniq bilsam, Jamiladan butun vujudim bilan nafratlangan bo‘lardim...

Lekin ertalab juda xursand bo‘lib turdim, ko‘nglim musaffo tong singari ravshan, quvonchga to‘la edi. Ha, men Jamila bilan Doniyorning suratini chizaman. Lekin «O‘xshata olarmikanman?» degan gumon butun miyamni chulg‘ab olgandi.

... Kechagi ajoyib manzara, Doniyor bilan Jamilaning aravada yonma-yon o‘tirganlari sira ko‘z o‘ngimdan ketmasdi. Go‘yo hayotning eng go‘zal bir lavhasini qo‘limda ushlab turgandek bo‘lardim. O‘sha ajib bir lavha butun fikri-yodimni band qilgan edi. O‘ylagan maqsadimga yetmagunimcha jonim tinch topmaydigandek edi. Xirmondagi hisobchining qalin bir varaq qog‘ozini o‘g‘irlab olib, g‘aram orqasiga yashirib, g‘alla sovuradigan kurak ustiga qo‘yganimda yuragim chiqib ketayotgandek dukillab bo‘g‘zimga tiqildi. Otam meni birinchi marta ot ustiga mingizganidagi kabi «Bismillo!» – dedim-da, qalamni qog‘ozga tekkizdim. Ana-mana deguncha Doniyorning qiyofasini qog‘ozga chiza boshladim. Lekin bu hali mukammal bo‘lmagan, shunchaki o‘rgamchikka chizilgan surat edi. Lekin Doniyorning qomati ancha o‘ziga o‘xshay boshlaganidan boshim ko‘klarga yetib, qayerdaligimni, nima ish qilayotganimni ham unutib qo‘ydim. O‘sha avgust tuni, yastanib yotgan bepoyon dala qog‘oz betida jilolanganidek, Doniyorning dilrabo kuyi hozir ham qulog‘im ostida jaranglab turgandek bo‘ldi. Ko‘z o‘ngimda soldatcha ko‘ylagining yoqasi ochiq Doniyor bilan uning yelkasiga bosh qo‘ygan Jamila gavdalandi. Bu mening umrimda birinchi marta mustaqil chizgan suratim edi! Mana arava, mana yonma-yon o‘tirishgan Doniyor va Jamila, mana bo‘sh tashlab qo‘yilgan tizginlar, mana qorong‘ida sag‘risi zo‘rg‘a ko‘rinib yo‘rtib borayotgan otlar, undan narida biyday dala, uzoq-uzoqlardan yulduzlar miltillaydi... Ishga shunchalik berilib ketibmanki, kimningdir tepamga kelib jahl bilan qichqirganidan hushimga keldim. Qarasam, Jamila ekan:

– Nima balo, kar bo‘lib qoldingmi?

U meni izlab yurgan ekan, shoshganimdan suratimni berkitishga ham ulgurolmay qoldim.

– Bug‘doyni allaqachon yuklab bo‘ldik, bir soatdan beri qichqiramiz-a, ovozing chiqsa-chi!.. Qo‘lingdagi nima? – deb Jamila suratni mendan tortib oldi va «Bu nima qiliq!» deb avzoyi buzilib qog‘ozga termilganicha qoldi.

O‘shanda xijolatdan juda mulzam bo‘ldim. Jamila suratga uzoq tikilib turdi-da, keyin yoshlangan ko‘zlari bilan menga ma’yus boqib:

– Shuni menga bergin-a, kichkina bola! – dedi u sekingina. – Sendan menga yodgor...

Jamila surat solingan qog‘ozni ikki buklab qo‘yniga solib qo‘ydi...

?

1. Qissa matnidan Jamilaning qaynonasi bilan O‘rozmat o‘rtasidagi suhbatni qayta o‘qing. Bu suhbatning Jamila taqdiriga aloqadorlik jihatlari haqida mulohaza yuriting.

2. Onaning Seitga qarata: ***«Hoy bolam, sen nimani bilarding!***» degani ko‘nglingizda qanday fikrlar paydo qildi?

3. Jamila tabiatidagi chol-kampirning cho‘chishiga asos bo‘ladigan xususiyatlar haqida mulohaza yuriting.

4. ***«Jamila»*** qissasidan olingan parchadan Jamila obrazi va xarakterini ochib beradigan qismini qayta o‘qing. Yodingizda qolganicha so‘zlab bering.

5. Jamila bilan Usmon orasidagi suhbatni qayta o‘qing. Jamilaning: ***«Bunday kishilar ko‘ngling-dagini bilarmidi... Buni hech kim bilmaydi»,*** – degan xulosasiga munosabat bildiring.

6. Jamila bilan Doniyorning ko‘ngil izhori sahifasini qayta o‘qing. Ularning bir-birlarini g‘oyibdan sevishlaridagi hamohanglikka munosabat bildiring.

7. Doniyor bilan Jamilaning suratini chizayotgan «kichkina bola» holatini tasavvur qilishga urinib ko‘ring.

8. Sizni shuncha to‘lqinlantirgan asarni bino etgan adibning o‘z qahramonlari tuyg‘ulari va holatini ifodalashdagi mahorati haqida biror narsa deya olasizmi?

9. Qissa va uning qahramoni Jamila haqidagi mulohazalaringizni qog‘ozga tushirib, taqriz-insho yozing.

MUNDARIJA

ONA TILI

So‘zboshi 4

ONA TILIM — JON-U DILIM

Tafakkur va til. 5
So‘z deganda nima tushuniladi 9
Nutqiy faoliyat 12
O‘zbek tilining taraqqiyoti 14
O‘zbek tili – davlat tili 17

TO‘G‘RI YOZISH — SAVODXONLIK ASOSI

Talaffuz va imlo 20
Unli tovushlar talaffuzi va imlosi 20
Qo‘sh unlilar 28
Undosh tovushlar talaffuzi va imlosi 28
Qo‘sh undoshlar 43
Asos va qo‘shimchalar imlosi 45
Qo‘shma va juft so‘zlar imlosi 52
Bosh harflar va qisqartma so‘zlar imlosi 57
Bo‘g‘in ko‘chirilishi 59
Tinish belgilari imlosi 61

SO‘Z ICHRA MUDOM AQL YASHIRINDUR

So‘z tanlash va qo‘llash 70
So‘z ma’nosining taraqqiyoti 72
Ma’nodosh, shakldosh va zid ma’noli so‘zlar tavsifi 75
So‘zlarda hissiy-ta’siriy munosabat ifodasi 80

IFODA ANIQLIGI — FIKR RAVSHANLIGI

Gap va sintaktik aloqa vositalari 83
Kiritma gaplar . . . . . .
Matn turlari 93
Tavsifiy matn 96
Nutq uslublari va ularning imkoniyatlari 110
Matnni kengaytirish yo‘llari 121
Matnni qisqartirish yo‘llari 124

ADABIYOT

So‘zboshi 128

XALQ OG‘ZAKI IJODI – BEBAHO BOYLIK

Rustamxon *(Dostondan parcha)* 129
Nazariy ma’lumot. *Doston haqida* 143

QADIMIY ADABIY YODGORLIKLAR — MA’NAVIYAT DURDONALARI

Avesto 144
Ikkinchi fargard 150
Uchinchi fargard 153
O‘rxun-Enasoy obidalari 155
To‘nyuquq bitigi 159

ILDIZNI BILISH O‘ZLIKNI ANGLASHDIR

Imom Ismoil al-Buxoriy 165
Al-adab al-mufrad 167
Nazariy ma’lumot. *Hadis haqida* 172
Ahmad Yassaviy 173
«Devoni hikmat»dan namunalar 176
Nazariy ma’lumot. *Hikmat haqida* 178
Najmiddin Kubro 180
Ruboiylardan namunalar 184
Jaloliddin Rumiy 186
Ruboiylar 189
Alisher Navoiy 191
«Hayrat ul-abror»dan «Rostlik ta’rifida» 195
Layli va Majnun *(Dostondan boblar)* 200
Nodira. G‘azallardan namunalar 222
«Firoqnoma» 225
Muqimiy 227
G‘azallardan namunalar 229
Hamid Olimjon lirikasi 232
Saida Zunnunova. «Ruh bilan suhbat» 236

XX ASR ADABIYOTI NAMUNALARI

E. Vohidov 245
Ruhlar isyoni *(Dostondan parcha)* 248
O‘. Hoshimov 262
Bahor qaytmaydi *(Qissadan boblar)* 266

A. Oripov 292
Sen bahorni sog‘inmadingmi 294
Birinchi muhabbatim 296
Tohir Malik 298
Alvido, bolalik *(Qissadan parcha)* 300
Muhammad Yusuf 315
Jayron 316
Muhabbat 317
Yangi yil kechasi 318

JAHON ADABIYOTI XAZINASIDAN

Sa’diy Sheroziy 320
G‘azallardan namunalar 321
Hikmatlar 323
J. London 325
Hayotga muhabbat 326
Ch. Aytmatov 340
Jamila *(Qissadan parcha)* 344

ABDUROZIQ RAFIYEV, NAZIRA G‘ULOMOVA

ONA TILI VA ADABIYOT

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik

To‘ldirilgan oltinchi nashr

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2013

Muqovani ishlashda *Ch. Ahmarov* ishlagan suratdan foydalanildi.

Muharrir *N. O‘rolova*
Badiiy muharrir *T. Qanoatov*
Texnik muharrir *R. Boboxonova*
Sahifalovchi *A. Nisanbayeva*

Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011-y.

Tayyor diapozitivdan bosishga ruxsat etildi 22.08.2013. Bichimi 84x108$^{1}/_{32}$. «TimesUZ» garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tabog‘i 15,96. Nashriyot-hisob tabog‘i 15,7. Adadi 5577 nusxa. 3105-son buyurtma.

**«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko‘chasi, 41.**